O‘ZBEK TILI

10

Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablar uchun

O‘QITUVCHILAR UCHUN
METODIK QO‘LLANMA

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr

Toshkent – 2022

UO‘K 811.512.133(072)
KBK 81.2O‘zb
O‘-16

Mualliflar:

Dilafruz Xidoyatova
Nargiza Yuldasheva
Nodira Usmonova
Namoz Rasulov
Yulduz Xasanova
Nurjahon Abdullayeva

Taqrizchilar:

S. Muhamedova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

Z. Xudoyberganova – Bartin universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

N. Alavutdinova – O‘zMU dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi**.**

R. Ismoilov – Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanidagi 2-IDUMning oliy toifali o‘zbek tili fani o‘qituvchisi.

O‘zbek tili [Matn]: 10-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / Dilafruz Xidoyatova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 196 b.

ISBN 978-9943-8829-0-4

UO‘K 811.512.133(072)
KBK 81.2O‘zb

ISBN 978-9943-8829-0-4

© Respublika ta’lim markazi, 2022

MUNDARIJA

I CHORAK. TURIZM

2000 YILLIK TARIX

Asrlar sadosi 5
Renessans 7
Sharq bozorlari 9
Sharq mutafakkirlari 12
Donolar bisotidan 15
Samoga yo‘l 17
Til tarixidan 19
Bu nimani anglatadi? 21
Nechta do‘stim bo‘lishi kerak? 24

QADIMIY ME’MORIY OBIDALAR

Olam mo‘jizalari 29
Muzeylar 30
Yurtimiz muzeylari 33
Ko‘hna va navqiron shaharlar 35
Tarixiy kutubxona 37
Kitob va mutolaa 39

AFSONALAR

To‘maris 41
Shiroq 43
Baobab afsonasi 45
Rivoyatlar 46
Savdo yo‘llari 48
Afsonaviy qush 50
Bermuda uchburchagi 52

II CHORAK. JISM VA RUHIYAT

TEMPERAMENT

Jism va ruh 54
Psixogigiyena 57
Mening temperamentim 59
Kamalak 63
Rang-barang olam 66
Ijtimoiy odoblar 69
Fazilat 71

SHAXSIY GIGIYENA

Salomatlik va gigiyena 75
Sog‘lom mahsulotlar 78
Talab va taklif 80
Mening kunim 82
Sanitariya 85
Tabobat 88
Parhez 90
“Avitsenna usuli” 93
Bu qiziq 96

III CHORAK. O‘ZBEKCHA

SHARQ TARONALARI

Xalq dostonlari 99
Baxshichilik 102
Sharq taronalari 105
Musiqa va men 108
Sato 111
O‘zbekcha kuylayman 113
Adabiyot 115
Bizning kino 117
Teatr san’ati 120
Nabiramga xat 122

TOPIB GAPIR!

O‘zbekcha o‘zgacha 125
Qiziqarli lug‘atlar 128
Idiomalar 131
Qiziq gaplar 132
Ibora 134
Jargonlar 136
Mening sarguzashtlarim 138
Do‘stimga xat 140

SPORT — KECHA VA BUGUN

Sport – hayot, quvonch, sog‘liq
Antiqa sport turlari 144
Zehn g‘alabasi 146
Milliy kurash 148
Ko‘pkari 150
Olimpiada 152
Paralimpiya o‘yinlari 154

IV CHORAK. DALIL VA ISBOT

BU – FAKT!

G‘aroyib fauna 156
H_2O 159
Oliyjanob tadbirkor 161
Faktlar haqida faktlar 164
Muvaffaqiyatli biznes 166
Dunyoga tanilgan ishbilarmonlar 168
Zamon qahramonlari 171
Antiqa mashg‘ulotlar 173
O‘zgaruvchan dunyo 175
Startap 177

INSON HUQUQLARI

Huquqni bilgan qoqilmas 180
Ombudsman 182
Kuch – adolatda 184
Mening huquqlarim 186
Qonunlar nima uchun kerak? 188
Men haqimda 189
Iste’molchi huquqi 191
Raqamlar 192
Turfa olam 194

I CHORAK. TURIZM

2000 YILLIK TARIX

ASRLAR SADOSI

Maqsad: mavzu doirasida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda ifodalay olish, audiomatn va faktologik matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta so‘zlay olish, savollarga to‘liq javob bera olish.

Refleksiya: 2000 yillik tarix haqida savol-javob o‘tkazing, mavzu yuzasidan suhbatlashing

Vazifalar:

1. Savol yuzasidan sinfda suhbat o‘tkazing, o‘quvchilarni mavzu doirasida ko‘proq gapirtiring.

2. Berilgan matn asosida nomlarni toptiring.

Astronomik muassasa (2)

Bayt-ul-hikma (1)

Tibbiyot ensiklopediyasi (3)

Zardushtiylik (4)

3. Nuqtalar o‘rniga tegishli ko‘rsatkichlarni qo‘ydirib, yozdiring.

1. Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi buyuk shaxslar jahon sivilizatsiyasiga hissa qo‘shgan .

2. “Tib qonunlari” dunyo tabobati haqida ma’lumot beruvchi qimmatli manbalardan biri hisoblanadi.

3. “Avesto” kitobida yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash aks etgan.



2000 yillik tarix

MAVZU **Asrlar sadosi**

1 **O‘qing.**

O‘zbekiston 2000 yil avval qanday bo‘lgan deb o‘ylaysiz?

2 **O‘qing. O‘ylang va toping. Gapiring.**

Ma’mun akademiyasi – IX asrning 1-yarmida xalifa Ma’mun ar-Rashid tomonidan Bag‘dodda tashkil etilgan ilmiy markaz. Dastlab “Bayt ul-hikma” deb atalgan. Rasadxonaga dastlab marvlik Yahyo ibn Mansur, keyinchalik Muhammad al-Xorazmiy rahbarlik qilgan. Ma’mun akademiyasida turli maqsadlarda ilmiy ekspeditsiyalar ham tashkil qilingan.

1

2

“Avesto” – jahon madaniyatining, jumladan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligi. U bir necha ming yil oldin yaratilgan. “Avesto” kitobi to‘rt qismdan: “Yasna”, “Yasht”, “Visparad” va “Vendidad”dan iborat.

3

“Tib qonunlari” – Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotga oid asari. “Tib qonunlari” o‘z davri tabobatining mufassal ensiklopediyasi bo‘lib, unda inson salomatligiga oid masalalar to‘la bayon etilgan. Ibn Sino tabobatni ilm darajasiga ko‘tardi, uni yunon, rim, hind tabiblarining tajribalariga tayanib, “Tib qonunlari”da aks ettirdi.

4

Ulug‘bek rasadxonasi – Samarqanddagi XV asr me’morchiligining nodir namunalaridan biri. U ko‘hna astronomik kuzatuv muassasasi bo‘lgan. Ulug‘bek rasadxonasining arxeologik qoldiqlari 1908-yilda Vasiliy Vyatkin ekspeditsiyasi tomonidan topilgan.

Mufassal – to‘liq, batafsil

5

4. Alisher Navoiy ko‘plab she’riy to‘plamlar, nasriy asarlar hamda ilmiy risolalar muallifidir.

5. Zahiriddin Muhammad Bobur boshqa mamlakatlarda yashagan bo‘lsa ham, lekin o‘z yurti haqida asarlar yozgan.

4. Nuqtalar o‘rniga tegishli ko‘rsatkichlarni qo‘ydirib, yozdiring.

1. Anvar sayohatni Samarqanddan boshladi va Amir Temur maqbarasini ziyorat qildi.

2. Men “Navoiy” romanini o‘qimoqchiman, chunki bu roman asosida olingan filmni ko‘rdim.

3. Men bugun do‘stim bilan kutubxonaga bormoqchi edim, ammo do‘stim kechikyapti.

4. Men kelajakda arxeolog bo‘lmoqchiman, shuning uchun tarix fanini chuqurroq o‘rgana boshladim.



Namuna. Astronomik muassasa (4)

“Bayt ul-hikma” ( )
Tibbiyot ensiklopediyasi ( )
Zardushtiylik ( )

3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘zlar: *va, haqida, kabi, lekin, hamda.*

1. Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy ... buyuk shaxslar jahon sivilizatsiyasiga hissa qo‘shgan.
2. “Tib qonunlari” dunyo tabobati ... ma’lumot beruvchi qimmatli manbalardan biri hisoblanadi.
3. “Avesto” kitobida yaxshilik ... yomonlik o‘rtasidagi kurash aks etgan.
4. Alisher Navoiy ko‘plab she’riy to‘plamlar, nasriy asarlar ... ilmiy risolalar muallifidir.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur boshqa mamlakatlarda yashagan bo‘lsa ham, ... o‘z yurti haqida asarlar yozgan.

4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘zlar: *va, hamda, lekin, ammo, biroq, chunki, shuning uchun*

Namuna. Anvar sayohatni Samarqanddan boshladi. U Amir Temur maqbarasini ziyorat qildi.
Anvar sayohatni Samarqanddan boshladi va Amir Temur maqbarasini ziyorat qildi.

1. Men “Navoiy” romanini o‘qimoqchiman. Bu roman asosida olingan filmni ko‘rdim.
2. Men bugun do‘stim bilan kutubxonaga bormoqchi edim. Do‘stim kechikyapti.
3. Men kelajakda arxeolog bo‘lmoqchiman. Tarix fanini chuqurroq o‘rgana boshladim.

5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Shuni doimo yodingda tutki, _____.
Shuni doimo yodingda tutki, bilim muvaffaqiyat kalitidir.

1. Shunga ishonamanki, _____.
2. Umidimiz shuki, _____.
3. Shunday yashaylikki, _____.
4. Shuni bilib oldimki, _____.

Mustaqil topshiriq

Biror buyuk shaxs haqida (50–100 so‘zdan iborat) ma’lumot yozing.

O‘tmish	Ma’mun	Ibn Sino	_____
Bugun	Harvard	_____	Ilon Mask

6

5. Berilgan qo‘shma gap qoliplaridan foydalangan holda o‘quvchilar gaplarni mustaqil davom ettirishadi.

Masalan:

1. Shuni doimo yodingda tutki, *bilim muvaffaqiyat kalitidir.*
2. Shunga ishonamanki, u chempion bo‘ladi.
3. Umidimiz shuki, u dunyo tanigan shifokor bo‘lsa.
4. Shunday yashaylikki, barcha havas qilsin.
5. Shuni bilib oldimki, men hali ko‘p o‘qishim kerak.

Mustaqil topshiriq. Biror buyuk shaxs haqida (50–100 so‘zdan foydalanib) ma’lumot yozib kelishsin hamda quyida keltirilgan zamonamiz qahramonlari bilan o‘tmishdagi olimlarni bir-biriga taqqoslashsin.

O’tmish	Bugun
Ma’mun	Harvard
Ibn Sino	…
…	Ilon Mask

RENESSANS

Maqsad: Mavzuga oid faktologik matnlarni o‘qiganda, eshitganda undagi detallarni tushunish.

Refleksiya: “aktivator 3, 2,1” metodi orqali o‘quvchilarning oldingi chorakda o‘tilgan mavzular bo‘yicha 3 ta yodda qolgan, 2 ta muhim bo‘lgan, 1 ta hayotida qo‘l keladigan ma’lumot savoliga og‘zaki yoki yozma javob berishlarini ta’minlash.

Vazifalar:

1. Berilgan matnni o‘quvchilarga ikki marotaba yaxshilab o‘qiting.

2. Berilgan savollarga yuqorida keltirilgan matn asosida o‘quvchilardan javob oling va suhbatlashing.

O‘quvchilarga o‘tgan zamon fe’llari haqida ma’lumot bering va tushuntiring.

Diqqat qiling!

Men bor(moq) -dim. Sen bor(moq) -ding. U bor(moq) -di.	Biz bir(moq) -dik. Siz bor(moq) -dingiz. Ular bor(moq) -dilar.

yetishtirib bermoq asos solmoq tarjima qilinmoq to‘plamoq yaratmoq	vujudga keltirmoq o‘girilmoq tayyorlamoq yig‘moq tashkil qilmoq

3. Berilgan so‘z va so‘z birikmalarining sinonim juftini toptiring va yozdiring.

yetishtirib bermoq – tayyorlamoq

asos solmoq – tashkil qilmoq

tarjima qilinmoq – o‘girilmoq

to‘plamoq – yig‘moq

yaratmoq – vujudga keltirmoq



MAVZU **Renessans**

1 O‘qing.

Uyg‘onish davri (Renessans) – dastlab Italiyadagi madaniy-ma’rifiy yuksalishga nisbatan qo‘llangan, uni o‘rta asrdan yangi davrga o‘tish bosqichi deb baholashgan. Renessansning asosiy alomatlari: tafakkurda va ilmda jaholatni yorib o‘tib, insonning iste’dodi va hurfikrliligini yuzaga chiqarish, inson erki uchun kurashish bo‘lgan.

Bu davrda Italiyada shoirlar – Petrarka va Dante, rassom Jotto, adib va mutafakkir Bokkachcholar Renessans g‘oyalarining dastlabki ijodkorlari bo‘lishgan. Keyinchalik Mikelanjelo, Rafael, Sheksplrlar Yevropaning turli mamlakatlarida buni davom ettirdi. Ammo Renessans faqat Yevropa hodisasi emas. Dunyo madaniyatini o‘rgangan olimlarning ishlari shuni ko‘rsatadiki, Osiyoda Italiyaga nisbatan bir necha asr oldin ulkan madaniy yuksalish yuzaga kelgan. Ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ularda insonparvarlik g‘oyalari ilgari surilgan. Sharq Uyg‘onish davri ham ulug‘ allomalar, qomusiy olimlar va mashhur mutafakkirlar yetishtirib chiqardi. Bu davrda Osiyoda Farg‘oniy, Forobiy, Firdavsiy, Beruniy, Ibn Sino, Rumiy, Navoiylar ijod qilishgan.

Sharqda ham, G‘arbda ham Uyg‘onish davri insoniyat taraqqiyotining muhim davri bo‘lgan. Bu davr ijodkorlarining ilmiy va adabiy asarlari hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

2 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Daho deganda qanday inson ko‘z oldingizga keladi?
2. Qadimda ham olimlar tarjima bilan shug‘ullanishganmi?
3. Uyg‘onish davri olimlari ilmiy ma’lumotlarni qaysi manbalardan olgan deb o‘ylaysiz?
4. Siz bugungi kunda ilmiy tadqiqot uchun qaysi mamlakatga borgan bo‘lardingiz?

Men	bormoq + di	-m	Biz	bormoq + di	-k
Sen		-ng	Siz		-ngiz
U		-	Ular		-lar

7

4. Berilgan terminlarning izohini toptiring va yozdiring.

№	Tushuncha	Tahlil
1.	Alloma	Falsafa ilmi, dunyoqarash muammolari bilan shug‘ullanuvchi olim, mutaxassis.
2.	Mutafakkir	Ilm-fanning bir yoki bir necha sohasini mukammal egallagan shaxs, olim.
3.	Faylasuf	Fikr yurituvchi, chuqur falsafiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan kishi, tafakkur egasi
4.	Kashfiyotchi	Yangilik yaratuvchi, kashf qiluvchi; ixtirochi.

5. Berilgan matn elektron dastur orqali ikki marotaba eshittiriladi yoki o‘qituvchi kitobidan o‘qib beriladi.

Al-Farg‘oniy Farg‘ona vodiysining Quva qishlog‘ida tug‘ilgan. Bo‘lajak olim 15 yoshida matematika va astronomiyani o‘rganish uchun Bag‘dodga yo‘l oladi. U yerda yunon olimlarining asarlarini tarjimasiz o‘qish uchun yunon tilini o‘rganadi.

Ahmad al-Farg‘oniyning 8 ta asari ma’lum. Bu kitoblarning har birida astronomiyaga oid yangi, qimmatli fikrlar aytilgan. Ularning ayniqsa ikkitasi jahon astronomlariga ma’lum va mashhurdir. Biri – “Samoviy harakatlar va umumiy astronomiya kitobi”. Ushbu asar “Astronomiya asoslari haqidagi kitob” nomi bilan ham ma’lum bo‘lib, 1145- va 1175-yillarda Yevropada lotin va ivrit tillariga tarjima qilingan. Shundan so‘ng al-Farg‘oniy nomi lotinchalashtirilib, “Alfraganus” shaklida G‘arbda shuhrat topgan.

Olimning “Astronomiya asoslari haqidagi kitob” asaridan Yevropa universitetlarida bir necha asrlar davomida astronomiya fani bo‘yicha asosiy darslik sifatida foydalanilgan, chunki bu kitob o‘sha zamondagi astronomiya bo‘yicha eng muhim va zarur bilimlarni o‘z ichiga olgan. Uning geografiyaga oid bo‘limi Yer yuzidagi mamlakat va shaharlar haqida eng boshlang‘ich va zaruriy bilimlarga bag‘ishlangan bo‘lib, “Yerdagi ma’lum mamlakatlar va shaharlarning nomlari va har bir iqlimdagi hodisalar haqida” deb atalgan.

1. Al-Farg‘oniy Samarqandda tug‘ildi. **Noto‘g‘ri**



3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. VIII asr oxiri – IX asr boshida Bag‘dodda ilm-fan rivojlandi, qadimgi yunon olimlari: Aflotun, Arastu, Suqrot, Hippokrat, Galen, Yevklid asarlari arab tiliga (tarjima qilindi) *o‘girildi.*

yetishtirib bermoq	vujudga keltirmoq
asos solmoq	o‘girilmoq
tarjima qilinmoq	tayyorlamoq
to‘plamoq	yig‘moq
yaratmoq	tashkil qilmoq

4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Kashfiyotchi – *yangilik yaratuvchi, kashf qiluvchi; ixtirochi.*

№	Tushuncha	Izoh
1	Alloma	Fikr yurituvchi, chuqur falsafiy fikrlash iste’dodiga ega bo‘lgan kishi, tafakkur egasi.
2	Mutafakkir	Yangilik yaratuvchi, kashf qiluvchi; ixtirochi.
3	Faylasuf	Ilm fanning bir yoki bir necha sohasini mukammal egallagan shaxs, olim.
4	Kashfiyotchi	Falsafa ilmi, dunyoqarash muammolari bilan shug‘ullanuvchi olim, mutaxassis.

5 **Tinglang. Yozing.**

1. Al-Farg‘oniy Samarqandda tug‘ildi.
2. U yunon olimlarining asarlarini o‘qish uchun yunon tilini o‘rgandi.
3. Al-Farg‘oniyning asarlari lotin va ibroniy (ivrit) tillariga tarjima qilingan.
4. Olimning “Astronomiya asoslari haqida kitob”idan Yevropa universitetlarida matematika fani bo‘yicha darslik sifatida foydalanilgan.
5. “Astronomiya asoslari haqida kitob” asarida geografiyaga oid bo‘lim ham bor.

Mustaqil topshiriq

“Al-Xorazmiy va algebra” mavzusida ma’lumot to‘plab, ulardan matn tuzing. Matn kamida 50 ta so‘zdan iborat bo‘lsin.

8

2. U yunon olimlarining asarlarini o‘qish uchun yunon tilini o‘rgandi. **To‘g‘ri**

3. Al-Farg‘oniyning asarlari lotin va ivrit tillariga tarjima qilingan. **To‘g‘ri**

4. Olimning “Astronomiya asoslari haqida kitob”i Yevropa universitetlarida matematika fani bo‘yicha darslik sifatida foydalanilgan. **Noto‘g‘ri**

59. “Astronomiya asoslari haqida kitob” asarida geografiyaga oid bo‘lim ham bor. **To‘g‘ri**

Mustaqil topshiriq. “Al-Xorazmiy va algebra” mavzusida ma’lumotlar to‘plab, ulardan matn tuzing. Matn kamida 50 ta so‘zdan iborat bo‘lsin.

SHARQ BOZORLARI

Maqsad: o‘tgan zamon fe’llarini faol nutqiy ko‘nikmada ishlata olish, mavzuga oid faktologik matnlarni o‘qiganda, tinglaganda ularni tushunish, qayta so‘zlab, tushuntirib bera olish, matn va ma’lumotlar asosida savollarga javob bera olish.

Refleksiya: o‘tgan zamon fe’li haqida suhbat o‘tkaziladi, o‘quvchilar Sharq bozorlari haqida, ular to‘g‘risida topgan faktlari haqida so‘zlab berishlari, bunda imkon qadar o‘tgan zamon fe’llarini qo‘llashlari kutiladi.

Vazifalar:

1. Berilgan mavzu matnini o‘qiting va shu asosida gapirtiring.

2. Yuqoridagi matn asosida o‘quvchilar bilan savol-javob tashkil qiling.

3. Ekobozor, Maishiy texnika do‘koni, Supermarket – berilgan ushbu terminlar izohini o‘quvchilardan so‘rang va yozdiring. Shular asosida suhbatlashing.

MAVZU

Sharq bozorlari

1 O‘qing va o‘ylang. Gapiring.



Sharq mamlakatlari xalqlari, xususan, bizning yurtdoshlarimiz hayotida bozorlar muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonning har bir shahri, har bir tumanining o‘z bozori bor. Ayrim hududlarda hatto o‘nlab bozorlar bo‘lib, ularda savdo-sotiq, sayr-u sayohatning ko‘p asrlik madaniyati shakllanganki, bu ham milliy qadriyatning bir ko‘rinishi hisoblanadi.



Katta bozor (Istanbul)

Bu bozor nafaqat Turkiyada, balki dunyodagi eng yirik bozor nomiga da’vogarlik qilishi mumkin. 30 ming kvadrat metr maydonda joylashgan 4 mingdan ortiq do‘konlarda haqiqatan ham savdo qaynaydi. Bu bozorni bemalol muazzam shaharning osori atiqalaridan biri deb atasa bo‘ladi. Sababi bu bozorga ayrim kunlari 500 mingdan ortiq kishi tashrif buyuradi, bir yilda tashrif buyuruvchilar soni 90–100 mln kishini tashkil qiladi.

Maishiy buyumlar, shirinliklar, kiyimlar – xayolga kelgan va kelmagan hamma narsani xarid qilish mumkin bo‘lgan bu bozor shaharning 60 dan ortiq ko‘chalari bo‘ylab kengayib, cho‘zilib ketgan. Qadam-baqadam yiriklashib borishi tufayli uning ichida favvoralar, mehmonxonalar, uylar, restoranlar, masjidlar va hatto qabriston ham bor.

O‘tgan zamon fe’lining **-gan** shakli haqida o‘quvchilarga ma’lumot bering.

Diqqat qiling!

Men	-man	Biz	-miz
Sen sotib ol(moq) (-gan)	-san	Siz sotib ol(moq) (-gan)	-siz
U	-	Ular	-lar

4. Berilgan gaplarni kerakli qo‘shimchalar bilan tiklating.

1	Chorsu bozorlari atrofida tuya karvonlari uchun joylar bo‘l…		-gan
2	Qadimda yurtimizda tungi bozorlar bo‘l… va ular “Bozori shab” deyil…		-gan
3	Biz bugun oilaviy xaridlar uchun supermarketga tashrif buyur…	-dik	
4	Sharq bozorlari atrofida karvonsaroy, novvoyxona va oshxonalar muntazam ishlab tur…		-gan
5	Yaqinda bizning ko‘chamizda “Ekobozor” ochil…	-di	
6	Bozorlar zamonaviy savdo majmualari oldida o‘z ahamiyatini yo‘qotma…	-di	

5. Tarkibi o‘zgargan harflarni o‘z o‘rniga qo‘yib, so‘zlar hosil qildiring.

1) avrokn - karvon
2) aybida - adabiy
3) anmazar - manzara
4) avdtal - davlat
5) ichroily – chiroyli

6. Berilgan matn elektron dastur orqali ikki marotaba eshittiriladi yoki o‘qituvchi kitobidan o‘qib beriladi.

Toshkent Buyuk ipak yo‘lida joylashgan O‘rta Osiyoning qadimiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’rifiy markazlaridan biri bo‘lgan. Shahar muhim geografik nuqtada – Sharq va G‘arb mamlakatlari bilan savdo-sotiq yo‘lida joylashganligi sababli bu yerga har yili yuzlab savdo karvonlari kelib turgan.

Toshkentni istilo qilishda qatnashgan rus rassomi V. Vereshchaginning yozishicha, «Men ko‘rgan Sharq shaharlarining hech birini kengligi jihatidan tosh-



Marokash bozori (Marokash)

Marokashdagi Marokash bozorida haqiqiy Sharq ertaklaridagi muhitni his qilish mumkin. Go‘yoki asrlar bu bozorni chetlab o‘tgandek, kelajak ham tarixni, albatta, kutib oladigandek tasavvur uyg‘onadi. Marokashga kelgan sayyoh bu bozorni aylanmay qaytmaydi. Ayniqsa, bozor o‘zining xushbo‘y ziravorlari bilan nom qozongan va butun rastalar bo‘ylab ularning ifori aylanib yuradi. Shuningdek, bo‘taloq junidan tayyorlangan nafis matoli liboslar bozor ramziga aylangan.

Pekin oziq-ovqat bozori (Xitoy)

Dunyoning eng yirik bozori nomiga bemalol da’vogar bo‘ladigan, rasmiy nomi juda uzun – “Pekin Sinfadi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ulgurji bozori” bo‘lgan bu savdo majmuasi oz emas, ko‘p emas, 548 gektar maydonni egallagan. Pekindek ulkan shaharning oziq-ovqatga bo‘lgan talabining 70 foizidan ortig‘ini qondiruvchi bu maskanda tun-u kun savdo tinmaydi.

2 **Savollarga javob bering. Yozing.**

1. Nima Marokash bozorining ramziga aylangan?
2. Marokash bozorida nimaning iforini sezish mumkin?
3. 30 ming kvadrat metr maydonga ega dunyoning eng yirik bozori qayerda joylashgan?
4. Istanbuldagi eng yirik bozorda uylar, mehmonxonalar, restoranlar bilan bir qatorda noodatiy qanday joy bor?
5. Nomi eng uzun oziq-ovqat bozori qayerda joylashgan?

3 **O‘ylang va toping. Gapiring.**

Zamonaviy bozorlar

Supermarket | Maishiy texnika do‘koni | Ekobozor

10

kentliklarning bozoriga tenglashtirib bo‘lmaydi. Undagi do‘konlar kichkina bo‘lsa-da, son-sanoqsiz. Aytish qiyin, Toshkentda do‘kondorlik hunari bilan shug‘ullanmaydigan biron-bir kishi bormikan? Tushda bozor rosa qiziydi, savdo ishlari yanada jonlanadi, odam juda tiqilinch bo‘lib ketadi, ko‘chalarda eshak, ot va tuyalarning ko‘pligidan yurish qiyinlashadi…»

“Umuman savdo masalasiga kelsak, – deb yozadi Vereshchagin, – Toshkentning raqibi yo‘q. U O‘rta Osiyoning asosiy savdo yo‘li ustida joylashgan bo‘lib, Buxoro va Qo‘qondan Rossiyaga va aksincha o‘tadigan karvonlar to‘xtab o‘tadigan shahardir”.

1813-yili Toshkentda bo‘lgan elchi Filipp Nazarov esa shaharni turli mamlakatlardan tinmay karvonlar kelib-ketadigan yirik savdo punkti deb ta’riflaydi.



Men -man
Sen sotib olmoq + gan -san
U -
Biz -miz
Siz sotib olmoq + gan -siz
Ular -lar

4 **O‘ylang va toping. Gapiring.**

Namuna. Chorsu bozorlari atrofida tuya karvonlari uchun joylar *bo‘lgan.*

1	Qadimda yurtimizda tungi bozorlar bo‘l___ va ular “bozori shab” deyil___.
2	Biz bugun oilaviy xaridlar uchun supermarketga bor___.
3	Sharq bozorlari atrofida karvonsaroy, novvoyxona va oshxonalar muntazam ishlab tur___.
4	Yaqinda bizning ko‘chamizda “Ekobozor” ochil___.
5	Bozorlar zamonaviy savdo majmualari oldida o‘z ahamiyatini yo‘qotma___.

5 **O‘ylang va toping. Gapiring.**

Namuna. vsaod – *savdo.*

1. avrokn
2. aybida
3. anmazar
4. avdtal
5. ichroily

6 **Tinglang.**

7 **Savollarga javob bering.**

1. “Men ko‘rgan Sharq shaharlarining hech birini kengligi jihatidan toshkentliklarning bozoriga tenglashtirib bo‘lmaydi”. Ushbu gap muallifi kim va u yana qanday fikrlar bildirgan?
2. 1813-yili Toshkentda bo‘lgan elchi Filipp Nazarov bozorlar haqida qanday fikr bildirgan?
3. Buyuk ipak yo‘lida joylashgan qaysi bozorlarni bilasiz?

Mustaqil topshiriq

Bozorlarda sotuvchi va xaridor o‘rtasida “rozi bo‘ling”, “barakasini bersin”, “kami yo‘q” kabi birikmalar ko‘p ishlatiladi. Siz shu kabi birikmalardan yana qaysilarini bilasiz? Misollar yozib keling.

11

Rus tarixchisi V. Masalskiy Eskishahar bozorining 1908–1910-yillardagi ko‘rinishini quyidagicha tasvirlaydi: “Bir qismi timdan iborat bozorda 4500 ta do‘kon, choyxona, oshxona, ustaxona va karvonsaroy borki, ular bozor kunlari nihoyatda tiqilinch bo‘ladi. Bozorga tutashgan ko‘chalar va bozorning o‘zi shaharliklar, daladan kelgan dehqonlar, tuya karvonlari, otliqlar, aravalar bilan shu qadar to‘lib ketganki, yurishga iloj bo‘lmay qoladi. Allof-u qandolatchi, kallapaz-u kabobpaz, bazzoz-u somsapaz, miskar-u chilangar, novvoy-u holvafurushlarning baqiriq chaqirig‘i, gadolarning xayr-u sadaqa tilashi, qalandar-u maddohlarning qiroatli o‘qishlari, tuyalarning bo‘kirishi-yu eshaklarning hangrashi aralash-quralash bo‘lib ketadi-da, bu mahobatli gulduros bozordan olis-olislargacha eshitilib turadi”.

7. Berilgan savollarga o‘quvchilardan javob oling hamda matn asosida suhbatlashing.

Mustaqil topshiriq. Bozorlarda sotuvchi va xaridor o‘rtasida “rozi bo‘ling, barakasini bersin, kami yo‘q” kabi birikmalarni yozib kelishi haqida topshiriq bering.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI

Maqsad: mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma nutqda ifodalay olish, matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta hikoya qila olish, og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri, o‘rinli ishlata olish.

Refleksiya: o‘quvchilar bilan o‘tgan zamon fe’llari, ularning hosil bo‘lishi haqida suhbat yuritiladi, o‘rganilgan qiziqarli faktlar haqidagi fikrlari so‘raladi.

Vazifalar:

1. Berilgan mavzu matnini o‘qiting va shu asosida gapirtiring.

2. Berilgan savollarga o‘quvchilardan javob oling hamda matn asosida suhbatlashing.

3. Matn elektron dastur orqali yoki o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi.

Abu Abdulla Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy yoshligidan ilm-fanga, ayniqsa, *tabiiy fanlarni* o‘rganishga qiziqdi. Arab, fors, hind, *yunon tillarini* mukammal o‘rgandi. O‘qigan, o‘rganganlari asosida bir necha fanlarga doir yirik, *qimmatli* asarlar yaratdi. Uning arifmetika va algebraga doir “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala” (“To‘ldirish va qarama-qarshi qo‘yish haqida qisqacha kitob”) asari matematika fanida yangi davrni boshlab beribgina qolmay, balki uning keyingi asrlardagi taraqqiyotiga ham katta asos bo‘ldi.

Al-Xorazmiyning “Al-jabr va al-muqobala” asari keyinchalik Yevropada “Algebra” deb yuritila boshlandi. Bu fanga mol va yerni o‘lchash, kimga qancha qism tegganligini aniqlash, ariq, anhor qazish va bu ishlarni bajarganlar mehnatiga tegishli haq to‘lash kabi qator masalalarni hal qilish borasida zarurat tug‘ilgan. Al-Xorazmiyning matematikaga oid ikkinchi asari “Hind arifmetikasi haqida kitob” bo‘lib, bu asar tufayli avval



MAVZU **Sharq mutafakkirlari**

1 O‘qing.

MUHAMMAD IBN MUSO AL-XORAZMIY

Ilm-fan taraqqiyotida sonlar va arifmetik amallar qanday o‘rin tutishi hammaga ravshan. Ularsiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur ham qilib bo‘lmaydi. Chunki oddiygina kundalik hayotimizda foydalanayotgan mobil telefonlar, kompyuter va boshqa maishiy texnikalar mexanizmi, undagi axborotlar pozitsion sanoq sistemasidagi raqamlar asosida kodlanadi. Bu raqamli tizim bugungi kunda yer yuzidagi barcha elektron qurilmalar yaratilishiga asos bo‘lgan. Endi ayting-chi, bugungi taraqqiyotda buyuk ajdodimizning hissasi borligini bilasizmi?

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy 783–850-yillarda yashagan buyuk matematik, astronom, geograf va ilm-fan tarixidagi ilk qomusiy olimlardandir. Jamiyatning oddiy unsurlariga aylanib qolgan sonlarni o‘nlik sanoq sistemasida yozish va ular ustida arifmetik amallarni bajarish qoidalari Xorazmiyning “Arifmetika” asari orqali joriy qilingan. Shuning uchun Xorazmiyni insoniyatga arifmetikani o‘rgatgan ustoz deb hisoblash mumkin. U algebra faniga asos soldi: bu atama uning “Al-jabr val-muqobala” asari nomidan olingan. “Algoritm” deb nom olgan aniq va tushunarli qoidalarni ishlab chiqdi va yo‘lga qo‘ydi. Lotin tilida “algoritm” tushunchasi – *algorithmi*, ya’ni al-Xorazmiy nomidan olingan. Algoritm zamonaviy raqamli axborot va kompyuter texnologiyalarining asosini tashkil qiladi. Bundan tashqari, olimning astronomiya va geografiyaga oid asarlari ham mavjud. Bundan 12 asr oldin yozilgan uning bebaho asarlaridan hozirgi kunga qadar butun dunyo ta’lim sohasida foydalaniladi.

2 O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Tasavvur qiling: raqamlar 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 0 ko‘rinishda bo‘lmaganda, qanday bo‘lardi?
2. Xorazmiy kabi fanga yangilik olib kira olgan olimlardan kimlarni bilasiz?

3 Tinglang. O‘ylang va toping. ✓ ✗

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy yoshligidan ilm-fanga, ayniqsa, ijtimoiy fanlarni o‘rganishga qiziqdi.
2. “To‘ldirish va qarama-qarshi qo‘yish haqida qisqacha kitob” asari fizika fani uchun katta manba hisoblanadi.
3. Al-Xorazmiyning “Al-jabr val-muqobala” asari keyinchalik Yevropada “Algebra” deb yuritila boshladi.
4. Al-Xorazmiyning matematikaga oid ikkinchi asari “Hind arifmetikasi haqida kitob” deb nomlanadi.
5. “Hind arifmetikasi haqida kitob” asari o‘z davrida fors tiliga o‘girilgan.
6. “Quyosh soatlari to‘g‘risida risola”, “Tarix risolasi”, “Musiqa risolasi” singari ajoyib asarlari olimga katta shuhrat keltirdi, uning nomini abadiylashtirdi.

12

Sharq, so‘ngra Yevropa xalqlari o‘nli pozitsion hisoblash tizimi bilan tanishdilar. Ushbu asar XII asrda lotin tiliga o‘girilgan.

Al-Xorazmiy ijodida geografiya fani ham muhim o‘rin tutadi. U tarixda birinchilardan bo‘lib Amudaryo va Sirdaryoning Orol dengiziga quyilishini isbotlagan. Xorazmiyning “Kitob surat al-ard” (“Yerning surati”) asari geografiyaga, “Astronomik jadvallar” astronomiyaga oid bo‘lib, ular muallifning nomini jahonga yoydi. Shuningdek, “Quyosh soatlari to‘g‘risida risola”, “Tarix risolasi”, “Musiqa risolasi” singari ajoyib asarlari olimga katta *shuhrat* keltirdi, uning *nomini abadiylashtirdi.* Uning astronomiyaga oid asari esa faqat Sharqda emas, balki G‘arbda ham bu fan rivojida katta rol o‘ynadi.



4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘z va birikmalar: *Amir Temur, harbiy qo‘riqchilar, ilm-u fan taraqqiyotida, bekatlari, mintaqamizni, karvonsaroylar, bunyod etilgan, Amir Temur va temuriylar.*

1. Qadimda Buyuk ipak yo‘li ___ dunyo bilan bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘tagan.
2. ___ Buyuk ipak yo‘liga o‘zaro hamkorlik, hamjihatlik, do‘stlik asoslaridan biri sifatida qaraganlar.
3. ___ davrida Buyuk ipak yo‘lining ___ ta’mirlangan va ba’zi yerlarda yangilari ___. Yo‘llarda karvonlarning dam olishini ta’minlovchi ___ qurilgan. Bu karvonlarni mahalliy hokimliklar tomonidan qo‘yilgan ___ himoya qilib, bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazib qo‘ygan.
4. Buyuk ipak yo‘li ___ ham muhim o‘rin tutgan.

5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. 1. Ibn Sino aql deganda insonning tug‘ma iste’dodini, *shuningdek, tajriba asosida va bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi.*

1	Ibn Sino aql deganda insonning tug‘ma iste’dodini,	bilimdon bo‘ladi, chinakam insoniy go‘zallikka erishadi.
2	Mahmud Koshg‘ariyning fikricha, bola astasekin hunar o‘rganib, hayotdan ta’lim olib,	ota-onaning yuzi shunchalik yorug‘ bo‘ladi”.
3	Alisher Navoiy tarbiyada insonning o‘z-o‘zini tarbiyalashiga,	xatosi yo‘qoladi.
4	Mahmud Koshg‘ariy: “Farzand qanchalik bilimli, aqlli, hushli bo‘lsa,	xato va kamchiliklarini anglab tuzatishiga e’tibor beradi, yanglish va xato kishilik shartidir.
5	Navoiyning ta’kidlashicha, kimki e’tirof tomon qaytar ekan,	ularni eng yaramas, pastkash kishilar qatoriga qo‘shadi.
6	Jomiy yomon xulqli kishilarni qattiq tanqid ostiga oladi,	shuningdek, tajriba asosida va bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi.

Mustaqil topshiriq

Sevara Nazarxonning “Vatanim” qo‘shig‘ini tinglang va unda yangragan mashhur insonlarning ismlarini yozib oling. Ulardan biri haqida ma’lumot yozing.

13

Xorazmiyning 20 dan ortiq asaridan faqat 10 tasi bizgacha yetib kelgan. Ular dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi va turli tillarga tarjima qilingan.

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy yoshligidan ilm-fanga, ayniqsa, *ijtimoiy fanlarni* o‘rganishga qiziqdi. **T**

2. “To‘ldirish va qarama-qarshi qo‘yish haqida qisqacha kitob” asari fizika fani uchun katta manba hisoblanadi. **N**

3. Al-Xorazmiyning “Al-jabr va al-muqobala” asari keyinchalik Yevropada “Algebra” deb yuritila boshlandi. **T**

4. Al-Xorazmiyning matematikaga oid ikkinchi asari “Hind arifmetikasi haqida kitob” deb nomlanadi. **T**

5. “Hind arifmetikasi haqida kitob” o‘z davrida fors tiliga o‘girilgan. **N**

6. “Quyosh soatlari to‘g‘risida risola”, “Tarix risolasi”, “Musiqa risolasi” singari ajoyib asarlari olimga katta *shuhrat* keltirdi, uning *nomini abadiylashtirdi.* **T**

4. Gap tarkibida tushirib qoldirilgan so‘z va so‘z birikmalarini qo‘yib, gaplarni tiklating.

1. Qadimda Buyuk ipak yo‘li mintaqamizni dunyo bilan bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘tagan.

2. Amir Temur va temuriylar Buyuk ipak yo‘liga o‘zaro hamkorlik, hamjihatlik, do‘stlik asoslaridan biri sifatida qaraganlar.

3. Amir Temur davrida Buyuk ipak yo‘lining bekatlari ta’mirlangan va ba’zi yerlarda yangilari bunyod etilgan Yo‘llarda karvonlarning dam olishini ta’minlovchi karvonsaroylar qurilgan. Karvonlarni mahalliy hokimliklar tomonidan qo‘yilgan harbiy qo‘riqchilar himoya qilib, bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazib qo‘ygan.

4. Buyuk ipak yo‘li ilm-u fan taraqqiyotida ham muhim o‘rin tutgan.

5. Berilgan qo‘shma gap qismlaridan mosini toptiring va yozdiring.

1	Ibn Sino aql deganda insonning tug‘ma iste’dodini,	shuningdek, tajriba asosida va bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi.
2	Qoshg‘ariy fikricha, bola asta-sekin hunar o‘rganib hayotdan ta’lim olib,	bilimdon bo‘ladi, chinakam insoniy go‘zallikka erishadi.
3	Alisher Navoiy tarbiyada insonning o‘z-o‘zini tarbiyalashga,	xato va kamchiliklarini anglab tuzatishga e’tibor beradi, yanglish va xato kishilarga xosdir.
4	Mahmud Qoshg‘ariy: “Farzand qanchalik bilimli, aqlli, hushli bo‘lsa,	ota-onaning yuzi shunchalik yorug‘ bo‘ladi”.
5	Navoiyning ta’kidlashicha, kimki e’tirof tomon qaytar ekan,	xatosi yo‘qoladi.
6	Jomiy yomon xulqli kishilarni qattiq tanqid ostiga oladi,	ularni eng yaramas, pastkash kishilar qatoriga qo‘shadi.

Mustaqil topshiriq. *Sevara Nazarxonning “Vatanim” qo‘shig‘i*ni tinglashni, unda yangragan mashhur insonlarning ismlarini yozib olishni hamda ulardan biri haqida ma’lumot yozib kelishni vazifa qilib bering.

DONOLAR BISOTIDAN

Maqsad: fe'llarning o'tgan zamon shakllarini faol nutq ko'nikmalarida qo'llay olish, faktologik matn, ma'lumotlarni o'qish, tinglab, tushunish, qayta so'zlab berish, savollarga javob bera olish.

Refleksiya: o'tgan zamon shaklining hosil bo'lishi, donolar haqida fikr bildirish.

Vazifalar:

1. Berilgan savollar asosida o'quvchilar bilan suhbatlashing va ularni mavzu yuzasidan gapirtiring.

2. Matnni elektron dastur yordamida o'qib eshittiring yoki o'zingiz o'qib bering. Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan so'zlarni qo'ydiring.

Abu Ali bir kuni podshoh huzuriga kirsa, hazrati oliylari durbinda uzoqni kuzatayotgan ekan. Ibn Sino so'rabdi:

– Podshohimga nima uchun durbin kerak bo'lib qoldi?

Podshoh unga tushuntirdi:

– Bu durbin orqali ikki farsang uzoqlikda kimlar kelayotganini ko'rish mumkin. (Ikki farsang – 12 kilometr – M.M.)

Ibn Sino aytdi:

– To'rt farsang uzoqlikda kim kelayotganini men durbinsiz ham ko'ra olaman.

Podshoh "Qani, ayt-chi!" deb so'radi. Ibn Sino aytdi:

– Ikki farsang narida bir otliq kelayotir. U kishi shirin taom yegan ekan?

Podshoh ajablanib so'radi:

– U kishi shirin taom yeganini qayerdan bilding?

Ibn Sino javob berdi:

– Bu otliqning shirin taom yeganini uning og'zi atrofida o'ralashgan pashshalardan bildim.



MAVZU **Donolar bisotidan**

1 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda yashagan qaysi olimlarni bilasiz? Ular dunyo ilm-faniga qanday hissa qo'shgan?
2. Matematika fanining asoschisi kim?
3. Arab raqamlari qachon paydo bo'lgan?
4. Astronomiya va geografiya sohasida o'rta asrlarda qanday kashfiyotlar qilingan?
5. "Tib qonunlari"ning muallifi kim?
6. Markaziy Osiyodagi birinchi rasadxonani kim qurgan?

2 **Tinglang. O'ylang va toping. Yozing.**

1. Abu Ali bir kuni podshoh huzuriga kirsa, hazrati oliylari _____da uzoqni kuzatayotgan ekan.
2. Bu durbin orqali ikki _____ uzoqlikda kimlar kelayotganini ko'rish mumkin.
3. Ikki farsang narida bir _____ kelayotir. U kishi _____ yegan ekan?
4. Bu otliqning shirin taom yeganini uning og'zi atrofida o'ralashgan _____ bildim.
5. U odam yaqin kelib salom berganida _____ undan so'radi:
   – Yaqinda qanday taom yegan eding?
   – _____ yegan edim, janobi oliylari.

3 **O'ylang. Yozing.**

Namuna. Men kecha maktabdan qaytishimda yo'lda do'stim Boburni ko'rdim. U sport to'garagidan qaytayotgan ekan. Keyin ikkalamiz kutubxonaga bordik. Kutubxonada biroz kitob o'qidik. Kutubxonadan chiqib, muzeyga bordik. Muzeydan chiqib, uyga qaytdik.

14

U odam yaqin kelib salom berganida podshoh undan so‘radi:

– Yaqinda qanday taom yegan eding?

U kishi javob berdi:

– Holva yegan edim, janobi oliylari.

1. Abu Ali bir kuni podshoh huzuriga kirsa, hazrati oliylari durbinda uzoqni kuzatayotgan ekan.

2. Bu durbin orqali ikki farsang uzoqlikda kimlar kelayotganini ko‘rish mumkin.

3. – Ikki farsang narida bir otliq kelayotir. U kishi shirin taom yegan ekan.

4. Bu otliqning shirin taom yeganini uning og‘zi atrofida o‘ralashgan pashshalardan bildim.

5. U odam yaqin kelib salom berganida podshoh undan so‘radi:

– Yaqinda qanday taom yegan eding?

6. Holva yegan edim, janobi oliylari.



4 **O‘qing. O‘ylang va toping. Gapiring.**

TIRIKLIK ELIKSIRI

Rivoyatlarga qaraganda, Ibn Sino safarda vafot etgan. U o‘zining vasiyatnomasida barcha mol-mulkini muhtojlarga tarqatishni, xizmatkorlariga esa erkinlik berishni yozib qoldirgan.

Emishki, Ibn Sino o‘limning davosini topgan ekan. U ko‘p yillik izlanishlari mahsuli bo‘lgan 40 ta dorini tayyorlab, idishchalarga joylabdi. Shogirdiga joni uzilgan zahoti dorini ma’lum ketma-ketlikda berishni tayinlabdi. Ustozi vafot etgach, shogird dorilarni berishni boshlabdi. Kundan kunga dorilarning ta’siri ko‘rinib, tabibning tanasi yosharibdi, yuzlariga qizillik yugurib, soch-soqollari qoraya boshlabdi. Buni ko‘rgan shogird hayratda ekan. Qirqinchi dorini berayotganda kuchli hayajondan qo‘lidagi idishni tushirib yuboribdi...

Davom ettiring!

5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun birliklar: *farzandlaring ham senga ehtirom ko‘rsatadi; oltin o‘t bilan; to‘g‘ri so‘zlagin; yomon so‘zdan soy quriydi; aqlsizga aytdim – shaqillab kuldi.*

1. Aqlliga aytdim – angladi, bildi, _____.
2. _____, odam esa mehnat bilan tarbiyalanadi.
3. _____, to‘g‘ri ishlagin va qo‘lingdan kelguncha har bir kishiga yaxshilik qilgin.
4. Yaxshi so‘zdan moy eriydi, _____.
5. Ota-onangga ehtirom ko‘rsat, _____.

Mustaqil topshiriq

Gulladi, kechikdi, tozaladi, tekisladi, izladi, hidladi, gumburladi.

Hidladi	Hid	-la	-di

15

3. Berilgan namuna asosida “Mening kechagi kunim” mavzusida o‘tgan zamon fe’llarini ishtirok ettirgan holda qisqa hajmli matn yarattiring.

4. Berilgan matnni diqqat bilan o‘qiting. Tugallanmay qolgan matnni o‘quvchilar ishtirokida ularning fantaziyasini ishga solgan holda tugallashiga yordam bering.

5. Berilgan gaplarning tushirib qoldirilgan ikkinchi qismini tiklating.

1. Aqlliga aytdim, angladi, bildi, aqlsizga aytdim, shaqillab kuldi.
2. Oltin o‘t bilan, odam esa mehnat bilan tarbiyalanadi.
3. To‘g‘ri so‘zlagin, to‘g‘ri ishlagin va qo‘lingdan kelgancha har bir kishiga yaxshilik qilgin.
4. Yaxshi so‘zdan moy eriydi, yomon so‘zdan soy quriydi.
5. Ota-onangga ehtirom qil, farzandlaring ham senga ehtirom qiladi.

Mustaqil topshiriq. Quyida berilgan so‘zlarni asos va qo‘shimchaga ajratib, gaplar hosil qilishini vazifa qilib bering.

Gulladi, kechikdi, tozaladi, tekisladi, izladi, hidladi, gumburladi.

SAMOGA YO‘L

Maqsad: voqeaband yoki faktologik matnlarni tinglab tushunish, qayta hikoya qila olish, kim? nima? qachon? qayerda? nima uchun? kabi so‘roqlarga javob topa olish.

Refleksiya: astronomik hodisalarning hayotimizdagi o‘rni haqida suhbat quriladi, o‘tgan zamon fe’llari haqida ma’lumot beriladi.

MAVZU **Samoga yo‘l**

1 **O‘ylang va toping. Gapiring.**

1. Shahringizda qanday muhtasham binolar bor?
2. Ulardan qay biri sizga ko‘proq yoqadi va nima uchun?
3. Shahringizdagi binolar hamda Yevropa mamlakatlaridagi inshootlarning afzallik va kamchiliklari haqida gapiring.





2 **Tinglang va toping.**

Qurilish boshlangan yil	...
...	*Y. P. Semashko va N. G. Terziyev-Sarukov*
Konstruktorlar	*Y. P. Morozov va M. D. Musheyev*
...	*6 yil*
Ishga tushirilgan vaqti	*15-yanvar, 1985-yil*
Teleminora balandligi	...
...	*11 metr*
Umumiy massasi	*6000 tonnadan ortiqroq*
Hajmi	...
Qurilishda ishlatilgan materiallari	*Payvandlangan po‘lat*
Inshoot mustahkamligini ta’minlash usullari	*Har biri 93 metrlik uchta konussimon oyoq*
Aylanuvchi ikki zalli “Koinot” restorani, balandlik	*120 metr*
Tomosha maydoni, balandlik	...
Tezkor liftlar soni (tezligi 4,8 m/s dan kam emas)	*3*

16

Vazifalar:

1. Berilgan savollarga o‘quvchilar e’tiborini qarating. Har bir savolga javob berayotganda o‘quvchining shu savol doirasidagi fikr-mulohazalari imkon qadar kengroq yoritilishiga erishing.

2. Matnni elektron dastur yordamida o‘qib eshittiring yoki o‘zingiz o‘qib bering. Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan so‘zlarni qo‘ydiring.

Qurilish boshlangan yil	1978
Teleminora mualliflari	Y. P. Semashko va N. G. Terziyev-Sarukov
Konstruktorlar	Y. P. Morozov va M. D. Musheyev
Qurilish vaqti	6 yil
Ishga tushirlgan vaqti	1985-yil 15-yanvar
Teleminora balandligi	375 metr
Teleminora poydevorining balandligi	11 metr
Umumiy massasi	6000 tonnadan ortiqroq
Hajmi	55500 m^3
Qurilishda ishlatilgan materiallari	Payvandlangan po‘lat
Inshoot mustahkamligini ta’minlash usullari	Har biri 93 metrlik uchta konussimon oyoq
Tarqatiluvchi davlat telekanallari soni	4
Tarqatiluvchi davlat radiokanallari soni	5

Aylanuvchi ikki zalli “Koinot” restorani, balandlik	120 metr
Tomosha maydoni, balandlik	115 metr
Tezkor liftlar soni (tezligi 4,8 m/s dan kam emas)	3

3. Gaplarda berilgan so‘zlardan mosini qo‘ydirib ko‘chirtiring.

1. Pekin teleminorasi Toshkent teleminorasidan *balandroq*.

2. Olma daraxti o‘rik daraxtiga qaraganda *kattaroq.*

3. Aftidan, ovozim avvalgidan *jarangdorroq edi.*

4. Mening ilmiy ishim uchun *qisqaroq* matndan namunalar kerak.

5. Tibbiy ko‘rik xulosalarining ko‘rsatkichi *juda* yaxshi.

6. Dunyoda ona mehridan *yuksakroq* mehr bo‘lmasa kerak.

4. Berilgan matnni diqqat bilan o‘qittiring.

5. Berilgan savollar asosida yuqoridagi matndan o‘quvchilarga javob topishida yordamlashing va matn asosida suhbatlashing.



3 **Savollarga javob bering.**

Namuna. Pekin teleminorasi Toshkent teleminorasidan *yuksakroq/balandroq.*

1. Olma daraxti o'rik daraxtiga qaraganda *kattaroq/yuksakroq.*
2. Aftidan, ovozim avvalgidan *jarangdorroq/qo'polroq* edi.
3. Mening ilmiy ishim uchun *kichikroq/qisqaroq* hajmdagi matndan namunalar kerak.
4. Tibbiy ko'rik xulosalari *juda/eng* yaxshi ko'rsatkichni ko'rsatdi.
5. Dunyoda ona mehridan *yuksakroq/balandroq* mehr bo'lmasa kerak.

4 **O‘qing.**

BURJ XALIFA

Dunyodagi eng yuksak bino 828 metr balandlikka ko'tarilgan monumental osmono'par inshoot “Burj Xalifa”dir. Binoning qurilishi 2004-yilda boshlangan va 2010-yilda to'liq qurib bitkazilgan. “Burj Xalifa” 163 qavatdan iborat bo'lib, ularning ko'p qismini ofis xonalari, mehmon-xonalar va restoranlar egallaydi, bir necha qavatlar kvartiralar uchun ajratilgan, ularning narxi shunchaki aql bovar qilmaydigan darajada – har kvadrat metr uchun 40 000 dollardan!

Loyihaning qiymati ishlab chiquvchi “Emaar”ga 1,5 milliard dollarga tushdi, bu bino rasman foydalanishga topshirilgandan keyingi birinchi yildayoq tom ma'noda o'zini oqladi. “Burj Xalifa”dagi kuzatuv maydonchasi ayniqsa mashhur va unga borish uchun chiptalar tashrifdan bir necha kun burun oldindan sotib olinadi.

QIROLLIK MINORASI

Arab cho'lining issiq qumlarida insoniyat tarixidagi eng baland va eng ulug'vor inshoot qurilishi boshlandi. Bu 1007 metr balandlikka ko'tariladigan va “Burj Xalifa”dan 200 metr baland bo'ladigan kelajakdagi “Qirollik minorasi”dir.

Binoning eng yuqori qavatidan 140 km masofadagi relyefni ko'rish mumkin bo'ladi. Minora qurilishi juda qiyin bo'ladi, osmono'par binoning ulkan balandligi tufayli qurilish materiallari binoning eng yuqori qavatlariga vertolyotlar orqali yetkaziladi. Obyektning dastlabki qiymati 20 milliard dollarni tashkil qiladi.

5 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Dunyoda balandligi bilan hammani hayratda qoldirgan qaysi minoralarni bilasiz?
2. Toshkent teleminorasiga chiqqanmisiz?

Mustaqil topshiriq

Quyida berilgan so'zlar ishtirokida bog'lanishli matn tuzing.

sokin, eng baland, yuksakroq, juda chiroyli, manzarali, yoqimli, nihoyatda go'zal.

17

Mustaqil topshiriq.

Quyida berilgan so‘zlar ishtirokida bog‘lanishli matn hosil qilib kelish vazifasini bering.

Sokin, eng baland, yuksakroq, juda chiroyli, manzarali, yoqimli, nihoyatda go‘zal.

TIL TARIXIDAN

Maqsad: audiomatnni tinglab tushunish, qayta hikoya qilish, fikrini ifodalay olish.

Refleksiya: amaldagi davlat tilining kelib chiqishi xususida qisqa savol-javob o‘tkazib olish.

Vazifalar:

1. Berilgan matnni diqqat bilan o‘qiting.
2. Berilgan savollar asosida suhbatlashing.
3. Berilgan gaplarda tushirib qoldirilgan so‘zlarni tiklab, yozdiring.

1. Go‘dak ona allasini tinglayotib tez uxlab qoldi.
2. Bu yil daraxtlar erta uyg‘ondi.
3. Maktablar aro musobaqada sinfdoshim tez yugurgani uchun birinchilikni qo‘lga kiritdi.
4. Akamni anchadan beri intiqlik bilan kutayotgan onam unga darrov peshvoz chiqdi.
5. Ekinni erta ekkan hosilni erta o‘rar.
6. Arslonbek intizomga qat’iy rioya qiladigan odam bo‘lishiga qaramay, negadir majlisga kech keldi.

4. Audiomatnni eshittiring yoki o‘zingiz 2-3 marotaba o‘qib bering. Eshittirilgan ma’lumot orqali berilgan topshiriqni bajartiring.



Qadimgi turkiy til

Ushbu bosqich V–XI asrlarga tegishli. Turklar Sirdaryo, Amudaryo va Zarafshon qirg‘oqlari bo‘ylab hind-eron qabilalari aholisini asta-sekin chiqarib yuborishgan. Aloqa vositasi qadimgi turkiy til bo‘lib,

uning asosida keyinchalik ko‘plab Osiyo tillari paydo bo‘lgan. Bugungi kunda qadimgi turkiy yozuvning faqat o‘sha davrga tegishli madaniy yodgorliklarda tasvirlangan qismlari mavjud.



2 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. O‘zbek tilining vujudga kelish tarixini bilarmidingiz?
2. Turkiy tillar oilasiga mansub yana qaysi til o‘zbek tili bilan bir vaqtda vujudga kelgan? Shu haqida suhbatlashing.

3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Go‘dak ona allasini tinglayotib tez uxlab qoldi.

1. Go‘dak ona allasini tinglayotib tez uxlab qoldi.
2. Bu yil daraxtlar erta uyg‘ondi.
3. Maktablararo musobaqada sinfdoshim tez yugurgani uchun birinchilikni qo‘lga kiritdi.
4. Akamni anchadan beri intiqlik bilan kutayotgan onam unga darrov peshvoz chiqdi.
5. Ekinni erta ekkan hosilni erta o‘rar.
6. Arslonbek intizomga qat’iy rioya qiladigan odam bo‘lishiga qaramay, negadir majlisga kech keldi.

4 **Tinglang va toping. Yozing.**

Qadimgi turkiy til – ... | *Qadimgi o‘zbek tili – ...* | *Hozirgi o‘zbek tili – ...*

5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘zlar: *sekin, kech, ~~tez~~, erta, olg‘a, hamisha.*

Namuna. Janob poyezdga kech qolayotganini sezib, *tez* yura boshladi.

1. Shoh va shoir Bobur hayot sinovlarini _____ angladi.
2. Mo‘ysafidning qo‘llari qaltirar, harakatlari _____ edi.
3. Afsus, ko‘zim _____ ochildi.
4. Do‘stim, baxtimga _____ omon bo‘l!
5. Maqtovlardan ilhomlangan Olim yanada _____ qadam tashladi.

Mustaqil topshiriq

Hozir butun dunyo bo‘ylab o‘zbek tilida gaplashuvchilar soni qanchaligi va ularning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi haqida kichik matn yozib keling.

19

Qadimgi o‘zbek tili

Ikkinchi bosqich XI–XIX asrlarga to‘g‘ri keladi. Shu vaqt ichida o‘zbek tili ko‘plab qo‘shni tillar ta’sirida rivojlandi. Tilning shakllanishiga birlashgan va rivojlangan adabiy tilni yaratgan shoir Alisher Navoiy ulkan hissa qo‘shdi. Bu shaklda u XIX-asrning oxirigacha o‘zgarishsiz ishlatilgan.

Hozirgi o‘zbek tili

XX asrda zamonaviy o‘zbek tilining shakllanishi boshlandi. Butun O‘zbekiston aholisi tomonidan tan olingan Farg‘ona lahjasi uning asosini tashkil etdi. Aholining aksariyati sartiya tili deb biladigan ushbu lahjada gapirishgan va sartlar deb nomlangan. Etnik sartlar o‘zbek xalqiga tegishli emas edi, ammo o‘tgan asrning 20-yillarida “sart” so‘zidan voz kechildi va mamlakat aholisi o‘zbeklar deb nomlana boshladi. Adabiy til me’yorlari yanada demokratlashdi, bu esa uni ancha soddalashtirdi.

5. Berilgan gaplarda tushirib qoldirilgan so‘zlarni qo‘yib yozdiring.

1. Janob poyezdga kech qolayotganini sezib, tez yura boshladi.
2. Shoh va shoir Bobur hayot sinovlarini erta angladi.
3. Mo‘ysafidning qo‘llari qaltirar, harakatlari sust edi.
4. Afsus, ko‘zim kech ochildi.
5. Do‘stim, baxtimga hamisha omon bo‘l!
6. Maqtovlardan ilhomlangan Olim yanada olg‘a qadam tashladi.

Mustaqil topshiriq. Hozir butun dunyo bo‘ylab o‘zbek tilida gaplashuvchilar soni qanchaligi va hududlarda taqsimlanishi haqida yozib kelish vazifasini bering.

BU NIMANI ANGLATADI?

Maqsad: savollarga javob berish jarayonida fikrni ifodalay olish, matnlarni o‘qib, qayta hikoya qila olish, tinglab tushuna olish, annotatsiya yoza olish.

Refleksiya: mustaqil bajarish uchun berilgan topshiriq tekshiriladi, mavzu yuzasidan qisqacha savol-javob o‘tkazib, suhbat uyushtiriladi.

Vazifalar:

1. O‘qish uchun berilgan hikoyani o‘qiting hamda savollarga javob oling.

Yozning issiq kunida, jazirama quyosh ostida 16 yoshli Nigora Farg‘ona viloyatining qishloqlaridan birida shaftoli termoqda. Jazirama issiq uni bezovta qilayotgani yo‘q. U o‘ylayotgan yagona narsa – ukalari va singlisi uchun ozgina bo‘lsa-da pul ishlash.

Nigora, uning ukalari va singlisi ota-onasi ajrashganidan so‘ng Tojikistondan O‘zbekistonga qaytarilgan. Ularning onasi qamoqda, otasi esa boshqa oila qurgan. U Tojikistonda ishlaydi, lekin bolalarga hech qanday moddiy yordam ko‘rsatmaydi. Hozir Nigora, uning ukalari va singlisi uch xonali kichkina uyda buvisi hamda tog‘alarining oilalari bilan istiqomat qilishadi.

Nigoraning ko‘zlari g‘amgin, u kam gapiradi. *“O‘zbekistonga kelganimizdan beri dadam faqat ikki marta bizga qo‘ng‘iroq qildi. Unga ham ancha vaqt bo‘ldi. Onamni sog‘indim, uni yana ko‘rishni istayman,”* – deydi Nigora ko‘zida yosh bilan.

U endigina O‘zbekistonga qaytganida mahalliy tilda so‘zlashishdan qo‘rqish va do‘stlarining yo‘qligi uchun maktabga borishni istamadi. *“Men lotin alifbosini bilmayman, faqat kirillchani o‘qiy olaman”,* – derdi u qayg‘u bilan.

Qarindoshlar yoshlikdan o‘rnashib qolgan tushunchalariga ko‘ra,



MAVZU

Bu nimani anglatadi?

1 **Tinglang. Savollarga javob bering.**

1. Hikoyaning sarlavhasi haqida fikringizni bildiring.
2. Hikoyaning asosiy g‘oyasi nimadan iborat?
3. Hikoya qahramoni kim va uni nima qayg‘uga soladi?
4. Hikoyada onaning quvonchi qanday tasvirlangan?
5. Hikoyadan siz o‘zingizga qanday xulosa chiqardingiz?

2 **Tinglang. O‘ylang va toping.**

Ertalab choydan keyin asta hovliga chiqdik. Omonqul amakimning o‘g‘li – o‘ttiz beshlar _____ malla yigit, yo‘lakdagi «Belarus»ni kovlashtirayotgan ekan, bizni ko‘rib, xush-xandon iljaydi.

– Ha, bo‘la?

– Bo‘lar endi, Fayziqul, – dedim _____ kulimsirab. – Safarimiz ham qaridi.

– E, qo‘ying-e, bo‘la! – Fayziqul qo‘lini moylattaga shosha-pisha artib, yugurgilab oldimga keldi. – Nima bu! Hali munday bir _____ qilganimiz ham yo‘q.

– Mana, topishib oldik, gurunglashaveramiz-da. Bu yoq ishga boradigan, – dedim Razzoqqa imo qilib.

– Ish bo‘laveradi-da, aka, – dedi Fayziqul Razzoqqa yuzlanib. – Hali sizlar uxlab yotganingizda Bobonazar aka bilan Mahkam kelib aytib ketdi. Bir piyola choy ichib chiqmasangizlar, uyat bo‘ladi.

Yana “bir piyola choy!” Yana ziyofat! E, _____ ketay! Nahot dunyoning bor gapi dasturxondan iborat bo‘lsa?!

– Menga qarang, bo‘la, – dedim baribir _____ ohangda, – biz endi bugun qaytamiz. Ha, bo‘lak iloji yo‘q. Shoshmang-da. Agar bizga juda _____ qilmoqchi bo‘lsangiz, bir aylantirib kelmaysizmi?

– E-e, jonim bilan-e mana hozir! – Fayziqul hovli o‘rtasida turgan sariq “Jiguli”ga qarab yurdi.

Xayriddin Sultonning “Onamning yurti” hikoyasidan

3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Ziyrak qiz ota-onaga rahmat yog‘diradi.	dedi xushchaqchaq ovozda.
G‘iybatchi kishilarga yaqin yurma.	deb so‘radilar.
Yig‘ilish boshlandimi?	deydi dono xalqimiz.
Dunyoda eng yaxshi narsa nima?	deb so‘radi navbatchi.
Barakalla, azamatlar!	degan edi Yusuf Xos Hojib.

20

qizlarga uydan tashqarida ta’lim olish va ishlash zarur emas degan nuqtayi nazardan Nigoraning ta’lim olishi to‘g‘risida qayg‘urmadilar. Uning 13 yoshli singlisi yangi oila a‘zolari bilan til topisha olmadi, chunki onalarining taqdiri tufayli qarindoshlar bolalarga boshqacha munosabatda bo‘lishdi. Kichkina uyda ko‘pchilik bilan yashash unda hissiy stressni keltirib chiqardi, u ko‘p janjallashardi, yig‘lardi va hattoki ko‘chib ketmoqchi bo‘ldi.



4 **Tinglang va toping. Yozing.**

Namuna. 1. Beli og'rimaganning non *yeyishini ko'r.*

1. Beli og'rimaganning non _____.
2. Aqlli ishiga ishonar, _____.
3. Ahmoq o'zi so'zlab, _____.
4. Bilgan topib gapirar, _____.
5. Boshda aql bo'lmasa, _____.

Mustaqil topshiriq

O'zingizga yoqqan asardan ko'chirma va o'zlashtirma gaplarni topib, daftaringizga yozing.

21

Hanuzgacha ahvol yaxshi emas. Bolalarning tog‘asi ba’zan spirtli ichimlik ichadi va urishadi. Bolalar undan qo‘rqishadi. “*Agar biz uni bezovta qilsak yoki unga gap qaytarsak, u baqiradi va bizni urmoqchi bo‘ladi, ammo bugungi kungacha bunday bo‘lmagan*”, – deydi Nigora pichirlab. Uch yoshli ukasi Akmal ko‘pincha ota-onasi haqida so‘raydi. Tengdoshlari ota-onalari tomon yugurayotganini ko‘rgach, yig‘lay boshlaydi va ota-onasi qayerda ekanini so‘raydi.

Baxtli va mehribon oilada katta bo‘lish har bir bolaning huquqidir, lekin Nigora, uning ukalari va singlisi bunday imkoniyatga ega bo‘lmadi.

2. Matnni elektron dastur yordamida o‘qib eshittiring yoki o‘zingiz o‘qib bering. Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan so‘zlarni qo‘ydiring.

Ertalab choydan keyin asta hovliga chiqdik. Omonqul amakimning o‘g‘li – o‘ttiz beshlar chamasi malla yigit, yo‘lakdagi «Belorus»ni kavlashtirayotgan ekan, bizni ko‘rib, xushxandon iljaydi.

– Ha, bo‘la?

– Bo‘lar endi, Fayziqul, – dedim miyig‘imda kulimsirab. – Safarimiz ham qaridi.

– E, qo‘ying-e, bo‘la! – Fayziqul qo‘lini moylattaga shosha-pisha artib, yugurgilab oldimga keldi. – Nima bu! Hali munday bir otamlashganimiz ham yo‘q.

– Mana, topishib oldik, gurunglashaveramiz-da. Bu yoq ishga boradigan, – dedim Razzoqqa imo qilib.

– Ish bo‘laveradi-da, aka, – dedi Fayziqul Razzoqqa yuzlanib. – Hali sizlar uxlab yotganingizda Bobonazar aka bilan Mahkam kelib aytib ketdi. Bir piyola choy ichib chiqmasangizlar, uyat bo‘ladi.

Yana “bir piyola choy!” Yana “ziyofat!” E, tovbangdan ketay! Nahot dunyoning bor gapi dasturxondan iborat bo‘lsa?!

– Menga qarang, bo‘la, – dedim baribir jiddiy ohangda, – biz endi bugun qaytamiz. Ha, bo‘lak iloji yo‘q. Shoshmang-da. Agar bizga juda iltifot qilmoqchi bo‘lsangiz, bir aylantirib kelmaysizmi?

– E-e, jonim bilan-e, mana hozir! – Fayziqul hovli o‘rtasida turgan sariq “Jiguli”ga qarab yurdi.

3. Ustunlardagi gaplarni o‘zaro moslashtiring.

“Ziyrak qiz ota-onaga rahmat yog‘diradi”,	– deydi dono xalqimiz.
“G‘iybatchi kishilarga yaqin yurma”,	– degan edi Yusuf Xos Hojib
“Yig‘ilish boshlandimi?”	– deb so‘radi navbatchi.
“Duyoda eng yaxshi narsa nima?”	– deb so‘radilar.
“Barakalla, azamatlar!”	– dedi xushchaqchaq ovozda.

4. Tinglash uchun berilgan maqollarni o‘qib eshittiring va tushirib qoldirilgan joylarini to‘ldirib yozdiring.

– Beli og‘rimaganning non yeyishini ko‘r.
– Aqlli ishiga ishonar, aqlsiz – tushiga.
– Ahmoq o‘zi so‘zlab, o‘zi kuladi.
– Bilgan topib gapirar, bilmagan – qopib.
– Boshda aql bo‘lmasa, oyoqda tinim bo‘lmaydi.

Mustaqil topshiriq. O‘quvchi o‘ziga yoqqan asardan ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplarni topib, daftariga yozib kelsin.

NECHTA DO‘STIM BO‘LISHI KERAK?

Maqsad: audiomatnlarni tinglab, faktologik matnlarni o‘qib tushunish, qayta so‘zlab bera olish, savollarga javob berish jarayonida o‘z fikrini ifodalay olish, taqriz yoza olish.

Refleksiya: ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar mavzusiga oid ko‘nikma shakllantira oladigan refleksik jarayon yaratish.

Vazifalar:

1. Berilgan savollar asosida o‘quvchilar bilan mavzu yuzasidan suhbat olib boring.

2. Diqqat bilan o‘qittiring.

3. Berilgan audiomatnni o‘qib eshittiring va matndan foydalangan holda mashqda berilgan ma’lumotlarni *to‘g‘ri/noto‘g‘ri* usulida belgilatib, yozdiring.

– San baribiram tushunmaysan, o‘rtoq, buni tushunishing qiyin, – u shunday deb sigaret tutatdi.

– Nimani tushunishim kerak? Ahvolingga bir qara, Sanjar, tirik murdaga o‘xshab qolgansan, – dedim dimiqib ketgan xona derazasini ochishga chog‘lanib.

– Zato, hali tirikman, – Sanjar hiringlab kulgancha karavoti gunchida osilib yotgan adyolni yelkasiga tashlab oldi.

– Tirikman deysanmi?! Itday o‘lib ketasan-ku bu ketishingda!

Nam tortgan romlar ham ochila qolmadi. Qattiqroq itarib yubordim chog‘i, taraqlab birvarakayiga ikki tabaqasiyam ochilib ketdi.

Ilgarigi qil o‘tmas do‘stligimizga orqa qilibmi, ayamay gapirishga haddim sig‘ayotgan edi.



MAVZU

Nechta do‘stim bo‘lishi kerak?

1 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. “Do‘stlik – qadrdonlik” degan fikrga sizning munosabatingiz qanday?
2. Qanday insonlarni haqiqiy, chinakam do‘st deb ayta olamiz?
3. Haqiqiy do‘stingiz bormi?

2 **O‘qing. Savollarga javob bering.**

Bir kishi mashhur donishmandning huzuriga kelib, undan so‘rabdi:

– Ustoz, sizdan bir narsani bilib olmoqchi edim. Odamning nechta do‘sti bo‘lishi kerak? “Yuz tillang bo‘lmasin, yuzta do‘sting bo‘lsin” degan maqolni eshitib qoldim. Lekin agar ataylab do‘st qidiradigan bo‘lsam, ishlarim o‘ngidan kelishiga ishonmayman. Axir qarshingdagi odam aslida qanaqaligini bilib bo‘lmaydi.

Bundan tashqari, u chinakam do‘st bo‘lishga loyiqmi-yo‘qmi – buni ham oldindan aytish qiyin. Uning ustiga, o‘zimning ham boshqalarga qay darajada do‘st bo‘la olishim aniq emas...

– Savolingga javob beraman, to‘g‘rirog‘i, javobni o‘zing topasan, – debdi donishmand. – Huv anavi olma daraxtini ko‘ryapsanmi? U dunyodagi eng baland olma og‘ochlaridan biri. Borib, o‘sha daraxtning uchidagi mevalardan menga terib kel.

Haligi kishi o‘sha tarafga qarab, daraxtning yuksak shoxlarida tovlanib turgan olmalarni ko‘ribdi va:

– Lekin, taqsir, daraxt haqiqatan ham juda baland ekan. Mevalarni qanday qilib uza olaman? – debdi.

– Birorta do‘stingni chaqir, birgalashib olarsizlar, – deb yo‘l-yo‘riq ko‘rsatibdi donishmand.

Haligi kishi bir do‘stini topib kelibdi. O‘rtog‘i uning yelkasiga chiqibdi, lekin mevalarga qo‘li yetmabdi. Orada hali anchagina masofa bor ekan.

– Yo‘q, bunaqada hech narsaga erishib bo‘lmaydi, – debdi asabiylashib do‘st izlovchi.

– Nima balo, boshqa umuman do‘sting yo‘qmi? – debdi kulib donishmand.

Boyaqish boshqa do‘stlarini ham chaqirib, ancha-muncha odam yig‘ibdi. Ular bir-birlarining yelkalariga mingancha, terlab-pishib yuqoriga intilishibdi... Biroq bu jonli havoza olmagacha yetib bormabdi, holdan toygan odamlarning oyoqlari ham toyibdi, hamma yerga gursillab tushibdi.

Bu ishlarni kuzatib turgan donishmand haligi kishini yoniga chaqiribdi va so‘rabdi:

22

Sanjar bilan kollejda (u paytlarda texnikum deyilardi) bir guruhda o‘qiganmiz. Institutga kirolmagach, o‘zini tijoratga urib ketdi. Ishi avj bo‘lib, sekin-sekin bizning doiradan uzoqlashdi.

Raqamimni kimdan olgan, bilmadim, o‘tgan hafta telefon qilib “Bir kelib ket, gap bor” deb qoldi. Ko‘rishmaganimizgayam uch-to‘rt yil bo‘libdi.

Eski shahardagi tug‘ilib o‘sgan hovlisiga qaytgan ekan, topib bordim. Oxirgi marta bu hovliga otasining janozasida kelgan ekanman. Hech narsa o‘zgarmaganday go‘yo.

Tasavvurimga sig‘dirolmaganimdan bo‘lsa kerak, Laziz “Sanjar ninaga o‘tirib qolgan” deganida ishonmagan edim. Iljayib qarshilagan do‘stimning ahvolini ko‘rib, o‘pkam to‘lib ketdi.



– Odamga nechta haqiqiy do'st kerakligini tushungandirsan?

– Ha, taqsir, tushundim, – debdi u lat yegan yelkasini uqalagancha. – Juda ko'p do'st kerak ekan. Ko'pdan quyon qochib qutulmaydi. Har qanday muammoni ko'plashib hal qilish mumkin.

Donishmand afsus bilan bosh chayqabdi:

– To'g'ri, do'stlarning ko'p bo'lgani yaxshi. Lekin miyasiga narvon olib kelish fikri keladigan bittagina farosatli do'sting bo'lsa, undan-da yaxshi.

Orif Tolib tarjimasi

3 **Tinglang. O‘ylang va toping.**

1. Hikoya qahramonlaridan birining ismi Sanjar.
2. Laziz jussasi maydaroq bo'lsa ham, chayir, mushaklari po'latday yigit.
3. “Buqako‘z” deb gilosning naviga aytiladi.
4. Hikoyada giyohvandning hayoti tasvirlangan.
5. Hikoyada geroinni dori deb o'ylagan qahramon – Lazizning o'g'li.
6. Hikoya qahramoni giyohvand ekanidan umuman afsuslanmaydi.

K – ko'chirma gap. M – muallif gapi.

1. “K”, – m.
2. M: “K”.
3. M: “K”, – m.
4. “K, – m. – K”.
5. “K, – m, – k”.

4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. “Sovuqdan oyoqlarim zirqirab og'riyapti”, – dedi Nasiba.
Nasiba sovuqdan oyoqlari og'riyotganini aytdi.

1. “Darslarni yaxshi o'zlashtirishga harakat qil”, – dedilar dadam.
2. “Bugun uyimizga mehmonlar keladi”, – dedilar opam.
3. “Bizning qishlog'imizda kishi zerikmaydi”, – dedi Fazliddin.
4. “Aytganlarimdan nega olib kelmading?” – dedilar oyim jahl bilan.
5. Saodat: “Biz ham astoydil mehnat qildik”, – dedi.
6. “Bugungi bo'lib o'tadigan bayram tadbirida barcha qatnashishi shart”, – dedi direktor.

Mustaqil topshiriq

O'ylang va toping. Yozing.

Ko'chirma gap	O'zlashtirma gap
“Qizim, umring uzoq bo'lsin”, – dedi yo'lovchi.	Yo'lovchi qizga umri uzoq bo'lishini tiladi.

23

Oldin onasidan hol so‘ray deb, darvozaxona ustidagi boloxonaga ko‘tarildim. Xushlamaygina so‘rashganidan o‘ng‘aysiz bir ahvolda qoldim. Shunday bo‘lsa-da, o‘zimni tanitib, ilgari Sanjar bilan bu hovliga kelib yurganlarimni eslatgan bo‘ldim. Negadir eslay olmadi. So‘ng “Asr qazo bo‘lmasin” deya xontaxta ustidagi tasbehni olib, o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

Hayron bo‘ldim, hali peshin vaqtiyam kirmagan edi.

Ko‘nglim xijil tortib tushdim. Ahvolimni tushungan Sanjar “Mamashkaning toblari yo‘q”, – degancha hovli etagidagi o‘zining xonasiga boshladi.

Izidan borarkanman, oyog‘idagi orqasi bosilgan jigarrang tuflisiga ko‘zim tushdi. Huv birda, bitta “kattakon”ning mashinasini turtib olganimda qarz so‘rab kelganimni eslatdi u menga. O‘sha tufli.

“Uch oy katta srok. Bir oy de, berib turay”, – degan edi o‘shanda do‘stim negadir ko‘zimga yo yuzimga emas, oyog‘idagi mana shu tufliga qarab.

– Qolganlar ko‘rinmaydi? – dedim xayolimni chalg‘itish uchun. Hayhotdek hovlidagi jimjitlikka ko‘nikolmayotgan ham edim.

Ichkari kirdik.

– Xotin ishda, bolalar bog‘chada, – dedi Sanjar devordagi soatga qarab qo‘yarkan.

– Sen uyda yotibsan, lo‘lining erkagiday, – dedim karavotdagi o‘ringa ishora qilib.

Javob bergisi kelmadimi, indamadi. Xonadagi yakka-yu yagona kursini men tomon surib qo‘yib, o‘zi karavotiga chordana qurib o‘tirib oldi.

Oilamni, ishimni so‘ragan bo‘ldi.

Do‘stingdan “Ishlaring yaxshimi?” deb so‘rolmasang, g‘alati bo‘larkan.

Kursiga cho‘kib, do‘stimga tikildim. Jussasi maydaroq bo‘lsayam, chayir, mushaklari po‘latday yigit edi. Yanayam kichrayib ketganday ko‘rindi ko‘zimga. Bardoshim yetmadi.

Hovli sahni ko‘rinib turgan derazaga qarab oldim.

Nimadir yetishmayotganday tuyuldi.

Topdim.

– Gilos qani? – so‘radim bir paytlar daraxtning uchigacha chiqib terganimiz “buqako‘z” giloslar esimga tushib.

– Kesib tashladim, – dedi Sanjar quruqqina qilib.

– Esing joyidami, gilosni-ya?

– Qurib boshladi, o‘rtoq. Keyin kesib tashladim, – u uyqudan endi uyg‘ongan odamday xomuza tortdi-da, qo‘shib qo‘ydi. – Uyam manga o‘xshab quriy boshlovdi...

Tomog‘imga bir nima tiqildi. Beixtiyor stol ustidagi oxirlab qolgan sigaret qutisiga qo‘l cho‘zdim. Anchadan beri chekishni tashlash uchun o‘zim bilan olishib yuruvdim, shu tobda bosib-bosib chekkim keldi. Qutini bir muddat ushlab turib, u yoq-bu yog‘ini aylantirib ko‘rganday bo‘ldim-da qaytarib joyiga qo‘ydim. “Shuning oldida chekmay...”

– Eshitgan gaplarim rost ekan-da? – so‘radim uning ko‘zlariga tikilib.

Javob o‘rniga sviteri yengini shimarib, ko‘karib yotgan bilaklarini ko‘rsatdi-da: “Ahvol shunaqa”, – deb qo‘ydi.

Tilimga kelganini qaytarmay so‘ka boshladim.

Tutaqishimga parvo qilmay, tirjaygancha o‘tiraverdi. “Itday o‘lib ketasan” deganim og‘ir botdi, chog‘i, tusi o‘zgardi.

– Sani so‘kish eshitish uchun chaqirmadim, o‘rtoq. – dedi sigaretni kuldonga bosib ezg‘ilarkan, – Birinchidan, bunaqa gapirma manga,keyin, oldingda jinoyatchimas, kasal odam o‘tiribdi.

Uning gap ohangi hovurimdan tushirib qo‘ydi.

– O‘zi nega bunaqa bo‘ldi? – so‘radim biroz oshirib yuborganimni tushunganday bo‘lib.

– Aytdim-ku, buni tushunishing qiyin deb.

Indamadim. “Ilgari ibodatgo‘y eding-ku” demoqchi bo‘ldim-u, tilimni tiydim. Sadqayi...

U fikrimni o‘qiganday gapirinib qo‘ydi: “Taqvomni ushlolganimda, qatta edi bu kunlar...”

– Dispanserda... dispanserda ro‘yxatdamisan? – so‘radim xuddi bu nimanidir bildiradiganday.

– Bir yildan oshdi.

– Foydasi bo‘madimi? Bir xillar tuzalarkan-ku.

– Kim aytdi narkoman tuzaladi deb?

– Narkolog tanishim «tuzalib, normalniy hayotga qaytganlar bor» deydi...

– Tuzalishi mumkin, lekin ja qiyin masala. Do‘xtirimni aldamasam, manam tuzalardim.

– Endi...

– O‘sha tanishing aytmadimi “”narkomanlar do‘xtirni aldaydi” deb? Ko‘chaning boshida mandaqa bittasi bor. Geradan qutilaman deb araqqa yopishdi. Hozir naturalniy alkash-de.

Sanjarning jag‘i ochildi.

– Mana, san, bir paytlar yeganing gilosni eslading. Man-chi? Eslomiyman, o‘rtoq. Eslaydiganim – qachon, qatta zo‘ridan urganim. “Dom”da yashaganimda ikki pod-yezd narida qaynana-kelin geroinfurushlar bo‘lardi. Qamalib ketdi. Qattan olgan, bilomiyman, zo‘ri o‘shalarda edi.

Indamay o‘tiraversam, “o‘tlashni” boshlab yubormasin degan xavotirda gapini bo‘ldim:

– Xo‘sh, man bilan nimani maslahatlashmoqchiyding?

– Onamning ahvolini ko‘rib turibsan, o‘rtoq. Xotinim-ku, mani ko‘rishniyam xohlamaydi. “Bolalarim uchun chidab yuribman” deydi, yolg‘on. Hovli-joydan umidvor. Man o‘lsam-u... Onam sho‘rlikka qiyin. Qarindoshlar bu uydan oyoq uzishgan. Bilasan, hammasi “intelligentlar”, or qilishadi shakilli. Yo‘qlaydigan – uchastkovoy bilan narkolog do‘xtirim. Ular manga nima qibberadi? Biri “qamalasan” deydi, biri “o‘lasan” deydi sanga o‘xshab. Xullas, san o‘zing bollarga bosh bo‘lib mani odam qillaring...

Oxirgi gapini ayta turib, Sanjarning bo‘g‘ziga yig‘i tiqildi.

Ikkovimizam derazaga qarab indamay qoldik.

– U kuni, – biroz o‘zini bosib olgan Sanjar yana gapira boshladi, – “lomka”da yotganimda o‘g‘lim Javohir shpris ko‘tarib keldi oldimga... Dod devordim. Bo‘lmasa o‘zim nima ahvoldaman. Ko‘rganmisan o‘g‘limni, ko‘rganmisan? – u endi rostakamiga yig‘lab yubordi. – U endi uch yoshga to‘ldi. Uch yosh! Mani qiynalvotganimni ko‘rib chidolmagan-da bolam. Xumor tutganda ukol qilib tinchishimni ko‘rgan, biladi. Geroinni dori deb o‘ylagan Javohirim...

Sanjarning o‘g‘lini ko‘rmaganman, lekin pildirab yurgan uch yoshli bola ko‘z o‘ngimdan o‘tdi. Xumori tutib jazavaga tushayotgan, azobdan baqirayotgan otasining ahvoliga achingan bolaga achindim.

Halitdan beri miyamda aylanib tinchlik bermayotgan “bekor keldim, kelmasligim kerak edi” degan o‘y qayoqqadir yo‘qoldi.

Men unga taqqoslaganda o‘zimni risoladagiday odam sanab, oxirigacha dadil turishga befoyda urinayotgan edim.

Nimadir deb do‘stimning ko‘nglini ko‘targim, bir chora topgim keldi. Nimalar deganim esimda yo‘q. Faqat “bahorda bitta gilos ko‘chati olib kelaman, hovlingning o‘rtasiga o‘zing ekib qo‘yasan” deganim esimda.

Ketarimda darvozagacha kuzatib qo‘ydi. Hali aytar gapi ichida qolganini tushundim…

Ko‘cha boshiga yetganimda Lazizga telefon qilib “Xuddi sen aytganday bo‘ldi. Oldiniga “mani odam qillaring” deb yig‘ladi. Keyin “o‘lmasam bir oyda qaytaraman” deb qarz so‘radi” demoqchi bo‘ldim.

Fikrimdan qaytdim. Qo‘l telefonimni butunlay o‘chirib tashladim.

Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar haqida o‘quvchilarga ma’lumot bering.

Diqqat qiling.

K – ko‘chirma gap, m – muallif gapi.

“K”, – m.
M: “K”.
M: “K”, – m.
“K, – m. – K”.
“K, – m, – k”.

4. Berilgan ko‘chirma gaplarni oddiy gaplarga aylantirish vazifasini bajartiring.

Mustaqil topshiriq. O‘quvchilar o‘zlari yoqtirgan asarlari asosida ko‘chirma gaplar topib, uni o‘zlashtirma gaplarga aylantirib kelishsin.

QADIMIY ME'MORIY OBIDALAR

OLAM MO'JIZALARI

Maqsad: fikrni mustaqil ifodalay olish, audiomatnni tinglab tushuna olish, faktologik matnni o'qib, qayta so'zlay olish.

Refleksiya: uyda yozib kelingan topshiriqlar tekshiriladi, ular yuzasidan o'quvchilar fikrlari so'raladi, qadimiy me'moriy obidalar haqida suhbatlashiladi.



Qadimiy me'moriy obidalar

MAVZU Olam mo'jizalari

1 Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Sayohatga borish sizga yoqadimi?
2. Sizga bir oylik imtiyozli sayohat yo'llanmasi taqdim etilsa, yurtimiz bo'ylab qaysi qadimiy maskanlarga sayohat qilar edingiz?
3. Xorijdagi qaysi me'moriy obidalarni tomosha qilish sizga qiziq?

2 O'qing.

YANGI YETTI MO'JIZA

Kolizey. Kolizey – qadimiy Rim me'morchiligining ulkan yodgorligi. Kolizey so'zi lotin tilida "ulkan" degan ma'noni anglatadi. U milodimizning 70–80-yillarida imperator Tit tomonidan qurilgan. Ellips shaklidagi inshootning balandligi 57 metr. Unga 50 ming tomoshabin bemalol sig'gan. O'rindiqlar toshdan ishlangan. Imperator o'rindig'i sahna bilan teng bo'lgan (ya'ni 3,5 metr balandlikda). Kolizey sahnasida bayram tantanalari, teatr tomoshalari, gladiatorlar janglari o'tkazilgan va qurbonliklar qilingan.

24

Vazifalar:

1. Berilgan savollar yuzasidan suhbatlashing.

2. Diqqat bilan o'qiting.

3. Matn yordamida savollarga javob beriladi.

4. Berilgan gapni bog'lovchi vositalar yordamida tiklating.

5. Berilgan gaplarni elektron vosita yordamida tinglating yoki o'zingiz o'qib bering. Tushirib qoldirilgan so'zlarni qo'yib yozdiring.

1. Maktabimizda rassomlik, tikuvchilik va duradgorlik to'garaklari bor.
2. Mashina sekinladi, lekin to'xtamadi.
3. Kuzda ham shamol bo'ladi, ham yomg'ir yog'adi.
4. Sevara tiniq suvda yuz-qo'llarini yuvdi hamda turli gullardan guldasta yasadi.
5. Oftob chiqqan, ammo qizdirmayapti.
6. U goh hazil qilardi, goh jiddiy so'rardi.

Mustaqil topshiriq. Quyidagi o'rni almashtirib berilgan inshoot nomlarini qayta tuzib, yozib kelish vazifasini bering.

Namuna: **Tojmahal –** buyuk tuyg'uga bag'ishlangan me'moriy obida.

MUZEYLAR

Maqsad: ma’lumotni qabul qilib, uni qayta hikoya qilib berish, to‘ldirish, boyita olish, matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, so‘zlab bera olish, savollarga to‘liq javob bera olish, maqola yoza olish.

Refleksiya: mavzuga doir suhbat o‘tqaziladi va o‘quvchilar fikri tahlil qilinadi.

Vazifalar:

1. Berilgan savollar asosida o‘quvchilardan javob oling va ularni ko‘proq mavzu doirasida gapirtiring.

2. Berilgan ma’lumotlarni tinglating va izohini yozdiring.

Ekspozitsiya – 1) badiiy adabiyotda qo‘llanadigan unsur. Badiiy asar syujetining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, voqealar ro‘y beradigan zamon va makon, personajlar to‘g‘risidagi muallif ma’lumotlari. Bunday ma’lumotlar, odatda, badiiy asar syujetining kirish qismida voqelik tuguni, rivoji, asosiy to‘qnashuvlar hamda kulminatsion nuqtadan avval beriladi. Ekspozitsiyada o‘quvchi asarda ishtirok etuvchi qahramonlar, ular harakat qiladigan joy, to‘qnashuvchi shaxslar va hodisalar to‘g‘risida dastlabki ma’lumotlarni oladi. Garchi ekspozitsiyada badiiy asarda bosh konfliktni rivojlantirib, keyingi voqealarga turtki berishga jiddiy ko‘maklashmasa-da, ko‘pincha asosiy voqea rivojining yo‘nalishi hamda xarakterini oldindan aniqlashga xizmat qiladi.


MAVZU

Muzeylar

1 Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Muzey nima?
2. Siz qanday muzeylarni bilasiz?
3. Siz yashaydigan joyda qaysi muzeylar faoliyat ko'rsatadi?
4. Jahondagi mashhur muzeylardan qaysilari haqida ma'lumotga egasiz?
5. Muzeylar nima uchun kerak?

2 Tinglang va toping. Yozing.

1. Ekspozitsiya – _____ .
2. Ko'rgazma – _____.
3. Ekspomarkaz – _____.

3 O'ylang va toping. Gapiring.

Namuna

Nomi: *Kolizey*
Qayerda: *Rim*
Qachon qurilgan: *milodiy 70–80-yillar*
Kim qurdirgan: *imperator Tit*
Balandligi: *57 metr*
Tomoshabinlar sig'imi: *50 ming kishi*

Tojmahal, Buyuk Xitoy devori, Misr ehromlari.

4 Tinglang va toping. Yozing.

28

Ko‘rgazma – insonning moddiy va ma’naviy faoliyati sohalaridagi yutuqlarni ommaviy namoyish etish.

Ekspomarkaz – xalqaro ishtirokchilar bilan hamkorlikda ekspozitsiyalar (ko‘rgazmalar) tashkil etish va o‘tkazish bo‘yi-

cha markaz. 1958-yildan boshlab umumjahon ko‘rgazmalari “EKSPO” nomi bilan o‘tkaziladi. Bunday markaz (ko‘rgazma) O‘zbekistonda xalq xo‘jaligi yutuqlari ko‘rgazmasi shaklida 1964-yilda ochilgan. “O‘zekspomarkaz” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan, sobiq O‘zbekiston SSR Xalq xo‘jaligi yutuqlari ko‘rgazmasi asosida 1992-yilda tashkil etilgan.

3. Berilgan joy nomlarini namunadagi kabi o‘quvchilardan so‘rang.

4. Tinglash uchun berilgan matnni o‘quvchilarga o‘qib eshittiring. Matn yuzasidan berilgan topshiriqni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlashtiring.



1. Ermitaj muzeyi Buyuk Britaniyada joylashgan.
2. Britaniya muzeyiga har yili 60 million kishi keladi.
3. Qohira muzeyida o‘tmishga oid 120 ming eksponatni ko‘rishingiz mumkin.
4. Nyu Yorkning 1875-yilda tashkil etilgan asosiy muzeyi butun dunyoda mashhur.
5. Misr muzeyi binosi 1900-yilda qurilgan.
6. London muzeyining asosiy zalida Rafael va Tintorettolarning asarlari, ularning yaratilish tarixidan so‘zlovchi ashyolarni ko‘rish mumkin.

- Menimcha (seningcha, sizningcha),
- Mening fikrimcha, _____.
- Mening nazarimda, _____.
- O‘ylaymanki (o‘ylaysizki), _____.
- O‘ylashimcha, _____.

5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘zlar: *ammo, -yu, bilan, ~~va~~, lekin, hamda*

Namuna. 4. Maktabda yosh tabiatshunoslar ***va*** *texniklar to‘garagi tashkil etilgan.*

1. Bu daraxt ko‘karadi,	texniklar to‘garagi tashkil etilgan.
2. Eshikdan Farrux	hosil bermaydi.
3. O‘qituvchimiz keldilar	shu zahoti qaytib ketdi.
4. Maktabda yosh tabiatshunoslar	Zafar kirib keldi.
5. Aziza keldi,	uy vazifasini tekshira boshladilar.
6. Amakingnikiga borgin,	kechikmasdan qayt.

Mustaqil topshiriq

Quyidagi g‘aroyib muzeylardan biri haqida ma’lumot toping va yozib keling:

Dunyodagi birinchi muzey, avtomobillar muzeyi, qoshiqlar muzeyi, non tarixi muzeyi, dunyodagi eng mitti muzey, suv muzeyi, kapalaklar muzeyi, samovarlar muzeyi, parovozlar muzeyi, nindzya muzeyi, kino muzeyi.

29

Eng katta muzeylar

Bugun dunyoda 100 mingdan ortiq muzeylar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘z yo‘nalishida noyobdir. Biroq dunyoga mashhur muzeylar ham mavjud, turli mamlakatlardan ularga qiziqadigan odamlar boradilar. Ularning e’tiboriga minglab eksponatlar, shuningdek, tarix sirlari, global miqyosdagi diqqatga sazovor joylar haqida ma’lumotlar beriladi.

Ermitaj (Sankt-Peterburg)

1764-yilda yaratilgan ushbu muzey Rossiyaning haqiqiy javohiridir. Unda dunyodagi eng katta rasmlar va arxeologik xulosalar to‘plamlari jamlangan. Ayni paytda Ermitajda qariyb 30 000 000 eksponat mavjud. Ermitajga tashrif buyurgan har bir kishi qimmatbaho toshlar saqlanadigan ajoyib xonaga borishga intiladi. Bugungi kunda Neva daryosi bo‘yida joylashgan 5 ta ulug‘vor bino orasida eng asosiysi hisoblanadi.

Britaniya muzeyi (London)

Bu yerda to‘plangan san’at asarlari dunyoning barcha qit’alaridan keltirilgan. Ushbu muzeyni yaratish va rivojlantirishda minglab odamlar ishtirok etgan. Muzey Yunoniston, Misr, Rim, Afrika, Osiyo va Yevropa sivilizatsiyalariga bag‘ishlangan. Har

yili muzey eksponatlarini ko‘rish uchun 60 000 000 kishi tashrif buyuradi. Britaniya muzeyining boshqa nomlari ham mavjud: uni “O‘g‘irlangan durdona asarlar muzeyi” yoki “Barcha sivilizatsiyalar muzeyi” deb ham ataydilar.

Metropoliten muzeyi (Nyu York)

Nyu Yorkning 1870-yilda tashkil etilgan asosiy muzeyi butun dunyoda mashhur. Yaratilganidan buyon bu muzey binosi ikki marta o‘zgardi, hozir esa u beshinchi ko‘chada markaziy xiyobonda joylashgan. Unga butun dunyodan 2000 dan ortiq eksponatlar olib kelindi – bu yerda islomiy va yevropacha rasmlar, katta qurol kolleksiyalari joylashgan. Eng mashhur xona Amerika dekorativ san’ati xonasidir. Asosiy zalda Rafael, Tintoretto tomonidan yaratilgan rasmlarni ko‘rish mumkin.

Misr muzeyi (Qohira)

Bu qadimgi Misr san’atining eng yirik muzeyi hisoblanadi. Bu yerda tarixiy davrga tegishli ko‘plab eksponatlarni (120 ming nusxa) ko‘rish mumkin. Birinchi marta ushbu joydagi eksponatlar 1835-yilda namoyish etildi. Shundan beri Misr hukumati arxeologik yodgorliklarni talon-taroj qilishni to‘xtatishga urinib keladi. Muzey binosi 1900-yilda qurilgan.

Luvr (Parij)

Luvr – dunyodagi eng qadimgi va eng katta badiiy muzeylardan biri. Ko‘plab milliy muzeylar singari u qirollik to‘plamidan boshlangan.

O‘quvchilarga kirish so‘zlar haqida ma’lumot bering.

Diqqat qiling!

Menimcha (seningcha, sizningcha), ……
Mening fikrimcha, ……
Nazarimda, ……..
O‘ylaymanki (o‘ylaysizki), …… .
O‘ylashimcha, …… .
…… degan fikrdaman.
……. deb o‘ylayman.

5. Berilgan gaplarda tushirib qoldirilgan birliklarni o‘z o‘rniga qo‘yib ko‘chirtiring.

Mustaqil topshiriq. Quyidagi g‘aroyib muzeylar haqida ma’lumot topish va yozib kelish vazifasini bering.

Dunyodagi birinchi muzey, avtomobillar muzeyi, qoshiqlar muzeyi, non tarixi muzeyi, dunyodagi eng mitti muzey, suv muzeyi, kapalaklar muzeyi, samovarlar muzeyi, parovozlar muzeyi, nindzya muzeyi, kino muzeyi, Ginnes rekordlar kitobi muzeyi.

YURTIMIZ MUZEYLARI

Maqsad: mavzu doirasida o‘z fikrlarini mustaqil bayon eta bilish, savollarga to‘liq, atroflicha javob bera olish, matnlarni tinglab tushuna olish, o‘qib, qayta so‘zlay olish.

Refleksiya: muzeylar haqida qisqacha savol-javob o‘tkazish. Ularning madaniy hayotimizdagi o‘rni haqida suhbatlashish.

Vazifalar:

1. Berilgan matnni o‘quvchilarga tinglating yoki o‘zingiz o‘qib bering. Matn asosida suhbat quring.

Toshkent muzeylari

1917-yilgacha Toshkentdagi birinchi va yagona muzey Toshkent muzeyi bo‘lgan. 1917-yildan keyin turli ixtisosdagi keng ekspozitsiyalarga ega bo‘lgan muzeylar tashkil etila boshlagan. 1918-yili knyaz N.Romanov saroyida uning musodara qilingan kolleksiyasi asosida Badiiy muzey (hozirgi O‘zbekiston davlat san’at muzeyi), 1921-yili Eskisha-har muzeyi, 1926-yili O‘zbek Eskisha-har muzeyi tashkil qilingan. Madaniy taraqqiyot yangi muzeylar tashkil qilish va mavjud muzeylarni qayta jihozlash zarurligini taqozo etgan.

O‘rta Osiyo muzeyining geologiya, zoologiya, botanika va antropologiya bo‘limlari, qishloq xo‘jaligi muzeyi va



MAVZU **Yurtimiz muzeylari**

1 **Tinglang. Gapiring.**

Siz qaysi muzeylarga borgansiz? Quyidagi so‘zlardan foydalanib shu haqida gapirib bering:
darhaqiqat, shubhasiz, ma’lumki, albatta, haqiqatdan.
Namuna. Ma’lumki, poytaxtimizda bir qancha muzeylar bor. _____.

2 **O‘qing.**

O‘zbekistonning ilk muzeylaridan biri – O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi. U 1896-yilda tashkil etilgan. Muzey Samarqand shahrining Mirzo Ulug‘bek ko‘chasida joylashgan.

Muzey o‘z faoliyatini boshlaganidan buyon uning fondiga alohida madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan 10 000 dan ziyod noyob eksponatlar qo‘shilgan. Samarqanddagi O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi 5 ta bo‘limni o‘z ichiga oladi: tarix bo‘limi; san’at bo‘limi; ko‘rgazmalar bo‘limi; arxeologiya, etnografiya, tasviriy san’at, numizmatika fondlari bo‘limi; marketing bo‘limi.

Bu yerda bronza davriga oid zargarlik buyumlari, zardushtiylikdan qolgan yodgorliklar va diniy buyumlar, VIII asrga oid shaxmat, XX asr boshlaridagi taniqli o‘zbek rassomlarining bir necha ming asl nusxadagi asarlari saqlanmoqda.

Muzeyda qadimiy va o‘rta asr chinni buyumlari, metall va shisha buyumlar, shuningdek, ganch bezaklari to‘plami mavjud. O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyining numizmatika fondida nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasining ilk davlatlari, balki Qora dengiz bo‘yi, qadimgi Yunoniston va qadimgi Rimning 30 mingga yaqin tangalari ham saqlanadi.

Etnografik kolleksiya asosan XIX–XX asrlarga oid 20 mingga yaqin birlikdagi milliy liboslar, zar-do‘zlik buyumlari, gilamlardan iborat. Bu yerda Samarqand xalq ustalari tayyorlagan pichoq va metall idishlarni ham ko‘rish mumkin. Samarqand muzeyi XIX asrga oid, xo‘jandlik ma’rifatparvar – Xo‘ja Yusuf Mirfayozovning globusi bilan ham faxrlanadi.

30

hayvonot bog‘i Tabiat muzeyiga aylantirildi. Respublika ko‘rgazmalari negizida Politexnika muzeyi (1933), Amaliy san’at muzeyi tashkil qilindi; Adabiyot muzeyi tuzildi.

1940-yilda Toshkent muzeylarida 500 mingga yaqin eksponat bo‘lgan, muzeylarga kiruvchilar soni 300 mingga yaqin kishini tashkil etgan. 40-yillar o‘rtalaridan muzey qurilishida yangi bosqich boshlandi. 1972-yil O‘zbekiston kino san’ati muzeyi, 1973-yil O‘zbekiston sog‘liqni saqlash muzeyi, 1975-yil Turkiston harbiy okrugi qo‘shinlari tarixi muzeyi tashkil etildi.

Toshkentda 29 ta muzey bo‘lib, ularda 113127 eksponat saqlanadi; har yili muzeylarga o‘rtacha 1,5 mln ga yaqin kishi kiradi. Toshkentdagi yirik davlat muzeylari: O‘zbekiston davlat san’at muzeyi, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O‘zbekiston amaliy san’at muzeyi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari markaziy muzeyi, O‘zbekiston tasviriy san’at galereyasi, O‘zbek liboslari galereyasi va boshqalar.



3 **Savollarga javob bering.**

1. O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi qachon tashkil topgan?
2. Muzey qanday eksponatlar bilan jihozlangan?
3. Rassomlikka oid qanday me’moriy yodgorliklar saqlanadi?
4. Qadimiy davrga oid qancha noyob tanga namunalari bor?

4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna

Salom, Aziz!
Ishlaring yaxshimi?
Esingdami, o‘tgan haftada bobom bilan muzeyga borishimni aytgan edim. U yer menga juda yoqdi. Shubhasiz, senga ham manzur bo‘ladi. Albatta, sen ham shu muzeyga bor. Istasang, men senga hamroh bo‘lishim mumkin.
Do‘sting Tohir

Ishonch yoki tasdiq	albatta, to‘g‘ri, haqiqatan, darhaqiqat, shubhasiz
Gumon	ehtimol, balki, aftidan, chamasi
Afsuslanish, taajjub	afsuski, attang, essiz, baxtga qarshi
Eslatish	darvoqe, aytgandek

5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘zlar: *aytgandek, keksalarning aytishicha, xullas, darvoqe, ~~aftidan~~, afsuski.*

Namuna. Aftidan, Sardorning so‘zlari unchalik quvonishga arzimaydi.

1. _____ Sardorning so‘zlari unchalik quvonishga arzimaydi.
2. _____ boya hammani nonushtaga baravar chaqirmagan ekansiz.
3. _____ sizdan bir nima so‘ramoqchi edim.
4. _____ Anvarga ko‘p yordam berganman.
5. _____ yolg‘on baribir oshkor bo‘ladi.
6. _____ barcha bilan kelishib oldim.

6 **O‘ylang va toping. Gapiring.**

Namuna. 1. Har doimgidek, bizning yurtimizda odatda aprel-may oylarida ob-havo *yoqimli bo‘ladi.*

1. Ob-havo yoqimli bo‘ladi.
2. O‘zbek tili boy.
3. Yomg‘ir yog‘moqda.
4. Men o‘qiyapman.
5. Biz uchrashamiz.
6. Ularga yoqadi.
7. U gapirib bermoqchi.
8. Suhbat qisqa bo‘ldi.
9. Siz bilmaysiz.
10. Sen shug‘ullanasan.
11. Toshkent – katta shahar.

31

2. Berilgan matnni diqqat bilan o‘qiting.

3. Matn asosida savollarga javob oling va suhbatlashing.

4. Namuna asosida o‘quvchilarga maktub yozdiring.

Berilgan modal so‘zlar haqida ma’lumot bering.

Diqqat qiling!

Ishonch yoki tasdiq:	albatta, to‘g‘ri, haqiqatan, darhaqiqat, shubhasiz
Gumon:	ehtimol, balki, aftidan, chamasi
Afsuslanish:	afsuski, attang, essiz, baxtga qarshi
Eslatish:	darvoqe, aytgandek

5. Berilgan topshiriqdagi gaplar tarkibidan modal so‘zlarni o‘quvchilarga topib, yozdiring.

6. Berilgan birliklarni namunada keltirilgani kabi kengaytirib yozdiring.

Mustaqil topshiriq. “Toshkentdagi muzeyga sayohat” mavzusida esse yozib kelish vazifasini bering. (50–100 so‘zdan iborat)

KO‘HNA VA NAVQIRON SHAHARLAR

Maqsad: mavzu doirasida o‘z fikrlari, munosabatini ifodalay olish, matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, so‘zlay olish, savollarga atroflicha javob bera olish.

Refleksiya: ko‘hna va navqiron shaharlar to‘g‘risida suhbat o‘tkaziladi, o‘quvchilar tuzib kelgan “Toshkentdagi muzeyga sayohat” mavzusidagi matnlar tekshiriladi.

Vazifalar:

1. Nomlari keltirilgan shaharlar haqida suhbat quring.

2. Berilgan matnni diqqat bilan o‘qiting.

3. Matndan kelib chiqib savollarga javob beriladi.

Diqqat qiling. Grammatik jadvalga e’tibor qaratiladi. Olmoshlar haqida ma’lumot bering.

Men, sen, u, biz, siz, ular.

Mana bu, o‘sha, qaysi, necha, nechta, hamma.

O‘z, har kim, hech narsa, allakim.

4. Jadvalda berilgan vositalar yordamida gap tarkibidagi tushirilgan so‘zlarni tiklating.



Mustaqil topshiriq

“Toshkent muzeyiga sayohat” mavzusida esse yozib keling. (50–100 ta so‘zdan iborat bo‘lsin.)

MAVZU

Ko‘hna va navqiron shaharlar

1 **O‘ylang va toping. Gapiring.**

Tarixiy shaharlar haqida nimalarni bilasiz?

Rim Berlin Istanbul Pekin Rio de Janeyro Parij

2 **O‘qing.**

Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan O‘zbekiston Respublikasi o‘zining ko‘plab tarixiy-me’moriy yodgorliklari, ajoyib tabiiy landshaftlari, qadimgi sivilizatsiyasi qoldiqlari – qal’a xarobalari, turli madaniy tadbirlari, hunarmandchilik ustaxonalari bilan mashhur. Birinchi tashrifingizdan mamlakatimiz sizni yana va yana bu yerga kelishga undaydigan g‘ayrioddiy tuyg‘ularni uyg‘otadi.

O‘zbekistonning har bir burchagi o‘ziga xos: Toshkentda siz dunyodagi eng go‘zal metroda yurishingiz yoki Usmon Qur’onining qadimiy qo‘lyozmasini ko‘rishingiz; YUNESKOning umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan tarixiy shaharlar – Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va Xivada qadimgi me’moriy obidalarni ziyorat qilishingiz, mamlakatning janubiy qismi – Surxondaryo-dagi tog‘ daralari bo‘ylab sayohat qilishingiz yoki Termiz yaqinidagi qadimiy shaharlarning xarobalarini ko‘rishingiz, qish mavsumida Tyanshan etaklarida chang‘i uchishingiz yoki Katta Chimyonning eng yuqori cho‘qqisiga chiqishingiz mumkin.

32

5. Gaplarni diqqat bilan tiklating va bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirtiring.

1. Yaxshilik qilish qo‘lingdan kelmadimi, yomonlik ham qilma. Bu yodingdan chiqmasin.
2. Biz imtihonlarni a’lo baholarda topshirdik. Buning uchun ustozlarimizga tashakkur.
3. Bog‘imizda gullar ochildi. Bu barchani quvontirdi.
4. Bugun shaxmat bo‘yicha jahon chempionati o‘tkazildi. Unda hamyurtimiz g‘alaba qozondi.
5. Ijtimoiy tarmoqlarga odatlanib qolish yomon oqibatlarga olib keladi. Buning oldini olish zarur.
6. Sayyoramiz yildan yilga ifloslanib ketmoqda. Bu holat davom etsa, Yer yuzi yomon holatga kelib qolishi mumkin.

Mustaqil topshiriq. Tahlil qilib kelishni topshiring.

Parij	Buxoro



3 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. O‘zbekistonning qaysi qadimiy shaharlari sizni hayratga soldi? Nima uchun?
2. Sizga Yevropa mamlakatlari bo‘ylab sayohatlar uyushtirish ko‘proq yoqadimi yoki mamlakatimizning qadimiy shaharlarini aylanish?
3. Sizga turizmni rivojlantirish uchun taklif berish imkoniyati taqdim etilsa, qanday taklif bergan bo‘lar edingiz?

Men, sen, u, biz, siz, ular, mana bu, o‘sha, qaysi, necha, nechta, hamma, o‘z, har kim, hech narsa, allakim.

4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘zlar: *o‘zim, hamma, sen, menga, har kim, uni, birovning, nechta, birovda.*

Namuna. _____ bu ishing umuman yoqmadi, dilim og‘ridi.
Menga bu ishing umuman yoqmadi, dilim og‘ridi.

1. Qishloqqa borganingda _____ ko‘rmasdan qaytma.
2. Bugungi bo‘lib o‘tgan ishda _____ aybdor.
3. _____ o‘z qilmishiga yarasha jazo oladi.
4. _____ haqqi _____ qolmas.
5. Yig‘ilishda _____ kishi ishtirok etganini aniqla.
6. Qo‘shning tinch – _____ tinch.
7. Qilgan xatoim uchun _____ javob beraman.

33

5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Yaxshilik qilish qo‘lingdan kelmadimi, yomonlik ham qilma. Bu yodingdan chiqmasin.

1. Biz imtihonlardan a’lo baholar oldik. _____
2. Bog‘imizda gullar ochildi. _____
3. Bugun shaxmat bo‘yicha jahon rekordi o‘rnatildi. _____
4. Ijtimoiy tarmoqlarga odatlanib qolish yomon oqibatlarga olib keladi. _____
5. Sayyoramiz yildan yilga ifloslanib ketmoqda. _____

6 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Shunday savdogarlar borki, *ular butun umr halol luqma bilan yashaydilar.*

Bizda shunday taassurot paydo bo‘ldiki,	ular butun umr halol luqma bilan yashaydilar.
Dugonamning shunday odati borki,	bu odam go‘yo hech kim yecholmagan jumboqni yechgandek.
Ba’zi ota-onalar borki,	u birovning yuziga hech qachon tik qaramaydi.
Shunday savdogarlar borki,	ular farzandlarining taqdiri bilan yetarlicha qiziqmaydilar.

Mustaqil topshiriq

Tahlil qiling.



Buxoro Parij

34

TARIXIY KUTUBXONA

Maqsad: mavzudan kelib chiqqan holda o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ifodalay olish, matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta hikoya qila olish.

Refleksiya: tarixiy va bugungi zamonaviy kutubxonalar yuzasidan suhbat o‘tkaziladi.

Vazifalar:

1. Berilgan mavzu doirasidagi savollarga javob oling va suhbatlashing.

2. Berilgan audiomatnni tinglating yoki o‘zingiz o‘qib bering.

Bodlean kutubxonasi 1602-yilda Tomas Bodli to‘ntarishlardan birida yo‘q qilingan kitoblar va hujjatlarni almashtirish uchun pul va o‘z kolleksiyasining bir qismini xayriya qilganida tashkil etilgan. Bodlean kutubxonasi hozirda onlayn nashrlar va jurnallarni hisobga olmaganda taxminan 11 million jildni o‘z ichiga oladi, ularning barchasidan talabalar va olimlar muntazam foydalanadilar.

Miloddan avvalgi 1200-yilda hozirgi Suriya hududida joylashgan qadimgi shahar Ugarit bir emas, beshta kutubxonasi bilan g‘ururlanar edi. Ulardan ikkitasi shaxsiy edi. To‘plamlarning ko‘pi yirik loy lavhalar bo‘lib, ularning mazmuni kamida yetti tilda yozilgan, ko‘plab sohalarni (shu jumladan, badiiy adabiyot) qamrab olgan.

Kesariya Maritima teologik kutubxonasi. Bir paytlar Xayfa va Tel-Aviv o‘rtasida, Isroilning shimolidagi O‘rta Yer dengizida joylashgan Kesariyada, shaharning Xristian Akademiyasining bir qismi bo‘lgan Kesariya diniy kutubxonasi mavjud edi. Akademiya va kutubxona nasroniy



MAVZU

Tarixiy kutubxonalar

1 **Dunyodagi eng qadimiy kutubxonalar haqida suhbatlashing.**

1. Kitob o‘qish sizga yoqadimi?
2. O‘rtacha hisobda bir yilda darsliklardan tashqari nechta kitob o‘qiysiz?
3. Kitoblarni kutubxonadan olasizmi yoki kitob do‘konlaridanmi?
4. Kutubxonalarga borib turasizmi?
5. Qaysi qadimiy kutubxonalar haqida qiziqarli ma’lumotlarni bilasiz?

2 **Tinglang. Gapiring.**

Qadimgi dunyoning afsonaviy kutubxonalari:

1) Bodlien kutubxonasi;
2) Kesariya Maritima teologik kutubxonasi;
3) Aristotel kutubxonasi.

3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘zlar: *shunday ...-ki; qaysi... -sa, o‘sha...*

Namuna. Kimning dili to‘g‘ri bo‘lsa, *uning yo‘li ham to‘g‘ri.*

1. Shunday insonlar haqida xabar keltirdimki,	uni o‘qiganida qalb huzur topsin.
2. Kimning dili to‘g‘ri bo‘lsa,	odamlar o‘zingni ko‘rmasdan, ismingni eshitib quvonsinlar.
3. Shunday inson bo‘lginki,	uning yo‘li ham to‘g‘ri.
4. Kimning nafsi buzuq bo‘lsa,	undan omad yuz o‘giradi.
5. Shunday xat yozginki,	ularning har bir so‘zi gavhardir.

35

va yahudiylarning ta’lim markazi va matnlar manbayi bo‘lgan, shuningdek, tarixiy va falsafiy yunon adabiyotini o‘z ichiga olgan. Taxminlarga ko‘ra, kutubxonada 30 000 dan ortiq qo‘lyozma mavjud edi. Ushbu kutubxona VII asrda arablar tomonidan yo‘q qilingan.

Aristotel kutubxonasi shaxsiy kolleksiya bo‘lib, u haqida bizgacha juda kam ma’lumotlar yetib kelgan. Birinchi asrda yashagan Strabon ismli geograf u haqida shunday deb yozgan edi: “Birinchi odam, men bilishimcha, kitoblar yig‘ib, Misrdagi shohlarga kutubxona tashkil qilishni o‘rgatgan”. Ba’zilarning fikricha, Aristotel kolleksiyasi Buyuk Iskandariya kutubxonasining asosi bo‘lgan.



4 **O‘qing.**

Fan olamida shunday olimlar ijod qilib o‘tganki, ular yaratgan ilmiy g‘oya va kashfiyotlar yangi yo‘nalishlarning vujudga kelishiga sababchi bo‘lgan. Ana shunday tengi yo‘q iqtidor sohiblaridan biri Albert Eynshteyndir. Uning nomi zamonaviy fizika sohasida ochilgan ko‘plab qonuniyatlar bilan chambarchas bog‘langan.

Albert Eynshteyn 1879-yilning 14-mart kuni Germaniyaning Ulma shahrida tug‘ildi. Yoshligidan tabiiy fanlarga shunday mehr qo‘ydiki, bu fanlarning sirli olami uning butun borlig‘ini chulg‘ab oldi. 1896-yilda Syurix texnologiya institutiga o‘qishga kirdi. U shunday qobiliyatga ega ediki, bir marta eshitgan narsasini hech o‘zgarishsiz qayta hikoya qilib beraverardi.

Institutni bitirgandan so‘ng ketma-ket ilmiy g‘oyalari bayon etilgan maqolalarini nashr qildira boshladi. E’lon qilgan har bir maqolasi fizika fanida katta kashfiyot bo‘ldi.

1905-yili “Maxsus nisbiylik nazariyasi” deb nomlangan asari orqali fanga nisbiylik nazariyasini olib kirdi.

XX asrning buyuk olimi, Nobel mukofoti sovrindori darajasiga ko‘tarilgan Albert Eynshteyn 1955-yilning 18-aprelida vafot etdi.

(“Nobel mukofoti sohiblari” kitobidan)

5 **Savollarga javob bering.**

Namuna. Fan olamida *shunday* olimlar ijod qilib *o‘tganki,* ular yaratgan ilmiy g‘oya va kashfiyotlar yangi yo‘nalishlarning vujudga kelishiga sababchi bo‘lgan.

1. Kashfiyotlar dunyosi deganda ko‘z o‘ngingizda dastlab kimlar namoyon bo‘ladi?
2. “Kashfiyot” atamasini dastlab kim fanga olib kirgan va qaysi kashfiyoti uchun?
3. “Maxsus nisbiylik nazariyasi” deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil topshiriq

Dunyodagi eng kichik o‘lchamli kitoblar haqida ma’lumotlar toping va yozib keling.

36

3. Berilgan gaplarning ikkinchi qismini toptirib, yozdiring.

4. Berilgan matnni diqqat bilan o‘qiting.

5. Berilgan matn asosida tuzilgan savollarga o‘quvchilardan javob oling va suhbatlashing.

Mustaqil topshiriq. Dunyodagi eng kichik o‘lchamli kitoblar haqida ma’lumotlar toping va yozib kelish vazifasini bering.

KITOB VA MUTOLAA

Maqsad: mavzu doirasida fikrni og‘zaki va yozma ifodalay olish, faktologik audiomatnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta hikoya qilish, mustaqil gaplar tuza olish, savollarga to‘liq va batafsil javob bera olish.

Refleksiya: kitob va mutolaaning bugungi kundagi dolzarbligi masalasi haqida savol-javob o‘tkaziladi.

Vazifalar:

1. Berilgan ikkita mustaqil so‘zdan namunada keltirilgan kabi so‘z birikmasi hosil qildiring.

2. Tinglash uchun berilgan matnni tinglating yoki o‘qib bering.

MAVZU **Kitob va mutolaa**





1 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Kitobxon + madaniyat – *madaniyatli kitobxon.*

1. Ixtisoslik + kitob + do’kon.
2. Ilm + texnika + adabiyot.
3. O’qish + uslub + adabiyot.
4. Ilm + omma + manba.

2 **Tinglang. Savollarga javob bering.**

Kutubxonada



1. Nima uchun muallif kutubxonaga borishni yaxshi ko‘radi?
2. Kutubxonada ishlash tartibi qanday?
3. Kutubxona xodimlari qanday ishlashadi?
4. Sizningcha, zamonaviy kutubxona qanday bo‘lishi kerak?
5. Siz kutubxonaga borib turasizmi? Qaysi kutubxonaga?
6. Sizning kutubxonangizda bolalar uchun adabiyotlar ko‘pmi?
7. Kutubxonangizda sizga nima yoqadi va nima yoqmaydi?
8. Siz boradigan kutubxonada xushmuomala va mehribon xodimlar ishlaydimi?

37

Kutubxonada

Albatta, o‘qish – inson hayotining eng muhim qismi, lekin darsdan keyin ham o‘qish kerak. Maktabni tugatgandan keyin bunga vaqtim yetmasligi mumkin. Shuning uchun men o‘zimga o‘zim: “Vaqtim bor ekan – o‘qiyman”, – deb so‘z berdim.

Men uyga berilgan vazifalarni bajarib bo‘lganimdan keyin odatda uyimiz yaqinidagi kutubxonaga boraman. Kutubxonada kitob o‘qib o‘tirishni yaxshi ko‘raman. U yer tinch, osoyishta, diqqatni hech kim buzmaydi.

Kutubxonamiz juda boy va zamonaviy deb ayta olmayman. Lekin bolalar uchun qiziqarli adabiyotlarni bu yerdan topsa bo‘ladi. U yerda noyob, o‘tgan asrlarda chop etilgan kitoblar ham bor.

Kutubxonadagi adabiyotlar katalogi alohida qutichalarda joylashtirilgan. Bundan tashqari, kitoblarning nomlari va mualliflari to‘g‘risidagi ma’lumotlar kutubxonadagi kompyuterga kiritilgan. Men kitoblarni kompyuterdan izlashni yaxshi ko‘raman. Faqat ba’zida o‘quvchilar ko‘p bo‘lsa, biroz kutishga to‘g‘ri keladi. Kompyuterdan kerakli adabiyotlar haqidagi ma’lumotlarni yozib olib, kutubxonachiga buyurtma beraman. Buyurtmam tayyor bo‘lguncha davriy nashrlar zaliga kirib o‘tiraman. U yer-

da yangi kelgan o‘zbek, rus, ingliz tilidagi gazeta va jurnallarni o‘qiyman.

Kutubxonamizda juda yaxshi xodimlar ishlaydi. Ular xushmuomala, o‘z vazifalarini yaxshi bajarishadi. Kitobxonlarga har doim kerakli kitobni topishga yordam berishadi, kutubxona fondidan qanday foydalanish kerakligini tushuntirishadi.

3. Tinglash uchun berilgan matn asosida o‘quvchilardan savollarga javob oling.

4. Berilgan gaplarga mos so‘zlarni qo‘ydirib, namunadagi kabi yozdiring.

5. Berilgan savollarni o‘quvchilarga yo‘llang va ulardan mustaqil fikrlarini so‘rang.

Mustaqil topshiriq. Kuchli taassurot qoldirgan kitob haqida esse yozib kelish vazifasini bering.



3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Hozirgi kunda qog‘ozli kitoblarga qiziqish ~~*yo‘q*~~*/kamroq.*

1. Hozirgi yoshlar kitob o‘qishga *qiziqmaydilar/qiziqadilar.*
2. Internet bo‘lsa, kitoblarning keragi *yo‘q/kerak.*
3. Davriy nashrlarga *obuna bo‘lish/ularni sotib olish* qulayroq.

4 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Kitoblarni o‘qishga qancha vaqt ajratish kerak deb o‘ylaysiz?
2. Birinchi o‘qigan kitobingizning nomi nima? Bolaligingizda o‘qigan qaysi kitoblar xotirangizda qolgan?
3. Yangi chop etilayotgan kitoblarni kuzatib borasizmi? Ularning nimasi sizga yoqadi, nimasi yoqmaydi?
4. Siz yashayotgan hududda kiyim-kechak, oziq-ovqat do‘konlarida xaridorlar ko‘pmi, kitob do‘konlaridami?
5. Asqad Muxtorning “Kitob – boylik. Lekin sotib olingani emas, o‘qilgani”, degan iborasini qanday tushunasiz?
6. Javoningizda qayta-qayta o‘qiydigan, sog‘inib qo‘lga oladigan kitob bormi? Uning nomi nima?
7. Hozir nafaqat bolalar, balki ularning ota-onalari ham kitob o‘qimaydi. Bu fikrga qo‘shilasizmi? Odamlarni kitob o‘qishga qanday qiziqtirsa bo‘ladi?
8. Agar adabiyot bo‘yicha “Top-10” tuzilsa, unga qaysi kitoblarni kiritgan bo‘lardingiz?
9. Shu kunlarda qanday kitob o‘qiyapsiz?
10. Tengdoshlaringizga qaysi kitoblarni o‘qishni tavsiya qilasiz?

Mustaqil topshiriq

Sizda kuchli taassurot qoldirgan kitob haqida esse yozing.

AFSONALAR

TO‘MARIS

Maqsad: mavzu doirasida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda ifodalay olish, audiomatn va faktologik matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta so‘zlay olish, savollarga to‘liq javob bera olish.

Refleksiya: afsonalar haqida savol-javob o‘tkazish, mustaqil bajarish uchun berilgan topshiriqni ko‘rib chiqish.

Vazifalar:

1. Berilgan so‘zlar asosida namunada ko‘rsatilgani kabi gaplar tuzdiring.

2. Diqqat bilan o‘qiting.

3. Yuqoridagi matn asosida o‘quvchilarga savollar bilan murojaat qiling va suhbatlashing.

4. Topshiriqda tinglash uchun berilgan matnni tinglating. Berilgan topshiriqdagi ma’lumotlardan to‘g‘risini aniqlating.

To‘maris afsonasi

“Eramizdan avvalgi VI asrda Amudaryo yoqalarida massagetlar qabilasi yashagan. Ularga To‘maris ismli ayol boshchilik qilgan. Eron shohi Kir II massagetlarni o‘ziga qaram qilish niyatida To‘marisga uylanmoqchi bo‘lib, sovchilar yuborgan. To‘maris Kir II ning asl maqsadini tushunib, unga rad javobini bergan. Shundan so‘ng Kir II ochiq tajovuzga o‘tgan. To‘maris urushning oldini olishga, behuda qon to‘kmaslikka harakat qilgan. Lekin uning urinishlari behuda



Afsonalar

MAVZU To‘maris

1 O‘ylang va toping. Yozing.

afsona | mif | Shiroq | To‘maris | Kentavr | Gerakl | Axilles | Zevs

Namuna. Qadimgi yunon afsonalari ***rang-barang*** va ***qiziqarli***dir.

2 O‘qing. Savollarga javob bering.

TO‘MARIS AFSONASI

Miloddan avvalgi VI asrda Amudaryo yoqalarida massagetlar qabilasi yashagan. Ularga To‘maris ismli ayol boshchilik qilgan. Eron shohi Kir II massagetlarni o‘ziga qaram qilish niyatida To‘marisga uylanmoqchi bo‘lib, sovchilar yuborgan. To‘maris Kirning asl maqsadini tushunib, unga rad javobini bergan. Shundan so‘ng Kir II ochiq tajovuzga o‘tgan. To‘maris urushning oldini olishga, behuda qon to‘kmaslikka harakat qilgan. Lekin uning urinishlari behuda ketdi. Kir II Amudaryo bo‘yiga kelib, uning ustiga ko‘prik qurdira boshladi. Katta qo‘shinni shu ko‘prikdan o‘tkazib, massagetlarga qarshi urush ochdi. To‘maris Kir II ga elchi orqali shunday maktub yubordi:

“Ey shoh! Qilayotgan ishingni to‘xtat! Hali sen boshlagan ishingni qanday tugashini bilmaysan-ku! Qo‘y, sen o‘z yurtingda podsholik qilaver, bizni ham o‘z holimizga qo‘y. Lekin bilaman, baribir nasihatimni qabul qilmaysan, chunki senga tinchlik, osoyishtalikdan ko‘ra mo‘may boylik kerak. So‘zimizga

39

ketadi. Kir Amudaryo bo‘yiga kelib, uning ustiga ko‘prik qurdira boshlaydi. Katta qo‘shinni shu ko‘prikdan o‘tkazib, massagetlarga qarshi urush ochadi. To‘maris Kir II ga elchi orqali maktub yuboradi.

Kir II To‘marisning maktubi bilan tanishganidan keyin lashkarboshilarini to‘plab, kengash o‘tkazdi. Lashkarboshilarning aksariyati massagetlar bilan shu yerda, daryo bo‘yida urishmoqni afzal ko‘rdilar. Faqat lashkarboshi Krez massagetlar uch kunlik yo‘lga, cho‘l ichiga ko‘chib ketganlaridan keyin urush boshlash lozim, deb taklif qildi.

Kir II Krezning taklifini qabul qildi va To‘marisga xat yozdi.

Massagetlar To‘maris boshchiligida uch kunlik yo‘l bosib, cho‘lga chekindilar. Shundan keyin Kir II qo‘shinining bir qismini daryo bo‘yida qoldirib, daryodan o‘tdi va lashkari bilan massagetlarning qo‘liga tushdi.

To‘maris daryo bo‘yida pistirma qoldirib ketgan edi. Pistirmadagi lashkarlar Kir II ning qoldirib ketgan lashkarini tor-mor keltirib, qurol-aslaha, chodirlari va kiyim-kechaklarini o‘lja qilib oldilar. Ular uxlab yotganlarida Eron lashkarlari bostirib kelib, ko‘pchiligini asirga oldilar. Asirga tushganlar ichida To‘marisning o‘g‘li Sparganis ham bor edi. To‘maris bo‘lgan voqeadan xabar topgach, Kir II ga maktub yo‘lladi.

Lekin Kir II uning gapiga quloq solmadi. To‘marisning o‘g‘li asirga tushgach, o‘zini o‘ldirdi. To‘maris



quloq solging kelmasa, bilganingni qil! Agar urushmoqchi bo'lsang, bizga bitta imkon ber. Odamlarimizni daryo bo'yidan uch kunlik yo'lga, cho'l ichiga olib ketaylik. Keyin qo'shining bilan bostirib kiraver. Agar biz bilan daryo qirg'og'ida urushmoqchi bo'lsang, bunga ham qarshi emasmiz. Faqat nomardlik qilma".

Kir II To'marisning maktubi bilan tanishganidan keyin lashkarboshilarini to'plab, kengash o'tkazdi. Lashkarboshilarning aksariyati massagetlar bilan shu yerda, daryo bo'yida urushmoqni afzal ko'rdilar. Faqat lashkarboshi Kryoz massagetlar uch kunlik yo'lga, cho'l ichiga ko'chib ketganlaridan keyin urush boshlash lozim, deb taklif qildi.

Kir II Kryozning taklifini qabul qildi va To'marisga shunday xat yozdi: *"Taklifingni qabul qildim. Mayli, uch kunlik cho'l ichiga ko'chib o'tinglar. Ammo nima bo'lganda ham, men senlarning kullaringni ko'kka sovuraman".*

Massagetlar To'maris boshchiligida uch kunlik yo'l bosib cho'lga chekindilar. Shundan keyin Kir II qo'shinining bir qismini daryo bo'yida qoldirib, daryodan o'tdi va lashkari bilan massagetlarning qo'liga tushdi.

To'maris daryo bo'yida pistirma qoldirib ketgan edi. Pistirmadagi lashkarlar Kir II ning qoldirib ketgan lashkarini tor-mor keltirib, qurol-aslaha, chodirlari va kiyim-kechaklarini o'lja qilib oldilar. Biroq massaget askarlari uxlab yotganlarida Eron lashkari bostirib kelib, ko'pchiligini asirga oldi. Asirga tushganlar ichida To'marisning o'g'li Sparganis ham bor edi. To'maris bo'lgan voqeadan xabar topgach, Kir II ga quyidagi maktubni yo'lladi:



"O, qonxo'r Kir! Yaxshilik bilan uni qaytarib ber va yurtingga qayt! Aks holda, qasam ichamanki, seni o'z qoningga to'yduraman".

Lekin Kir II uning gapiga quloq solmadi. To'marisning o'g'li asirga tushgach, o'zini o'ldirdi. To'maris bor lashkarini olib, Kir II ustiga yurish qildi. Bu urushda Kir II halok bo'ldi. Malika uning boshini qon to'ldirilgan meshga solishni buyurdi.

Massagetlar bilan Eron shohi Kir II o'rtasidagi bu urush tillarda doston bo'ldi.

1. To'maris afsonasi necha yillik tarixga ega?
2. To'marisning askarlari qanday jasorat ko'rsatgan?
3. Hozirgi zamonamizda To'marisdek ayollar bormi? Ular kimlar?

3 **O'ylang va toping. Gapiring.**

1. *To'maris / ~~Kir II~* miloddan avvalgi VI asrda massaget qabilasiga bosh bo'lgan.
2. Eron shohi *Kir II / To'maris* ga qarshi kurash olib borgan.
3. Qadimgi zamonlarda Amudaryo yoqalarida *massagetlar / saklar* yashar edilar.
4. Kir II *Amudaryo / Sirdaryo* bo'yiga kelib, uning ustiga ko'prik qurdira boshladi.
5. Lashkarboshi Kryoz massagetlar *uch / to'rt* kunlik yo'lga, cho'l ichiga ko'chib ketganlaridan keyin urush boshlashni taklif qildi.
6. Bo'lib o'tgan jangda *To'maris / Kir II* mag'lub bo'ldi.

4 **O'ylang va toping. Yozing.**

1. Massagetlar Amudaryo bo'yida yashagan.
2. Massagetlarga Kir II boshchilik qilgan.
3. To'maris askarlari bilan 4 kunlik cho'l yo'liga chiqqan.
4. Kir II ning o'g'li Sparganis asirga tushgan.
5. Qonli urushda Kir II halok bo'lgan.

Mustaqil topshiriq

Ushbu QR kodda berilgan videolavhani ko'rib, uni qanday tushunganingizni gapirib bering.

bor lashkarini olib, Kir II ustiga yurish qildi. Bu urushda Kir II halok bo‘ldi. Malika uning boshini qon to‘ldirilgan meshga solishni buyurdi.

Massagetlar bilan Eron shohi Kir II o‘rtasidagi bu urush tillarda doston bo‘ldi.

5. Berilgan topshiriqning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlating.

Mustaqil topshiriq. https://www.youtube.com/watch?v=Ae7Z_HY7UCs da berilgan videolavhani ko‘rish va tushunganlarini so‘zlab berishni topshiring.

SHIROQ

Maqsad: mavzudan kelib chiqqan holda mustaqil fikrlay olish, mulohazalarini og‘zaki va yozma nutqda bayon eta olish, audiomatn, faktologik matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta hikoya qila olish, savollarga batafsil javob bera olish.

Refleksiya: afsonalarni hayotga qay darajada yaqinligi xususida suhbat uyushtiriladi.

Vazifalar:

1. Berilgan audiomatnni eshittiring yoki o‘qib bering.

Jasur cho‘pon

Shiroq – ahamoniylar podshosi Doro bosqiniga qarshi kurashgan xalq qahramoni.

Eramizdan avvalgi V asrda Eron shohi Doro qo‘shini Turon hududiga bostirib kirgan. Doro qo‘shini bilan saklar o‘rtasida urush borardi. Sak qabilalari oqsoqollari fors harbiy kengash o‘tkazayotganda ularning huzuriga sak podachilaridan Shiroq kelib, o‘z rejasini bayon qilgan.



MAVZU **Shiroq**

1 **Tinglang.**

JASUR CHO‘PON

2 **Savollarga javob bering.**

1. Shiroq afsonasi haqida bilarmidingiz?
2. Afsonaning asosiy g'oyasi nima haqida?
3. Shiroqqa tavsif bering.
4. Doroga ta'rif bering.
5. Vatanga muhabbat, burch, sadoqat tuyg'ularini yana qaysi afsonaviy timsollarda ko'rishimiz mumkin?

3 **O‘qing.**

SHIROQ AFSONASI

Shiroq – Turon xalqlarining qahramoni. U Doro I bosqiniga qarshi kurashgan. Shiroq nomi birinchi marta yunon tarixchisi va notig'i Poliyenning "Harbiy hiylalar" asarida tilga olingan.

Sak qabilalari oqsoqollari – Sakfar, Omarg va Oamiris fors qo'shinini yengish uchun harbiy kengash o'tkazayotganda ularning huzuriga oddiy otboqar Shiroq kelib, o'z rejasini bayon qilgan. Rejaga ko'ra, Shiroq o'z qabilasini qutqarish uchun harbiy hiyla ishlatgan.

Shiroq Doro I qarorgohiga kelib, o'z qabiladoshlaridan nohaqlik ko'rganidan shikoyat qiladi. Eron qo'shinini saklar qabilasi turgan yerga qisqa yo'l bilan olib borishini aytadi va ularni Qizilqum cho'li ichkarisiga boshlaydi. Eron qo'shini "yo'lboshlovchi"ning maslahati bilan faqat 7 kunga yetadigan

42



suv, oziq-ovqat va yem-xashak olgan edi. Jazirama issiqda cho'lni kesib o'tayotgan dushman qo'shini holdan toyadi, oziq-ovqati ham tugaydi.

Nihoyat yettinchi kuni eronliklar aldanganini payqaydilar. Shiroq atrofini qurshab olgan shoh Doro I va uning sarkardalariga qarata quyidagi so'zlarni aytgan: "Men yolg'iz o'zim Doro qo'shinini yengdim. Sizlarni aldab, cho'lning qoq o'rtasiga olib keldim. Xohlagan tomoningizga ketishingiz mumkin, vohagacha to'rt tomoningiz ham yetti kunlik yo'l!"

Dahshatga tushgan shoh va uning sarkardalari Shiroqqa yolvorib, unga suvsiz cho'ldan olib chiqishi uchun katta boylik va'da qilishadi. Shiroq vatan ozodligi yo'lida jonini fido qilishini aytgach, Doro I ning sarkardasi Ranosbat uni qilich bilan chopib tashlaydi. Qo'shinning asosiy qismi suvsizlik va ochlikdan Qizilqum cho'lida qirilib ketadi. Faqat Doro I va uning oz sonli a'yonlari yomg'ir yog'ishi tufayli halokatdan qutulib, Baqtra daryosi qirg'og'igacha yetib kelishgan.

4 **O'ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Vatanga sadoqat *har bir kishining muqaddas burchidir.*

~~Vatanga sadoqat~~, mashaqqatli kasb, muqaddas burch, vatan madhi, vatan himoyachisi, yurt qalqoni.

5 **O'ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so'zlar: ~~shunday qilib,~~ menimcha, nihoyat, albatta, qisqasi, afsus.

Namuna. 1. *Shunday qilib,* safar hammamiz uchun foydali bo'ldi.

1. _____ safar hammamiz uchun foydali bo'ldi.
2. Biz _____ sizni kutamiz.
3. _____ hammamiz to'plandik.
4. Bu bola _____ yonimizdagi maktabda o'qiydi.
5. _____ ishimizni oxirigacha yetkaza olmadik.
6. _____ qo'zichoqni bo'ri yebdi o'rmonda.

Mustaqil topshiriq

"Milliy qahramonlar" mavzusida esse yozib keling.

43

Shiroq Doro qarorgohiga kelib, unga qabiladoshlari nohaq sitam yetkazgani uchun (uning burni va quloqlari kesilgan edi) saklar qabilasi turgan yerga qisqa yo'l bilan olib borishini aytib, dushman qo'shinini Qizilqum cho'li ichkarisiga boshlaydi. Eron qo'shini Shiroqning maslahati bilan faqat 7 kunga yetadigan suv, oziq-ovqat va yem-xashak olgan edi. Jazirama issiqda cho'lni kechib o'tayotgan dushman qo'shini holdan toyib, oziq-ovqat ham tugaydi. Atrof suvsiz va quruq sahrodan iborat. Nihoyat, muhlatning 7-kunida dushman qo'shini aldanganini anglaydi. Doroning qo'shin boshlig'i Shiroqdan ularni aldab, na olg'a yurish, na yurtga qaytish mumkin bo'lmagan sahroga boshlab kelishdan maqsading nima deb so'raydi. Shiroq shunday deydi: "Men yolg'iz o'zim Doro qo'shinini yengdim. Sizlarni aldab, cho'lning qoq o'rtasiga olib keldim. Xohlagan tomoningizga ketishingiz mumkin, vohagacha to'rt tomoningiz ham 7 kunlik yo'l!"

Dahshatga tushgan shoh va uning sarkardalari Shiroqqa yolvorib, unga suvsiz cho'ldan olib chiqishi uchun katta boylik va'da qilishadi. Shiroq rad javobini beradi. Shundan keyin uni qilich bilan chopib tashlaydilar. Qo'shinning asosiy qismi suvsizlik va ochlikdan Qizilqum cho'lida qirilib ketgan. Faqat Doro va uning oz sonli odamlari yomg'ir yog'ishi natijasida halokatdan qutulib, Baqtra daryosi (Amudaryo) qirg'og'igacha yetib kelishgan.

2. Yuqoridagi matnga tayangan holda o'quvchilardan mazkur savollar asosida javob oling va suhbatlashing.

3. Diqqat bilan o'qiting.

4. Berilgan so'z birikmalaridan foydalangan holda namunadagi kabi gaplar tuzdiring.

5. Foydalanish uchun berilgan so'zlardan foydalanib nuqtalarni o'rnini to'ldirtiring.

Mustaqil topshiriq. "Afsonaviy qahramonlar" mavzusida esse yozib kelish vazifasini bering.

BAOBAB AFSONASI

Maqsad: o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha mustaqil fikrlarini og‘zaki va yozma nutqda bildira olish, matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta so‘zlab bera olish, savollarga to‘liq javob bera olish.

Refleksiya: asotirlar haqida suhbat o‘tkaziladi, mustaqil topshiriq sifatida tuzilgan matn ko‘rib chiqiladi.

Vazifalar:

1. Diqqat bilan o‘qiting.

2. Yuqoridagi matn asosida tuzilgan savollar yuzasidan suhbat quring.

3. Audiomatnni o‘quvchilarga tinglating yoki o‘zingiz o‘qib bering. Matn asosida berilgan ma’lumotlarga o‘quvchi “Ha” yoki “Yo‘q” javobini bersin.

Baobab afsonasi

Mag‘rurlik va takabburlik qimmatga tushadigan fazilat bo‘lib, ba’zi Afrika xalqlarining mentalitetida ham uchraydi. **Takabburlikning ta’siriga ishora qiluvchi afsona ham bor**.

Afsonalarga ko‘ra, baobab daraxti sayyoradagi eng go‘zal daraxt hisoblangan, shu sababli barcha mavjudotlar unga qoyil qolishgan. Hatto xudolar ham uning go‘zalligidan hayratda edilar.

Vaqt o‘tishi bilan daraxt o‘z-o‘zidan juda faxrlanib, boshqa daraxtlar va mavjudotlar uchun quyosh nurlarini to‘sib qo‘ydi. **Tez orada xudolari da-**



MAVZU **Baobab afsonasi**

1 O‘qing.

BAOBAB AFSONASI

Mag‘rurlik va takabburlik qimmatga tushadigan illatdir. Bu haqda Afrika xalqlarining bir afsonasi bor.

Afsonalarga ko‘ra, baobab daraxti sayyoradagi eng go‘zal daraxt hisoblangan, shu sababli barcha mavjudotlar unga qoyil qolishgan. Hatto ma’budlar ham uning go‘zalligidan hayratda edilar.

Vaqt o‘tishi bilan daraxt o‘z-o‘zidan juda faxrlanib, boshqa daraxtlar va mavjudotlar uchun quyosh nurlarini to‘sib qo‘yadi. Tez orada ma’bud darajasiga ko‘tarilishini aytadi. Ma’budlar baobabning takabburligidan g‘azablandilar. Ular daraxtni teskari o‘sishga hukm qildilar: uning gullari yer ostida o‘sadigan, ildizlari esa havoga ko‘tariladigan bo‘lib qoladi.

2 Savollarga javob bering.

1. Baobab qanday daraxt, u qayerda o‘sadi?
2. Daraxtlar haqida qanday afsonalar eshitgansiz?

3 O‘ylang va toping. Yozing.

1. Afsonalarga ko‘ra, baobab daraxti sayyoradagi eng go‘zal daraxt deb hisoblangan.
2. Baobabning gullari yer ustida o‘sadi.
3. Baobab daraxti sehrli kuchga egaligi bilan ajralib turgan.
4. Hatto ma’budlar ham baobabning go‘zalligidan hayratda edilar.

44

4 Gapiring.

Tarixiy shaxslar haqida suhbatlashing.





5 O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna. Birinchidan / ikkinchidan / o‘qib chiqish kerak / diqqat bilan / so‘zlab berish kerak / matnni / uning mazmunini.

Birinchidan, matnni diqqat bilan o‘qib chiqish kerak, ikkinchidan, uning mazmunini so‘zlab berish kerak.

1. shanba kuni / demak / soat 16.00 da bo‘ladi / ota-onalar majlisi.
2. yutqazib qo‘ydi / musobaqada / futbol jamoamiz / afsus.
3. eng baxtli / shubhasiz / dunyoda / men / insonman.
4. uni / ertaga / ehtimol / ko‘rarman / men.

6 O‘ylang va toping. Yozing.

Foydalanish uchun so‘zlar: *ehtimol, shubhasiz, dastlab, avvalo*

1. Afsonaviy baobab daraxtini _____ Afrikada shu nom bilan atashgan.
2. _____, baobab daraxti sayyoramizdagi eng go‘zal daraxt hisoblanadi.
3. Baobab daraxtining teskari o‘sishiga sabab, _____, uning takabburligi tufayli g‘azabga uchraganidir.
4. _____, bu afsona Afrika xalqlarining o‘tmishi bilan bog‘liqdir.

Mustaqil topshiriq

“Afsonaviy qahramonlar”. Qadimiy afsonalarga doir 6–7 ta savol tuzib, ularni sinfdoshlaringizga bering va fikr almashing.

45

rajasiga ko‘tarilishini aytdi. Xudolar baobabning takabburligidan g‘azablandilar. Ular daraxtni teskari o‘sishga hukm qildilar: uning gullari yer ostida o‘sadi, faqat uning ildizlari havoga ko‘tariladi. Shuning uchun bu daraxtlar endi boshqalar bilan taqqoslaganda juda o‘ziga xos va g‘ayrioddiy ko‘rinishga ega.

4. Tarixiy shaxslar haqida suhbatlashing.

5. Tarkibi o‘zgargan shaklda berilgan gaplarni odatiy tartibiga qaytarib yozdiring.

6. Foydalanish uchun berilgan so‘zlar yordamida nuqtalar o‘rnini to‘ldirtiring.

Mustaqil topshiriq. Qadimiy afsonalarga doir 6-7 ta savol tuzib kelish vazifasini bering.

RIVOYATLAR

Maqsad: mavzu doirasida o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma nutq ko‘rinishida ifodalay olish, audiomatnni tinglab tushunish, faktologik matnni qayta hikoya qila olish, savollarga to‘liq va asosli javob bera olish, modal so‘zlar turlarini og‘zaki va yozma nutqda o‘rinli va to‘g‘ri qo‘llay olish.

Refleksiya: rivoyat turlari haqida savol-javob o‘tkaziladi. Mustaqil topshiriq asosida tuzilgan savollar javoblantiriladi..

Vazifalar:

1. Berilgan savollar asosida o‘quvchilarni o‘zaro suhbatlashtiring.

2. Diqqat qilib o‘qiting.

3. Yuqorida o‘qish uchun berilgan matn asosida tuzilgan savollarga o‘quvchilardan javob oling.

4. Tinglash uchun berilgan audiomatnni qo‘yib bering yoki o‘zingiz o‘qib bering.

Xitoy va Markaziy Osiyo shaharlarini O‘rtayer dengizi mamlakatlari bilan bog‘lovchi Buyuk ipak yo‘li ko‘p asrlar davomida ushbu hududlar o‘rtasidagi savdo va madaniyat



MAVZU **Rivoyatlar**

1 **Savollarga javob bering.**

1. Buyuk ipak yo‘li haqida nimalarni bilasiz?
2. Buyuk ipak yo‘li O‘zbekistonning qaysi shaharlari orqali o‘tgan?
3. Buyuk ipak yo‘lining yo‘nalishi hozir ham mavjudmi?

2 **O‘qing.**

BUYUK IPAK YO‘LI

Buyuk ipak yo‘li haqidagi dastlabki ma’lumotlar miloddan avvalgi II asrga tegishlidir. Bu insoniyat tarixida Sharq va G‘arb dunyosini bir-biri bilan bog‘lagan birinchi xalqaro, qit’alararo yo‘l edi.

Ushbu karvon yo‘lini ilk bor venetsiyalik savdogar Marko Polo “Ipak yo‘li” deb nomlagan. U yevropaliklar orasida birinchi bo‘lib Xitoy imperiyasining chegaralariga yetgan. “Buyuk ipak yo‘li” atamasini esa fanga nemis tadqiqotchisi Ferdinand Rixtgofen 1877-yilda kiritgan.

Karvon yo‘llaridagi savdoning asosiy buyumi qimmatbaho ipak mahsulotlari edi.

Biroq ipakdan boshqa mollar ham ushbu yo‘l orqali tashilar edi. Markaziy Osiyodan Xitoyga qimmatbaho otlar, tuyalar, harbiy anjom va qurol-yarog‘lar, oltin va kumush, qimmatbaho toshlar va shisha buyumlar, teri va jun-mo‘ynalar, gilamlar-u ip gazlamalar, zar tikilgan matolar, tarvuz, qovun va shaftolilar, yirik dumbali qo‘ylar va ovchi itlar, qoplon va arslonlar olib borib sotilar edi. Xitoydan karvonlar chinni va metall idishlar, loklangan buyumlar, upalar, choy va guruch olib kelar edi.

Ipak yo‘li Xitoyning qadimiy poytaxti – Chanan shahridan boshlanib, uning shimoli-g‘arbiy chegaralarigacha Gobi sahrosining cheti bo‘ylab ketgan, keyin Sharqiy Turkiston orqali o‘tgan. Karvonlarning bir qismi Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasi orqali Samarqand, Buxoro, Xorazmga, keyin esa Kaspiy dengizi qirg‘oqlariga qarab ketar edi. Boshqa karvonlar esa Samarqanddan chiqib, Baqtriyaga borar va Qashqadaryo vodiysidan o‘tib, Termiz shahriga kelar, shu yerda Amudaryodan kechib o‘tib, Hindistonga qarab ketar edi.

Yo‘lning yana bir yo‘nalishi Eron, Suriya davlatlari orqali o‘tib, O‘rta dengiz bo‘yiga yetib kelar, bu yerdan mahsulotlarning bir qismi dengiz yo‘li orqali Rim va Yunonistonga olib o‘tilar edi.

Turli davrlarda Buyuk ipak yo‘lining Markaziy Osiyodagi asosiy manzillari vazifasini Qo‘qon, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari bajargan.

46

almashinuv jarayonlarida muhim rol o‘ynagan. U miloddan avvalgi II asrda Xitoy va Farg‘ona vodiysi shaharlari o‘rtasidagi savdo yo‘li sifatida yuzaga kelgan bo‘lib, keyinroq Sharq va G‘arb o‘rtasidagi muhim transport aloqa yo‘li maqomini egalladi va o‘rta asrlarga qadar amal qildi.



3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

1. Buyuk ipak yo‘li qanday yo‘l edi?
2. Nima uchun aynan shu nom bilan nomlangan?
3. Buyuk ipak yo‘li qaysi hududlardan o‘tgan?
4. Buyuk ipak yo‘li tufayli qaysi davlat eng ko‘p daromad topgan?

4 **Tinglang. O‘ylang va toping.**

1. Xitoy va Markaziy Osiyo shaharlarini Kaspiy dengizi mamlakatlari bilan bog‘lovchi Buyuk ipak yo‘li ko‘p asrlar davomida ushbu hududlar o‘rtasidagi savdo va madaniyat almashinuv jarayonlarida muhim rol o‘ynagan.
2. Buyuk ipak yo‘lining asosiy qismi Osiyoning cho‘l hududlaridan o‘tgan.
3. U miloddan avvalgi II asrda Xitoy va Farg‘ona vodiysi shaharlari o‘rtasida savdo yo‘li sifatida vujudga kelgan.
4. Qimmatbaho yuklarni tashish uchun savdogarlar qizib turgan qumlarda yurishga juda yaxshi moslashgan otlardan ko‘proq foydalangan.
5. Noyob muhandislik inshootlari yo‘lning har 12–15 kilometrida bo‘lib, 150–200 tuyadan iborat karvonning chanqog‘ini qondira olgan.

5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘zlar: *Amir Temur, harbiy qo‘riqchilar, ilm-fan taraqqiyotida, bekatlari, ~~Osiyoni~~, karvonsaroylar, bunyod etilgan, Amir Temur va temuriylar.*

Namuna. Qadimda Buyuk ipak yo‘li _____ dunyo bilan bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘tagan.
Qadimda Buyuk ipak yo‘li Osiyoni dunyo bilan bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘tagan.

1. _____ Buyuk ipak yo‘liga o‘zaro hamkorlik, hamjihatlik, do‘stlik asoslaridan biri sifatida qaraganlar.
2. _____ davrida Buyuk ipak yo‘lining _____ ta’mirlangan va ba’zi yerlarda yangilari _____. Yo‘llarda karvonlarning dam olishini ta’minlovchi _____ qurilgan. Bu karvonlarni mahalliy hokimliklar tomonidan qo‘yilgan _____ himoya qilib, bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazib qo‘ygan.
3. Buyuk ipak yo‘li _____ ham muhim o‘rin tutgan.

Mustaqil topshiriq

Ushbu xaritani diqqat bilan o‘rganing. Buyuk ipak yo‘lining yo‘nalishlari (marshrutlari), ushbu yo‘lda joylashgan qadimiy shaharlar haqida ma’lumot bering.

47

Sayyohlar duch kelgan eng asosiy muammo yo‘nalishning katta qismida suvning yo‘qligi edi. Tuyalar foydali joyni egallaydigan va olib ketilayotgan yuk hajmini kamaytiradigan suv idishlarini ko‘tarib yurmasligi uchun qadimgi zamonning mahoratli konstruktorlari qizigan qumlar orasida quduqlar barpo etdi. Ular “sardoba” deb atalib, ularda doim suv bo‘lgan. Bunday quduqlarni bugungi kunda ham O‘rta Osiyoning ba’zi shaharlarida uchratish mumkin.

Noyob muhandislik inshootlari yo‘lning har 12–15 kilometrida joylashib, 150–200 tuyadan iborat karvonning chanqog‘ini qondira olgan. Bu quduqlardagi suv yerosti suv manbalari tufayli emas, atmosfera havosidan suv olishga qodir original konstruksiya yordamida to‘plangan.

Ishonish qiyindek ko‘rinsa-da, qadimgi muhandislar quduqlarni qurishda uyurma effektidan foydalangan. Konstruksiyaning o‘zi tashqaridan qaraganda toshdan ishlangan kichikroq chodirni eslatgan va bir nechta tuynuklari bo‘lgan. Quduqning yarmidan ortiq qismi yer ostiga ko‘milgan bo‘lib, suvga yetish uchun zinadan pastga tushish kerak bo‘lgan. Tom va yon tomon tuynuklarining maxsus konstruksiyasi tufayli quduq orqali muntazam cho‘l havosi aylanib turgan. Mutaxassislarning baholashicha, cho‘l havosi hajmi sutkasiga bir necha ming kubometrga yetgan.

5. Foydalanish uchun berilgan so‘zlar yordamida bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirtiring.

Mustaqil topshiriq. Quyidagi xaritani diqqat bilan o‘rgating. Buyuk ipak yo‘lining yo‘nalishlari (marshrutlari), ushbu yo‘lda joylashgan qadimiy shaharlar haqida ma’lumot topib kelishni vazifa qilib bering.

SAVDO YO‘LLARI

Maqsad: mavzuga aloqador ma’lumotlar bo‘yicha o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma nutq shaklida ifodalay olish, audiomatnni tinglab tushunish, faktologik matnni nutqiy ko‘nikmada qo‘llay olish.

Refleksiya: qadimgi karvon savdo yo‘llari, ularning tarixi haqida suhbatlashiladi, mustaqil topshiriq tekshirib, tahlil qilinadi.

Vazifalar:

1. Berilgan tayanch tushunchalardan foydalangan holda mavzu bo‘yicha suhbatlashing.

2. Tinglash uchun berilgan audiomatnni qo‘yib bering yoki o‘zingiz o‘qib bering.

Savdo-sotiq ishlari barcha davrlarda kishilar hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Savdo-sotiq davlat iqtisodiy taraqqiyotiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Shu tufayli ham turli mamlakatlar o‘zaro foydali savdodan juda manfaatdor bo‘lganlar.

Bu esa qadimda ham muhim savdo yo‘llari ochilishiga olib keldi. O‘z hududidan savdo karvonlari o‘tadigan mamlakatlar yo‘l atroflariga savdogarlar uchun barcha zarur qulayliklarni yaratib berganlar. O‘zlarining va mollarining xavfsizligini ta’minlash choralarini ko‘rganlar.



MAVZU

Savdo yo‘llari

1 Gapiring.

Buyuk ipak yo‘li haqida turli manbalardan ma’lumotlar toping. Olgan ma’lumotlaringizni tayanch tushunchalar yordamida quyidagi shaxslar nomidan gapirib bering:

tarixiy ma’lumotlarni qayd etuvchi | arxeolog | savdogar | shahar fuqarosi | soliqchi

Tayanch tushunchalar: ipak ishlab chiqarish, hunarmandlar rastalari, tarixiy ma’lumotlar, boj to‘lovlari, karvonsaroylar, qimmatbaho metallar, xorijlik savdogarlar, san’at asarlari, arxeologik topilmalar, sharq mevalari, tuyalarga ortmoq, qurol-yarog‘, poliz mahsulotlari, mo‘ynalar, qaroqchilar hujumlari, quruq mevalar, shahar darvozalari, qo‘riqchilar, tovar almashish, nodir kitoblar, masjid xarobalari, dunyo sivilizatsiyasi.

2 Tinglang.

QADIMGI SAVDO YO‘LLARI

48

Qadimgi karvon savdo yo‘llaridan biri “La’l yo‘li” deb atalgan. Bu yo‘l miloddan avvalgi 3–2-ming yilliklarda ochilgan.

“La’l yo‘li” deb atalishiga bu yo‘ldan qimmatbaho la’l toshining tashilishi sabab bo‘lgan. U lojuvard deb ham ataladi.

“La’l yo‘li” Pomir tog‘idan boshlanib, Eron, Mesopotamiya va Misr orqali o‘tgan. La’l toshlaridan yasalgan buyumlar hatto Misr fir’avnlari maqbaralari (ehromlari)dan ham topilgan.

Qadimgi mashhur savdo yo‘llaridan yana biri “Shoh yo‘li” deb ataladi. Unga Eron shohi Doro asos solgan. Uni Eron shohlari nazorat qilishgan. “Shoh yo‘li” ikki yo‘nalishli bo‘lib, birinchisi O‘rtayer dengizi bo‘yidagi turli shaharlarni Eron bilan bog‘lagan bo‘lsa, ikkinchisi Eron va Baqtriya orqali o‘tib Oltoy va Hindistongacha borgan.



3 **O‘qing.**

QADIMGI DENGIZ SAVDO YO‘LI

Qadimgi davrlarda dengiz savdo yo‘llari ham mavjud bo‘lgan. Shulardan biri O‘rta dengizning sharqiy sohilida yashagan qadimgi finikiyaliklar* ochgan dengiz savdo yo‘li edi.

Finikiyaliklar o‘z davrining jasoratli dengizchilari bo‘lganlar. Ular birinchi bo‘lib O‘rta dengizga yo‘l ochganlar. Shimolda Gibraltar bo‘g‘ozi orqali Britaniya orollarigacha, Qizil dengiz orqali Hind okeaniga suzib borganlar. Finikiyaliklar o‘sha davr uchun mustahkam savdo kemalari yasaganlar. Ular yelkanlar yordamida yurgan va ko‘p yuklarni tashiy olgan. Finikiyaliklar kechalari yo‘ldan adashib ketmaslik uchun yulduzlarga qarab suzishni bilganlar.

**Finikiya – hozirgi Livan va Suriya davlatlari hududining bir qismida tashkil topgan qadimgi davlat.*

4 **Savollarga javob bering.**

1. Qadimgi savdo yo‘llari qaysi hududlardan o‘tgan?
2. “La’l yo‘li” va “Shoh yo‘li” haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Buyuk ipak yo‘li dunyo xalqlari hayotida qanday o‘rni tutgan?
4. Qadimgi finikiyaliklar ochgan dengiz savdo yo‘llari haqida nimalarni bilib oldingiz?

5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Aftidan, chamasi, ehtimol, shubhasiz, balki so‘zlarini avval modal ma’noda, so‘ng o‘z ma’nosida qo‘llab gaplar tuzing.

Namuna. *Aftidan, bugun yomg‘ir yog‘sa kerak.*
Uning bu ishga noloyiqligi aftidan ko‘rinib turardi.

6 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘zlar: shekilli, aftidan, shubhasiz, albatta, ishonchim komil.

Namuna. Yaxshi kasb egasi bo‘lish uchun, _____, o‘qib-izlanish kerak.
Yaxshi kasb egasi bo‘lish uchun, ***albatta,*** *o‘qib-izlanish kerak.*

1. _____, barchangiz bu yil sinfni a’lo baho bilan bitkazasizlar.
2. _____, bugun ham kelmaydiganga o‘xshaydi.
3. _____, biz buyuk ajdodlarimizning bizga qoldirgan meroslarini qadrlashimiz kerak.
4. Sen bugungi majlisga kelmading, _____?

Mustaqil topshiriq

O‘zingiz yoqtirgan asardan parcha oling. Parchada qo‘llangan modal so‘zlarni yozib keling va ma’nosini izohlang.

49

3. Berilgan matnni diqqat bilan o‘qiting.

4. Matn asosida tuzilgan savollarga o‘quvchilardan javob oling.

5. Berilgan birliklardan foydalanib gaplar tuzdiring. Yozdiring.

6. Foydalash uchun berilgan so‘zlarni qo‘llab bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirtiring.

Mustaqil topshiriq. O‘zi yoqtirgan asardan parcha olib, undagi modal so‘zlarni yozib kelish va ma’nosini izohlash vazifasini bering.

AFSONAVIY QUSH

Maqsad: mavzu doirasida fikrini og‘zaki va yozma nutqda ifodalay olish, audio va boshqa matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta hikoya qila olish.

Refleksiya: antiqa qushlar haqida suhbat yuritiladi. Afsonaviy qushlar kimlarning asarlarida uchrashi haqida suhbatlashiladi.

Vazifalar:

1. Tinglash uchun berilgan matnni eshittiring yoki o‘zingiz o‘qib bering.

Qaqnus Hindistonda yashaydigan turfa ajib bir qushdirkim, uzun va qattiq tumshug‘i bor. Tumshug‘ida xuddi nay kabi bir qancha teshiklar mavjud. Bu teshiklar yuztaga yaqin. Qaqnusning boshqa qushlar kabi jufti yo‘q, u bolalamaydi. Tumshug‘ining har bir teshigidan o‘zgacha ovoz chiqaradi, har bir ovozida o‘zgacha nola, o‘zga bir sir bor. Har bir teshikdan turli-tuman ohang-u navolar chiqarib, nola chekkach, barcha qushlar, qushlargina emas, barcha jonivorlar, hatto suvda baliqlar bundan beqaror bo‘ladilar. Barcha vahshiy darrandalar jim bo‘lib, bu ovozdan o‘zgacha holatga tushadilar. Faylasuflar unga hamroz bo‘lib, ovoziga qarab musiqa ilmini yaratdilar.

U qariyb ming yil umr ko‘radi, ammo o‘limi vaqti yaqinlashayotganini oldindan sezadi. O‘limi yaqinlashgach, ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushib, atrofiga ko‘p-ko‘p o‘tin yig‘adi.O‘tinlar o‘rtasiga o‘tirib olib, o‘tli nolalar chekadi. Keyin har bir teshikdan, boshqa-boshqa dardli navhalar chiqaradi, yuz teshikdan yuz xil navha chiqaradi. Navha chekayotganda o‘lim alamidan lahza-lahza titrab turadi. Bo‘zlab nola chekishidan hayratlanib, qushlar va hayvonlar uning oldiga yig‘iladilar va hayotdan umidlarini uzgandayin, behol bo‘lib qoladilar.

Keyin umrining so‘ngida ajab hol yuz beradi: uning nolasi zo‘ridan



MAVZU **Afsonaviy qush**

1 **Tinglang.**
Qaqnus haqidagi afsona

2 **O‘ylang va toping. Yozing.**

1. Qaqnus qushi bir yilda ikki marta bolalaydi.
2. Uning tumshug‘i uzun va naysimon, tumshug‘ida har xil kuylar chiqara oladi.
3. Afsonalarga qaraganda, faylasuflar musiqa ilmini aynan uning nolishlaridan keyin o‘ylab topishgan.
4. Qaqnus yuz yildan kamroq umr kechiradi.
5. U o‘limini oldindan sezadi, kuylaganda qanotlaridan o‘t chiqib yonib ketadi.
6. Qaqnus yonib kulga aylangandan keyin kuldan yangi qaqnus qushi yaraladi.

3 **Yozing.**

Namuna. Samarqand safari (esimga tushmoq), ruhim yengil tortadi.
Samarqand safari esimga tushsa, ruhim yengil tortadi.

1. Tog‘da tong *(yorisha boshlamoq)*, yashil archalar ko‘zingizga xuddi sarvdek ko‘rinadi.
2. Soqi shunday *(qaramoq)*, Go‘ro‘g‘li sog‘ borib, salomat ovdan keldi.
3. Ichkari *(kirmoq)*, olmalar pishib, tagiga tushib yotardi.
4. Shahnoza shunday *(qaramoq)*, uzoqdan mashina kelayotgan ekan.
5. Kitobni qachon *(o‘qib bo‘lmoq)*, shunda qaytib beraman.

50

tumshug‘idan qon oqa boshlaydi, bir nafas tin olib, so‘ngra qanotlarini bir-biriga ura boshlaydi. Shunda uning qanotidan o‘t chaqnab chiqadi, keyin butun vujudini o‘t qoplab yona boshlaydi, olov o‘tinlarga o‘tadi va birga-birga yonib cho‘g‘ga aylanadilar. Keyin cho‘g‘lar sovib kul bo‘ladilar. Kul ichida bitta kichkina cho‘g‘ qoladi va u kichkina qaqnus bo‘lib dunyoga keladi. Olov o‘tinni kulga aylantiradi, kul ichida esa qaqnus bolasi paydo bo‘ladi.

Kishi o‘lgandan keyin tug‘gani yoki tug‘ilganini birov jahonda ko‘rganmi? Agar qaqnus kabi uzoq umr ko‘rsang, ana shunday: ham o‘lib va ham yana tirilasan. Bechora qaqnus ming yil yashab, o‘z vujudidan yuz ming nolalar chiqardi. Yillar davomida nola va dard ichra edi, ota-onasi ham bo‘lmagan, jufti ham yo‘q edi, yakkalarning yakkasi edi. Dunyoda uning payvandi – bog‘liqlik joyi, ya’ni jufti ham, farzandi ham yo‘q edi. Oxirida ajal kelib jonini oldi – kulini ko‘kka sovurdi.

Joni bor maxluqki bor, u ajal dastidan qutulmaydi – shuni yaxshi bilib ol. Olamda o‘lmaydigan kishi yo‘q. Yana ajoyibrog‘iki, kishining safar ozig‘i ham bo‘lmaydi. O‘lim agarchi qattiq va zolim bo‘lsa-da, lekin unga bo‘yin egish shart. Boshimizga ko‘p qattiq ishlar tushib turadi, ammo ajalning ishi eng qattiq ishdir.

2. Tinglash uchun berilgan matn asosida topshiriqdagi ma’lumotlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlating.

3. Berilgan gaplar tarkibida bosh shaklda berilgan so‘zlarni namunadagi singari to‘g‘rilab yozdiring.

4. Berilgan qo‘shma gaplarning ikkinchi qismini audiomaterial asosida tinglating. To‘g‘ri shaklini yozdiring.



4 **Tinglang. O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Odamlar qishloqdan chiqib ketgunga qadar otishmalar biroz to‘xtatildi.

Adolat shoshilib tashqariga chiqsa	Saida bir guruh yordamchilar bilan klubni bezatadi
U boshini tik tutib, bir necha qadam tashlagan payt	o‘ynagani chiqarmayman
U o‘tgan hafta o‘rgangan narsalarini menga yoddan aytib bermaguncha	yerto‘ladan akasi chiqib keldi
Odamlar qishloqdan chiqib ketgunga qadar	hamma birdaniga o‘tirdi
Pilla topshirilib, klub binosi bo‘shagandan keyin	otishmalar biroz to‘xtatildi
Mashq tugagach	hovlida Azamat yo‘q

Mustaqil topshiriq

O‘zbekiston Respublikasining gerbida aks etgan humo qushi nimaning ramzi ekanini bilasizmi? Boshqa davlatlarning gerbida ham qushlari tasviri bormi?

51

Adolat shoshilib tashqariga chiqsa,	hovlida Azamat yo‘q.
U boshini tik tutib bir necha qadam tashlagan payt	yerto‘ladan akasi chiqib keldi.
U o‘tgan hafta o‘rgangan narsalarini menga yoddan aytib bermaguncha,	o‘ynagani chiqarmayman.

Odamlar qishloqdan chiqib ketgunga qadar	otishmalar biroz to‘xtatildi.
Pilla topshirilib, klub binosi bo‘shagandan keyin	Saida bir guruh yordamchilar bilan klubni bezatadi.
Mashq tugagach,	hamma birdaniga o‘tirdi.

Mustaqil vazifa: O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidan payt ma’nosini bildiradigan gaplarga 5-6 ta misol topib yozib kelish vazifasini bering.

BERMUDA UCHBURCHAGI

Maqsad: matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta hikoya qilish, savollarga to‘liq va o‘rinli javob berish, payt ma’nosini ifodalab kelgan qo‘shma gaplarni og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish.

Refleksiya: Bermuda uchburchagi to‘g‘risida suhbat yuritiladi, mustaqil topshiriq sifatida berilgan matn muhokama qilinadi.

Vazifalar:

1. Tinglash uchun berilgan matnni o‘quvchilarga tinglating yoki o‘zingiz o‘qib eshittiring.

Bermuda uchburchagi: afsona va haqiqat

Bermuda uchburchagi – Yer sayyorasining sirli nuqtalaridan biri. Atlantika okeani, Sargass dengizida joylashgan bu hudud Florida, Bermuda, Puerto-Riko orollari bilan o‘ralgan uchburchakda joylashgani uchun shunday nom olgan.

Uning mashhurligi shundaki, bu hududdan uchib yoki suzib o‘tayotgan havo va suv kemalari sirli ravishda halokatga yuz tutadi. Bu



MAVZU **Bermuda uchburchagi**

1 **Tinglang.**

Bermuda uchburchagi: afsona va haqiqat

2 **Savollarga javob bering.**

1. Afsona va haqiqat orasidagi farq nimada deb o'ylaysiz?
2. Bermuda uchburchagi haqida bilganlaringiz bilan o'rtoqlashing.
3. Bu sirli hudud haqida yana qanday ma'lumotlarni bilishni xohlaysiz?
4. Yana qanday sirli joylar haqida eshitgansiz? Ular haqida gapirib bering.

3 **O'ylang va toping. Yozing.**

Gaplarda qanday ma'no berilganini aniqlang.

Namuna. Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi. *(payt ma'nosi)*

1. Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi.
2. Oyna opa xatni oxirigacha o'qiy olmadi, chunki hovlining eshigini kimdir taqillata boshladi.
3. O'simlikni qancha parvarish qilsang, shuncha mo'l hosil olasan.
4. Qish keldi, sovuq kunlar boshlandi.
5. Odamlar ishdan qolmasin deb marosimni soat besh yarimga tayin qilganmiz.

4 **O'ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Bir kishi ariq ochadi, ming kishi suv ichadi.
Ariqni bir kishi qaziydi, ammo ko'pchilik undan foydalanadi.

1. Bilim bilan kishining martabasi oshadi, ilmsizlik kishini tubanlashtiradi.
2. Yurting tinch – sen tinch.
3. Hech kimga ozor bera ko'rma, dunyo barchaga barobardir.
4. Ayrilganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer.

52

halokatlarni turli tabiat hodisalaridan tortib, o‘zga sayyoraliklargacha bog‘lashadi.



5 O‘qing.

SEMURG‘

Semurg‘ – Sharq xalqlari og‘zaki ijodidagi afsonaviy qush. Dastlab Eron mifologiyasida paydo bo‘lgan. “Avesto”da “Senemurg” shaklida ishlatilgan. Semurg‘ o‘zbek xalq ertak va afsonalarida ijobiy qahramonning do‘sti, himoyachisi, hamrohi, “yetti zulmat ichi”dan olib chiquvchi fantastik qush sanaladi.

Turkiy xalqlarda semurg‘ning humo, anqo, davlat qushi, baxt qushi, marqumomo, kuntubulg‘on, bulbuligo‘yo va boshqa variantlari bor. Semurg‘ obrazi “Qahramon”, “Oynayi jahonnamo”, “Rustam”, “Kenja botir” kabi ertaklarda tasvirlangan. Ularda afsonaviy obraz o‘tmish voqealari haqida fikr yuritish imkonini beradi. “O‘zbekfilm” kinostudiyasi “Semurg‘” filmini suratga olgan.

Semurg‘ning Humo varianti O‘zbekistonning Davlat gerbiga asos qilib olingan, shuningdek, Toshkentdagi “Turkiston” saroyi oldida uning ramziy monumenti o‘rnatilgan.

6 Savollarga javob bering.

1. Afsonalarga qay darajada ishonasiz?
2. Afsonaviy mavjudotlar haqida nimalar bilasiz?
3. Siz ham matnga qo‘shimcha ravishda Semurg‘ qushi haqida o‘z fikr-mulohazalaringiz bilan o‘rtoqlashing.

Mustaqil topshiriq

Turli xalqlarning mifologiyasida aks etgan afsonaviy mavjudotlar haqida ma’lumot toping va matn tuzing.

53

Iblis dengizi

Bermuda uchburchagida suv va havo kemalarining “sirli ravishda g‘oyib bo‘lishi” haqidagi qarashni ilk bor jurnalist Edvard Van Vinkl Jons 1950-yilda ilgari suradi va bu hududni “iblis dengizi” deb ataydi.

“Bermuda uchburchagi” iborasini esa yozuvchi Vinsent Gaddis 1964-yilda qo‘llaydi. U “Agrosi” jurnalida “Halokatli Bermuda uchburchagi” sarlavhali maqola chop etib, unda AQSH aviatsiya flotiga tegishli 19-bo‘g‘in harbiy samolyotlari shu hududda izsiz yo‘qolgani hikoya qilinadi.

Shu bilan 60–70-yillarda Bermuda uchburchagi atrofida turli asosli-asossiz gaplar ko‘payib ketadi.

Vahimalar sababi

Bermuda uchburchagi paranormal sirga egaligi haqidagi nazariyaga ishonuvchilarning ta’kidlashicha, XX asrda 100 dan ziyod havo va suv kemalari bu hududda izsiz yo‘qolgan.

Sirli ravishda yo‘qolish bilan birga, kemalarning bir zumda bir hududdan boshqa hududda paydo bo‘lib qolishi, vaqtning anomal tarzda o‘zgarishi kabi holatlar aytiladi.

Skeptik-realist olim Lourens Devid Kushe “Bermuda uchburchagi: afsona va haqiqat” kitobida bu joyga taalluqli qilib ko‘rsatiladigan ba’zi halokatlar aslida boshqa hududlarda sodir bo‘lganini ta’kidlaydi. Ayrim halokatlarning esa chindan ham sodir bo‘lgani haqida rasmiy manbalarda ishonchli fakt va dalillar mavjud emas.

2. Savollarga imkon qadar to‘liq, asosli tarzda javob berilishini ta’minlang.

3. Berilgan gaplarni namunadagi singari qanday ma’no ifodalab kelayotganini aniqlating.

4. Berilgan hikmatli gaplarni oddiy gaplar bilan namunadagi singari yozdiring.

5. Diqqat bilan o‘qiting.

6. Matn asosida savollarga javob oling va suhbatlashing.

Mustaqil vazifa: Turli xalqlarning mifologiyasida berilgan afsonaviy mavjudotlar haqida ma’lumot topish va matn tuzib kelish vazifasini bering.

II CHORAK

TEMPERAMENT

JISM VA RUH

Maqsad: o‘quvchilarni zamonaviy psixologik bilimlar bilan tanishtirish, temperament va uning turlarini tushuntirish, temperamentning bir-biri bilan bog‘liqlik xususiyatlari hamda 8-sinf “Odam va uning salomatligi” darsligida ham bu mavzuga yetarlicha to‘xtalib o‘tilganini yodga olish, mashq va topshiriqlar orqali mustahkamlash, kelasi zamon fe’llari bo‘yicha bilimga ega bo‘lish, esse yozish va turli faktologik materilallarni tahlil qilishga o‘rgatish.

Refleksiya jarayoni: I chorak mustahkamlash darsi bilan yakunlangan edi, undan oldin esa ergashgan qo‘shma gaplarning turlari haqida ma’lumot berilgan, bo‘lib, o‘quvchilarga payt ergash gapli qo‘shma gaplarni turli metod va o‘yinlar orqali qayta eslating, afsonalarga oid qaysi matnlar bilan tanishgani haqida og‘zaki bahs-munozara uyushtiring.



Temperament

MAVZU Jism va ruhiyat

1 Savollarga javob bering.

1. Sizni atrofdagilar tanqid qilishsa yoki maqtashsa, qanday qabul qilasiz?
2. Do‘stlaringiz orasida arzimagan sabab bilan tez xafa bo‘ladigan yoki yig‘lab yuboradigan kishilar bormi?

2 O‘qing.

“Temperament” so‘zi lotinchadan olingan. Temperamentning ilmiy asosini Hippokrat yaratgan, turlarini ham Hippokrat nomlagan. Temperamentning to‘rtta turi mavjud bo‘lib, ular: xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolikdir. Quyida temperament turlarining ajoyib xususiyatlari bilan tanishasiz:

Xoleriklar kuchli, chaqqon odamlardir. Ularda vazminlik yo‘q, o‘ziga xos xususiyati jizzakilik va beqarorlik sanaladi. Xoleriklar faol, ishchan va to‘xtovsiz reaksiyali insonlardir. Ular bir maromda ishlay olishmaydi: goh g‘ayrat bilan, goh imillab ishlashadi.

Sangviniklar kun tartibiga tez-tez amal qilgan holda qarorlar qabul qilishadi. Ularning tezlik, ko‘tarinkilik bilan bir ishdan boshqasiga o‘tishlari oson. Ular xoleriklar kabi bir necha qarorlarni qabul qiladilar, flegmatiklardek tez va aniq bajariladigan rejalarni tuzadilar.

Flegmatiklar uchun eng muhimi xotirjamlikdir. Ular tinch va sokin hayotni yoqtiradilar. Bunda doimiy ish-harakat ketma-ket bajarilib borishi, kun tartibi va har kunlik ishlar bir maromda ketishi zarur. Har kuni bir xil vaqtda uyg‘onish, bir xil vaqtda ovqatlanish, vazifalarni bir xil vaqtda bajarib topshirish flegmatiklarga xos.

Melanxoliklar g‘amgin, qat’iyatsiz va ma’yus kishilardir. Salga charchash, biror ishga yetarlicha jur’at etmaslik, o‘z fikrlari va istaklarini qondira olmaslik ularga xosdir. Melanxoliklar ko‘pincha arzimagan qiyinchiliklarga bardosh bera olmaydilar: ularga qarshi kurashdan voz kechadilar.

3 O‘ylang va toping. Yozing.

Foydalanish uchun so‘zlar: *xoleriklar, temperament, melanxoliklar, flegmatiklar, Hippokrat, sangviniklar.*

1. _____ – ilmni tez va osongina o‘zlashtiradigan, muomalada ko‘proq shirinsuxan, gapdon hisoblanuvchi temperament vakillari.
2. _____ – lotincha “mutanosiblik” ma’nosini bildiruvchi so‘z.
3. _____ – temperament haqidagi nazariyani yaratgan shaxs.
4. _____ – nutqi sekin, zaif, ba’zan pichirlash darajasiga tushadigan temperament vakillari.
5. _____ – vujudga kelgan hayot tartibiga, ishdagi sistemaga qat’iy rioya qiladigan temperament turi.
6. _____ – jahli tez temperament egasi.

55

Vazifalar:

1. Savollarni baland ovozda o‘qing yoki o‘quvchilardan biriga o‘qittiring (monitorda aks ettirsh ham mumkin) va o‘quvchilardan har bir savol uchun qisqa-qisqa fikrlarni eshiting.

2. Savollarga berilayotgan javoblarga diqqat qiling, o‘quv-

chilarning fikrini matnga bog‘lang, buning uchun matnni o‘quvchilarga o‘qittiring, har bir o‘quvchi matnni diqqat bilan o‘qishiga ahamiyat bering va umumiy xulosani tushuntiring.



Men	aytmoq + moqchi	-man	Biz	aytmoq + moqchi	-miz
Sen		-san	Siz		-siz
U		-	Ular		-lar

4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

*Namuna. Biz ertaga oilamiz bilan sayohatga **jo‘namoqchimiz.***

1. Biz ertaga oilamiz bilan sayohatga _____.
   a) ketmoqchiman; b) bormoqchilar; d) otlanmoqchi; e) jo‘namoqchimiz.
2. Men ta’tilda buvimnikiga _____.
   a) otlanmoqchi; b) bormoqchisan; d) ketmoqchiman; e) jo‘namoqchimiz.
3. Ular uzoq safarga _____.
   a) bormoqchisiz; b) otlanmoqchilar; d) ketmoqchiman; e) jo‘namoqchimiz.
4. Sen nima maqsadda Buyuk Britaniyaga _____.
   a) bormoqchisan; b) otlanmoqchi; d) ketmoqchiman; e) jo‘namoqchimiz.

5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Teatr oldida uchrashmoqchimiz.

1. Avtobusdan	A) uchrashmoqchimiz
2. Vazifani	B) chizmoqchiman
3. Mehmonxonada	D) chiqmoqchisiz
4. Sayohatga	E) tushmoqchimiz
5. Mashinani	F) bajarmoqchisan
6. Qalam bilan	G) bormoqchiman
7. Uydan	H) haydamoqchi
8. Teatr oldida	I) qolmoqchiman

56

3. Foydalanish uchun berilgan so‘zlarni bo‘sh qoldirilgan o‘rinlarga mantiqan mos ravishda qo‘yishlari lozimligini ta’kidlang, bunda matn mazmuniga ahamiyat berishlarini uqtiring. **Javoblar:**

1. **Sangviniklar** – bilimni tez va osongina o‘zlashtiradigan, muomalada ko‘proq shirinsuxan, gapdon hisoblanuvchi temperament vakillari.

2. **Temperament** – lotincha “mutanosiblik” ma’nosini bildiruvchi so‘z.

3. **Gippokrat** – temperament haqidagi nazariyaga asos solgan shaxs.

4. **Melanxoliklar** – nutqi sekin, zaif, ba’zan pichirlash darajasiga tushadigan temperament vakillari.

5. **Flegmatiklar** – vujudga kelgan hayot tartibiga, ishdagi sistemaga qat’iy rioya qiladigan temperament vakillari.

6. **Xoleriklar** – jahli tez temperament vakillari.

Diqqat qiling! Berilgan qoida va misollar orqali “Kelasi zamon maqsad fe’li”ni tushuntiring; bunda strelkaning boshi kelasi zamonda turganligi, hali ish-harakat, voqea-hodisa sodir bo‘lmaganini misollar bilan tushuntiring va “yozmoqchi emasman/ yozmoqchimasman” tarzida ham ifodalanishini ta’kidlang.

4. Gaplarni “Kelasi zamon maqsad fe’li” qoidalari asosida bajartiring, bunda berilgan variantlardan bittasini tanlashlari lozim bo‘ladi. **Javoblar: 1-e, 2-d, 3-a, 4-a.**

5. Chap ustunda berilganlarni o‘ng ustunga moslashtirishlarini so‘rang va namunani tushuntiring. Bunda har bir raqamga bitta harf mos kelishini ta’kidlang.

Javoblar: 1-I, 2-G, 3-H, 4-A, 5-B, 6-E, 7-F, 8-D.

6. Dastlab audioni diqqat bilan tinglashlari uchun 2 marta qo‘yib bering, o‘quvchilardan qanday tushunganlarini va matn nima haqida ekanini so‘rang:



6 Tinglang.

7 O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Insonda yoshi ulg‘aygani sari yuzaga chiqadigan xarakter-xususiyatlarni temperament bilan izohlash mumkin.
2. Hippokrat odam xulq-atvori, tana tuzilishi, organizmning bir butunligi to‘g‘risidagi g‘oyaga asos solgan.
3. Xoleriklar deyarli kasallikka chalinmaydi.
4. Oliy nerv faoliyati, temperament tiplarining aniq tasnifi bilan fransuz olimi shug‘ullangan.
5. Sangviniklar kuchsiz, kamharakat tip sanaladi.
6. Temperament lotincha “temperantum” so‘zidan olingan bo‘lib, “mutanosiblik” degan ma’noni bildiradi.
7. Flegmatiklar kamgap, nutqi sekin, ba’zan past ovozda gapiradigan xotirjam insonlardir.
8. Temperament turlari vakillari orasida sangviniklar eng yaxshilari bo‘lsa, melanxoliklar eng yomonlari sanaladi.

Mustaqil topshiriq

Sizda xolerikka xos xususiyatlar bormi? Xolerikka xos bo‘lmagan xususiyatlaringiz-chi? Ularni yozing.

57

Qadimda miya va ruh orasidagi munosabatlarga oid qarashlari bilan mashhur bo‘lgan tibbiyot fanining otasi Gippokrat (Buqrot) odamlar xulq-atvorini kasalliklarning kechishiga bog‘lab o‘rganib, temperament haqidagi ta’limotni yaratdi. Har bir inson tug‘ma biologik xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar fan tilida temperament deb ataladi. Temperament – shaxs faoliyati va xulqining o‘zgaruvchan hamda emotsional-hissiy tomonlarini aks ettiruvchi individual xususiyatlar majmuidir. Uning to‘rtta turi mavjud: xolerik, sangvinik, flegmatik va melanxolik. Temperamentning fiziologik asoslarini ochib bergan rus olimi Ivan Pavlovdir. U temperamentning belgilarini aniqlagan. Uning fikricha, barcha temperament tiplari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, xoleriklar kuchli tip vakillari bo‘ladi, biroq ularga urishqoqlik, janjalga moyillik, tez jahli chiqish va yana o‘rtoqlashib ketish xosdir. Sangviniklar xushchaqchaq, hozirjavob, vaziyatni tez baholaydigan insonlar sanaladi. Flegmatiklar nisbatan yuvosh, kamgap, xotirjam kishilar bo‘lib, Pavlov bunday odamlarni “hayot zahmatkashlari” deb atagan. Melanxoliklar kuchsiz tip vakillari bo‘lsa-da, ular mayda ishlarni sabr bilan bajarishadi. Lekin ular kamharakat, o‘ziga nisbatan ishonchsiz bo‘ladilar. Shuni unutmaslik lozimki, temperamentning yaxshi yoki yomoni bo‘lmaydi. Atoqli va mashhur kishilar orasida barcha tip vakillari uchraydi.

Audioda berilgan ma’lumotlar *To‘g‘ri, Noto‘g‘ri* va *Berilmagan* ekanini aniqlashlarini topshiring. Bunda agar ma’lumot matn mazmuniga mos bo‘lsa, TO‘G‘RI; agar ma’lumot matn mazmuniga mos bo‘lmasa, NOTO‘G‘RI; agar ma’lumlot matnda umuman keltirilmagan bo‘lsa, BERILMAGAN deb yozishlarini tushuntiring.

Javoblar:

1. Insonda yoshi ulg‘aygani sari yuzaga chiqadigan xarakter-xususiyatlarni temperament bilan izohlash mumkin. ***to‘g‘ri***

2. Gippokrat odam xulq-atvori, tana tuzilishi, organizmning bir butunligi to‘g‘risidagi g‘oyaga asos solgan. ***to‘g‘ri***

3. Xoleriklar deyarli kasallikka chalinmaydi. ***noto‘g‘ri.***

4. Oliy nerv faoliyati, temperament tiplarining aniq tasnifi bilan fransuz olimi shug‘ullangan. ***noto‘g‘ri***

5. Sangviniklar kuchsiz, kamharakat tip sanaladi. ***noto‘g‘ri.***

6. Temperament lotincha “temperantum” so‘zidan olingan bo‘lib, “mutanosiblik” degan ma’noni bildiradi. ***to‘g‘ri***

7. Flegmatiklar kamgap, nutqi sekin, ba’zan past ovozda gapiradigan xotirjam insonlardir. ***to‘g‘ri***

8. Temperament turlari vakillari orasida sangviniklar eng yaxshilari bo‘lsa, melanxoliklar eng yomonlari sanaladi. ***noto‘g‘ri.***

Mustaqil topshiriq: o‘quvchilarga o‘zlarining temperamentlari qanday ekanini aniqlab kelishlarini, xususan, xolerik temperament belgilari bor yoki yo‘qligini aniqlab, yozib kelishlarini topshiring.

PSIXOGIGIYENA

Maqsad: temperament tiplari, xususiyatlari haqida ma’lumot berish, o‘quvchilarning temperament bo‘yicha bilimlarini ilmiy atamalar orqali kengaytirish, hozirgi-kelasi zamon fe’lini tushuntirish, gaplar tahlilini o‘tkazish.

Refleksiya jarayoni: o‘quvchilardan kimlarning temperamentini aniqlaganlarini va nega aynan shu temperament vakili deb hisoblaganining sababini so‘rang, har bir temperamentning bir-biridan farqlari bo‘yicha savol-javob o‘tkazing.

Vazifalar:

1. O‘quvchilarga berilgan rasmlarni diqqat bilan kuzatishlarini va berilgan matnni diqqat bilan o‘qishlarini tushuntiring.

2. Savollarni baland ovozda o‘qing yoki o‘quvchilardan biriga o‘qittiring (monitorda ask ettirish ham mumkin) va o‘quvchilardan har bir savol uchun



MAVZU **Psixogigiyena**

1 O‘qing.

1 **Xolerik** – tez jahli chiqib ketadigan, hissiyotga beriluvchan odam.

2 **Sangvinik** – harakatchan, xushchaqchaq, gapdon, irodali odam.

3 **Flegmatik** – tartibga rioya qiladigan, bosiq, kam harakatchan va sust odam.

4 **Melanxolik** – o‘z kuchiga ishon maydigan, nutqi sekin, doimo tushkun, tang ahvolda yuradigan, qiyinchiliklardan qo‘rqadigan odam.

2 Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Sinfingizda kimlarning temperamentini o‘rganganlaringiz asosida aytib bera olasiz?
2. Otello, shum bola, Zaynab, Harri Potterning do‘sti Ron, “Shaytanat”dagi Asadbek kabi asar qahramonlarining temperamentlarini tahlil qiling.

3 Tinglang. Yozing.

Namuna. 1) vazmin; 2) kamharakatlik; 3) ...

Flegmatiklar sangviniklarga qaraganda birmuncha (1) _____ kishilardir. Ularda shoshmaslik, vazminlik ancha barqaror bo‘ladi, murakkab hayotiy vaziyatlarda (2) _____ kuzatilsa-da, qo‘yilgan maqsadga erishishda birmuncha barqaror, (3) _____ va dadil bo‘lishadi. Bilimlarni sekinroq o‘zlashtirsalar ham, lekin (4) _____ egallaydilar.

Xoleriklar kuchli, (5) _____, vazmin bo‘lmagan odamlardir. Ularning o‘ziga xos xususiyati (6) _____ va beqarorlik sanaladi. Xoleriklar faol, (7) _____ va to‘xtovsiz reaksiyali odamlardir. Ular bir maromda ishlay olishmaydi: goh g‘ayrat bilan, goh (8) _____ ishlashadi.

Melanxoliklar (9) _____, jur’atsiz va ma’yus kishilardir. Salga (10) _____, biror ishga yetarlicha jur’at etmaslik, o‘z (11) _____ va istaklarini qondira olmaslik ular uchun xosdir. Melanxoliklar ko‘pincha (12) _____ qiyinchiliklarga bardosh bera olmaydilar: ularga qarshi (13) _____ voz kechadilar.

(14) _____ chaqqon, tirishqoq, (15) _____, ta’sirchan kishilardir. Ular tevarak-atrofga tez (16) _____. Ular bilimni tez va (17) _____ o‘zlashtirsalar-da, hamma vaqt ham (18) _____ egallamaydilar.

58

qisqa-qisqa fikrlarni eshiting, uy vazifasiga bog‘lang.

3. Dastlab audioni diqqat bilan tinglashlari uchun 2 marta qayta qo‘yib bering, birinchi marta o‘quvchilardan qanday tushunganlarini va matn nima haqida ekanini so‘rang. Shundan so‘ng, ikkinchi marotaba o‘quvchilarga ma’lumotlarni tinglab, bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirib borishlari zarurligini tushuntiring:



Men	yozmoq (-a / -y)	-man	Biz	yozmoq (-a / -y)	-miz
Sen		-san	Siz		-siz
U		-di	Ular		-dilar

4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. bajaraman / berilgan / men / har / uyga / kuni / vazifalarni
Men uyga berilgan vazifalarni har kuni bajaraman.

1. doimo / u / olib / fotoapparatini / boradi / sayohatga
2. sinfxonamizni / kuni / har / tozalaymiz / biz / ertalab
3. erta / maktabga / tongdan / oladilar / o‘quvchilar / yo‘l
4. aylanadi / Yer / atrofida / Quyosh / o‘qi / va / o‘z / atrofida
5. ingliz / o‘tkaziladi / ikki / marta / tili / imtihoni / yilda

5 **O‘qing. Savollarga javob bering.**

Ibn Sinoning fikriga ko‘ra, kasalliklar bir-biriga o‘xshash bo‘lsa ham, har bir bemorni davolashda uni diqqat bilan o‘rganish, oilasi va yashash sharoiti bilan tanishish o‘ta muhim. Hozirgi davrda bu “psixogigiyena” deb ataladi.

Ibn Sino psixoprofilaktika bilan ham shug‘ullangan. Kasalliklarning oldini olishda tarbiyaning ahamiyatini ko‘rsatib o‘tgan. “Tarbiya erta bolalik davridan boshlanishi kerak”, – degan edi Ibn Sino. Bolani qo‘rqoq, g‘amgin yoki juda erka qilib o‘stirmaslik kerak. Ota-ona bola nimani xohlayotganini doimo sezishi va o‘sha narsani bolaga yetkazib berishga harakat qilishi, yomon narsalardan esa yiroqlashtirishi zarur. Bu qoidalarga rioya qilish bolaning zehnini o‘tkir qiladi, tanasini sog‘lom o‘stiradi.

Ibn Sino kasalliklarning kelib chiqishida asab tizimining ahamiyati katta deb bilgan. G‘azab, qo‘rquv, qattiq siqilishlar organizmni holsizlantirib, turli kasalliklarga moyil qilib qo‘yadi. Buni quyidagi tajriba orqali isbotlab bergan. Ibn Sino bitta qo‘yni oddiy sharoitda, ikkinchisini esa qafasda saqlab, ikkalasini ham bir xil boqqan. Qafasdagi qo‘yning atrofida bo‘ri aylanib yurgan. Bir-ikki kundan so‘ng bo‘ri ko‘rinib turgan qafasdagi qo‘y yem yemay qo‘yadi va holdan toyib o‘ladi. Ibn Sino qo‘yning o‘limiga ruhiy zo‘riqish va buning natijasida organizmning holdan toyishi sabab bo‘lgan, deb xulosa chiqargan.

1. Kasalliklarning kelib chiqishi nimalarga bog‘liq?
2. G‘azab, qo‘rquv, siqilish haqida Ibn Sino qanday fikr bildirgan?
3. Ibn Sino qo‘ylarda tajriba o‘tkazib, nimani isbotlagan?

59

Flegmatiklar – sangviniklarga qaraganda birmuncha vazmin kishilar. Ularda shoshmaslik, vazminlik ancha barqaror bo‘ladi, murakkab hayotiy vaziyatlarda kamharakatlik kuzatilsa-da, qo‘yilgan maqsadga erishishda birmuncha barqaror, bir so‘zli va dadil bo‘lishadi. Bilimlarni sekinroq o‘zlashtirsalar ham, lekin puxta egallaydilar.

Xoleriklar – kuchli, chaqqon, vazmin bo‘lmagan odamlardir. Ularning o‘ziga xos xususiyati jizzakilik va beqarorlik sanaladi. Xoleriklar – faol, ishchan va to‘xtovsiz reaksiyali odamlar. Ular bir maromda ishlay olishmaydi: goh g‘ayrat bilan, goh imillab ishlashadi.

Melanxoliklar – g‘amgin, jur’atsiz va ma’yus kishilardir. Salga charchash, biror ishga yetarlicha jur’at etmaslik, o‘z fikrlari va istaklarini qondira olmaslik ular uchun xosdir. Melanxoliklar, ko‘pincha, arzimagan qiyinchiliklarga bardosh bera olmaydilar, ularga qarshi kurashdan voz kechadilar.

Sangviniklar – chaqqon, tirishqoq, mehribon, ta’sirchan kishilardir. Ular tevarak-atrofga tez moslashadi. Ular bilimni tez va osongina o‘zlashtirsalar-da, hamma vaqt ham puxta egallamaydilar.

Audio javoblari: 1) vazmin; 2) kamharakatlik; 3) bir so‘zli; 4) puxta; 5) chaqqon; 6) jizzakilik; 7) ishchan; 8) imillab; 9) g‘amgin; 10) charchash;11) fikrlari 12) arzimagan; 13) kurash; 14) sangviniklar; 15) mehribon; 16) moslashadi; 17) osongina; 18) puxta.

Diqqat qiling!

Hozirgi-kelasi zamon fe’li uchun berilgan qoidani tushuntiring, misollarni temperament turlariga bog‘lang, o‘quvchilardan ham misollar tuzishlarini so‘rang.

4. Yuqoridagi grammatik qoidani mustahkamlash maqsadida o‘quvchilarga berilgan so‘zlarni tartiblab gap tuzishlari va unda foydalanilgan hozirgi-kelasi zamon fe’llariga diqqat qilishlari lozimligini ta’kidlang.

Javoblar:

1. Men uyga berilgan vazifalarni har kuni bajaraman.
2. U doimo fotoapparatini sayohatga olib boradi.
3. Biz har kuni ertalab sinfxonamizni tozalaymiz.
4. O‘quvchilar erta tongdan maktabga yo‘l oladilar.
5. Yer o‘z o‘qi atrofida va Quyosh atrofida aylanadi.
6. Ingliz tili imtihoni yilda ikki marta o‘tkaziladi.

5. Matnni diqqat bilan o‘quvchilarga o‘qittiring. Bunda berilgan rasm va matnni qanchalik tushunganlarini so‘rang.

6. Berilgan savollarni o‘quvchilar o‘z partadoshlari yoki guruhlarga bo‘lingan holda muhokama qilishlari uchun bahs-munozara tashkil qiling.

Mustaqil topshiriq: *Boraman, uchrashaman, taqdim qilaman, gaplashaman* fe’llari ishtirokida matn tuzib kelishlarini topshiring.

MENING TEMPERAMENTIM

Maqsad: zamonaviy ilmlardan biri bo‘lgan psixologik bilimlarni qay darajada egallaganlari, atrofdagilar bilan qo‘llay olishi, o‘z temperamentini aniqlashi va kelasi zamon fe’llari yuzasidan berilgan mashq va topshiriqlarni qay darajada bajara olayotganini tekshirish.

Refleksiya jarayoni: temperament haqida o‘rganilganlarni qayta eslating, temperament yuzasidan nazariya yaratgan shaxs, temperament turlari, bir-biridan farqli xususiyatlarini tezkor savol-javob o‘tkazish orqali takrorlashlariga alohida e’tibor bering.

Vazifalar:

1. Rasmlarni diqqat bilan kuzatishlarini ta’kidlang va har bir rasmdagi qiyofalar qaysi temperament vakili ekanligini hamda qanday xususiyatga egaligini yozishlarini namuna asosida tushuntiring.

2. Matnni har bir o‘quvchi diqqat bilan mustaqil o‘qib chiqishi uchun vaqt belgilang.

3. 3-topshiriqni yozma bajartiring, bunda 2-topshiriqda berilgan xolerik va melanxolik temperament vakillarining nutqida qanday so‘zlar ishlatilishini qayta o‘qittiring

va sangvinik hamda flegmatiklar uchun ham xuddi shunday matn 3-4 ta gapdan iborat) yaratishlarini topshiring.

Diqqat qiling!

Berilgan qoida asosida “Kelasi zamon gumon fe’li”ni misollar yordamida tushuntiring.

4. Berilgan grammatik qoidani mustahkamlash maqsadida o‘quvchilarga qavs ichida berilgan fe’llarni bo‘sh o‘rinlarga shaxs-son va egalik qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib, kelasi zamon gumon fe’li shaklida yozishlarini tushuntiring.

Javoblar:

1. Ular kechqurun topshiriqlarni bajarishar.
2. Men vazifalarimni ertaga qilarman.
3. U maktabga dushanbadan borar.
4. Sen keyingi darsda gapirarsan.
5. Siz kitobni kelasi hafta o‘qirsiz.
6. Biz ertaga ham bu yerda qolarmiz.

5. Audiomatnni diqqat bilan tinglashlarini va psixologik testni yechishlarini, to‘g‘ri kelgan har bir javobga √ belgisini qo‘yishlarini tushuntiring. Audioni 2 marta qayta qo‘yib bering.

Temperament odamning tevarak-atrofdagi voqealarga munosabatini, hissiyotining ayrim xususiyatlarini belgilab berishini va dunyodagi barcha insonlar tem-

Mustaqil topshiriq

Boraman, uchrashaman, taqdim qilaman, gaplashaman fe’llari ishtirokida matn tuzing.

MAVZU

Mening temperamentim

1 **O‘ylang va toping. Yozing.**



2 **O‘qing.**

Kishining qaysi temperament vakili ekanini u ishlatayotgan so‘zlardan, tuzayotgan gaplardan ham bilib olish mumkin. Masalan, xoleriklar tez-tez o‘z oldilariga, bajarish-bajarmasligi noma’lum bo‘lsa ham, maqsad qo‘yib harakat qiladilar. Ular ko‘proq *“men bajarmoqchiman”, “men qilmoqchiman”, “men o‘rganmoqchiman”, “men bormoqchiman”* tarzidagi bir qator maqsadlarni qo‘yadilar. Ba’zan maqsadni unutib qo‘yishlari ehtimoli ham bor. Biroq ular har qanday vaziyatda birinchi bo‘lib o‘z qarorlarini *“-moqchi(man)”* tarzida bayon qiladilar.

Melanxoliklarga *“bajararman”, “qilarman”, “o‘rganarman”, “o‘qirman”, “yozarman”* kabi so‘zlar xos bo‘lib, ular asosan bajarilishi gumon bo‘lgan ishlar haqida gapiradilar. Bir kun, qachondir bajarilishi mumkin bo‘lgan ish-harakatlarni sokin, past tovush, ishonarsiz ifoda etadilar.

3 **O‘ylang va toping. Gapiring.**

Yuqoridagi matnga asoslanib, ta’rif bering.

Flegmatiklar – _____.

Sangviniklar – _____.

Men	o‘qi~~moq~~ (-r / -ar)	-man	Biz	o‘qi~~moq~~ (-r / -ar)	-miz
Sen		-san	Siz		-siz
U		-	Ular		-lar

4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Ular kechqurun topshiriqlarni *(bajarmoq)*.
Ular kechqurun topshiriqlarni bajarishar.

1. Men vazifalarimni ertaga (*qilmoq*).
2. U maktabga dushanbadan (*bormoq*).
3. Sen keyingi darsda (*gapirmoq*).
4. Siz kitobni kelasi hafta (*o‘qimoq*).
5. Biz ertaga ham bu yerda (*qolmoq*).

5 **Tinglang. O‘ylang va toping.**

Psixologik test

Tanlagan javoblaringizga ✔ belgisini qo‘ying.

1) __; 2) __; 3) __; 4) __; 5) __; 6) __; 7) __; 8) __; 9) __; 10) __;
11) __; 12) __; 13) __; 14) __; 15) __; 16) __; 17) __; 18) __; 19) __; 20) __;

Javoblar:
1–5 – xolerik
6–10 – sangvinik
11–15 – flegmatik
16–20 – melanxolik

Javoblaringizni sanab ko‘ring, masalan, 1 dan 5 gacha 3 ta yoki 4 ta belgi qo‘ygan bo‘lsangiz, demak, sizda temperament tipi xolerikdir; javoblarda sonlar miqdori bir xil bo‘lib qolganda esa sizda har ikki temperament xususiyati mavjud bo‘ladi. Unutmang, bitta odamda bitta temperament sof holda uchramaydi.

perament tipiga ko‘ra 4 turga bo‘linishini bilib oldingiz. Siz ulardan qaysi biriga mansub ekaningizni ham bilishni istaysizmi? Fe’l-atvoringizning eng nozik qirralarini-chi? U holda **psixologiya** sizga bu borada yordam beradi. 1 dan 20 gacha sonlarni yozib oling va sizga to‘g‘ri kelgan javoblarga yuqoridagi belgini qo‘ying.



6 O‘ylang va toping. Gapiring.

Temperament turlari va ularga xos xususiyatlar	Sangvinik	Xolerik	Flegmatik	Melanxolik
Serjahl va tez	+			
Bosiq va chidamli				
O‘z kuchiga ishonmaydigan				
Tavakkal qilishga moyil				
Ehtiyotkor va vazmin				
Quvnoq va ishchan				
Boshlagan ishini oxiriga yetkazadigan				
Hissiyotga beriluvchan				
Dilkash va mehribon				
Tirishqoqlik bilan ishlaydigan				

Mustaqil topshiriq

Melanxolik temperamenti vakillarining xususiyatlaridan kelib chiqib, ularga tavsif yozing.

1. Siz qaysar va o‘jarsiz.
2. Tavakkal qilishni yoqtirasiz.
3. Sizni hamma yangi narsalar jalb qiladi.
4. Munozara va bahsli vaziyatlarni tezda hal qilasiz.
5. Nutqingiz tez va hissiyotga boy.
6. Siz quvnoq va xushchaqchaqsiz.
7. Sizning qiziqishlaringiz tez-tez o‘zgarib turadi.
8. Siz yangi reja va sharoitlarga oson ko‘nikasiz.
9. Siz qiyin vaziyatlarda ham vahimaga tushmaysiz, ichki xotirjamlikka egasiz.
10. Nutqingiz tushunarli va muloqotni yaxshi ko‘rasiz.
11. Siz ehtiyotkor va aqlli odamsiz.
12. Sizda aniq kundalik tartib bor, ishlaringizni reja bilan bajarasiz.
13. Yangi do‘stlar va muhitga moslashishingiz qiyin.
14. Tanqidni xotirjamlik bilan qabul qilasiz.
15. Boshlagan ishingizni oxiriga yetkazasiz.
16. Sizni xafa qilish oson.
17. O‘zingizga yuqori talablar qo‘yasiz.
18. Qiyin vaziyatlarda yolg‘iz qolishni istaysiz.
19. Ta’sirchansiz, tezda yig‘lab yuborasiz.
20. Kutilmagan yangilik va yangi sharoitni yoqtirmaysiz.

Bunda o‘quvchilar daftarlariga 1 dan 20 gacha raqam qo‘yib olishlari va har 5 talik raqamlardan so‘ng belgi qo‘yib ajratishlarini (rasmda ko‘rsatilgan) tushuntiring:

1.	√ 2.	3.	4.	5.
6.	7.	8.	9.	10.
11.	12.	13.	14.	15.
16.	17.	18.	19.	20.

Izoh: o‘quvchilar, audioni diqqat bilan tinglab borishlari bilan birga, sifatlardan qaysi biri to‘g‘ri kelsa, √ belgisini qo‘yib borishadi; to‘g‘ri kelmagan variantlar o‘rni esa bo‘sh qoldiriladi. 1 dan 5 gacha, 6 dan 10 gacha, 11 dan 15 gacha va 16 dan 20 gacha bo‘lgan qatorlardagi belgilar sanab chiqiladi, masalan, 1 dan 5 gacha 3 ta belgi qo‘yilgan bo‘lsa va qolgan qatorlarda 2 tadan belgi bo‘lsa, demak, birinchi qator olinadi; 11 dan 15 gacha 4 ta belgi qo‘yilib, qolgan qatorlarda 3 ta, 2 ta bo‘lsa, 11 dan 15 gacha bo‘lgan eng ko‘p belgilangan qatorlar olinadi va javoblar tekshiriladi.

Javoblar:
1-5 – xolerik
6-10 – sangvinik
11-15 – flegmatik
16-20 – melanxolik

(Javoblaringizni sanab ko‘ring, masalan, 1 dan 5 gacha 3 ta yoki 4 ta belgi qo‘ygan bo‘lsangiz, demak, sizda temperament tipi xolerikdir; javoblarda sonlar miqdori bir xil bo‘lib qolganda esa sizda har ikki temperament tipi mavjud bo‘ladi. Shuni unutmang-ki, bir odamda bitta temperament sof holda uchramaydi)

Shu tariqa javoblar hisoblanib, o‘quvchilarning temperamentlari aniqlanadi. Agar qatorlarda qo‘yilgan belgilar soni teng bo‘lib qolsa, o‘quvchilarga bitta insonda faqat bitta temperament turi sof holda mavjud bo‘lmasligini, aralash holda ham uchrashini tushuntiring.

6. Berilgan jadvalni og‘zaki yoki sinf taxtasida bajartiring, bunda jadvalni har bir temperamentga mos belgini qo‘yib to‘ldirishlari yoki og‘zaki aytishlarini nazorat qi-ling. **Javoblar:**

Temperament turlari va ularga xos xususiyatlar	**Sangvinik**	**Xolerik**	**Flegmatik**	**Melanxolik**
Serjahl va tez		+		
Bosiq va chidamli			+	
O‘z kuchiga ishonmaydigan				+
Tavakkal qilishga moyil		+		
Ehtiyotkor va vazmin			+	
Quvnoq va ishchan	+			
Boshlagan ishini oxiriga yetkazadigan			+	
Hissiyotga beriluvchan				+
Dilkash va mehribon	+			
Tirishqoqlik bilan ishlaydigan	+			

Mustaqil topshiriq: o‘quvchilarga melanxolik temperamenti haqida o‘rganganlari asosida tavsif yozib kelishlarini topshiring.

KAMALAK

Maqsad: o‘quvchilarga ranglar orqali psixologik bilimlarni yetkazish hamda ranglarning qanday xususiyatlarga egaligini aniqlash, fe’lning shart maylini xohish-istak ma’nosida qo‘llanishini tushuntirish.

Refleksiya jarayoni: o‘quvchilardan temperament turlari va ularning xususiyatlarini qayta eslashlarini so‘rang va tasavvurlarida qaysi rang qaysi temperament turiga mos kelishi mumkin (masalan, xoleriklar, ya'ni qiziqqon va olov temperament vakillariga qizil rang mos keladi)ligini ifodalashlarini topshiring.

Vazifalar:

1. Berilgan rasmdan o‘quvchilar nechta rangni ajratib yoza olishlari mumkinligini tekshiring, vaqtni belgilang: 3-4 daqiqa har bir o‘quvchining alohida ishlayotganligini kuzating, musobaqa tarzida tashkil qilib, vaqt tugagach, kim nechta rangni ajratib yoza olganini so‘rang va eng ko‘p yozgan o‘quvchilarga topgan ranglarini o‘qib berishlarini ayting. Bunda hamma o‘zi yozgan ranglarni belgilab turishini ta’kidlang.

2. Matnni diqqat bilan barcha o‘quvchilar o‘qib chiqishlarini nazorat qiling.

3. Berilgan matnni qanchalik tushunganlarini aniqlash maqsadida topshiriqni bajartiring, bunda berilgan uchta so‘zdan faqat



MAVZU **Kamalak**

1 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Rasmda nechta rang ko‘ryapsiz?

2 **O‘qing.**

Psixologiyada ranglarning o‘ziga xos xususiyatlari inson ruhiyati, xarakteri bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Ranglarning odam xulq-atvoriga, ruhiy holatiga yoki fiziologik holatiga qanday ta’sir qilishi yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Ayniqsa, marketing va dizayn sohalarida rang bilan ishlash juda muhimdir. Sababi kompaniyalar xarid darajasini oshirish uchun mijozlarni jalb qiladigan ranglardan foydalanish lozim deb hisoblaydilar. Masalan, qizil rang ishtahani ochadi degan qarash mavjud. Shu bois “McDonald’s”, “Pizza Hut”, “KFC”, “Loook” va “Wendy” kabi taniqli fastfud tarmoqlari ushbu rangni o‘zlarining logotiplari va binolarida ishlatishadi. Yoki moviy rangni olaylik: bu rang osmon va suv rangidir, u osoyishtalik, aql-idrokni anglatadi. Marketing dunyosida u “Facebook”, “Twitter”, “Telegram” kabi ko‘pgina logotiplarda qo‘llanadi. Bu nafis va korporativ rang kompaniyalar tomonidan ko‘p ishlatilishi sababi ishonch va poklik belgisi ekanidadir. Bulardan tashqari, siyohrang ham marketing dunyosida juda mashhur, chunki u nafislikni anglatadi va juda jozibali rang deb ta’riflanadi. Qora rang esa salbiy ma’noga egalik xususiyati bo‘lsa-da, moda olamida tengsizdir. Chunki bu rang rasmiyatchilik, tetiklik, nafislik rangi sanaladi. Aynan qora rangga qarama-qarshi rang deb sanaluvchi oq rang soflik va beg‘uborlik ramzidir. Yoga bilan shug‘ullanuvchi insonlar oq rangga bo‘yalgan xona, oq rangli kiyimlar, oq atirgullar bilan bezatilgan uylarda shug‘ullanish tanani yanada tozalaydi va insonga tasalli beradi deb ishonishar ekan.

3 **O‘ylang va toping. Gapiring.**

1. Osoyishtalik, aql-idrokni bildiruvchi rang *siyohrang / oq rang / moviy rang* hisoblanadi.
2. Rasmiy marosimlarda asosan *oq / qizil / qora* rangli kiyimlar kiyiladi.
3. Qizil rangdan ko‘p foydalanadigan savdo belgisiz: *“Facebook” / “WhatsApp” / “Loook”*. Marketing dunyosida taniqli bo‘lgan nafis ranglardan biri – *siyohrang / qora / oq*.

63

bitta mos variantni tanlab gaplarni yozishlari lozim.

Javoblar:

1. Osoyishtalik, aql-idrokni bildiruvchi rang moviy sanaladi.

2. Rasmiy marosimlarda, asosan, qora rangli kiyimlar kiyiladi.

3. Qizil rangdan ko‘p foydalanadigan kompaniya – “Loook”.

4. Marketing dunyosida taniqli bo‘lgan nafis ranglardan biri siyohrangdir.

5. Moviy rang hamkorlarning o‘zaro ishonchini anglatadi.

6. Maxsus mashqlar bilan shug‘ullanuvchi insonlar oq rangni afzal ko‘rishadi.



4. Moviy rang hamkorlarning o‘zaro *sadoqati / ishonchi / aql-idrokini* anglatadi.
5. Maxsus mashqlar bilan shug‘ullanuvchi insonlar *qora / qizil / oq* rangni afzal ko‘rishadi.

4 **Tinglang. O‘ylang va toping.**

Namuna. 1) rangni; 2) qora; .....

Siz qaysi rangni yoqtirasiz?

Insonlar ma’lum (1) _____ ko‘rganda unga nisbatan o‘zlarida hissiy o‘zgarishni sezishadi. Aytishlaricha, (2) _____ rangi yoqtiruvchi insonlar sirli hisoblanib, davralarga tezda kirishib keta olishmaydi, biroq boshqalarning (3) _____ tez sazovor bo‘lishadi va qora rangli kiyimlarni kiyish orqali ko‘proq (4) _____ ongsiz intilishadi.

(5) _____ rangni yoqtiruvchilar esa haq-huquqlarini buzishlariga yo‘l qo‘ymaydigan, biror ishni (6) _____ bajarishga harakat qiluvchilardir.

(7) _____ rangni afzal ko‘ruvchilar ko‘proq rahbar bo‘lishga, boshqarishga qiziquvchi insonlar hisoblanadi. Ularda ba’zan (8) _____, qaysarlik kuzatiladi.

(9) _____ rangni yoqtiradigan insonlar ularga chegara qo‘yishlarini istashmaydi, ular hayotga inson (10) _____, o‘z nuqtayi nazari bilan qarashi lozim deb o‘ylaydilar.

Sariq rangni yaxshi ko‘ruvchilar (11) _____, o‘z maqsadlari yo‘lida tinmay harakat qiladigan odamlar sanaladi.

(12) _____ rangni asosan qizlar yoqtirishadi va bu insonlar (13) _____, jozibadorlik qadrlashadi. Ular mehnatkash, ma’lum ishni tartib bilan bajaradigan insonlar hisoblanadi.

(14) _____ rangni afzal ko‘ruvchi odamlarning esa ichki dunyosi nihoyatda boy sanaladi, ular (15) _____ o‘ylab topishadi, biroq hammaga ham o‘z qalblarini ochishni xohlashmaydi. Ular (16) _____ va tartibni yoqtirishadi.

5 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Siz qaysi rangni yoqtirasiz va nima uchun?
2. Yoqtirgan rangingiz haqida qanday ma’lumotlarni bilasiz?

Men	bor~~moq~~ + -sa	-m	Biz	bor~~moq~~ + -sa	-k
Sen		-ng	Siz		-ngiz
U		-	Ular		-lar

6 **O‘qing. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘zlar: *tanlamoq, o‘ynamoq, bilmoq,* anglatmoq, ~~bo‘yamoq~~, o‘ylamoq.

Namuna. Mutaxassislarning fikricha, bolalar chizgan rasmini qora rangga bo‘yasalar, ularni psixolog qabuliga olib borish lozim.

1. Oq rangning ma’nosi Sharqda nimani _____-sa, G‘arbda ham xuddi shunday emas.

64

Siz qaysi rangni yoqtirasiz?

Insonlar ma’lum rangni ko‘rganda, unga nisbatan o‘zlarida hissiy o‘zgarishni sezishadi.

Aytishlaricha, qora rangni yoqtiruvchi insonlar sirli hisoblanib, har doim ham hamma davralarga tezda kirishib ketisha olmaydi, biroq boshqalarning e’tiboriga tez sazovor bo‘lishadi va qora rangli kiyimlarni kiyish orqali ko‘proq chegara saqlashga intilishadi.

Oq rangni yoqtiruvchilar esa haq-huquqlarini buzishlariga yo‘l qo‘ymaydigan, biror ishni mukammal bajarishga harakat qiladiganlardir.

Qizil rangni afzal ko‘ruvchilar ko‘proq rahbar bo‘lishga, boshqarishga qiziquvchi insonlar hisoblanadi. Ularda ba’zan o‘zboshimchalik, qaysarlik kuzatiladi.

Moviy rangni yoqtiradigan insonlar ularga chegara qo‘yishlarini istashmaydi, ular hayotga inson erkin, o‘z nuqtayi nazari bilan qarashi lozim deb o‘ylaydilar.

Sariq rangni yaxshi ko‘ruvchilar o‘ziga ishongan, o‘z maqsadlari yo‘lida tinmay harakat qiladigan odamlar sanaladi.

Pushti rangni asosan qizlar yoqtirishadi va bu insonlar nafislikni, jozibadorlikni qadrlashadi. Ular mehnatkash, ma'lum ishni tartib bilan bajaradigan kishilardir.

Yashil rangni afzal ko'ruvchi odamlarning esa ichki dunyosi nihoyatda boy bo'ladi, ular yangi-yangi g'oyalarni o'ylab topishadi, biroq hammaga ham o'z qalblarini ochishni xohlashmaydi. Ular tozalik va tartibni yoqtirishadi.

Audio javoblari: 1) rangni; 2) qora; 3) e'tiboriga; 4) chegara saqlashga; 5) oq; 6) mukammal; 7) qizil; 8) o'zboshimchalik, 9) moviy; 10) erkin; 11) o'ziga ishongan; 12) pushti; 13) nafislikni; 14) yashil; 15) yangi-yangi g'oyalarni; 16) tozalik.

5. O'quvchilarning og'zaki savollarga javob berishlarida nutqning qanday ifodalanayotganini tekshiring.

Diqqat qiling!

Fe'lning shart mayli haqida ma'lumot bering, bunda xohish-istakni bildirish uchun fe'lning shart maylidan foydalanishga alohida e'tibor bering. Berilgan qoidaga misollar keltiring va o'quvchilardan ham misollar keltirishlarini so'rang.

6. Qoidani mustahkamlash maqsadida foydalanish uchun berilgan so'zlarni bo'sh o'rinlarga joylashtirishlarini tushuntiring, bunda berilgan so'zlar fe'lning shart mayli-da ekaniga e'tibor berishlarini ta'kidlang.

tanlamoq, o'ynamoq, bilmoq,

anglatmoq, ~~bo'yamoq,~~ o'ylamoq.

Javoblar:

1. Mutaxassislarning fikricha, bolalar chizgan rasmini qora rangga **bo'yashsa,** ularni psixolog qabuliga olib borish lozim.
2. Oq rang Sharqda nimani **anglatsa,** G'arbda ham xuddi shunday.
3. Bola qaysi rangdagi o'yinchog'ini sevib **o'ynasa**, unda shu rangga nisbatan ijobiy emotsiya bor.
4. Insonlar kiyimning qulayligi birinchi o'rinda deb **bilishsa**-da, sotib olayotganda rangiga qarashadi.
5. Ba'zi insonlar to'q rangli kiyim odamni savlatli qilib ko'rsatadi deb **o'ylashsa**, boshqalar och rangli kiyimlar shunday deb o'ylaydi.
6. Pushti rangni ko'proq qizlar **tanlasa**, to'q moviy rangni o'g'il bolalar afzal ko'rishadi.

Mustaqil topshiriq. O'quvchilarga rang haqida kimyo darslaridan olgan bilimlari asosida qiziqarli ma'lumotlar tayyorlashlarini topshiring.

RANG-BARANG OLAM

Maqsad: o‘quvchilarga ranglar psixologiyasini tushuntirish bilan birga ularni atrof-muhitdagi rangin dunyoning ajoyibotlari bilan tanishtirish, shart ergash gapli qo‘shma gaplarning qo‘llanilish o‘rinlarini misollar orqali tushuntirib, mustahkamlash.

Refleksiya jarayoni: ranglarning ma’nolari va ahamiyati bo‘yicha qisqacha “Aqliy hujum” uyushtiring va o‘tilgan mavzudagi fe’lning shart maylini xohish-istak ma’nosida qo‘llanlishi haqidagi grammatik qoidani misollar orqali eslating va -sa qo‘shimchasi ishtirokida misollar keltirishini so‘rang.

Vazifalar:

1. O‘quvchilarga rasmni diqqat bilan kuzatishlarini va berilgan qiziqarli ma’lumotlarni o‘qib chiqishlarini topshiring, o‘quvchilardan ham shu kabi qiziqarli ma’lumotlarni so‘rang hamda ularning fikrini tinglang.

2. Savollarga matn yuzasidan javob berishlari lozimligini ta’kidlang.

3. Audioni diqqat bilan tinglashlari uchun 2 marta qayta qo‘yib bering, o‘quvchilardan qanday tushungalarini va matn nima haqida ekanini so‘rang. Audiomatn:

Musiqa rangi

Kaliforniya olimlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarning birida musiqaning ham rangi mavjud ekani aniqlandi. Bir guruh ko‘ngillilar ishtirokida o‘tkazilgan natijalarga ko‘ra, ijobiy ma’noga ega bo‘lgan musiqalar inson tasavvurida iliq rangli taassurotlar, misol uchun, sariq, pushti rang ko‘rinishlarni hosil qilishi aniqlandi. Shu bilan birga, g‘amgin musiqalar inson tasavvurida to‘q ranglar ko‘rinishini hosil qilar ekan. Ushbu ma’lumot turli shou o‘tkazuvchi tashkilot a’zolariga qo‘l kelishi mumkin.



2. Bola qaysi rangdagi o'yinchog'ini sevib _____-sa, unda shu rangga nisbatan ijobiy emotsiya bor.
3. Insonlar kiyimning qulayligi birinchi o'rinda deb _____-sa-da, sotib olayotganda rangiga qarashadi.
4. Ba'zi insonlar kiyimning to'q ranglisi odamni savlatli qilib ko'rsatadi deb _____-sa, boshqalar bunday xususiyatga och rangli kiyimlar ega deb o'ylaydi.
5. Pushti rangni ko'proq qizlar _____-sa, to'q ko'k rangni o'g'il bolalar afzal ko'rishadi.

Mustaqil topshiriq

Kimyo darslarida olgan bilimlaringiz asosida ranglar haqida qiziqarli ma'lumotlar tayyorlang.

MAVZU **Rang-barang olam**

1 O'qing.

FAUNA VA FLORA

Atrofimizdagi olam rang-barangdir. Ayniqsa, qushlar, hayvonlar, o'simliklar orasida biz har doim ko'rib, o'rganib qolgan ranglarimizga nisbatan noodatiy rang va turlarga ega jonzotlar yashaydi.

Aslida barcha itlarning tili pushti rangda bo'ladi, lekin dunyoda tilining rangi pushti bo'lmagan yagona it zoti Chau-chau hisoblanadi. Ularning tili siyohrang bo'ladi.

Dunyoda shunday qanotlari shaffof kapalaklar borki, ular o'zi qo'ngan narsa rangiga kiradi.

Amazonka daryosida noyob pushti delfinlar hayot kechiradi.

Yer sayyorasida oq karkidonlardan atigi 3 dona qolgan. Ularni maxsus qo'riqchilar tinimsiz qo'riqlab yuradi.

65

Xromofobiya

Xromofobiya – insonning ma’lum bir rangdan qo‘rqish kasalligidir. Bu kasallik nafaqat ma’lum rangga bo‘yalgan xonalar ichida, hatto libos, idish-tovoq yoki buyum bilan to‘qnash kelib qolganda xuruj qiladi. Xromofobiya bezovtalik hissi, ko‘ngil aynishi, bosh aylanishi holatlari bilan birga kechadi.

Daltonizm

Bu – insonnning rangni idrok etish borasidagi o‘ziga xosligidir. Gap shundaki, rangni qabul qilishga inson organizmida ishlab chiqadigan uch xil oqsil javob beradi. Daltoniklar esa irsiy o‘ziga xoslik tufayli ana shu oqsillarning biriga ega bo‘lmaydi. Ko‘p hollarda daltoniklar qizil rangni yashil bilan almashtirishadi. Bu esa haqiqiy daltonizm deyiladi.

Dunyodagi eng sevimli rang – moviy.

AQSH olimlari dunyodagi eng sevimli rang qaysi ekanini bilish uchun tadqiqot o‘tkazdilar. Aniqlanishicha, insonlar ko‘proq moviy va ko‘k rangni yaxshi ko‘rishar ekan. Bu marketing sohasi uchun juda muhim tadqiqot bo‘ldi.

4. Tinglab tushunish darajasini tekshirish uchun berilgan topshiriqni bajartiring. Bunda har bir o‘quvchi alohida bajarayotganini nazorat qiling:

1. Qizil rangni yashil bilan almashtirib yuborish nima deb ataladi? **Daltonizm.**



Amazonka daryosida pushti delfin yashasa, tabiatda xuddi shunday rangga ega pushti kaptar ham mavjud bo‘lib, ular juda noyob sanaladi. Bugungi kunda ularning soni atigi 100 ta.

Dunyodagi eng turfa ranglarga ega yagona va chiroyli qushlar, shubhasiz, tovuslardir.





Lolalar sayyoramizdagi eng ko‘p sotiladigan gullar sanaladi. Ularning vatani Hollandiya bo‘lib, bu yerda har yili 300 trillion tupdan ortiq turli rangdagi lolalar yetishtiriladi.

2 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Siz ham shunday qiziqarli ma’lumotlarni bilasizmi?
2. Matnda pushti rangli qaysi jonzotlar haqida so‘z borgan?
3. Dunyodagi eng chiroyli qush qaysi?
4. Itlarning tili qanday rangda bo‘ladi?
5. Hollandiya “gullar mamlakati” ekanini bilarmidingiz?
6. Karkidonlarni nima uchun qo‘riqlashadi?
7. Shaffof kapalakning qanday xususiyati mavjud?

3 **Tinglang. O‘ylang va toping.**






4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Qizil rangni yashil bilan almashtirib yuborish nima deb ataladi? *Daltonizm.*

1. Xona, idish-tovoq, kiyimlar, buyumlar rangidan qo‘rqish kasalligi nima?
2. Musiqada ham rang borligini qayerlik olimlar aniqlaganlar?
3. G‘amgin musiqalar inson tasavvurida qanday rangni hosil qiladi?
4. Xromofobiya natijasida insonda qanday holatlar yuz beradi?
5. Sariq, pushti kabi iliq ranglar insonda qanday kechinmalarni yuzaga keltiradi?
6. Moviy va ko‘k ranglar qaysi sohaning rivojiga katta ta’sir ko‘rsatadi?

Agar ...-sa, ...

Mabodo ...-sa, ...

Agar biz ranglarning inson psixologiyasidagi ahamiyatini o‘rgan**sa**k, odamlarga ta’sir o‘tkazishni ham uddalashimiz mumkin.

Mabodo tropik o‘rmonga borib qol**sa**k, barcha rangli va chiroyli o‘simliklarni qo‘l bilan ushlab ko‘rmasligimiz lozim.

Mustaqil topshiriq

Internetdan rang haqidagi qiziqarli, ilmiy faktlarni topib, ularga ijodiy yondashgan holda do‘stlaringizga tushuntirib bering.

MAVZU

Ijtimoiy odoblar

1 **O‘qing.**

A Odobli, bilimdon, mehnatsevar, imon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Darhaqiqat, har bir farzand shaxsi oilada shakllanadi. Demak, oila barkamol avlod poydevori hisoblanadi. Shunday ekan, oilada farzandlarni axloqiy-huquqiy jihatdan tarbiyalash, ayniqsa, adolat, burch, vatanparvarlikni shakllantirish, ona-Vatanni sevish hissini uyg‘otish o‘ta muhim hisoblanadi.

B Oilada farzandlarni o‘z burchiga sadoqat ruhida tarbiyalash mas’uliyat, ongli lik, vijdon kabi fazilatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Bunda ota-onaning o‘zaro samimiy munosabati, ularning farzandlari bilan yaqin, do‘stona munosabatda bo‘lishi, farzandlarning kelajakdagi orzu-maqsadlarini tushunib olishlari ularning sog‘-salomat voyaga yetishlari uchun asos bo‘ladi. Inson tarbiya jarayonida yaxshi xulq-atvor, odatlar va aql-farosatga ega bo‘lgan bo‘lsa, hayot saboqlarini shunchalik yaxshi anglaydi va yaxshi ishlarni amalga oshiradi: aksincha, qanchalik tarbiyasi kam, hayotiy ko‘nikmalari oz bo‘lsa, bunday shaxs ba’zan bilib yoki bilmay yomon ishlarga qo‘l uradi.

2. Xona, idish-tovoq, kiyimlar, buyumlar rangidan qo‘rqish kasalligi nima? **Xromofobiya**

3. Musiqada ham rang borligini qayerlik olimlar aniqlaganlar? **Kaliforniyalik olimlar**.

4. G‘amgin musiqalar inson tasavvurida qanday rangni hosil qiladi? **To‘q ranglarni**.

5. Tadqiqotlar natijasida insonlarning sevimli ranglari qaysi ekani aniqlangan? **Moviy.**

6. Xromofobiya natijasida insonda qanday holatlar yuz beradi? **Ko‘ngil aynishi, bosh aylanishi.**

7. Sariq, pushti kabi ranglar insonda qanday kechinmalarni yuzaga keltiradi? **Ijobiy kechinmalarni.**

8. Moviy va ko‘k ranglar qaysi soha vakillariga qo‘l keladi? **Marketing sohasi.**

Diqqat qiling!

Shart ergash gapli qo‘shma gaplar qoidasini tushuntiring. Bunda shart ergash gapli qo‘shma gaplarning *agar, mabodo* so‘zlari va shart mayli qo‘shimchasi -sa orqali bog‘lanishini misollar asosida tushuntiring.

Mustaqil topshiriq. O‘quvchilarga internetdan rang haqidagi qiziqarli, ilmiy faktlarni topib, ularga ijodiy yondashgan holda do‘stlariga tushuntirib berishga tayyorlanib kelishlarini topshiring.

IJTIMOIY ODOBLAR

Maqsad: o‘quvchilardagi odob tushunchasini kengaytirish, turli ijtimoiy qatlamlarda odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish, qolaversa, esse haqida tushuncha berish, essening yozilish tartibi, shakli xususida ma’lumot berish va mashq, topshiriqlar orqali mustahkamlash.

Refleksiya jarayoni: bugungi kunga qadar o‘rganilgan matnlarni tahlil qilish, ulardan kerakli ma’lumotlarni tanlab olishni o‘rganish va esse yozishda foydalanish uchun eslab qolish.

Vazifalar:

1. Berilgan matnni diqqat bilan bilan o‘qishlari va ma’nosini tushunib borishlari lozimligini ta’kidlang.

2. Matnni qayta ko‘rib chiqishlarini va A, B, D tarzida ajratilgan matn bo‘laklariga diqqat qilishlarini ta’kidlab, quyidagi topshiriqni bajartiring. Bunda har bir ma’lumot qaysi matn bo‘lagidan olinganini aniqlashlari lozim bo‘ladi.

Javoblar:

1. Tarbiyali farzandlar butun jamiyat boyligi sanaladi. **A**
2. Inson qanchalik yaxshi xulq-atvorga ega bo‘lsa, hayotda shunchalik muvaffaqiyatga erishadi. **B**
3. Bolalarning xatolarini vaqtida tuzatish kerak. **D**
4. Shaxsning hayotiy ko‘nikmalari uni noto‘g‘ri ishlardan asraydi. **B**
5. Ota-onaning o‘zaro samimiy munosabati farzandlarga ta’sir qiladi. **B**
6. Oila – farzandlarni shaxs bo‘lib yetishishlaridagi asosdir. **A**
7. Bilimsiz, axloqsiz kishilarning oilasidagi tarbiya farzandlar tarbiyasiga ta’sir etadi. **D**
8. Farzandlar ulg‘aygan sari ota-ona ular bilan do‘stona munosabatda bo‘lishi lozim. **B**



4 O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna. Qizil rangni yashil bilan almashtirib yuborish nima deb ataladi? *Daltonizm.*

1. Xona, idish-tovoq, kiyimlar, buyumlar rangidan qo‘rqish kasalligi nima?
2. Musiqada ham rang borligini qayerlik olimlar aniqlaganlar?
3. G‘amgin musiqalar inson tasavvurida qanday rangni hosil qiladi?
4. Xromofobiya natijasida insonda qanday holatlar yuz beradi?
5. Sariq, pushti kabi iliq ranglar insonda qanday kechinmalarni yuzaga keltiradi?
6. Moviy va ko‘k ranglar qaysi sohaning rivojiga katta ta’sir ko‘rsatadi?

Agar ...-sa, ...

Mabodo ...-sa, ...

Agar biz ranglarning inson psixologiyasidagi ahamiyatini o‘rgansak, odamlarga ta’sir o‘tkazishni ham uddalashimiz mumkin.

Mabodo tropik o‘rmonga borib qolsak, barcha rangli va chiroyli o‘simliklarni qo‘l bilan ushlab ko‘rmasligimiz lozim.

Mustaqil topshiriq

Internetdan rang haqidagi qiziqarli, ilmiy faktlarni topib, ularga ijodiy yondashgan holda do‘stlaringizga tushuntirib bering.

MAVZU **Ijtimoiy odoblar**

1 O‘qing.

A Odobli, bilimdon, mehnatsevar, imon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Darhaqiqat, har bir farzand shaxsi oilada shakllanadi. Demak, oila barkamol avlod poydevori hisoblanadi. Shunday ekan, oilada farzandlarni axloqiy-huquqiy jihatdan tarbiyalash, ayniqsa, adolat, burch, vatanparvarlikni shakllantirish, ona-Vatanni sevish hissini uyg‘otish o‘ta muhim hisoblanadi.

B Oilada farzandlarni o‘z burchiga sadoqat ruhida tarbiyalash mas’uliyat, onglilik, vijdon kabi fazilatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Bunda ota-onaning o‘zaro samimiy munosabati, ularning farzandlari bilan yaqin, do‘stona munosabatda bo‘lishi, farzandlarning kelajakdagi orzu-maqsadlarini tushunib olishlari ularning sog‘-salomat voyaga yetishlari uchun asos bo‘ladi. Inson tarbiya jarayonida yaxshi xulq-atvor, odatlar va aql-farosatga ega bo‘lgan bo‘lsa, hayot saboqlarini shunchalik yaxshi anglaydi va yaxshi ishlarni amalga oshiradi: aksincha, qanchalik tarbiyasi kam, hayotiy ko‘nikmalari oz bo‘lsa, bunday shaxs ba’zan bilib yoki bilmay yomon ishlarga qo‘l uradi.

67

3. Audioni diqqat bilan tinglashlari uchun 2 marta qayta qo‘yib bering, o‘quvchilardan qanday tushunganlarini va matn nima haqida ekanini so‘rang. Audiomatn:

Odob – har bir insonning ziynati. Odobli insonlar har yerda qadrlanadi. Ular o‘z hurmatlariga ega bo‘lishadi. Insonning odobi jamiyatda o‘zini qanday tutayotgani bilan belgilanadi. Jamiyatda belgilangan odob-axloq me’yorlari ijtimoiy odoblar deb yuritiladi.

Ijtimoiy odoblar, albatta, tarbiya natijasida yoki insonning yillar davomida egallagan tajribalari orqali shakllanadi. Yaxshi tarbiya, ba’zilar o‘ylaganidek, bir soatlik yoki bir kunlik ish emas. Maqsadli tarbiya tarbiyachidan chidam, matonat, katta bilim va tajriba talab qiladi. Demak, har bir ota-ona va o‘qituvchi tarbiyaga oid bilim va malakaga ega bo‘lishi shart.

4. Savollarga audiomatn yuzasidan javob berishlari lozimligini va rasmlar bilan bog‘lashlarini ta’kidlang.

Diqqat qiling!

Esse haqida berilgan ma’lumotlarni tushuntiring. Qo‘shimcha ma’lumotlar ham kiritishingiz yoki o‘quvchilardan esse haqida so‘rashingiz mumkin. Essening bir necha turlari borligini (mulohazali esse, argumentli esse) ta’kidlang. Quyidagi qolip asosida essening asosi shakllantirilishini tushuntiring:



D Bolalarni tarbiyalashda yo‘l qo‘yilgan xato-kamchiliklardan hech qachon ko‘z yummasligimiz kerak. Ba’zan odobsiz, bilimsiz, aqlsiz, giyohvand, ota-onasiga qo‘l ko‘taradigan va o‘z bolalarining baxtsiz yashashiga sababchi bo‘layotgan kishilar uchraydi. Bunday-larning paydo bo‘lishiga asosiy sababchi ota-onalari-ku! Bolasining bunday xulqiga ularning tarbiyaga loqaydliklari sabab bo‘lgan.

2 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Tarbiyali farzandlar butun jamiyat boyligi sanaladi. ***(A)***

1. Inson qanchalik yaxshi xulq-atvorga ega bo‘lsa, hayotda shunchalik muvaffaqiyatga erishadi. (_)
2. Bolalarning xatolarini vaqtida tuzatish kerak. (_)
3. Shaxsning hayotiy ko‘nikmalari uni noto‘g‘ri ishlardan asraydi. (_)
4. Ota-onaning o‘zaro samimiy munosabati farzandlarga ta’sir qiladi. (_)
5. Oila farzandlarning shaxs bo‘lib yetishishlaridagi asosdir. (_)
6. Bilimsiz, axloqsiz kishilarning oilasidagi tarbiya farzandlar tarbiyasiga ta’sir etadi. (_)
7. Farzandlar ulg‘aygan sari ota-ona ular bilan do‘stona munosabatda bo‘lishi lozim. (_)

3 **Tinglang.**

68



4 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Audioda nima haqida ma’lumot berildi?
2. Yuqoridagi rasmlarni odob tushunchasi bilan bog‘lab tasvirlang.

Esse (fransuzcha, *tajriba, mashq*) – adabiy, falsafiy, ijtimoiy, publitsistik mavzularda yozilgan, masalalar sistematik-ilmiy tarzda emas, balki erkin shaklda talqin qilinadigan nasriy asar.

Yozilish maqsadiga ko‘ra esse quyidagi turlarga bo‘linadi:

- tavsiflovchi esse;
- mulohazali esse;
- umumlashtiruvchi esse;
- argumentli esse;
- ijodiy esse.

Esse muallifga o‘z fikrini erkin bildirishga, mavzuga aloqador ma’lumotlarni ongli qabul qilishga va tushunishga, muammoning yechimini topishga aloqador dalillardan foydalanib o‘z xulosasini aniq va savodli bayon etishga imkon yaratadi. Muhimi, keltirilgan fakt va dalillarning o‘rinli qo‘llanishidir.

Essening hajmi 200–2500 ta so‘z atrofida bo‘ladi.

5 **O‘qing.**

Bolalar tarbiyasida tezda ijobiy natijalarga erishish uchun ularga bilim berish bilan birga ma’lum mehnat jarayonlariga jalb etish, kasb va mutaxassislik sir-sinoatlarini qo‘shib o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyaning ba’zan samarasiz bo‘lishiga asosiy sabablardan biri tarbiya jarayonida tartib-intizomning bo‘lmasligidir. Shaxs qanchalik mehr-muhabbat va tartib-intizom asosida tarbiyalansa, yomon xatti-harakatlardan shunchalik uzoq bo‘ladi. Tarbiyaning asosiy maqsadi yoshlarni baxt-saodatli, o‘z zamonining aziz, hurmatli va fidoyi kishisi qilib tarbiyalashdan iborat. Tarbiyaning murakkabligi shundaki, u hech qachon tugamaydi, ya’ni kishi tug‘ilganidan to o‘lguniga qadar zarur bo‘ladi. Bundan tashqari, biror tarbiya ko‘rgan avlod o‘rniga kelgan farzandlarni yana qayta boshdan tarbiya qilish kerak bo‘ladi. Bu esa tarbiyaning doimiyligi va abadiyligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir insonning oiladagi tarbiyasi uning kelajakdagi hayotida muhim o‘rin tutadi.

6 **Savollarga javob bering. Yozing.**

1. Yuqoridagi matnga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lar edingiz?
2. Matnda qanday muammo tilga olingan?
3. Muammoning yechimi nimada?
4. Siz matndan qanday xulosa chiqardingiz?

69

1. Mavzu.
2. Qo‘yilgan muammo.
3. Muammo xususidagi fikrlar.
4. Muammoning yechimi.
5. Taklif va xulosalar.

5. Berilgan matnni diqqat bilan o‘qib chiqishlari uchun vaqt belgilang.

6. Savollarga yozma tarzda tartib bilan, atroflicha javob yozishlari lozim.

Mustaqil topshiriq. O‘quvchilarga berilgan ma’lumotlardan foydalanib, “Internet va yoshlar” mavzusida argumentli esse yozishlarini mustaqil topshiriq sifatida bering. Bunda quyidagi qolipdan foydalanishlarini tushuntirng:

1. Mavzu.
2. Qo‘yilgan muammo.
3. Muammo xususidagi fikrlar.
4. Muammoning yechimi.
5. Taklif va xulosalar.

Eslatma: argumentli essening asosiy qismida faktlar, aniq ma’lumotlar va raqamlardan (statistika) foydalaniladi.

FAZILAT

Maqsad: odob-axloqli insonning fazilatlarini tushuntirish, o‘quvchilarning bu boradagi fikrini bilish va yangi ma’lumotlar bilan boyitish, insoniy fazilatlar tushunchasini kengaytirish hamda ijtimoiy muhitda rasmiy va norasmiy vaziyatlarda insonning xulq-atvorini o‘rganish, qolaversa, esse yozish qonun-qoidalarini mustahkamlash.

Refleksiya jarayoni: jamiyat tomonidan qabul qilingan ijtimoiy odoblarni yodga olish, rasmlarni diqqat bilan kuzatish hamda o‘quvchilardan o‘zlari amal qiladigan ijtimoiy odoblar xususida fikr-mulohaza so‘rash.

Vazifalar:

1. Berilgan jadvalni aralash holdagi rasmiy va norasmiy vaziyatlar haqidagi so‘zlar bilan to‘ldirishlarini topshiring, bunda bitta vaziyat har ikki holatga ham mos kelishi mumkinligi xususida tushuncha bering. Masalan, telefon orqali muloqot ham rasmiy, ham norasmiy bo‘lishi mumkin, rasmiy vaziyatlarda turli kompaniyalar yoki

prezidentlar suhbat olib borsa, norasmiy vaziyat do‘stlar yoki oila a’zolari, tanishlar bilan telefonda suhbat olib borish ekanini tushuntiring, o‘quvchilardan ham bu haqidagi fikrlarini so‘rang.

Javoblar:

Rasmiy vaziyat	***Norasmiy vaziyat***
majlisda	sayr qilayotganda
ishda	tanaffus paytida
konferensiyada	bozorda
mashg‘ulot paytida	konsertda
telefon orqali muloqotda	telefon orqali muloqotda
internet-muloqotda	internet-muloqotda
	shifoxonada
	do‘konda
	uyda

2. Berilgan matnni diqqat bilan o‘qib chiqishlari uchun vaqt belgilang.

3. Mazkur jadvalni to‘ldirishda har bir o‘quvchi individual fikr bildirishini nazorat qiling, bunda o‘quvchilar shu vaqtga qadar to‘plagan hayotiy tajribadan kelib chiqib yondashishlari mumkinligini, eng kreativ, noodatiy tushunchalarga yozilgan ta’riflarni xattaxtaga yozib qo‘yishlarini ta’kidlang va berilgan ta’riflar 4 yoki 5 ta gapdan oshmasligini ham ta’kidlang.

Maqsad	
Matonat	
Intilish va harakat	
Tartib va intizom	
Vaqtni tejash	
Ichki xotirjamlik	

4. Audioni diqqat bilan tinglashlari uchun 2 marta qayta qo‘yib bering, o‘quvchilardan qanday tushunganlarini va matn nimalar haqida ekanini so‘rang va quyidagi savolga javob berishlarini so‘rang: **Bu matn esse bo‘la oladimi? Nega?** Audiomatn:

Mutolaa haqida

Hermann Hesse



Mustaqil topshiriq

Yuqorida berilgan ma’lumotlardan foydalanib “Internet va yoshlar” mavzusida argumentli esse yozing. Unda quyidagi qolipdan foydalaning:

1) mavzu;
2) qo‘yilgan muammo;
3) muammo xususidagi fikrlar;
4) muammoning yechimi;
5) taklif va xulosalar.

Eslatma: argumentli essening asosiy qismida faktlar, aniq ma’lumotlar va raqamlardan (statistika) foydalaniladi.

MAVZU **Fazilat**

1 **Yozing.**

Ishda, tanaffus paytida, mashg‘ulot paytida, majlisda, sayr qilayotganda, konferensiyada, uyda, shifoxonada, bozorda, konsertda, telefon orqali muloqot qilayotganda, internet-muloqotda, do‘konda.

Rasmiy vaziyat	Norasmiy vaziyat
Majlisda	Sayr qilayotganda

2 **O‘qing.**

Donishmandlar quyida keltirilgan axloqiy sifatlarni inson uchun eng kerakli fazilatlar deb hisoblaganlar.

Sukut. O‘zingga ham, boshqalarga ham hech bir foydasi tegmaydigan oldi-qochdi so‘zlarni so‘zlashdan chekin, jim bo‘l.

Intizom. Ishlaring tartibli, intizomli bo‘lsin, ishingni o‘z vaqtida bajar, kechiktirma.

Maqsad. Bir ishga kirishmoqchi bo‘lsang, eng avval yaxshilab o‘yla, shu ishdan kutgan maqsading nima ekanini yaxshi tushun, bir qarorga kel. Keyin bu ishingni hech bir kamchiliksiz ado qil.

Tejash. Iqtisod, ya’ni tejamkorlikka rioya qil, o‘zingga va xalqqa foydasi tegmaydigan yerlarga pul va mol sarf qilma, isrofdan saqlan.

Sa’y va shug‘ullanish. Vaqt va fursatingni bekordan bekor o‘tkazma. Doimo foydali ish bilan mashg‘ul bo‘l, kerak bo‘lmagan narsadan chekin.

Matonat. Ishingda chidamli, matonatli bo‘l. Hiyla-nayrang ishlatishdan hazar qil, tushunchang pok, sof va haqqoniy bo‘lsin, tushunganing kabi so‘zla va ishla.

70

Ko‘pchilik kitob o‘qishni bilmaydi va nima uchun o‘qiyotganini tuzukroq tushunmaydi. Ba’zilar buni o‘qimishli bo‘lishning qiyin va yagona yo‘li deb biladi. Ular uchun har qanday kitob kishini “o‘qimishli” qiladi. Boshqa birovlar uchun esa o‘qish – dam olish, shunchaki vaqtni o‘tkazish va ularga nimani (maqola, roman, she’r, xabar va hokazo) o‘qish baribir, zerikarli bo‘lmasa, bas. Shunchaki dam olish, vaqt o‘tkazishni istagan va “o‘qimishli” bo‘lish haqidagina qayg‘urgan kitobxon kitobdagi dilni poklovchi, kishini ruhlantiruvchi qandaydir noma’lum bir kuchni sezadi. Biroq bu kuchni u aniq tasavvur etolmaydi va baholay ham olmaydi. Bunday kitobxon tibbiyotdan mutlaqo bexabar bemorga o‘xshaydi, ya’ni aynan qaysi dori kerakligini tushunmasdan har bir qutichadagidan tatib ko‘ra boshlaydi. Aslida, mutolaa borasida ham har bir kishi o‘zi uchun zarur bo‘lgan, yangi kuch hamda ruhiy ta’sir baxsh etadigan kitoblarni topa bilishi kerak emasmi?!

Biz – mualliflarga odamlarning ko‘p mutolaa qilishlari, albatta, yoqimli. Biroq aynan ijodkor tomonidan, “haddan ziyod” ko‘p o‘qishadi, deyilishi noo‘rindir. Ammo mingta loqayd kitobxondan o‘nta yaxshi kitobxon durust. Shu bois bemalol ta’kidlashim mumkinki, hamma joyda haddan ziyod ko‘p mutolaa qilishadi va bu adabiyot uchun obro‘ emas, ziyon keltiradi. Kitob mustaqil bo‘lmagan kishilarni yana ham ma’naviy zaiflashtirish uchun yozilmaydi, bundan tashqari, undan ba’zan noqobil odamlarga arzongarov tasvir hamda osongina o‘zgartirilgan hayotni ko‘rsatish uchun ham foydalanishadi. Kitoblar insonni hayotga yo‘llagandagina, unga xizmat qilgandagina foydalidir. Agar kitob o‘quvchiga oz bo‘lsa-da kuch-g‘ayrat, shijoat, ma’naviy poklik baxsh etmasa, mutolaa uchun sarf etilgan har bir soat behuda, besamar bo‘lib qolaveradi.



3 Yozing.

Berilgan tushunchalarga o‘z ta’rifingizni bering.

Maqsad	
Matonat	
Intilish va harakat	
Tartib va intizom	
Vaqtni tejash	
Ichki xotirjamlik	

4 Tinglang. Gapiring.

Bu matn esse bo‘la oladimi? Nega?

5 Yozing.

Tasvirdagi voqea

6 Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Ijtimoiy odoblarga yana qanday odoblarni kiritish mumkin?
2. Chet elga borsangiz, u yerdagi madaniyatga tez moslashib keta olarmidingiz?

Mustaqil topshiriq

Tasavvur qiling: biror xorijiy mamlakatga bordingiz, lekin ularning madaniyati va ijtimoiy odoblari siz uchun mutlaqo notanish ekan. Siz bu mamlakatda qolishni istamaysiz, biroq ma’lum vaqtgacha qolishga majbursiz. Shu vaziyatda qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?

71

Shunchaki o‘qish – bu diqqatni to‘plashga majbur etuvchi mashg‘ulot va ovunish uchungina o‘qish – o‘z-o‘zini aldashdir. Loqayd kishilar uchun, umuman, biror narsadan ovunishning hojati yo‘q. Aksincha, ular hamma joyda diqqat-e’tiborli bo‘lishlari, qayerda nima bilan mashg‘ul bo‘lishmasin, nima haqda fikr yuritishlaridan qat’i nazar, o‘zlarini butun vujudlari bilan voqealar girdobida his etmoqlari zarur.

Hayot qisqa, uning poyonida hech kimdan o‘qilgan kitoblar soni

so‘ralmaydi. Biror foydasi bo‘lmasa, o‘qishga vaqt sarflash aqllilik belgisi emas, aksincha, koni ziyon emasmikan?! Men bu o‘rinda faqat yomon kitoblarni emas, avvalambor, sifatli mutolaani nazarda tutyapman. Hayotda har bir qadaming kabi o‘qishdan ham biron natija kutiladi. Mutolaadan yangi kuch-g‘ayrat olmoq uchun avvaliga kuch sarf etmoq, o‘zingni yanada yaxshiroq tushunmoq uchun oldin o‘zingni “yo‘qotmoq” kerak bo‘ladi.

Agar har bir o‘qilgan kitob quvonch va alam, shijoat hamda ruhiy tazarru olib kelmasa, jahon adabiyoti tarixini bilishdan ma’no yo‘q. Fikr-mulohaza qilmasdan o‘qish – xushmanzara tabiat qo‘ynida ko‘zni bog‘lab yurmoq demakdir. Biz o‘zimizni va turmushimizni unutish uchun emas, balki hayot jilovini yanada ongliroq ravishda jilovlash uchun o‘qishimiz kerak. Kitobga dimog‘dor o‘qituvchiga qaragan qo‘rqoq o‘quvchi singari emas, balki eng baland cho‘qqini zabt etmoqqa shaylangan shiddatkor alpinist kabi yondashmoq talab etiladi.

(Nemis tilidan M. Akbarov tarjimasi)

5. “Tasvirdagi voqea” nomli rasmli topshiriqni bajartiring. Bunda ketma-ket berilgan vaziyatlar, undagi insonlarning holati, yuz ifodasidan kelib chiqqan holda hikoya tuzishlarini topshiring.

6. Savollarga matn yuzasidan javob berishlari lozimligini ta’kidlang va o‘quvchilarning og‘zaki nutqini tekshiring.

Mustaqil topshiriq: mustaqil topshiriq sifatida har bir o‘quvchi quyidagi vaziyatda qanday yo‘l tutishi haqida yozma matn yaratib kelishlarini topshiring: “Tasavvur qilingi siz xorijiy mamlakatga bordingiz, lekin ularning madaniyati va ijtimoiy odoblari siz uchun mutlaqo notanish ekan. Siz bu mamlakatda qolishni istamaysiz, biroq ma’lum vaqtgacha qolishga majbursiz. Shu vaziyatda qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?”

SHAXSIY GIGIYENA

SALOMATLIK VA GIGIYENA

Maqsad: salomatlik haqidagi tushunchani kengaytirish, foydali va zararli mahsulotlar, odatlar bilan tanishtirish, shaxsiy gigiyena qoidalari bilan birga gigiyena tushunchasining qo‘llanish sohalarini o‘rgatish, gapdagi buyruq, iltimos, taklif ohangi va ulardan foydalanish holatlarini tushuntirish.

Refleksiya jarayoni: odob-axloq, insoniy fazilatlarning hayotdagi ahamiyati hamda psixologik jihatdan sog‘lom kishilarda qanday fazilat va odatlar shakllanishini ko‘rib chiqish, o‘quvchilar bilan bahs-munozara uyushtirish.

Vazifalar:

1. O‘quvchilarga berilgan ma’lumotlarni foydali va zararli odatlarga ajratib, nega foydali va nega zararli ekanini izohlashlari lozimligini namunadagidek tushuntiring.

Namuna: Men har kuni uch soat piyoda yuraman, bu – **foydali** odat, chunki piyoda yurishning inson salomatligiga foydasi katta.

Taxminly javoblar:

1. Men kun bo‘yi band bo‘lganligim uchun asosan ko‘chada tez tayyor bo‘ladigan mahsulotlarni iste’mol qilishni afzal ko‘raman, bu – **zararli** odat, chunki kechqurunlari oshqozonimda turli noqulayliklar, og‘riqlar his qilaman.

2. Men har doim meva va sabzavotlar iste’mol qilaman, bu – **foydali** odat, chunki meva va sabzavotlarni doimiy iste’mol qilish hazm qilish a’zolari uchun juda foydali.

3. Men kuniga 5 finjon qahva ichaman, bu – **zararli** odat, chunki borgan sari qahva ichmasam o‘zimni tetik his qilmayapman va boshimda ham kuchli og‘riq vujudga kelyapti.



Shaxsiy gigiyena

MAVZU Salomatlik va gigiyena

1 O‘ylang va toping. Yozing.

FOYDALI VA ZARARLI ODATLAR

Namuna. Men har kuni uch soat piyoda yuraman, bu *foydali* odat, chunki piyoda yurishning salomatlikka foydasi katta.

1. Men kun bo‘yi band bo‘lganim uchun asosan tez tayyor bo‘ladigan ovqatlarni iste’mol qilishni afzal ko‘raman, bu – _____ odat, chunki _____.
2. Men har doim meva va sabzavotlar iste’mol qilaman, bu – _____ odat, chunki _____.

72

4. Men kompyuterda ko‘p ishlayman va har ikki-uch soatda toza havoga chiqib, atrofni tomosha qilaman, bu – **foydali** odat, chunki ma’lum vaqt davomida miyaga dam berish va uzoqdagi narsalarni kuzatish ko‘z nuri uchun juda foydali.

5. Men ba’zida kechalari uxlamay kitob o‘qiyman, bu – **zararli** odat, chunki miya yetarlicha dam olmasa, insonda charchoq, holsizlik kabi holatlar yuzaga keladi.

6. Men har doim bir xil vaqtda uxlab, bir xil vaqtda turaman, bu odat **foydali,** chunki organizm yetarlicha energiya to‘plab oladi va shunga odatlanadi.

7. Men odatda ertalab nonushta qilmayman, bu – **zararli** odat, chunki organizmda mavjud energiya ortiqcha sarflanadi va insonda asabiylik, tez charchash yuzaga keladi.



3. Men kuniga 5 finjon qahva ichaman, bu – _____ odat, chunki _____.
4. Men kompyuterda ko'p ishlayman va har ikki-uch soatda toza havoga chiqib, atrofni tomosha qilaman, bu – _____ odat, chunki _____.
5. Men ba'zida kechalari uxlamay kitob o'qiyman, bu – _____ odat, chunki _____.
6. Men har doim bir xil vaqtda uxlab, bir xil vaqtda turaman, bu – _____ odat, chunki _____.
7. Men odatda ertalab nonushta qilmayman, bu – _____ odat, chunki _____.

Buyruq ohangi: *o'rningizdan turing, vazifalarni bajaring.*
Iltimos ohangi: *anavi kitobni berib yuboring.*
Taklif ohangi: *keling, yana bir o'ylab ko'raylik.*

2 **Yozing.**

Namuna. Hozir mening navbatim edi, o'tkazib yuboringlar. *(Iltimos)*

1. Hamma o'rnidan tursin. (____)
2. Berilgan vazifani barchangiz bajaring. (____)
3. Uyga kiring, choy damlab qo'ygan edim. (____)
4. Bugungi sport musobaqasi haqida bizga ham ma'lumot bering. (____)
5. Biz bilan birga aylanishga yuring, yangi ochilgan xiyobonga boramiz. (____)
6. Vazifa: hamma ertaga insho yozib kelsin. (____)

3 **Tinglang. Yozing.**

JAHON SOG'LIQNI SAQLASH TASHKILOTI

World Health Organization

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) (1) xalqaro tashkilot bo'lib, (2) _____ _____ _____ (BMT)ning (3) _____ maxsus muassasasi hisoblanadi. (4) _____ _____ fevralda BMT konferensiyasida Jahon sog'liqni saqlash tashkilotini tuzish to'g'risida (5) _____ qabul qilingan edi. 1946-yilda sog'liqni saqlash bo'yicha (6) _____ _____ o'tkazilgan (7) _____ _____ BMTga a'zo 26 ta mamlakat tashkilot ustavini (8) _____ qilgach, (9) _____ _____ _____ Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tuzildi.

4 **O'qing.**

7-aprel kuni butun dunyoda Sihat-salomatlik kuni sifatida nishonlanadi. Tashkilot o'z oldiga "hamma xalqlarning sog'-salomat bo'lishiga erishish"ni maqsad qilib qo'ygan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti kasalliklarga qarshi kurash olib boradi, ularni tugatish tadbirlarini ko'radi; atrof-

73

Diqqat qiling! Gapdagi buyruq, iltimos va taklif ma’nolarini turli hayotiy misollar orqali tushuntiring:

Buyruq ohangi: *o‘rningizdan turing, vazifalarni bajaring.*

Iltimos ohangi: *anavi kitobni berib yuboring.*

Taklif ohangi: *keling, yana bir o‘ylab ko‘raylik.*

Berilgan grammatik qoidani mustahkamlash maqsadida quyidagi topshiriqni bajartiring:

1. Hozir mening navbatim edi, o‘tkazib yuboringlar. **Iltimos.**
2. Hamma o‘rnidan tursin. **Buyruq**.
3. Berilgan vazifani barchangiz bajaring. **Buyruq.**
4. Uyga kiring, choy damlab qo‘ygan edim. **Taklif.**
5. Bugungi sport musobaqasi haqida bizga ham ma’lumot bering. **Iltimos.**
6. Biz bilan birga aylanishga yuring, yangi ochilgan xiyobonga boramiz. **Taklif.**
7. Vazifa: hamma ertaga insho yozib keladi. **Buyruq.**

2. Audioni diqqat bilan tinglashlari uchun 2 marta qo‘yib bering, birinchi marotaba o‘quvchilardan qanday tushunganlarini va matn nima haqida ekanini so‘rang. Shundan so‘ng ikkinchi marotaba o‘quvchilarga ma’lumotlarni tinglab, bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirib borishlari zarurligini tushuntiring.



muhit muhofazasi, yuqumli va yuqumsiz (sil, venerik va parazitar kasalliklar, yurak-qontomir kasalliklari, xavfli o'smalar va boshqalar)ga qarshi kurash uchun xalqaro standartlarni ishlab chiqadi, dori vositalari sifati va qo'shimcha ta'siri hamda narkotik moddalar ustidan xalqaro nazorat o'rnatish; tibbiyot fanining eng muhim masalalari (toksikologiya, farmakologiya, atrof-muhit gigiyenasi va boshqalar) bo'yicha hamda sog'liqni saqlash sohasidagi tadqiqotlarni muvofiqlashtirish va ularni o'tkazishga ko'maklashadi.

5 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti o'z oldiga qanday maqsad qo'ygan?
2. Mazkur tashkilot qanday muhim vazifalar bilan shug'ullanadi?
3. Xalqaro standartlarni ishlab chiqish ham JSSTining vazifasiga kiradimi?

Mustaqil topshiriq

Bugun ba'zi davlatlarda ichimlik suv muammosi kuchaygan. Siz bu muammoni hal qilish uchun qanday taklif bera olasiz? Fikrlaringizni yozing.

MAVZU

Sog‘liq uchun foydali mahsulotlar

1 **Tinglang.**

JAHON SOG‘LIQNI SAQLASH TASHKILOTINING NIZOMI

2 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Biror-bir mamlakatning salomatlik borasida erishgan yutuqlari boshqa mamlakatlar uchun ham ahamiyatlimi?
2. Bolalar salomatligi haqida JSST nizomida nima deyilgan?
3. Hukumat xalq salomatligiga qanday munosabatda bo'lishi lozim?

3 **O‘qing.**

SALOMATLIGINGIZNI ASRANG

Salomatlik – tengsiz boylik. Uni asrash, sog'lom turmush tarziga rioya etishga har kim o'zi mas'ul. Biz bolalikda ota-onamizning: "ko'cha sovuq, bosh kiyimsiz chiqma, sharf o'rab ol", "muzdek suvni ichma", "sovuqda ko'p turma" kabi tanbehlarini ko'p eshitganmiz. Bundan maqsad – kasal bo'lishning oldini olish, salomatligimizni asrash. Ulg'ayib borgani sari odamda turli odatlar shakllanadi. Bu odatlarni sog'lom odatlar yoki nosog'lom odatlar, hayotimiz uchun foydali yoki foydasiz odatlar deb ajratsak bo'ladi. "Nonushta qilib ket" deyilsa ham, vaqtning ozligini bahona qilib, ertalabki nonushtasiz yuradiganlar bor. Kimlardir esa kompyuterda yarim tungacha ishlashga odatlanib

74

Audiomatn:

Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) – xalqaro tibbiy tashkilot bo‘lib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning ixtisoslashgan maxsus muassasasi hisoblanadi. 1945-yil fevralda BMT konferensiyasida Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkilotini tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilingan edi. 1946-yilda sog‘liqni saqlash bo‘yicha Nyu Yorkda o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada BMTga a’zo 26 ta mamlakat tashkilot nizomini ratifikatsiya qilgach, 1948-yil 7-aprelda Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti tuzildi.

3. Berilgan matnni diqqat bilan o‘qib chiqishlari uchun vaqt belgilang.

4. Savollarga audiomatn yuzasidan javob berishlari lozimligini va rasmlar bilan bog‘lashlarini ta’kidlang.

Mustaqil topshiriq. Bugun ba’zi davlatlarda ichimlik suvi muammosi kuchaygan. Siz bu muammoni hal qilishda qanday taklif bera olasiz? Mazkur savol yuzasidan fikr-mulohazali esse yozib kelishlarini topshiring.

36-DARS. NAZORAT ISHI.
37-DARS. XATOLAR USTIDA ISHLASH.

SOG‘LOM MAHSULOTLAR

Maqsad: o‘quvchilarning sog‘lom ovqatlanish, sog‘lom mahsulotlar haqidagi fikrlarini kengaytirish, Jahon sog‘liqni saqlash nizomiga ko‘ra jahonda insonlarning salomatligiga, xususan, turli mamlakatlarda kuzatilayotgan ocharchilik, ichimlik suvi tanqisligi kabi masalalarga to‘xtalish, bu borada o‘quvchilarga yetarli ma’lumotlarni taqdim etish va salomatlikni asrash har kimning o‘z qo‘lida ekanini tushuntirish.

Refleksiya jarayoni: «Xatolar ustida ishlash» mustahkamlash darsidan oldin salomatlik va gigiyena mavzusi yuzasidan bajarilgan mashq va topshiriqlardagi eng dolzarb va qiziqarli ma’lumotlarni qayta eslating, xususan, Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkilotining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat ekanini bahs-munozara tarzida so‘rab, foydali va zararli odatlar haqida o‘quvchilar fikrini tinglang.

Vazifalar:

1. Audioni diqqat bilan tinglashlari uchun 2 marta qayta qo‘yib bering, o‘quvchilardan qanday tushunganlarini va matn nima haqida ekanini so‘rang. Audiomatn:

JSST nizomi quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

• Salomatlik bu – nafaqat tanada kasalliklarning mavjud emasligi, balki umumiy-ijtimoiy, ruhiy hamda jismoniy barqarorlik holatidir.

• Kishining irqi, dini, siyosiy qarashlari, iqtisodiy va ijtimoiy ahvolidan qat’i nazar, salomatlik borasida eng yaxshi darajaga erisha olishi har bir shaxsning eng asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi.

• Jahondagi barcha xalqlarning salomatligi dunyoda tinch-



muhit muhofazasi, yuqumli va yuqumsiz (sil, venerik va parazitar kasalliklar, yurak-qontomir kasalliklari, xavfli o'smalar va boshqalar)ga qarshi kurash uchun xalqaro standartlarni ishlab chiqadi, dori vositalari sifati va qo'shimcha ta'siri hamda narkotik moddalar ustidan xalqaro nazorat o'rnatish; tibbiyot fanining eng muhim masalalari (toksikologiya, farmakologiya, atrof-muhit gigiyenasi va boshqalar) bo'yicha hamda sog'liqni saqlash sohasidagi tadqiqotlarni muvofiqlashtirish va ularni o'tkazishga ko'maklashadi.

5 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti o'z oldiga qanday maqsad qo'ygan?
2. Mazkur tashkilot qanday muhim vazifalar bilan shug'ullanadi?
3. Xalqaro standartlarni ishlab chiqish ham JSSTining vazifasiga kiradimi?

Mustaqil topshiriq

Bugun ba'zi davlatlarda ichimlik suv muammosi kuchaygan. Siz bu muammoni hal qilish uchun qanday taklif bera olasiz? Fikrlaringizni yozing.

MAVZU **Sog‘liq uchun foydali mahsulotlar**

1 **Tinglang.**

JAHON SOG'LIQNI SAQLASH TASHKILOTINING NIZOMI

2 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Biror-bir mamlakatning salomatlik borasida erishgan yutuqlari boshqa mamlakatlar uchun ham ahamiyatlimi?
2. Bolalar salomatligi haqida JSST nizomida nima deyilgan?
3. Hukumat xalq salomatligiga qanday munosabatda bo'lishi lozim?

3 **O‘qing.**

SALOMATLIGINGIZNI ASRANG

Salomatlik – tengsiz boylik. Uni asrash, sog'lom turmush tarziga rioya etishga har kim o'zi mas'ul. Biz bolalikda ota-onamizning: "ko'cha sovuq, bosh kiyimsiz chiqma, sharf o'rab ol", "muzdek suvni ichma", "sovuqda ko'p turma" kabi tanbehlarini ko'p eshitganmiz. Bundan maqsad – kasal bo'lishning oldini olish, salomatligimizni asrash. Ulg'ayib borgani sari odamda turli odatlar shakllanadi. Bu odatlarni sog'lom odatlar yoki nosog'lom odatlar, hayotimiz uchun foydali yoki foydasiz odatlar deb ajratsak bo'ladi. "Nonushta qilib ket" deyilsa ham, vaqtning ozligini bahona qilib, ertalabki nonushtasiz yuradiganlar bor. Kimlardir esa kompyuterda yarim tungacha ishlashga odatlanib

74

lik va xavfsizlik o‘rnatilishining eng asosiy omili bo‘lib, u mamlakatlarning to‘liq o‘zaro hamkorligiga bog‘liqdir.

• Har qanday davlatning sog‘liqni saqlash borasida erishgan natijalari barcha uchun ahamiyatlidir.

• Turli mamlakatlarda kasalliklarga ayniqsa, yuqumli kasalliklarga, qarshi kurash borasidagi choralarning notekisligi qolgan barcha uchun umumiy xatarni yuzaga keltiradi.

• Bola salomatligi eng ustuvor vazifa hisoblanadi.

• Barcha xalqlar uchun tibbiyot, psixologiya va turdosh ilmlar yutuqlaridan birdek foydalana olish sharoiti yaratilishi salomatlikni ta’minlash borasidagi eng asosiy shartlardan biri bo‘lishi kerak.



qolgan. Organizm bora-bora bu nosog'lom odatlarga o'rganadi. Insonda hayotiy energiya zaxiralari o'rni asta-sekin bo'shab, doimiy charchoq, holsizlik, kayfiyatning tushkunligiga sabab bo'ladi.

Salomatlikni yemiruvchi va insonda turli tuzalmas kasalliklarni paydo qiluvchi omil – uning hayotiy energiyasi o'rni to'lmasligi. Bu nima degani? Masalan, biz ish ko'pligi uchun amalga oshirmoqchi bo'lgan o'zimiz xohlayotgan narsalardan tezda voz kechamiz yoki orqaga suramiz. Deylik, qorningiz och, biroq sizning ishlaringiz bor. Bunday hollarda ko'pchilik o'z oshqozoniga "yana ozgina chidab tur, kechqurun ovqat yeymiz" deb ishlarini davom ettiradi. Agar bu surunkali odat bo'lib qolsa, endi organizm o'zini-o'zi himoya qilish maqsadida qorin och qoldimi, unga qo'shilib bosh ham og'riy boshlaydi yoki ko'ngil aynishi, ko'z tinishi holatlari birgalikda kechadi.

Unutmang: organizm hech qachon kasal bo'lmaydi, uning vazifasi kasallik orqali insonga "salomatligingga qara, befarq bo'lma, vaqtida ovqatlan, vaqtida uxla, o'zing zavq oladigan ishlarni bajar va sog'lom turmush tarziga amal qil" deyishdir. Inson kasal bo'lishi bilan aslida dam ola boshlaydi, ovqatlanadi, uxlaydi, bu bilan tana o'zining yo'qotilgan energiyasini tiklab oladi. Shuning uchun ham piyoda yurish, sport bilan shug'ullanish, sog'lom mahsulotlarni tanovul qilish, qiziqarli mashg'ulotlar, shaxsiy hobbi bilan shug'ullanish energiya ustiga energiya qo'shadi va inson kundan kunga yosharib, faol va harakatchan bo'lib boradi. Demak, salomatligingizni asrash o'z qo'lingizda.

4 **Savollarga javob bering. Yozing.**

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) qachon tuzilgan?
2. Xalqaro konferensiyada BMTga a'zo nechta mamlakat qatnashgan?
3. Qaysi kun dunyoda sihat-salomatlik kuni sifatida nishonlanadi?
4. "Bola salomatligi – eng ustuvor vazifa", deb qaysi nizomda belgilangan?
5. Qaysi mamlakatda 1946-yilda sog'liqni saqlash bo'yicha xalqaro konferensiya o'tkazilgan?
6. Qachon BMT konferensiyasida Jahon sog'liqni saqlash tashkilotini tuzish to'g'risida qaror qabul qilingan?

5 **O'ylang va toping. Yozing.**

"Har qanday davlatning sog'liqni saqlash borasidagi erishgan natijalari barcha uchun ahamiyatlidir", deb qaysi nizomda belgilangan va siz bundan nimani tushundingiz?

Mustaqil topshiriq

Sog'lom va nosog'lom deb bilgan mahsulotlaringizni ikkita ustunga ajratib yozing.

75

• Xalq salomatligini yaxshilash borasida jamoatchilik bilan faol ishlash, uning bu boradagi tushunchalarini shakllantirish ushbu xalqning salomatligini himoyalash uchun g‘oyat muhimdir.

• Hukumatlar o‘z xalqlarining salomatligi uchun javobgardirlar. Bu javobgarlik sog‘liqni saqlash sohasida tegishli choralarni ko‘rishni taqozo etadi.

2. Savollarga audiomatn yuzasidan javob berishlari lozimligini va rasmlar bilan bog‘lashlarini ta’kidlang**.**

3. Berilgan matnni diqqat bilan o‘qib chiqishlari uchun vaqt belgilang. Matndagi qora qilib berilgan buyruq ohandigagi gaplarga ahamiyat berishlarini va gapdagi buyruq ohangi haqidagi grammatik qoida bilan bog‘lashlarini ta’kidlang.

4. Matn yuzasidan berilgan topshiriqni bajarishlarini topshiring. Bunda «Salomatlik va gigiyena» mavzusida ham berilgan ma’lumotlardan foydalanishlari lozimligini ayting.

Javoblar:

1. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) qachon tuzilgan? ***1948-yil.***
2. Xalqaro konferensiyada BMTga a’zo nechta mamlakat qatnashgan? **26 ta.**
3. Qaysi kun dunyoda sihat-salomatlik kuni sifatida nishonlanadi? **7-aprel kuni.**

4. “Bola salomatligi – eng ustuvor vazifa” deb qaysi nizomda belgilangan? **JSST.**

5. Qaysi mamlakatda 1946-yilda sog‘liqni saqlash bo‘yicha xalqaro konferensiya o‘tkazilgan ? **Nyu Yorkda.**

6. Qachon BMT konferensiyasida Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkilotini tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilingan? **1945-yil fevralda.**

5. O‘quvchilarga quyidagi savol yuzasidan mustaqil fikrlarini yozishlarini topshiring: “Har qanday davlatning sog‘liqni saqlash borasida erishgan natijalari barcha uchun ahamiyatlidir” deb qaysi Nizomda belgilangan va siz bundan nimani tushundingiz?” (8-9 ta gapdan iborat)

Mustaqil topshiriq: O‘quvchilar mustaqil tarzda Sog‘lom va nosog‘lom deb bilgan mahsulotlarini ikkita ustunga ajratib yozishlari, bunda fastfud mahsulotlarini ham kiritishlarini ta’kidlang.

Sog‘lom mahsulotlar	***Nosog‘lom mahsulotlar***
_____	_____
_____	_____

TALAB VA TAKLIF

Maqsad: o‘quvchilarning iqtisod bo‘yicha olgan bilimlari bilan bog‘lash, parfyumeriya mahsulotlari haqida ma’lumot, gigiyenik jihatdan parfyumeriya mahsulotlaridan foydalanish haqidagi o‘quvchilar fikrini kengaytirish.

Refleksiya jarayoni: salomatlik uchun, eng avvalo, gigiyena muhimligi bilan bog‘lash, bunda parfyumeriya mahsulotlari, tabiiy va sun’iy atirlarning ahamiyatini tushuntirish.

Vazifalar:

1. O‘quvchilarga rasmni diqqat bilan kuzatishlari va berilgan dialogni davom ettirishlari lozimligini tushuntiring. Bunda o‘quvchilar partadoshlari bilan Sotuvchi va Xaridor rolini ijro etib berishlari uchun vaqt belgilang.

2. Berilgan matnni diqqat bilan o‘qib chiqishlarini ta’kidlang.

3. Matnni o‘qib tushunganlarini tekshirish uchun berilgan topshiriqni bajartiring. Bunda berilgan ma’lumotlar *To‘g‘ri, Noto‘g‘ri* va *Berilmagan* ekanligini aniqlashlarini topshiring. Bunda agar ma’lumot matn mazmuniga mos bo‘lsa, TO‘G‘RI; agar

ma’lumot matn mazmuniga mos bo‘lmasa, NOTO‘G‘RI; agar ma’lumot matnda umuman keltirilmagan bo‘lsa, BERILMAGAN deb yozishlarini tushuntiring.

Javoblar:

1. Atir birinchi bo‘lib Sharq mamlakatlarida ishlab chiqarilgan. **To‘g‘ri.**
2. Efir moyi va xushbo‘y modda atirni hosil qiladi. **To‘g‘ri.**
3. Qadim zamonda ham atirning tarkibi bugungi bilan bir xil bo‘lgan. **Noto‘g‘ri.**
4. Toshkentda atirni aralashma holiga keltirishadi. **To‘g‘ri.**
5. Mamlakatimiz atir-upa fabrikasi bo‘yicha Fransiya bilan hamkorlik qiladi. **To‘g‘ri.**
6. Avvallari ham atir sun’iy ravishda olingan. **Noto‘g‘ri.**

4. O‘quvchilarga berilgan rasmlarni diqqat bilan kuzatib quyidagi savolga javob berishlarini ta’kidlang: **“Qaysi atir nomlari sizga tanish?”**

5. Audioni diqqat bilan tinglashlari uchun 2 marta qayta qo‘yib bering, birinchi marotaba o‘quvchilardan qanday tushunganlarini va matn nima haqida ekanini so‘rang. Shundan so‘ng berilgan testlarning javoblarini belgilashlarini so‘rang. Audio matni:

Parfyumeriya (frans. parfum – “yoqimli hid, atir”) – teri, soch, kiyimlarni xushbo‘y qiluvchi, shuningdek, gigiyenik vosita sifatida qo‘llanadigan mahsulotlar. Qadimda xushbo‘y moddalar sifatida faqat tabiiy mahsulotlar (efir moylari, balzam va boshqalar) ishlatilgan. Organik kimyo rivojlanishi natijasida

MAVZU

Talab va taklif

1 **Gapiring.**

Sotuvchi: Assalomu alaykum! Keling, sizga qanday yordam kerak?

Xaridor: Assalomu alaykum, menga xushbo‘y hidli atirlaringizdan ko‘rsatib yubora olasizmi?

Sotuvchi: Albatta! Qanaqa firma bo‘lsin?

Xaridor: Qaysi firmaniki bo‘lsa ham, xushbo‘y, yoqimli bo‘lsin, o‘zingiz tavsiya qilsangiz, iltimos.

Sotuvchi: Tushunarli. Demak, sizga _____.

(Suhbatni davom ettiring.)



2 **O‘qing.**

Atir (arabcha, “xushbo‘y”) – xushbo‘y o‘simliklarning guli, bargi, ildizidan yoki ba’zi hayvonlar bezlaridan olinadigan moddalarning spirtdagi eritmasi. Atir dastlab Sharq mamlakatlarida tarqalgan. U zamonlarda atir turli gul moylaridan olinib, mushk va anbarlar aralashtirib tayyorlangan. Qadim zamonlarda (miloddan avvalgi 5000–2000-yil) ham atir ishlatilgani ma’lum. Hozir atir sun’iy usulda sintez qilingan har xil xushbo‘y moddalardan ham ishlab chiqarilmoqda. Gultojbarg yoki o‘simlik ildizidan efir moyi olish uchun u maxsus germetik qozonda ekstraksiya qilinadi va atir kompozitsiyasi (efir moyi bilan xushbo‘y modda aralashmasi) tayyorlanadi. Har bir atir uchun o‘ziga xos hid tanlanadi. Tuzilgan kompozitsiya yuqori darajada tozalangan etil spirtda eritilib, emallangan berk idishlarda 12 kungacha saqlanadi. So‘ngra filtrdan o‘tkazilib, flakon shishachalarga quyiladi. A’lo sifatli atirda 10–12%, o‘rtachasida 5% xushbo‘y modda bo‘ladi.

3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

1. Atir birinchi bo‘lib Sharq mamlakatlarida ishlab chiqarilgan.
2. Efir moyi va xushbo‘y modda atirni hosil qiladi.
3. Qadim zamonda ham atirning tarkibi bugungi kundagi bilan bir xil bo‘lgan.
4. Mamlakatimiz atir-upa ishlab chiqarish bo‘yicha Fransiya bilan hamkorlik qiladi.
5. Avvallari ham atir sun’iy ravishda olingan.

4 **Yozing.**

QAYSI MASHHUR ATIR NOMLARINI BILASIZ?



5 **Tinglang.**

1. Parfyumeriya bu – _____.
   A) xushbo‘y atir
   B) yoqimli hid
   D) atir ifori
   E) lab bo‘yog‘i
2. Qadimda atir sifatida faqat _____ ishlatilgan.
   A) balzamlar
   B) atirlar
   D) tabiiy mahsulotlar
   E) parfyumeriya mahsulotlari
3. Sintetik xushbo‘ylashtiruvchi mahsulotlardan qachon foydalana boshlangan?
   A) qadim davrlardan
   B) organik kimyo rivojidan keyin
   D) efir moylari qo‘llana boshlangach
   E) parfyumeriya mahsulotlari bilan birga
4. “Parfyumeriya” so‘ziqaysitildanolingan?
   A) fransuz
   B) ispan
   D) ingliz
   E) nemis
5. Parfyumeriyaning vatani qayer?
   A) Ispaniya, Madrid
   B) Buyuk Britaniya, London
   D) Fransiya, Parij
   E) Amerika, Vashington



efir moylari va hayvon mahsulotlari (anbar, mushk va boshqalar) bilan bir qatorda parfyumeriya mahsulotlari tayyorlashda sintetik xushbo‘y moddalardan foydalana boshlandi. Atir, upa, atir sovun, lab bo‘yoqlari, odekolon, xushbo‘y suv, shuningdek, ter va uydagi noxush hidlarni yo‘qotishda qo‘llanadigan dezodorantlar, tirnoq va soch loklari ham parfyumeriya mahsulotidir.

Test javoblari:

1) b; 2) c; 3) b; 4) a; 5) c.

6. Berilgan ikkita rasmni bir-biriga qiyoslab, quyidagi savolga javob berishlarini tushuntiring: “**Siz qaysi biridan ko‘proq foydalanar edingiz?”**

Mustaqil topshiriq. O‘quvchilarga o‘zlari bilgan parfyumeriya mahsulotlarining ro‘yxatini tuzishlarini topshiring va ularning tarkibini o‘rganib, qiziqarli ma’lumotlar yozishsin.

MENING KUNIM

Maqsad: o‘quvchilarga reja asosida ish qilish, kun tartibiga ega bo‘lish kabi motivatsion xarakterdagi ma’lumotlarni berish va ularni ma’lum maqsadlariga erishishlarida kundalik ishlarni rejalashtirish salomatlik uchun ham foydali ekan tushuntirish.

Refleksiya jarayoni: inson sog‘lom bo‘lishi uchun kun tartibiga rioya qilishi, bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarni rejalashtirib olishi va shu asosda harakatlanishi kerakligi hamda salomatlik uchun muhim omillar qatorida kun tartibi turishini avvalgi mavzularga bog‘lab tushuntirish.

Vazifalar:

1. Berilgan matnni diqqat bilan o‘qib chiqishlarini ta’kidlang.

2. Savollarni baland ovozda o‘qing yoki o‘quvchilardan biriga o‘qittiring (monitorda ask ettirish ham mumkin) va o‘quvchilardan har bir savol uchun qisqa-qisqa fikrlarni eshiting. Matnga bog‘lab javob berishlarini kuzating.

3. Dastlab audioni diqqat bilan tinglashlari uchun 2 marta qayta qo‘yib bering, birinchisida o‘quvchilardan qanday tushunganlarini va matn nima haqida ekanini so‘rang. Shundan so‘ng ikkinchi marotaba o‘quvchilarga ma’lumotlarni tinglab, bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirib borishlari zarurligini tushuntiring. Audio matni:

Gigiyena (yun. hygieinos – “sog‘lom”) – tibbiyotning bir sohasi; kishilar sog‘lig‘iga turmush va mehnat sharoitlari ta’sirini o‘rganadi hamda kasalliklarning oldini olish,

yashash uchun eng qulay sharoit yaratish, sog‘liqni saqlash va umrni uzaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Gigiyenaning bir necha sohalari bor. Aviatsion gigiyena, harbiy gigiyena, mehnat gigiyenasi, bolalar va o‘smirlar gigiyenasi (maktab gigiyenasi), shaxsiy gigiyena, ijtimoiy gigiyena, ovqatlanish gigiyenasi, radiatsion gigiyena va boshqalar. Gigiyena fiziologiya, patofiziologiya, epidemiologiya, toksikologiya, fizika, kimyo, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bog‘langan, chunki tabiiy omillar bilan birga jamiyatning iqtisodiy ahvoli ham kishi sog‘lig‘iga ta’sir etadi.

Audio javoblari:

1) sog‘lig‘iga; 2) mehnat sharoitlari; 3) kasallikning; 4) qulay sharoit yaratish; 5) aviatsion; 6) harbiy; 7) mehnat; 8) bolalar va o‘smirlar; 9) shaxsiy; 10) ijtimoiy; 11) ovqatlanish; 12) radiatsion; 13) fiziologiya; 14) fizika; 15) ijtimoiy-iqtisodiy; 16) chambarchas; 17) tabiiy omillar; 18) sog‘lig‘iga.

4. Berilgan matnni diqqat bilan o‘qib chiqishlarini va rasmlar bilan bog‘lashlarini ta’kidlang.

5. O‘qib tushunish malakasini mustahkamlash uchun matn yuzasidan berilgan topshiriqni bajartiring.

Javoblar:

Sog‘lom bo‘lish asosi – **badantarbiya.**

Meva va sabzavotlar, yengil taomlar iste’mol qilish – **parhez.**

Faqat shaxsiy buyumlardan (sochiq, dastro‘mol) foydalanish – **gigiyena**.



6 **Yozing.**

Siz qaysi biridan ko‘proq foydalanar edingiz?

Mustaqil topshiriq

O‘zingiz bilgan parfyumeriya mahsulotlarining ro‘yxatini tuzing. Ularning tarkibini o‘rganib, qiziqarli ma’lumotlar yozing.

MAVZU

Mening kunim

1 **O‘qing.**

Shaxsiy gigiyena – gigiyenaning bir bo‘limi. Unda shaxsiy hayot va mehnat faoliyatida amal qilinishi zarur bo‘lgan gigiyenik rejim yo‘li bilan odam sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash masalalari o‘rganiladi. Shaxsiy gigiyena har bir kishining o‘ziga va yoshiga bog‘liq bo‘lib, aqliy va jismoniy mehnatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish, vaqtida ovqatlanish, miriqib uxlash, mehnat va dam olishni to‘g‘ri tashkillashtirishdan iborat. Tor ma’noda badan (teri, soch, tirnoq, tishlar), kiyim-kechak, poyabzal, ko‘rpa-to‘shak, turarjoy, ovqat tayyorlash gigiyenasi va hokazolar ham shaxsiy gigiyenaga kiradi.

Shaxsiy gigiyenada, birinchi navbatda, badanni pokiza tutishga e’tibor berish zarur. Badanning ochiq joylari, shuningdek, tirnoq osti tez kirlanadi, shuning uchun qo‘lni bot-bot sovunlab yuvib turish, tirnoqlarni to‘g‘ri parvarish qilishga odatlanish kerak. Uyda ovqat tayyorlaganda ham qo‘lning tozaligiga e’tibor berish lozim. Shaxsiy gigiyena qoidalariga bolalar juda yoshligidanoq odatlanishi zarur.

2 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Shaxsiy gigiyenaning keng va tor ma’nolarini izohlab bering.
2. Shaxsiy gigiyenaning eng asosiy qoidalari nima?
3. Atrof-muhit gigiyenasi deganda nimani tushunasiz?

3 **Tinglang.**

Namuna. 1) sog‘lig‘iga; 2) mehnat sharoitlari; 3) _____

Gigiyena (yunoncha, *hygieinos* – “sog‘lom”) – tibbiyotning bir sohasi; kishilar (1) sog‘lig‘iga turmush va (2) _____ ta’sirini o‘rganadi hamda (3) _____ oldini olish, yashash uchun eng (4) _____, sog‘liqni saqlash va umrni uzaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Gigiyenaning bir necha sohalari bor. (5) _____ gigiyena, (6) _____ gigiyena, (7) _____ gigiyenasi, (8) _____ gigiyenasi (maktab gigiyenasi), (9) _____ gigiyena, (10) _____ gigiyena, (11) _____ gigiyenasi, (12) _____ gigiyena va boshqalar. Gigiyena (13) _____, patofiziologiya, epidemiologiya, toksikologiya, (14) _____, kimyo, shuningdek, (15) _____ fanlar bilan (16) _____ bog‘langan, chunki (17) _____ bilan birga jamiyatning iqtisodiy ahvoli ham kishi (18) _____ ta’sir etadi.

4 **O‘qing.**

O‘ZINGIZGA G‘AMXO‘RLIK QILING

Uxlash Barvaqt uxlashga va barvaqt uyg‘onib, badantarbiya qilishga odatlaning.		**Tishlar** Tishlaringizni har kuni ertalab va kechqurun yuvishga odatlaning.	
Tirnoqlar Tirnoqlar eng muhim a’zolardan biri, ularni har hafta olishga odatlaning.		**Sochlar** Sochlaringizni tez-tez yuvishga va tarashga odatlaning.	
Badantarbiya Sog‘lom bo‘lish asosi sport bilan shug‘ullanishdadir. Badantarbiya mashqlarini qilishga odatlaning.		**Gigiyena** Shaxsiy gigiyenaga rioya qiling, faqat o‘z kiyimlaringiz, sochiq va ro‘molchangizdan foydalanishga odatlaning.	
Topshiriqlarni bajarish Topshiriqlarni, mustaqil topshiriqlarni o‘z vaqtida bajaring, orada toza havoga chiqishga odatlaning.		**Parhez** Ovqat ratsioningizda sog‘lom mahsulotlar bo‘lishiga va ko‘proq meva, sabzavotlar yeyishga odatlaning.	

Bir kunda 2 (yoki 3) marta yuvish lozim bo‘lgan a’zo – **tish.**

Organizm o‘zini qayta tiklaydigan holat – **uxlash.**

Har hafta gigiyenasiga e’tibor berish lozim bo‘lgan a’zo – **tirnoqlar.**

6. Berilgan savollarga yuqorida berilgan matnlar, topshiriqlar asosida o‘quvchilarning javob yozishlarini nazorat qiling. Bunda har bir o‘quvchi mustaqil fikrlarini yozishlari lozimligini tushuntiring.



5 O‘ylang va toping. Yozing.

1. Sog‘lom bo‘lish asosi – ____.
2. Meva va sabzavotlar, yengil taomlar iste’mol qilish – ____.
3. Faqat shaxsiy buyumlardan (sochiq, dastro‘mol) foydalanish – ____.
4. Bir kunda 2 (yoki 3) marta yuvish lozim bo‘lgan a’zo – ____.
5. Organizm o‘zini qayta tiklaydigan holat – ____.
6. Har hafta gigiyenasiga e’tibor berish lozim bo‘lgan a’zo – ____.

6 Savollarga javob bering. Yozing.

1. Yilning qaysi sanasi Global qo‘l yuvish kuni deb e’lon qilingan?
2. Nima deb o‘ylaysiz, nega aynan qo‘l yuvish kuni global miqyosda e’lon qilingan?
3. Parhez nima?
4. Uxlashning qanday foydali jihatlari bor?

Mustaqil topshiriq

Quyidagi iboralarga yozma ravishda izoh bering:

- sog‘lom turmush tarzi;
- nosog‘lom turmush tarzi;
- yaxshi shifokor;
- zararli odatlar;
- virus.

80

Namunaviy javoblar:

1. Yilning qaysi sanasi Global qo‘l yuvish kuni deb e’lon qilingan?

15-oktyabr – Global qo‘l yuvish kuni.

2. Nima deb o‘ylaysiz, nega aynan qo‘l yuvish kuni global miqyosda e’lon qilingan?

Sababi, biz qo‘l bilan juda ko‘plab narsa-buyumlarni ushlaymiz, ularda yig‘ilgan chang va mikroblar qo‘llarimizga tezda o‘tadi.

3. Parhez nima?

Parhez bu – inson salomatligini tiklash va yanada sog‘lom bo‘lishni tanlagan insonlar uchun turli zararli, yog‘li ovqatlar o‘rnida tarkibida vitamin va minerallar mavjud mahsulotlarni iste’mol qilishdir.

4. Uxlashning qanday foydali jihatlari bor?

Uxlashning inson tanasi va aqliy faoliyati uchun ahamiyati katta hisoblanib, yo‘qotilgan energiya o‘rnini tiniqib uxlash orqali to‘ldirish mumkin.

Mustaqil topshiriq: o‘quvchilarga quyidagi iboralarga yozma ravishda izoh yozishlarini topshiring:

- sog‘lom turmush tarzi;
- nosog‘lom turmush tarzi;
- yaxshi shifokor;
- zararli odatlar;
- virus.

SANITARIYA

Maqsad: o‘quvchilarga berilayotgan ma’lumotlar orqali sanitariya-gigiyena inson salomatligida eng muhim omillardan biri ekanini tushuntirish, ularning bu boradagi fikrini kengaytirish va fe’l nisbatlarini, xususan, fe’lning o‘zlik nisbati haqida ma’lumot berish.

Refleksiya jarayoni: kun tartibining muhim ekani, bunda inson gigiyenaga qattiq rioya qilishi zarurligini tushuntirish va fe’l nisbatlari yuzasidan savol-javob uyushtirish.

Vazifalar:

1. Berilgan matnni diqqat bilan o‘qib chiqishlarini ta’kidlang.

2. Savolni baland ovozda o‘qing yoki o‘quvchilardan biriga o‘qittiring (monitorda aks ettirish ham mumkin) va o‘quvchilardan har bir berilgan tushuncha qanday ma’noni anglatishini so‘rang, qisqa-qisqa fikrlarni eshiting. Matnga bog‘lab javob berishlarini kuzating.

<u>Bu tushunchalar nimani anglatadi?</u>

gigiyenik normativlar
sanitariya
sanitariya statistika
klinik
demografik tekshirish usullari



MAVZU **Sanitariya**

1 **O‘qing.**

Bilamizki, sog‘liqni saqlash va kasalliklarning oldini olish, unumli ish qobiliyatini ta’minlash va umrni uzaytirish uchun qulay sharoit yaratish maqsadida turar joylar va korxonalar havosi, suv, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak va poyabzallarning gigiyenik normativlarini ishlab chiqish zamonaviy gigiyenaning eng muhim vazifalaridan biridir. Gigiyenaning amaliy tomonini maxsus bo‘lim – sanitariya tashkil etadi. Gigiyenik tadqiqotlarda tashqi muhit (havo, suv, tuproq), oziq-ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari, kiyim-kechak va poyabzallarni fizik-kimyoviy jihatdan o‘rganish usullari, sanitariya statistikasidan foydalangan holda bakteriologik, biokimyoviy, klinik va demografik tekshirish usullari qo‘llanadi.

2 **Gapiring.**

Bu tushunchalar nimani anglatadi?

- gigiyenik normativlar
- sanitariya
- statistika
- klinik va demografik tekshirish usullari

-(i)n, -(i)l
ko‘r-in-di, beza-n-di, tug‘-il-moq, qiyna-l-di.

3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. U uzoq o‘ylandi. – Uning o‘zi uzoq o‘yladi.

1. Birinchi sinf o‘quvchilariga bayram munosabati bilan sovg‘alar berildi.
2. Sanitariya-gigiyenaga amal qilgan holda ovqat pishirildi.
3. Anvar ko‘rpachaga cho‘zildi.
4. O‘quvchilar shaxsiy gigiyena rioya qilishga chaqirildi.
5. Maktabning sanitariya holati ko‘rildi.
6. U shifokorga ko‘rindi.
7. Qizlar tadbirda raqqosalardek bezandi.

81

Diqqat qiling!

Quyidagi grammatik qoidani tushuntiring, dastlab fe’lning barcha nisbat shakllarini yodga olish uchun savol-javob o‘tkazing. O‘zlik nisbatining qoidasini tushuntiring va majhul nisbatdan farqli tomonlariga to‘xtaling. Bunda T-sxemasidan foydalanishingiz va misollar orqali mustahkamlashingiz mumkin.

O‘ZLIK VA MAJHUL NISBAT FARQI

O‘ZLIK NISBATI	**MAJHUL NISBAT**
Anvar musobaqaga yozildi.	*Bayram uchun dasturxon yozildi.*
U yo‘lakda qoqildi.	*Ustaxonada mix qoqildi.*

Fe’lning o‘zlik nisbati bajariladigan ish-harakat bajaruvchining (shaxs, narsa-predmet) o‘zi ustida amalga oshirilishini ifodalaydi.
Fe’lning birinchi shakli + -(i)n, -(i)l
Misollar: *ko‘r-in-di, beza-n-di, tug‘-il-moq, qiyna-l-di.*

3. Grammatik qoida tushuntirilgach, mustahkamlash maqsadida quyidagi topshiriqni bajartiring, bunda majhul va o‘zlik nisbati qo‘shimchalarining bir-biridan farqli tomonlarini misollar orqali ajtarib olishlari uchun o‘zlik nisbatida ish-harakatni bajaradigan shaxs o‘zi bajarishini, majhul nisbatda esa kimdir tomonidan bajarilishini ta’kidlab, gaplarga *o‘zi* va *kimdir* tomonidan so‘zlarni qo‘shib ko‘rishlarini ayting. Masalan:

1. U uzoq o‘ylandi. ***Uning o‘zi o‘yladi.***
2. Birinchi sinf o‘quvchilariga bayram munosabati bilan sovg‘alar berildi. **Sovg‘alar kimdir tomonidan berildi.**
5. Sanitariya-gigiyenaga amal qilgan holda ovqat pishirildi. **Ovqat kimdir tomonidan pishirildi.**
6. Anvar ko‘rpachaga cho‘zildi. **Anvarning o‘zi cho‘zildi.**
7. O‘quvchilar shaxsiy gigiyenada rioya qilishga chaqirildi. **O‘quvchilar kimdir tomonidan gigiyenaga rioya qilishga chaqirildi.**
8. Maktabning sanitariya holati ko‘rildi. **Maktabning sanitariya holati kimdir tomonidan ko‘rildi.**
9. U shifokorga ko‘rindi. **Uning o‘zi ko‘rindi.**
10. Qizlar tadbirda raqqosalardek bezandi. **Qizlarning o‘zi bezandi.**

4. O‘quvchilarga berilgan rasm asosida kun tartibini yozishlarini va qancha vaqtini o‘qish uchun sarflashlarini hisoblab chiqishlarini topshiring.

5. Dastlab audioni diqqat bilan tinglashlari uchun 2 marta qayta qo‘yib bering, o‘quvchilardan qanday tushunganlarini va matn nima haqida ekanini so‘rang. Audiomatn:

Sanitariya (lot. sanitas – “sog‘liq”) – atrof-muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan amaliy tadbirlar majmui. Epidemiyaga qarshi



4 Yozing.

KUN TARTIBIM

5 Tinglang. Yozing.

1. Turarjoy, sanoat, oziq-ovqat sanitariyasi bir xil ma’noga ega.
2. Sanitariya umumiy foydalanish obyektlarini tekshirmaydi, ularni boshqa idoralarga biriktirib beradi.
3. Transport shovqinlarining oldini olish bo‘yicha sanitariya xodimlari ish olib borgan.
4. Sanitariyaning vazifasi atrof-muhitni sog‘lomlashtirishdir.
5. Sanitariya xodimlarining oylik maoshlari ko‘tarilishi sanitariyaga berilayotgan e’tibordir.
6. Sanitariya talabi bo‘yicha har bir korxona, turarjoy binolarida makroiqlimni yaratish zarur.

Mustaqil topshiriq

Yashash joyingizni kuzating. Sanitariya-gigiyena holati haqida to‘plagan ma’lumotlaringizni yozing. Qanday kamchiliklar bartaraf etilsa, sanitariya-gigiyena holati tiklanadi deb o‘ylaysiz – takliflaringizni bildiring.

82

hamda sanitariya-gigiyenaga oid talab va me’yorlarni ishlab chiqadi va amalga tatbiq etadi. Turarjoy, sanoat, oziq-ovqat sanitariyasi bir-biridan farq qiladi.

Sanitariya korxonalari va turarjoy, maishiy xonalarni gigiyena talablariga ko‘ra ozoda saqlash, havosini almashtirib turish, yoritish, isitish (makroiqlim) me’yorlariga mosligi masalalari bilan shug‘ullanadi.

Sanitariyaning turar joy, kommunal bo‘limi aholi punktlarini rejalashtirish, qurish, ko‘kalamzorlashtirish, suv ta’minoti, chiqindilardan tozalash va kanalizatsiya, turar joy va umumiy foydalanish obyektlari (hammomlar, umumiy yashash joylari, sartaroshxonalar va dam olish, sog‘lomlashtirish maskanlari)ni nazorat qilish, atmosfera havosini muhofaza etish, transport va shovqinlariga qarshi kurashish masalalarini o‘z ichiga oladi.

Shundan so‘ng o‘quvchilarga berilgan ma’lumotlarni tinglab, *To‘g‘ri*, *Noto‘g‘ri* va *Berilmagan* ekanini aniqlashlarini topshiring. Bunda, agar ma’lumot matn mazmuniga mos bo‘lsa, TO‘G‘RI; agar ma’lumot matn mazmuniga mos bo‘lmasa, NOTO‘G‘RI; agar ma’lumot matnda umuman keltirilmagan bo‘lsa, BERILMAGAN deb yozishlarini tushuntiring.

Javoblar:

1. Turarjoy, sanoat, oziq-ovqat sanitariyasi bir xil ma’noga ega. **NOTO‘G‘RI.**
2. Sanitariya umumiy foydalanish obyektlarini tekshirmaydi, ularni boshqa idoralarga biriktirib beradi. **NOTO‘G‘RI.**
3. Transport shovqinlarining oldini olish bo‘yicha sanitariya xodimlari ish olib borgan. **TO‘G‘RI.**
4. Sanitariyaning vazifasi atrof-muhitni sog‘lomlashtirishdir. **TO‘G‘RI.**
5. Sanitariya xodimlarining oylik maoshlari ko‘tarilishi sanitariyaga berilayotgan e’tibordir. **BERILMAGAN.**
6. Sanitariya talabi bo‘yicha har bir korxona, turarjoy binolarida makroiqlimni yaratish zarur. **TO‘G‘RI.**

Mustaqil topshiriq: O‘quvchilarga quyidagi vazifani mustaqil topshiriq sifatida bering: yashash joyingizni kuzating. sanitariya-gigiyena holati haqida to‘plagan ma’lumotlaringizni yozing, qanday kamchiliklar bartaraf etilsa, sanitariya-gigiyena holati tiklanadi, deb o‘ylaysiz – takliflaringizni bildiring.

TABOBAT

Maqsad: o‘quvchilarning tibbiyot, tabobat, sog‘lom ovqatlanish, sog‘lom mahsulotlar haqidagi fikrlarini kengaytirish, o‘qib, tinglab tushunish, yozma va og‘zaki nutq malakalarini shakllantirish, fe’lning aniq nisbat shakli haqida ma’lumot berish va mashq, topshiriqlar orqali mustahkamlash.

Refleksiya jarayoni: gigiyena haqidagi fikrlarni kengaytirish, fe’lning o‘zlik, majhul nisbatlari bo‘yicha berilgan bilimlarni mustahkamlash, ularning farqli jihatlarini misollar orqali tushuntirish.

Vazifalar:

1. O‘quvchilarga berilgan rasmlarni diqqat bilan kuzatishlarini va u yerda tasvirlangan odamlar nima qilishayotganlarini yozma tarzda bayon qilishlarini topshiring.

Javoblar:

1. Rasmlarni diqqat bilan kuzating. Unda odamlar nima qilishyapti?

Rasmda tasvirlangan shifokorlar bemorning rentgen qog‘ozidagi javoblarni tahlil qilishmoqda.

1. Siz shifokor bo‘lishni xohlarmidingiz?

(Har kim o‘z fikrini yozadi)

2. Jarroh bo‘lishni va operatsiyalarda qatnashishni xohlaysizmi?

(Har kim o‘z fikrini yozadi)

2. Berilgan matnni diqqat bilan o‘qib chiqishlarini ta’kidlang.

3. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlik darajalarini aniqlash maqsadida berilgan jadvalni matn asosida to‘ldirishlarini nazorat qiling.

Javoblar:

Tibbiyot 4 ta tarmoqqa bo‘linadi:

1. Tibbiy-biologik.
2. Klinik.
3. Tibbiy-ijtimoiy.
4. Gigiyenik.



Parhez

MAVZU **Tabobat**

1 Yozing.

Rasmlarni diqqat bilan kuzating. Unda odamlar nima qilishyapti?

1. Siz shifokor bo'lishni xohlarmidingiz?
2. Jarroh bo'lishni va operatsiyalarda qatnashishni istaysizmi?

2 O‘qing.

Tibbiyot, meditsina, tabobat – kishilar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, umrni uzaytirish, kasalliklarning oldini olish, davolashga oid bilimlar haqidagi soha.

Tibbiyot tibbiy-biologik, klinik, tibbiy-ijtimoiy va gigiyenik fanlarga bo'linadi.

Tibbiy-biologik fanlarga: odam tanasining tuzilishini o'rganadigan anatomiya, gistologiya va sitologiya; organizmning odatdagi holatini, unda kasallikning paydo bo'lishi, avj olishi, kechishi va yuz beradigan strukturaviy hamda funksional o'zgarishlarni o'rganadigan normal fiziologiya va biokimyo; patologik anatomiya va patologik fiziologiya; organizmga dorilar ta'sirini o'rganadigan umumiy va klinik farmakologiya, shuningdek, mikrobiologiya, virusologiya va parazitologiya, tibbiyot genetikasi va boshqalar kiradi.

Odam kasalliklari, ularni davolash va oldini olishni o'rganadigan klinik fanlar, asosiy davolash usuliga ko'ra, terapiya va xirurgiyaga bo'linadi.

Tashqi muhitning organizmga ta'siri va aholi sog'lig'ini muhofaza qilish tadbirlarini o'rganadigan tibbiy-ijtimoiy va gigiyenik fanlarga, ijtimoiy gigiyena hamda sog'liqni saqlashni tashkil etish, umumiy gigiyena, bolalar va o'smirlar gigiyenasi, kommunal gigiyena, ovqatlanish gigiyenasi, radiatsion gigiyena, mehnat gigiyenasi, epidemiologiya va tibbiyot geografiyasi, shuningdek, tibbiyot etikasi va deontologiyasi kiradi.

Tibbiyotning ushbu sohalari ham, o'z navbatida, ma'lum organ, sistemalar kasalliklarini atroflicha o'rganishi, yo'nalishi bo'yicha turli tarmoqlarga bo'linadi. Tibbiyotning bunday bo'linishi shartli, chunki ijtimoiy jarayonlar barcha tibbiyot fanlariga, shuningdek, ilmiy-amaliy sohalar (harbiy tibbiyot, kosmik tibbiyot, sport tibbiyoti, sud tibbiyoti va boshqalar)ga bevosita taalluqlidir.

83

4. O‘quvchilarga rasm va jadvaldagi savollarga diqqat qilishlarini va bu mashhur shaxsning kim ekani hamda u haqidagi ma’lumotlarni yozishlarini topshirib, jadvalni to‘ldirishlarini nazorat qiling. O‘quvchilar jadvaldagi ma’lumotlarni bu yerda ko‘rsatilgandan kengroq to‘ldirishlari mumkin.

Javoblar?

Ismi:	Abu Ali ibn Sino
Qachon va qayerda tug‘ilgan?	980-yilning 18-iyunida Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘i
Qaysi hukmdor davrida yashagan?	Somoniylar davri
Qaysi asarlarni yozgan?	“Tib qonunlari”, “Kitob ash-shifo”, “Urjuza”
“Meditsina” so‘zining kelib chiqishi haqida nimani bilasiz?	Bu so‘z forscha “Madadi Sino”, ya’ni "Ibn Sino madadkor bo‘lsin” ma’nosidagi birikmaning chet el tillari (Yevropa) talqinida ishlatilishi. Bugungi kunda fan nomi va butun tibbiyot uchun qo‘llanuvchi xalqaro termin.

5. Dastlab audioni diqqat bilan tinglashlari uchun 2 marta qayta qo‘yib bering, birinchisida o‘quvchilardan qanday tushunganlarini va matn nima haqida ekanini so‘rang. Shundan so‘ng ikkinchi marotaba o‘quvchilarga ma’lumotlarni tinglab, bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirib borishlari zarurligini tushuntiring.

Audiomatn:

Tibbiyotning xalq tabobatidan mustaqil fan darajasiga ko‘tarilishida qadimgi Misr, Bobil tibbiyoti, Gippokrat va Gelenning muhim o‘rni bor. Gippokrat kasalliklarni aniqlash, bemorning hayoti va faoliyatiga tashqi muhitning ta’sirini o‘rganish, xastalikning kelib chiqish sabablarini topish va davolashda bemor organizmining o‘ziga xos xususiyatlarini bilish kabi masalalar bilan shug‘ullangan. Galen esa birinchi bo‘lib organizmdagi a’zo va sistemalarning tuzilishi hamda funksiyalarini, asosan, hayvonlar (maymunlar) organizmida tajriba qilib o‘rgangan. Uning anatomiya va fiziologiyaga doir asarlari to XVI asrgacha tibbiyotning asosi bo‘lib xizmat qildi.



Tibbiy-biologik fanlar uchun xarakterli bo'lgan eksperimental usul esa klinik va gigiyenik tibbiyot sohasiga ham keng kirib bormoqda.

Tibbiyot tabiiy fanlar (biologiya, fizika, kimyo) va ijtimoiy fanlar hamda texnika bilan chambarchas bog'langan.

3 **Yozing.**

Tibbiyot 4 ta tarmoqqa bo'linadi:

1. Tibbiy-biologik
2.
3.
4.

4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

1. Qachon va qayerda tug‘ilgan?
2. Qaysi hukmdor davrida yashagan?
3. Qaysi asarlarni yozgan?
4. “Meditsina” so‘zining kelib chiqishi haqida nimani bilasiz?

5 **Tinglang. Yozing.**

Namuna. 1) xalq tabobatidan; 2) Hippokrat; 3) _____

Tibbiyotning (1) ***xalq tabobatidan*** mustaqil fan darajasiga ko‘tarilishida qadimgi Misr, Bobil tibbiyoti, (2) _____ va Galenning muhim o‘rni bor. Hippokrat kasalliklarni aniqlash, bemorning hayoti va faoliyatiga (3) _____ ta’sirini o‘rganish, (4) _____ kelib chiqish sabablarini topish va davolashda bemor organizmining o‘ziga xos (5) _____ bilish kabi masalalar bilan shug‘ullangan. Galen esa (6) _____ bo‘lib, organizmdagi a’zo va sistemalarning tuzilishi hamda funksiyalarini, asosan, hayvonlar (7) _____ organizmida tajriba qilib o‘rgangan. Uning (8) _____ va (9)_____ doir asarlari to XVI asrgacha tibbiyotning asosi bo‘lib xizmat qildi.

6 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Abu Ali ibn Sino haqida qanday hikoya va rivoyatlar bilasiz?
2. Ibn Sinoning jarrohlik qilgani haqida nimalarni bilasiz?
3. “Meditsina” so‘zi qayerdan kelib chiqqan?

84

Audio javoblari:

1) xalq tabobatidan; 2) Gippokrat; 3) tashqi muhitning; 4) xastalikning; 5) xususiyatlarini; 6) birinchi; 7) (maymunlar); 8) anatomiya; 9) fiziologiyaga.

6. Savollarni baland ovozda o‘qing yoki o‘quvchilardan biriga o‘qittiring (monitorda ask ettirish ham mumkin) va o‘quvchilardan har bir savol uchun qisqa-qisqa fikrlarni eshiting.

Mustaqil topshiriq: o‘quvchilarga o‘zlarining oilaviy poliklinikalari haqida matn tuzib kelishlarini, bunda yozmoqchi bo‘lgan poliklinikalari haqidagi faktlardan, statistikadan foydalanishlari mumkinligini tushuntiring.

PARHEZ

Maqsad: o‘quvchilarning parhez haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularga tibbiyotda parhezning qo‘llanishi, aslida parhez kimlarga buyurilishini tushuntirish va ma’lumotlar asosida o‘quvchilarning o‘qib tushunish, tinglab tushunish, og‘zaki va yozma malakalarini mustahkamlash.

Refleksiya jarayoni: o‘quvchilardan oilaviy poliklinika haqidagi matnlarini va qanday ma’lumotlar aniqlaganlarini so‘rang, har bir poliklinikadagi xizmat ko‘rsatish sifatini farqlari bo‘yicha savol-javob o‘tkazing.

Vazifalar:

1. O‘quvchilarga tartibsiz holda berilgan harflarni joy-joyiga qo‘yib, mavzuga aloqador tushunchalar hosil qilishi lozimligini namuna asosida tushuntiring.

Javoblar:

1. herpaz – ***parhez*** etadi – **dieta**

tataobo – **tabobat**

biytibot – **tibbiyot**

Ginagiey – **gigiyena**

lanishqatov – **ovqatlanish**

2. O‘quvchilarga berilgan matnni diqqat bilan o‘qishlarini tushuntiring.

3. Matnni o‘qib tushunganlik darajasini aniqlash maqsadida quyidagi topshiriqni bajartiring, bunda berilgan har bir savolga qisqa yozma shaklda javob yozishlari lozimligini tushuntiring.

Javoblar:

1. Bemorga parhez kim tomonidan buyuriladi? **Shifokor.**

2. Parhezda qanday usullar bilan taomlar qayta tayyorlanadi? **Maxsus usullar.**

3. Kam ovqat yeydigan kunlar necha kunni tashkil etishi mumkin? **1, 2 kunni.**

4. Parhez jahon ilm-fanida qanday nom ostida o‘rganiladi? **Dieta.**

5. Qanday kasalliklarda parhez buyuriladi? **Yara kasalligi, kolit, yog‘ bosish va boshqa kasalliklarda.**

6. Moddalar almashinuvi buzilishida parhez buyuriladimi? **Ha, buyuriladi.**

7. Har kim parhez qilishi mumkinmi? **Yo‘q, faqat shifokor parhez qilishni buyurgan bemorlar parhez qilishi mumkin.**

8. Parhezning bir nechta variantlari tavsiya qilinishiga sabab nima? **Kasallikning davri, bosqichi va fazasining turli xilda ekani.**

4. Dastlab audioni diqqat bilan tinglashlari uchun 2 marta qayta qo‘yib bering. Shundan so‘ng o‘quvchilardan qanday tushunganlarini va matn nima haqida ekanini so‘rang. Audio matni:

Hozirgi zamon Pevznyer dietologiyasida (parhez haqidagi fan) inson organizmining sutkalik energetik talabi asos qilib olingan bo‘lsa, qadimda Ibn Sino ta’limotida parhez taomlar quyidagi to‘rtta omilga qat’iy rioya qilgan holda buyurilgan:

1. Bemorning tabiiy mizoji.
2. Bemorning yashash muhiti.
3. Mizoj buzilishidagi sabab.
4. Bemorga buyuriladigan taomlarning mizoji.

Bunda buyurilgan taomni ayni shu xastalikka qay darajada ozuqa va qay darajada davo ekani hisobga olinadi. Shu joyda aniqlik kiritish uchun iste'mol mahsulotlarining davo va ozuqaviylik xususiyati to‘g‘risida qisqacha so‘z yuritishga to‘g‘ri keladi. Bu ta’limotda iste’mol qilingan mahsulotlar xoh u ozuqa bo‘lsin, xoh davo, uchta tarkibiy qismdan iborat:

1) surat, 2) modda, 3) sifat.

Surat deganda biz mahsulotning shaklini, siymosini, tuzilishini, rangini, hidini ko‘z oldimizga keltiramiz. Modda qismi deganda uning tarkibidagi modda – borliq va konsistensiyasi tushuniladi. Sifat yoki kay-



Mustaqil topshiriq

Oilangiz davolanadigan poliklinika haqida matn tuzing.

MAVZU **Sog‘lom taomlar**

1 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. herpaz – *parhez*

- etaydi –
- tatabbo –
- biytibot –
- ginyagie –
- lanishqatov –

2 **O‘qing.**

Parhez, diyeta – miqdori, kimyoviy tarkibi, kaloriyaliligi (quvvati) va pishirib tayyorlanishi jihatidan maxsus tanlangan ovqat ratsioni, sog'lom kishilar hamda bemorlarga mo'ljallangan ovqatlanish rejimi. Parhezda organizmning oziq-ovqatlarga bo'lgan fiziologik ehtiyoji qondiriladi. Bemorlarga parhez buyurilganda moddalar almashinuvi yoki biror a'zo funksiyasi buzilgan bo'lsa, uning faoliyatini tiklash ko'zda tutiladi. Buning uchun ba'zi oziq-ovqat mahsulotlari maxsus usullar bilan qayta ishlanadi. Yara kasalligi, kolit, yog' bosish va boshqa kasalliklarda parhez keng qo'llanadi. Kasallikning davri, bosqichi va fazasiga qarab parhezning bir necha varianti tavsiya etiladi. Kasalxonada davolanayotgan bemorga shifokor kam ovqat yeyiladigan kunlarni belgilaydi. Bu kunlarda bemorni ataylab qisman och qo'yish uchun alohida ratsiondan foydalaniladi. Unutmang, o'z bilganicha parhez tanlash yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.

3 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Bemorga parhez kim tomonidan buyuriladi?
2. Parhezda qanday usullar bilan taomlar tayyorlanadi?
3. Kam ovqat yeydigan kunlar necha kunni tashkil etishi mumkin?
4. Qanday kasalliklarda parhez buyuriladi?
5. Moddalar almashinuvi buzilishida parhez buyuriladimi?
6. Har kim parhez qilishi mumkinmi?
7. Parhezning bir nechta variantlari tavsiya qilinishiga sabab nima?

85

fiyat deganda shu mahsulotning rangi, hidi, ta`mi nazarda tutiladi.

5. Audiomatnni tinglab tushunganlik darajasini aniqlash maqsadida quyidagi topshiriqni bajartiring, bunda berilgan har bir uchta variantdan eng to‘g‘ri javobni yozishlari lozimligini tushuntiring:


4 Tinglang. Yozing.

5 O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna. Surat deganda mahsulotning *shakli* tushuniladi.

1. Ibn Sino ta'limotida mahsulotlarning tarkibiy qismi *3 / 4 / 5* ta.
2. Sifat bu – mahsulotning *rangi / shakli / hajmi.*
3. Parhez taomni buyurishda avvalo uning *ozuqaviyligi / tez hazm bo'lishi / kam miqdorda buyurilishi* hisobga olinadi.
4. Parhez taomlar *beshta / to'rtta / uchta* omilga qat'iy rioya qilingan holda buyurilgan.

6 Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Siz va yaqinlaringizdan kimdir parhez qilib ko'rganmi? Qanday natija bo'lgan?
2. Parhez davolanishning bir qismi bo'la oladimi?

7 O‘ylang va toping. Yozing.

Bu fanlar nimani o‘rganadi?

- Virusologiya –
- Anatomiya –
- Sitologiya –
- Diyetologiya –

Mustaqil topshiriq

Rasmga qarab matn tuzing. Matnda bemor, shifokor va ularning suhbati, suhbatda parhez taom haqida tushuncha aks etsin.

86

Javoblar:

1. Surat deganda mahsulotning *hajmi* / ***shakli*** */ xususiyati* tushuniladi.
2. Ibn Sino ta’limotida mahsulotlarning tarkibiy qismi ***3*** */ 4 / 5.*
3. Sifat – bu mahsulotning ***rangi*** */ shakli / hajmidir*.
4. Parhez taomni buyurishda, avvalo, uning ***ozuqaviyligi*** */ tez hazm bo‘lishi / kam miqdorda buyurilishi* hisobga olinadi.
5. Parhez taomlar *beshta* / ***to‘rtta*** */ uchta* omilga qat’iy rioya qilgan holda buyurilgan.
6. Borliq va konsistensiyasi bu – *surat* / ***modda*** */ sifat* sanaladi.

6. Savollarni baland ovozda o‘qing yoki o‘quvchilardan biriga o‘qittiring (monitorda ask ettirish ham mumkin) va o‘quvchilardan har bir savol uchun qisqa-qisqa fikrlarni eshiting.

7. Bu yerda berilgan fan nomlari nimalarni o‘rganishini o‘tilgan mavzular asosida izohlab yozishlarini ta’kidlang.

Bu fanlar nimani o‘rganadi?

Javoblar:

Virusologiya – viruslar haqidagi fan.
Anatomiya – odam tanasining qismlari, joylashishi haqidagi fan.
Sitologiya – hujayra haqidagi fan.
Dietologiya – parhez haqidagi fan.

Mustaqil topshiriq: O‘quvchilarga berilgan rasm asosida matn tuzishlari va matnda bemor, shifokor va ularning suhbati, suhbatda parhez taom haqida tushuncha aks etishi lozimligini vazifa sifatida topshiring.

“AVITSENNA USULI”

Maqsad: o‘quvchilarni buyuk tabib Ibn Sinoning tajribalari bilan tanishtirish, salomatlik haqidagi fikrlarini yanada kengaytirish. Sog‘lom ovqatlanish va parhez tushunchalarining bir-biridan farqli xususiyatlarini tushuntirish.

Refleksiya jarayoni: parhez haqida berilgan ma’lumotlarni esga olish va savol-javob orqali mustahkamlash, fe’lning o‘zlik, majhul, aniq nisbatlari bo‘yicha mashq va topshiriqlar bajarish.

Vazifalar:

1. Berilgan matnni diqqat bilan o‘qib chiqishlarini ta’kidlang.

2. Matnda berilgan ma’lumotlar *To‘g‘ri*, *Noto‘g‘ri* va *Berilmagan* ekanligini aniqlashlarini topshiring. Bunda agar ma’lumot matn mazmuniga mos bo‘lsa, **TO‘G‘RI;** agar ma’lumot matn mazmuniga mos bo‘lmasa, **NOTO‘G‘RI** deb yozishlarini tushuntiring.

Javoblar:

1. Og‘riqni sezdirmaslik masalasi bilan ham Ibn Sino shug‘ullangan. **To‘g‘ri**.

2. Ibn Sino ko‘z jarrohligi bo‘yicha oz fikrlar qoldirgan. **To‘g‘ri.**

3. Parhez bu kasallikni davolashning asoslaridan biridir. **To‘g‘ri.**

4. Bir necha xil kasallik uchun bir xil parhezga rioya qilinadi**. Noto‘g‘ri.**

5. Jigar kasalliklarida ko‘proq anor, mayiz, anjir, olma iste’mol qilish lozim. **Noto‘g‘ri**.

6. Kaloning kashfiyotini Ibn Sino davom ettirgan. **Noto‘g‘ri.**

7. Yelka suyagining chiqishini oddiy bosish bilan davolash usuli hozirgacha “Avitsenna usuli“ deb ataladi. **To‘g‘ri.**

8. Suyaklarni gipslash usuli keyinchalik yevropaliklar tomonidan qo‘llangan.



MAVZU

“Avitsenna usuli”

1 O‘qing.

Bemorlarni davolashda Abu Ali ibn Sino 3 narsaga – tartib (parhez), dorilar bilan davolash va turli tibbiy tadbirlarni qo‘llash (qon olish, banka qo‘yish, zuluk solish, huqna)ga ahamiyat berish kerakligini aytgan. Kasallikni davolashda ovqatlanish, ya’ni parhezni muhim omillardan deb hisoblagan va har bir kasallik uchun alohida ovqatlanish tartibini ishlab chiqqan. Masalan, jigar kasalliklarida ko‘proq mayiz, anjir, anor suvi iste’mol qilishni buyuradi. Bu esa shu kabi kasalliklarni hozirgi glyukoza va insulin bilan davolash usullarining qadimgi ko‘rinishidir.

Ibn Sinoning jarrohlik sohasini rivojlantirishdagi xizmatlari ham ulkandir. U o‘z tibbiy asarlarida zamonaviy jarrohlikda qo‘llanib kelayotgan ayrim usullarni bayon qiladi. Yiringli shishlarni kuydirish yoki pichoq bilan yorish, bavosir shishlarini tikish, tampon, o‘tkir modda yoki tikish bilan qon to‘xtatish, tomoqni kesib, nay qo‘yish (traxeotomiya) shular jumlasidandir. Yelka suyagining chiqishini oddiy bosish bilan davolash usuli hozirgacha “Avitsenna usuli” deb ataladi.

Umurtqaning qiyshayishini Ibn Sino o‘zi ixtiro qilgan yog‘och moslama yordamida tuzatgan. Bu usulni XV asrda fransuz tabibi Kalo qayta kashf etgan. Suyaklarni gipslash usuli ham Ibn Sino tomonidan keng qo‘llangan, lekin u ham keyinchalik unutilib, yevropalik tabiblar tomonidan 1852-yilda amaliyotga yangi ixtiro sifatida qaytarilgan.

Hozir ko‘z jarrohligida qo‘llanayotgan usullarning qariyb barchasi Ibn Sinoga ma’lum bo‘lgan. Yomon sifatli saraton (rak) shishlari, qovuq toshlarini olish, istisqo, bavosir operatsiyalari, bosh suyagi operatsiyasi va boshqalar Ibn Sino qo‘llagan muolaja usullaridandir. Jarrohlikda anesteziya (og‘riqni sezdirmaslik) masalasiga ham Ibn Sino katta e’tibor bergan. Kasallikni davolashda Ibn Sino shaxsiy gigiyena, uyqu va jismoniy mashqlarning ahamiyati kattaligini uqtirgan.

2 O‘ylang va toping. Yozing.

1. Ibn Sino og‘riqni sezdirmaslik masalasiga ham e’tibor qaratgan.
2. Ibn Sino ko‘z jarrohligi bo‘yicha oz fikrlar qoldirgan.
3. Parhez bu – kasallikni davolash asoslaridan biri.
4. Bir necha xil kasallik uchun bir xil parhezga rioya qilinadi.
5. Jigar kasalliklarida ko‘proq anor, mayiz, anjir, olma iste’mol qilish lozim.
6. Kaloning kashfiyotini Ibn Sino davom ettirgan.
7. Yelka suyagining chiqishini oddiy bosish bilan davolash usuli hozirgacha “Avitsenna usuli” deb ataladi.
8. Suyaklarni gipslash usuli keyinchalik yevropaliklar tomonidan qo‘llangan.

3 Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Kun tartibi salomatlik uchun muhimmi?
2. Tanishlaringiz orasida parhez bilan davolanadigan insonlar bormi?
3. Sog‘lom kishilar ham parhezda yurishi kerakmi?
4. Uyingizdagi parhez mahsulotlarini sanab bera olasizmi?

87

To‘g‘ri.

3. Savollarni baland ovozda o‘qing yoki o‘quvchilardan biriga o‘qittiring (monitorda aks ettirish ham mumkin) va o‘quvchilardan har bir savol uchun qisqa-qisqa fikrlarni eshiting.

4. Berilgan rasmlarni diqqat bilan kuzatib chiqishlarini va rasmlarda aks ettirilgan mahsulot nomlarini topib yozishlarini ta’kidlang.


4 O‘ylang va toping. Yozing.

1. Grechixa
2.
3.
4.
5.
6.
7.
8.

88

Javoblar:

1. Grechixa. 2. Salatlar. 3. Qatiq. 4. Tovuq go‘shti. 5. Karam. 6. Baliq. 7. Ko‘katlar. 8. Kungaboqar yog‘i.

5. Berilgan jadvalni barcha o‘quvchilar mustaqil to‘ldirishlarini nazorat qiling, bunda har bir o‘quvchi kunning qaysi qismida, qanday ish bilan band bo‘lishini berilgan vaqt oraliqlari asosida to‘ldirishlarini topshiring.

Kun tartibingiz qanday?

Vaqt	Bajariladigan ishlar
5:30	
6:00	
6:30	
7:00	
7:30	
8:00	
13:00	
14:00	
15:30	
16:00	
18:00	
19:30	
20:00	
21:00	
22:00	

(Izoh: kerakli o‘rinlarda vaqtni o‘zgartirish mumkin.)

6. Audiomatnni 2 marta qayta qo‘yib bering, dastlab o‘quvchilardan nimalarni tushunganlarini so‘rang, shundan so‘ng berilgan quyidagi savolga yozma javob yozishlarini topshiring: “**Sog‘lom ovqatlanish tartibi va parhez bir xil tushunchami?**”



5 O‘ylang va toping. Yozing.

Vaqt	
5:30	
6:00	
6:30	
7:00	
7:30	
8:00	
13:00	
14:00	
15:30	
16:00	
18:00	
19:30	
20:00	
21:00	
22:00	

Eslatma: *Kerakli o‘rinda vaqtni o‘zgartirish mumkin.*

6 Tinglang. Yozing.

Sog‘lom ovqatlanish tartibi va parhez bir xil tushunchami?

Mustaqil topshiriq

Oilangizdagi ovqat ratsioningizni tekshiring. Unda qanday mahsulotlar bor? O‘zingiz sevib iste’mol qiladigan ichimliklar, tez tayyorlanadigan mahsulotlar haqida yozing.

89

Audiomatn:

Shunisini aniq anglash lozimki, sog‘lom ovqatlanish va parhez bu bir xil tushunchalar emas. Parhez bu – cheklash demakdir, sog‘lom ovqatlanish tartibida esa u yoki bu mahsulotga qat’iy taqiqlar qo‘yilmaydi. Sog‘lom ovqatlanish bu – yaxshi kayfiyat va muvozanatni saqlashga yordam beruvchi usul va prinsiplardir. Vazn tashlash, semirish yoki kun tartibidan yaxshi o‘zlashtirilmayotgan mahsulotlarni olib tashlash kabi muammolar inson shaxsan tanlaydigan yo‘lga bosiladigan keyingi qadamdir. Ilmiy tekshiruvlar shuni aniqlab kelyaptiki, mashhur parhezlar yoki ayrim mahsulotlardan to‘laligicha yoki qisman cheklash ko‘rinishidagi noto‘g‘ri ovqatlanish o‘limga olib boruvchi yurak va qon tomir kasalliklari hamda saratonning rivojlanishi havfini kuchaytirar ekan. Sog‘lom ovqatlanish tartibiga o‘tish – bu o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini o‘qitish, g‘amxo‘rlik va o‘z hayotingizga kiritiladigan shaxsiy investitsiyadir.

Mustaqil topshiriq: o‘quvchilarga o‘zlarining oilaviy ovqat ratsionini tekshirib ko‘rishlari uchun quyidagi qiziqarli topshiriqni bajarishlarini tushuntiring: oilangizdagi ovqat ratsioningizni tekshiring, unda qanday mahsulotlar bor? O‘zingiz sevib iste’mol qiladigan ichimliklar, tez tayyorlanadigan mahsulotlar haqida yozing.

BU QIZIQ

Maqsad: o‘quvchilarning salomatlik mavzusiga oid bilimlarini kengaytirish, tibbiyot sohasidagi qiziqarli faktlar, ma’lumotlar bilan tanishtirish.

Refleksiya jarayoni: Salomatlik, gigiyena, parhez mavzularida berilgan ma’lumotlarni qayta xotirlash, savol-javob tariqasida yodga olish va yangi mavzu bilan bog‘lash.

Vazifalar:

1. Berilgan savollarni baland ovozda o‘qing yoki o‘quvchilardan biriga o‘qittiring va har bir savolga aniq va tezkorlik bilan javob berishlarini o‘quvchilarga tushuntiring.

2. 2-topshiriqda berilgan jadvaldan aralash so‘zlarni to‘g‘riga, chapga, o‘ngga, diagonal holatda topib yozishlarini va bu musobaqa tarzida o‘tishini ta’kidlang, bunda eng ko‘p so‘z topgan o‘quvchilar qo‘shimcha rag‘batlantirilsin.

Topilishi lozim bo‘lgan so‘zlar: parhez, taom, tabobat, tibbiy, savzavot, sifat, ozuqaviy, meva, Abu Ali, dori, hazm, ovqat...

3. Matnni diqqat bilan o‘qib chiqishlarini ta’kidlang.

4. Yuqorida berilgan matnni qayta o‘qib chiqishlarini va berilgan savollarga yozma tarzda javob yozishlarini tushuntiring.

5. Fe’l nisbatlariga oid turli mavzularda berilgan qoidalarni o‘quvchilarga eslating, misollar keltirishlarini so‘rang va quyidagi mashqni bajarishlarini ta’kidlang:



MAVZU

Bu qiziq!

1 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Tibbiyotning 4 ta fan tarmog‘i qaysilar – ularni sanab bering.
2. Abu Ali ibn Sino bemorni davolashning eng asosiy usullari deb nimalarni nazarda tutgan?
3. Parhez taomlarning tarkibiy qismi nechta va qaysilar?
4. Ibn Sino jigar kasalliklarini davolashda qaysi mevalarni buyurgan?
5. Bemorlarga parhezni kim buyurishi kerak?

2 **O‘ylang va toping. Yozing.**

p	t	a	o	c	s	o	s	a
k	a	b	u	a	l	z	i	s
l	b	r	m	o	d	u	f	u
i	o	a	h	a	z	q	a	r
n	b	t	m	e	v	a	t	a
i	a	s	a	b	z	v	o	t
k	t	i	b	b	i	i	m	l
o	d	o	r	i	f	y	b	o
l	l	n	o	v	q	t	k	p

3 **O‘qing.**

Gigiyena eng qadimgi fanlardan biri bo‘lib, qadimgi Hindiston qonunlari majmuasida kiyim-kechakni almashtirish, teri va tishni parvarish qilish, o‘simliklardan tayyorlangan ovqatlar yeyish zarur deb ko‘rsatilgan, ovqatga ruju qo‘yish taqiqlangan edi.

Misrda aholi yashaydigan joylarni sog‘lomlashtirish uchun sanitariya tadbirlari amalga oshirilgan.

Qadimgi Xorazmning yirik shaharlarida hammomlar, toza suv olinadigan inshootlar bo‘lgan.

Qadimgi yunonlar shaxsiy gigiyenaga qat’iy amal qilishgan.

Hippokrat havo, iqlim va suvni odam sog‘lig‘iga ta’sir etadigan muhim omillar deb atagan.

Abu Ali ibn Sinoning gigiyenaga doir fikrlari, sog‘liqni saqlash qoidalari ko‘p asrlar mobaynida amaliy qo‘llanma bo‘lib keldi. U havo va suv orqali tarqalib, kasallikka sabab bo‘ladigan qandaydir jonivorlar bor deb faraz qilgan, suvni qaynatish yoki filtrlash kerak degan talab esa ana shu farazga asoslangan.

90

Javoblar:

1. Rejalashtirilgan ishlarning hech qaysi biri bajarilmadi. **Majhul nisbat.**

2. Atrofimizni o‘rab turgan poyonsiz va abadiy bu dunyoni olam deb ataymiz. **Birgalik nisbati.**

3. Kechqurun Sharif buva biznikiga keldilar. **Aniq nisbat.**

4. Agar hozir qiyinchiliklarga chidasang, keyin halovat topasan. **Aniq nisbat.**

5. Yig‘ilishda uchta masala muhokama qilindi. **Majhul nisbat.**

6. O‘sha voqeadan keyin ancha qorlar yog‘di, izlar bosildi. **Majhul nisbat.**

6. Dastlab audioni diqqat bilan tinglashlari uchun 2 marta qayta qo‘yib bering, birinchi marta o‘quvchilardan qanday tushunganlarini va matn nima haqida ekanini so‘rang. Shundan so‘ng har bir o‘qilayotgan faktning qaysi birida qanday ma’lumotlar keltirilgani va bu qaysi raqamdagi faktda aytilganini belgilashlari uchun quyidagi topshiriqni bajaring. Audiomatn:

FAKTLAR

1. Insonning yoshi ulg‘aygani sari nafas olish tezligi kamayib boradi.
2. Burun va quloq umr davomida o‘sadi.
3. Miyaning 80%i suvdan iborat.
4. Ko‘zning ko‘rish darajasi – 576 megapiksel.
5. Har bir odamning barmoq izlaridan tashqari, tilidagi “naqshlar” ham o‘ziga xos.
6. Organizmdagi barcha temir yig‘ilsa, uzunligi 7,5 santimetrli mix yasasa bo‘ladi.
7. Ertalab kechga qaraganda odam bo‘yi uzunroq bo‘ladi. (Kun davomida umurtqa pog‘onasi siqiladi)
8. Tug‘ilganda suyaklar soni 350 ta, ulg‘ayganda 206 ta bo‘ladi. (ayrim suyaklar qo‘shilib ketadi)
9. Odam og‘irligining 10% i bakteriyalarga, 14% i suyaklarga to‘g‘ri keladi.
10. Sog‘lom jigar kuniga 720 litr qonni tozaylaydi.
11. Odam bo‘yining uzunligi genlar emas, gormonlarga bog‘liq.
12. Aksa urganda chiqayotgan havoning tezligi 166 km/sekund.
13. Ayollarning yuragi erkaklarnikiga nisbatan tezroq uradi.
14. Ko‘p ovqat yeganda eshitish qobiliyati zaiflashadi.
15. Sovuqda xotira va diqqat oshadi.
16. Organizmning eng mustahkam a’zosi – tish emali.
17. Qorong‘ida odam o‘zidan nur taratadi, lekin u shunchalik pastki, ko‘z buni ilg‘amaydi.
18. So‘laksiz ta’mni sezib bo‘lmaydi.



Gigiyena fani oldiga qo'yilgan vazifa va talablarning ortishi, gigiyenik tekshirish usullarining murakkablashishi gigiyena sohalarining mustaqil fan sifatida ajralib chiqishiga olib keldi.

Ilmiy gigiyena XIX asrning 2-yarmidan rivojlana boshladi. Dastlab maktab gigiyenasi (hozirgi bolalar va o'smirlar gigiyenasi), kommunal gigiyena, ovqatlanish gigiyenasi va ijtimoiy gigiyena maydonga keldi. Ionlashtiruvchi nurlar (radiatsiya)dan ishlab chiqarish va tibbiyotda keng foydalanish xizmatchilarni radiatsiyadan saqlash va aholini nurlanish xavfidan muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqish muammolarini vujudga keltirdi. Bu masalalar bilan radiatsion gigiyena shug'ullanadi.

4 **Savollarga javob bering. Yozing.**

1. Qadimgi Hindiston qonunlarining gigiyenaga qanday aloqasi bo'lgan?
2. Maktab gigiyenasi qachon vujudga keldi?

5 **Yozing.**

Namuna. Rejalashtirilgan ishlarning hech biri *bajarilmadi. (bajaruvchi noma'lum)*

1. Atrofimizni o'rab turgan poyonsiz va abadiy bu dunyoni olam deb *ataymiz.*
2. Kechqurun Sharif buva biznikiga *keldilar.*
3. Agar hozir qiyinchiliklarga *chidasang,* keyin halovat *topasan.*
4. Yig'ilishda uchta masala *muhokama qilindi.*
5. O'sha voqeadan keyin ancha qorlar yog'di, izlar *bosildi.*

6 **Tinglang. Yozing.**

1. Gormonlarning faolligi bo'y o'sishini tezlashtirishi mumkin.
2. Insonning tana a'zolaridan biri bo'lgan tildagi chizgilar ham barchada turlicha.
3. Me'yoridan ortiq ovqat iste'mol qilish quloqlar uchun zararli.
4. Har kuni jigarda 720 litr qon tozalanadi.
5. Umr davomida ayrim suyaklar qo'shilib ketgani sababli ularning miqdori 206 ta bo'ladi.
6. Achchiq, sho'r, shirin, nordon ta'mlarni bilish uchun so'lak muhim sanaladi.
7. Odam o'zidan ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan darajada nur taratadi.
8. Nafas olish tezligi insonning yosh xususiyatlariga ham bog'liq.

91

19. Kiprik qoqqanda, 200ta mushak harakatga keladi.
20. Yurak urishidagi ovoz – yurak klapanlari yopilayotganda chiqadi.

1. Gormonlarning faolligi bo‘y o‘sishini tezlashtirishi mumkin. **11.**
2. Insonning tana a’zolaridan biri bo‘lgan tildagi chizgilar ham barchada turlicha. **5.**
3. Me’yoridan ortiq ovqat iste’mol qilish quloqlar uchun zararli. **14.**
4. Har kuni jigarda 720 litr qon tozalanadi. **10.**
5. Umr davomida ayrim suyaklarning qo‘shilib ketgani sababli ularning miqdori 206 ta bo‘ladi. **8.**
6. Achchiq, sho‘r, shirin, nordon ta’mlarni bilish uchun so‘lak muhim sanaladi. **18.**
7. Ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan darajada inson o‘zidan nur taratadi. **17.**
8. Nafas olish tezligi insonning yosh xususiyatlariga ham bog‘liq. **1.**


Mustaqil topshiriq

Rasmlarga qarab mahsulotlarni ikki guruhga ajrating. Qaysi biri foydali?

Sog‘lom ovqatlar	Tezpishar (fastfud) ovqatlar
Mastava	Lavash

92

Mustaqil topshiriq: o‘quvchilarga berilgan rasmlar asosida quyidagi jadvalni to‘ldirishlari lozimligini tushuntiring:

Qaysi biri foydali?

Sog‘lom ovqatlar	Fastfud (Fast food) mahsulotlari
Mastava	Lavash

46-dars. YAKUNIY NAZORAT.

47-dars. XATOLAR USTIDA ISHLASH

48-dars. MUSTAHKAMLASH

III CHORAK

SHARQ TARONALARI

XALQ DOSTONLARI

Maqsad: mavzu yuzasidan fikrlarini og‘zaki va yozma nutqda bayon eta olish, audiomatnni tinglab tushunish, faktologik matnlarni nutqiy ko‘nikmalarda qo‘llay olish, o‘tgan zamon sifatdoshlarini gapda mustaqil ishlata olishni, ular imlosini bilish, matnda o‘rinli ishlata olish.

Refleksiya: ta’til taassurotlari, ta’tilda bajarilgan ishlar yuzasidan suhbat o‘tkaziladi, II chorakda o‘rganilgan grammatik ma’lumotlar yodga olinadi.

Vazifalar:

1. Matn o‘qitiladi, matndan o‘tgan zamon sifatdoshlari topiladi: *ijro etilgan, saqlagan, kuylagan, yetkazgan, taralgan, ijod qiladigan.*

2. Mashqqa asosan berilgan gaplardagi bo‘sh o‘rinlarga matndan foydalangan holda kerakli so‘z va so‘z birikmalari qo‘yib, ko‘chiriladi: *baxshi deb **xalq dostonlarini** kuylaydigan san’atkorga aytiladi. “Baxshi” so‘zi **mo‘g‘ul** tilidan olingan bo‘lib, **“ma’rifatchi”** degan ma’noni bildiradi. Baxshilar xalq dostonlarini asosan **do‘mbira** jo‘rligida kuylaydi. Po‘lkan shoir 70 dan ortiq dostonni yoddan bilgan. Baxshilar dostonlarni **bayramlarda, to‘ylarda, katta tadbirlarda** kuylaydilar.*



Sharq taronalari

MAVZU Xalq dostonlari

1 O‘qing.

Xalq dostonlarini do‘mbira jo‘rligida kuylovchi san’atkor *shoir* yoki *baxshi* deb ataladi. “Baxshi” so‘zi mo‘g‘ulcha *bagsha* – “ma’rifatchi” so‘zidan olingan. Baxshilar tomonidan ijro etilgan ijod *baxshichilik san’ati* deyiladi.

Baxshilar terma, qo‘shiq va dostonlarni saqlagan, yoddan kuylagan, avloddan avlodga yetkazgan ijrochilardir. Ularning shirali ovozi, do‘mbirasidan taralgan kuy inson qalbini to‘lqinlantiradi. Dostonni ijro etuvchi baxshilar minglab she’riy misralarni, katta-katta nasriy parchalarni yoddan bilishi, bironta musiqiy asbobni chala olishi lozim. Baxshilar bayramlarda, to‘ylarda, katta tadbirlarda dostonlarni ijro etadilar. Baxshichilik an’anasi avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tadi.

O‘zbekistonda tarixiy an’analarni asrash maqsadida dostonchilik festivallari, tanlovlar o‘tkaziladi. Mamlakatimizda ijod qiladigan baxshilar bu festivallarda ishtirok etadilar. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li kabilar baxshichilik san’atining mashhur vakillari sifatida tanilgan. Po‘lkan shoir 70 dan ortiq dostonni yoddan bilgan.

2 O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna. Baxshi deb xalq dostonlarini kuylaydigan san’atkorga aytiladi.

1. “Baxshi” so‘zi _____ tilidan olingan bo‘lib, “_____” degan ma’noni bildiradi.
2. Baxshilar xalq dostonlarini asosan _____ jo‘rligida kuylaydilar.
3. _____ shoir _____ dan ortiq dostonni yoddan bilgan.
4. Baxshilar dostonlarni _____ kuylaydilar.

-gan; -kan; -qan

o‘qigan bola, *kechikkan* avtobus, *chiniqqan* bola

94

Diqqat qiling. Sifatdoshning o‘tgan zamon shakli grammatik jadval bo‘yicha tushuntiriladi. Eslatma: sifatdosh fe’lning sifatga xoslangan shakli bo‘lib, *-gan (kan, qan), -ayotgan(yotgan), -adigan(ydigan), -ar -mas* qo‘shimchalari yordamida hosil bo‘ladi. Masalan: *yozgan, ekkan, taqqan; yozayotgan, o‘qiyotgan; keladigan, ishlaydigan; oqar, oqmas (daryo).* Bu misollardan kelib chiqqan holda sifatdoshlarning uchta zamon ko‘rinishi borligini eslatish joiz. So‘nggi *-ar (-mas)* shakllar sifatdoshning kam uchraydigan, ya’ni faol bo‘lmagan shakllari hisoblanishi ma’lum qilinadi.

3. Bo‘sh o‘rinlarga sifatdoshning o‘tgan zamon shakli qo‘shimchasi qo‘yilib, gaplar ko‘chiriladi.

4. Audiomatn o‘quvchilarga ikki marotaba eshittiriladi. Mazmuni tahlil qilinadi. Matn tarkibidagi o‘tgan zamon sifatdoshlari topilib, bog‘langan so‘zlari bilan birgalikda yozdiriladi (*tarqalgan janr, mashhur bo‘lgan doston*).

Baxshichilik san’atining dunyoga mashhur bo‘lishida doston janrining o‘rni kattadir. “Doston” so‘zi qissa, hikoya, sarguzasht asar ma’nosini bildiradi. Dostonlarni xalq yaratadi. Bu hajmi yirik, murakkab, keng tarqalgan janr hisoblanadi. Dostondagi voqealar she’riy va nasriy usulda aralash tasvirlanadi. O‘zbek xalq dostonlari ichida eng mashhur bo‘lgan doston “Alpomish”dir. U 1000 yil oldin yaratilgan. Bu doston avloddan avlodga og‘zaki shaklda o‘tib kelgan. XX asr boshida esa doston baxshi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ijrosidan yozib olingan.

“Alpomish” qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, sadoqat, oila mustahkamligi haqidagi asar sanaladi. Dostonda o‘zbek xalqining qadimdan imon-e’tiqodi, or-nomus va yurt birligi yo‘lida o‘zini ayamasligi ifodalangan. “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bag‘ishlab Termiz shahrida Alpomishga haykal o‘rnatilgan.

5. Sifatdoshli birikmalar ishtirokida gaplar tuzdirib, yozdiriladi.

6. O‘quvchilar ranglar yordamida uch guruhga bo‘linadilar. Har bir guruh berilgan rasmlarga ko‘ra topshiriqlarni bajaradi.



3 O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna. O‘z ustida ko‘p *ishlagan* inson muvaffaqiyatlarga erishadi.

1. Bu xatni yoz__ odamning maqsadini tushuna olmayapman.
2. Buvam duoga qo‘l ochib: “Boshlan__ ishimiz xayrli bo‘lsin”, – deb niyat qildilar.
3. Quvonchli xabardan boshi ko‘kka yet__ Saida uyiga shoshildi.
4. Baland chinorlar tagida quril__ muzeyga kirdik.
5. Olamga dong‘i ket__ fazogirlar haqida eshit__misiz?

4 Tinglang. Yozing.

*Namuna. : tarqal**gan**, _____*

5 O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna. Bu musobaqada *yutqazgan jamoa* keyingi bosqichga o‘tmaydi.

~~yutqazgan jamoa,~~ topilgan buyum, uyg‘ongan bola, sovigan taom, tomchilagan yomg‘ir, o‘qilmagan kitob.

6 O‘ylang va toping. Gapiring.

1

“Qizil jamoa”

1-rasmda tasvirlangan afsonaviy qahramon haqida gapirib bering. U qaysi xalq ijodiga mansub? Rasmdagi lavha voqeasi qanday bo‘lgan edi?

2

“Sariq jamoa”

2-rasmda kimlar tasvirlangan? Unda qanday voqea hikoya qilingan? Bu bahodirning qahramonligi haqida gapirib bering.

95

Qizil jamoa uchun berilgan vazifa yechimi: rasmda qadimiy yunon mifologiyasi qahramoni Persey va uning qo‘lida Meduza Gorgona boshi tasvirlangan. Shu o‘rinda mif - asotir haqida tushuncha beriladi. Persey va Gorgona voqeasi to‘g‘risida suhbat olib boriladi. Suhbat asosida o‘tgan zamon sifatdoshlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Sariq jamoa uchun berilgan rasmda ham yunon mifologiyasi qahramoni tasvirlangan. Tesey va Minotavr jangi tasvirlangan rasmga qarab, o‘quvchilar bu jang voqeasini so‘zlab beradilar.

Ko‘k jamoa uchun berilgan topshiriqqa ko‘ra berilgan ikkita rasm qahramonini aniqlash uchun rus xalq dostonlari haqida eslatma beriladi. Birinchi rasmda Ilya Murometsning otda ketayotgani, ikkinchi rasmda esa Alyosha Popovichning Tugarin Zmey bilan jangi tasvirlangan. Qahramonlar haqida fikr yuritiladi. Alyosha Popovich rus bahodirlari ichida eng navqironi bo‘lgan, hazilkash va quvnoq hisoblangan, maqtanchoqligi bilan dong taratgan bahodir hisoblanadi.



3

“Ko‘k jamoa”

3- va 4-rasmlardagi tasvirlarni bir-biriga bog‘lab turadigan voqeani gapirib bering. Bu rasmlarda qaysi xalq ijodiga mansub asar qahramonlari tasvirlangan?

4

Foydalanish uchun so‘z birikmalari:
eng navqironi bo‘lgan, hazilkash va quvnoq hisoblangan, maqtanchoqligi bilan dong taratgan.

Mustaqil topshiriq

Maqollarni davom ettiring. Shunga o‘xshash maqollarni topib, yozing.

1. Aytilgan so‘z – _____.
2. O‘qigan _____.
3. Birlashgan – o‘zar, _____ .
4. Intilganga _____ .
5. Yurgan – daryo, _____ .
6. Izlagan _____ .

MAVZU **Baxshichilik**

1 **O‘qing.**

Namuna. mukammal – to‘liq.

Baxshichilik san’atiga katta hissa qo‘shgan baxshilardan biri Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidir. “Alpomish” dostonining eng *mukammal* varianti ham shu baxshidan yozib olingan. O‘zbekistonning har bir hududidagi baxshichilik an’anasi o‘ziga xos bo‘lib, bir-biridan farq qiladi.

Baxshilarning ijrosi ko‘ngli cho‘kkan, g‘amga botgan odamlar uchun halovat beruvchi, zavq bag‘ishlovchi, ma’naviy ozuqadir.

96

Mustaqil topshiriq: sifatdoshlar qatnashgan maqollarni davom ettirish. Shunga o‘xshash maqollarni topib, yozish. O‘tgan zamon sifatdoshlarini belgilash. Namuna**:** ***aytilgan*** *so‘z –* ***otilgan*** *o‘q.* ***O‘qigan*** *o‘qdan oshar.* ***Birlashgan*** *o‘zar,* ***birlashmagan*** *to‘zar.* ***Intilganga*** *tole yor.* ***Yurgan*** *– daryo,* ***o‘tirgan*** *– bo‘yra.* ***Izlagan*** *imkon topar.*

BAXSHICHILIK

Maqsad: mavzu doirasida fikrini og‘zaki va yozma nutqda ifodalay olish, audio va boshqa matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta hikoya qila olish, o‘tgan zamon sifatdoshlari qo‘shimchalari imlosini bilish, qo‘shimchalarni o‘rinli qo‘llash ko‘nikmasini yuzaga chiqarish.

Refleksiya: baxshichilik, o‘zbek xalq dostonlari, o‘zbek baxshilari haqida suhbat yuritiladi. Sifatdoshlarning o‘tgan zamon shakllari ishtirok etgan xalq maqollari mazmuni tahlil qilinadi.

Vazifalar:

5. Matn diqqat bilan o‘qitiladi. Baxshichilik san‘ati haqida fikrlar bildiriladi. “Bo‘g‘izdan ijro etish” jumlasi tushuntiriladi. Buni o‘quvchi his qilishi uchun baxshi ijrosi kichik videolavhada namoyish etilishi mumkin. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga ko‘k doira ichida berilgan so‘zlardan sinonim sifatida mos keladigani tanlanib, hosil bo‘lgan sinonim juftliklar daftarga yozdiriladi: ***mukammal – to‘liq, zavq – xursandchilik, an’ana – urf-odat, g‘am – tashvish, xafa – ko‘ngli cho‘kkan, huzur – halovat.***

Diqqat qiling. Grammatik jadvalda berilgan sifatdosh shakllariga o‘quvchi e’tibori qaratiladi. Bunda so‘z asosi ***q*** harfi bilan tugallanganda ***-qan*** shakli, ***k*** harfi bilan tugallanganda ***-kan*** shakli, qolgan holatlarda ***-gan*** shakli qo‘llanishi tushuntiriladi.



3

“Ko‘k jamoa”

3- va 4-rasmlardagi tasvirlarni bir-biriga bog‘lab turadigan voqeani gapirib bering. Bu rasmlarda qaysi xalq ijodiga mansub asar qahramonlari tasvirlangan?

4

Foydalanish uchun so‘z birikmalari:
eng navqironi bo‘lgan, hazilkash va quvnoq hisoblangan, maqtanchoqligi bilan dong taratgan.

Mustaqil topshiriq

Maqollarni davom ettiring. Shunga o‘xshash maqollarni topib, yozing.
1. Aytilgan so‘z – _____.
2. O‘qigan _____.
3. Birlashgan – o‘zar, _____ .
4. Intilganga _____ .
5. Yurgan – daryo, _____ .
6. Izlagan _____ .

MAVZU **Baxshichilik**

1 O‘qing.

*Namuna. mukammal – **to‘liq.***

Baxshichilik san‘atiga katta hissa qo‘shgan baxshilardan biri Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidir. “Alpomish” dostonining eng *mukammal* varianti ham shu baxshidan yozib olingan. O‘zbekistonning har bir hududidagi baxshichilik an‘anasi o‘ziga xos bo‘lib, bir-biridan farq qiladi.

Baxshilarning ijrosi ko‘ngli cho‘kkan, g‘amga botgan odamlar uchun halovat beruvchi, zavq bag‘ishlovchi, ma‘naviy ozuqadir.

96

6. Berilgan gap tarkibidagi so‘z asoslariga o‘tgan zamon sifatdoshining mos keladigan shakli qo‘yilib, gaplar yozdiriladi: *tuggan, o‘rgangan, chiniqqan, tutashgan, yirtilgan, tikkan.*

“Dutorning yaratilish afsonasi” audiomatni o‘quvchilarga ikki marotaba eshittiriladi. Matn mazmuni o‘quvchilar tomonidan qayta hikoya qilinadi. Matnda uchragan sifatdoshlar imlo-

siga e’tibor qaratiladi: ***tuggan, yaltillagan, pishgan, yasalgan, o‘xshamagan, ezgan, birlashgan, aylangan.***



Surxondaryo, Qashqadaryo baxshilari dostonni do’mbirani chalib, bo’g’izdan ijro etadilar. Samarqand baxshilari do’mbira bilan ochiq ovozda kuylaydilar. Xorazmda esa dostonlar tor va doira jo’rligida kuylanadi.

Baxshichilik san’atiga bugun alohida e’tibor qaratilmoqda. Yoshlar baxshichilik va dostonchilik san’atini o’rganishlari uchun bolalar musiqa va san’at maktablarida folklor sinflari ochilgan.

BAXSHICHILIK SANʼATI

UNESCO nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi

xursandchillik, urf-odat, ~~to‘liq~~ tashvish, xafa, huzur

k - kan kechi**k**kan avtobus
q - qan toli**q**qan yo’lovchi

2 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Birinchi marta meva tuggan o’rik kutilmagan sovuq havo oqimiga dosh berarmikan?

1. Birinchi marta meva tug (-gan, -kan, -qan) o’rik kutilmagan sovuq havo oqimiga dosh berarmikan?
2. O’rgan (-gan, -kan, -qan) ko’ngil o’rtansa qo’ymas...
3. Bu sinovga umri davomida ko’p qiyinchiliklar ko’rib, chiniq (-gan, -kan, -qan) Bozorboy chidaydi, albatta.
4. Uzoqda, osmon bilan tutash (-gan, -kan, -qan) ufqda nimadir ko’zga tashlandi.
5. Anvar varaqlari sarg’ayib, yirtil (-gan, -kan, -qan), sahifalaridan o’tmishning hidi kelayot (-gan, -kan, -qan) kitobni avaylab bag’riga bosdi.
6. Umidaning tik (-gan, -kan, -qan) kashtalari aql bovar qilmas darajada chiroyli edi.

3 **Tinglang. Yozing.**

Dutorning yaratilishi haqida afsona

4 **O‘ylang va toping. Gapiring.**

Matndagi voqealarni tiklang.

Foydalanish uchun tayanch tushunchalar: *bodom > o’rik > tut > kapalak > pilla shodalari > ipak > o’tin > dutor > ohang > muhabbat dardi.*

97

Dutorning yaratilish afsonasi

Bahor quyoshining iliq nurlari butun borliqni uyg‘otganda ilk bora bodom o‘z gullarini quyoshga tutar, keyin esa o‘rik xursandlik ila gullarga burkanar ekan-u, uyatchan tut daraxti o‘z hislarini namoyish etishdan iymanar ekan.

Ammo oradan biroz vaqt o‘tib, diliga tuggan havas ila quyoshga marvariddek oppoq va yaltillagan ilk mevalarini baxsh etar ekan. U har bir bahor faslining ilk, quyoshning issiq nurlarini emib, pishgan mevalari ekan. Bulbul o‘z guliga, asalarilar boshqa mevali daraxtlarga shaydo ekan-u, faqatgina go‘zal kapalak kamtar tutning shoxlarida dam olishni yaxshi ko‘rarkan. Kapalak xiromi tutga dunyodagi eng katta mo‘jizadek ko‘rinar, tut esa jon-u dili bilan kapalakka muhabbat qo‘ygan ekan. Ammo qisqa umr kapalakni bu dunyodan olib ketgan, kapalak tut shoxlariga o‘zidan yodgor qilib pilla shodalarini qoldirib ketgan ekan.

Tut pillaning yorilishini va go‘zal kapalakning yana xirom etishini kutar ekan, ammo odamlar ularni bir-biridan ayiribdilar. Pillalar qaynoq suvga solinib, ipak tolalariga aylanibdi, tut esa ayriliq ila yolg‘izlikka yuz tutibdi. Uning qalin tanasini bir kun inson qishga o‘tin g‘amlash uchun kesib tashlabdi. Yarmini o‘choqqa tutibdi va kunlardan bir kuni sozgar usta o‘choq yonidan tut o‘tinini olibdi-da, uzun qish kechalarida undan dutor kosasini yasashga kirishibdi.

Kosa yasalgach, u musiqa asbobiga boshqalar kabi hayvon ichaklaridan yasalgan torni emas, qo‘shni qishloqdagi ipak tolalarini keltirib, ikki dona tor bog‘labdi. Dutordan hech bir torga o‘xshamagan hazin ohang taralibdi, bu qalbni ezgan mahzunlik sevgi, dard, ayriliq, o‘lim va olovda sinalib, nihoyat, birlashgan muhabbat tarixi ekan. Bu ohangga, kuyga aylangan muhabbat ekan…

Shundan buyon dutor dunyoga muhabbat dardini tarannum etar ekan.

(Maqsud Asqarov)

7. Matn asosida bodom > o‘rik > tut > kapalak > pilla shodalari > ipak > o‘tin > dutor > ohang > muhabbat dardi yo‘nalishidagi voqealar rivoji bo‘yicha voqealar tiklanadi.

8. Ikki guruh tashkil qilinib, tushunchalar tahlili sinkveyn usulida amalga oshiriladi.

Namuna: “musiqa” so‘zi

1. Musiqa

2. Yoqimli, sokin

3. Tinchlantiradigan, ajablantiradigan

4. Menga tinchlantiradigan musiqa yoqadi

5. Qalb rohati

1-guruhga **“san’at”, “teatr”** so‘zlari berilgan.

San’at.

1. San’at.
2. Nafis, go‘zal.
3. Hayratlantiradigan, zavq beradigan, ilhomlantiradigan.
4. Bu rassomning asarlari meni hayratlantiradigan san’at namunalari ekanini tushundim.
5. Bo‘yoqlar jozibasi.

Teatr.

1. Teatr.
2. Qiziqarli, gavjum.
3. Sahnalashtirilgan, tomoshabinlarni jalb etgan, hayajonlantirgan.
4. Juda ko‘p tomoshabinlarni jalb etgan bu teatrga men ham borganman.
5. Estetik zavq manbayi.

Ikkinchi guruhga **“raqs”, “adabiyot”** so ‘zlari berilgan.

Raqs.

1. Raqs.
2. Sho‘x, zamonaviy.
3. Kayfiyatni ko‘taradigan, davraga chorlaydigan, ko‘zni quvontiradigan.
4. Shu payt bir guruh raqqoslarning sho‘x, davraga chorlaydigan raqsi namoyish etildi.
5. Harakatlar san’ati.

Adabiyot.

1. Adabiyot.
2. Badiiy, ilmiy.
3. Tanlangan, o‘rganilgan, tahlil qilingan.
4. Qo‘llanmada tanlangan adabiyotlar ro‘yxati berilgan.
5. So‘z san’ati.

Mustaqil vazifa: “Men tanlagan kasb” mavzusida 10-15 ta gapdan iborat matn yaratish. Matnda o‘tgan zamon sifatdoshining **-gan, -kan, -qan** shakllarini to‘liq qo‘llashga harakat qilish.

SHARQ TARONALARI

Maqsad: matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta hikoya qilish, savollarga to‘liq va o‘rinli javob berish, sifatdoshlarning hozirgi zamon shakllarini og‘zaki va yozma nutqda o‘rinli va to‘g‘ri qo‘llay olish, uni boshqa zamon shakllaridan farqlay olish.

Refleksiya: baxshilar ijrosi, undagi o‘ziga xoslik to‘g‘risida suhbat yuritiladi, mustaqil topshiriq sifatida berilgan matn muhokama qilinadi.

Vazifalar:

1. Matn diqqat bilan o‘qib, o‘rganiladi. “ Sharq taronalari” festivalining o‘tkazilish tartibi haqida fikr yuritiladi. Matnda ushbu so‘zlar mazmuni tahlil qilinadi: **tanti, ochiqko‘ngil, bag‘rikeng, mumtoz.** Ularning sinonimlari topiladi. *Masalan: tanti – saxiy, ochiqko‘ngil – samimiy, bag‘rikeng – ahillik, birdamlik bilan ish ko‘ruvchi, mumtoz – davrlar osha sinovdan o‘tgan, eng yaxshi, saralangan.* Bunda ushbu so‘zlarning kontekstdagi ma’nosi va boshqa ma’nolari ham misollar orqali tushuntirib berilishi maqsadga muvofiqdir.

2. Savollarga imkon qadar to‘liq, asosli tarzda javob berilishi nazarda tutiladi. Bunga yordam tariqasida biror o‘zbek kuyi yoki qo‘shig‘i audio orqali eshittirilgani ma’qul. Javoblar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Menga Sharq kuy va qo‘shiqlari yoqadi, chunki ularda qandaydir sirli ohang bor.

2. O‘zbek milliy mumtoz kuylari, qo‘shiqlariga “Shashmaqom” to‘plamini misol keltirish mumkin.

3. Zamonaviy o‘zbek qo‘shiqchiligi yo‘nalishlari ham rang-barangdir.

4. Zamonaviy musiqiy janrlardan pop musiqani yoqtiraman, negaki shu yo‘nalishga qiziqaman.

5. O‘zbek bastakorlari ko‘p, ulardan Mutal Burhonov, Dilorom Omonullayeva haqida ko‘p eshitganman.



5 O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna. Musiqa so‘ziga sinkveyn.
1. Musiqa.
2. Yoqimli, sokin.
3. Tinchlantiradigan, ajablantiradigan, maftun etadigan.
4. Menga tinchlantiradigan musiqa yoqadi.
5. Qalb rohati.

1-guruhga sinkveyn uchun mavzular: san’at, teatr.
2-guruhga sinkveyn uchun mavzular: raqs, adabiyot.

Mustaqil topshiriq

“Men tanlagan kasb” mavzusida 10–15 ta gapdan iborat matn tuzing. Unda *-gan (-kan, -qan)* qo‘shimchalari bilan tugagan so‘zlardan foydalaning.

MAVZU **Sharq taronalari**

1 O‘qing.

O‘zbekiston xalqaro san’at anjumanlarini tashkil etib, mezbon sifatida xizmat ko‘rsatib kelayotgan mehmondo‘st yurt hisoblanadi. Sababi o‘zbek xalqi azaldan tanti, san’atsevar, ochiqko‘ngil, bag‘rikeng xalqdir. Mashhur “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali san’atni sevadigan insonlarni yurtimizda jamlaydi. Bu anjuman musiqa san’atining eng yaxshi namunalarini keng targ‘ib qiladi. Milliy musiqa an’analarini saqlash va rivojlantirishga yordam beradi. Festival xalqaro ijodiy aloqalarni kengaytirish, tinchlik, do‘stlik, madaniy hamkorlikni rivojlantirish uchun o‘tkaziladi.

Anjuman ikki yilda bir marta Samarqand shahridagi Registon maydonida avgust oyining oxirlarida o‘tkaziladi. Tantanali ochilish marosimidan keyin dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan ishtirokchilar uchun bir hafta davomida saralash bosqichlari bo‘lib o‘tadi. Ular quyidagi qo‘nalishlarda chiqish qiladilar:

– xalq musiqiy ijodiyoti (qo‘shiq yoki kuy);
– an’anaviy mumtoz musiqa;
– zamonaviy milliy ashula va cholg‘u musiqasi.

Ijro jonli tarzda bo‘lishi kerak.

98

6. Milliy raqs menga yoqadi, juda jozibali ko‘rinadi.

Diqqat qiling. Grammatik jadval yordamida sifatdoshning hozirgi zamon shaklari qo‘llanishi tushuntiriladi. Fe’l asosi undosh harf bilan tugasa, **-ayotgan** qo‘shimchasi, unli harf bilan tugaganda **-yotgan** qo‘shimchasi qo‘llanishi aytiladi. Masalan: *yozayotgan qiz, o‘qiyotgan bola*

3. Chap ustundagi sifatdoshlar hozirgi zamon shakllariga aylantirilishi, so‘ng ularga o‘ng ustundagi so‘zlardan mosi tanlanib, so‘z birikmalari hosil qilinadi va ular ishtirokida gaplar tuzdirib, yozdiriladi. *Masalan: ishlab chiqarilgan mahsulot – ishlab chiqarilayotgan mahsulot. Korxonada ishlab chiqarilayotgan bu mahsulot do‘konlarga tarqatildi. Unutilgan va’da – unutilayotgan va’da. Men do‘stimga unutilayotgan va’dani eslatdim. Kechikkan poyezd – kechikayotgan poyezd. Kutilmaganda kechikayotgan poyezd shov-shuvga sabab bo‘ldi. O‘qilgan kitob – o‘qilayotgan kitob. Zo‘r qiziqish bilan o‘qilayotgan bu kitob o‘quvchilarga yoqdi. Eskirgan kiyim – eskirayotgan kiyim. Kiyilaverib eskirayotgan kiyimni ko‘rib, o‘yga toldim. Sarflangan mablag‘ – sarflanayotgan mablag‘. Xayrli ishga sarflanayotgan mablag‘ning savobi bor. Yozilgan maktub – yozilayotgan maktub. Tunda yozilayotgan bu maktubda bolalik xotiralari tasvirlandi. Tuzilgan reja – tuzilayotgan reja. Tuzilayotgan reja buyuk ishlarning boshlanishiga sabab bo‘ladi.*

4. Matn tinglanadi.

O‘zbek mumtoz kuylari nafis ijrosi, ta’sirchanligi bilan mashhurdir. Har bir kuy va qo‘shiqda o‘zbek xalqining tarixi, urf-odatlari va an’analari, qadriyatlari, qayg‘u-alamlari, shodligi aks etadi… Bu kuylarda boshqa hech qaysi xalqda **uchramagan**, o‘zbekning dardini **bayon etgan** nozik sadolar bor. Ijroning qanchalik ta’sirchan bo‘lishi cholg‘u asboblariga ham bog‘liq. Mumtoz kuylar ijrosida eng ko‘p **qo‘llangan** cholg‘u asboblari nay, tanbur, sato, dutor, g‘ijjak, changdir.

O‘zbek xalqining milliy qadriyatiga **aylangan** go‘zal taronalardan biri “Cho‘li Iroq” kuyidir. “Cho‘li Iroq”ni Iroq maqomi deb ham atashadi. U g‘amgin, qayg‘uli ruhiy ho-



2 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Sizga sharqona kuy va qo‘shiqlar yoqadimi? Nima uchun?
2. O‘zbek milliy mumtoz kuylari, qo‘shiqlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Zamonaviy o‘zbek qo‘shiqchilaridan kimlarni bilasiz?
4. Zamonaviy musiqiy janrlardan qaysi birini yoqtirasiz? Nima uchun?
5. Qaysi o‘zbek bastakorini bilasiz?
6. Milliy raqs haqida fikringiz qanday?

-yotgan, -ayotgan
Kuylayotgan qo‘shiqchi, *yurayotgan* mashina

3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Ishlab chiqarilgan mahsulot. Korxonada *ishlab chiqarilayotgan* mahsulot do‘konlarga tarqatiladi.

Ishlab chiqarilgan	poyezd
Unutilgan	mablag‘
Kechikkan	reja
O‘qilgan	mahsulot
Eskirgan	kitob
Sarflangan	maktub
Yozilgan	kiyim
Tuzilgan	va’da

4 **Tinglang. Yozing.**

Namuna. Uchramagan sadolar – uchramayotgan sadolar.

5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Men musiqa maktabida *dutor* yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olyapman.

Chang

Tanbur

Nay

99

latni ifoda etadi va chuqur falsafiy mazmunga ega.

XV asr tarixchilari bu kuy haqida shunday ma’lumotlar qoldirishgan: “Kunlarning birida shoh saroyida **bo‘lgan** bazmda Sohib ismli sozanda tanburda kuy chala boshlaydi. Kuy avjiga **chiqqan** payt da tanburga bulbul kelib qo‘nadi. Yengil qanot silkitib, kuyni tinglaydi. Buni **ko‘rgan** saroy ahli hayratda qolib, hushini yo‘qotadi. Xizmatkorlar ularning yuzlariga suv sepib, o‘zlariga keltirishadi. Aytishlaricha, bu sehrli kuy “Cho‘li Iroq”ning birinchi ijrosi bo‘lgan ekan…”


Rubob

Dutor

Doira

G‘ijjak

6 O‘qing.

Namuna. Toliqqan = charchagan.

Cho‘li Iroq

Tarixni so‘zlama menga, ey odam,
Bitta chalib bergin “Cho‘li Iroq”ni.
Bitta chalib bergin, toki yana ham
Yaxshiroq ajratay qorani, oqni.

Bu kuy asrlarning baridan tortib
Cho‘llarda toliqqan horg‘in karvonday
Ming xil taqdirlarni ustiga ortib,
Qalbimdan jimirlab o‘tadi qonday.

Tarixning eng olis qatlamlarida
Armonda uxlagan orzu-alamlar.
Dunyo manglayiga ajin tushirgan –
Dardni, qarilikni yaratgan g‘amlar.

Sahro chechagining ayanch kulgusi,
Yomg‘irdan jon kirgan tuproqning isi –
Hammasi o‘tadi qalbimni o‘yib.
Tuya bo‘ynidagi qo‘ng‘iroqlarning

Tashnalik eslatgan jarangi bo‘lib
Hammasi o‘tadi qalbimni o‘yib.
Tarixni so‘zlama, menga, ey odam,
Bitta chalib bergin “Cho‘li Iroq”ni.

Bitta chalib bergin, toki yana ham
Yaxshiroq ajratay qorani, oqni.
Haddidan oshganga uni chalib ber,
Do‘stlar diydorini g‘animat bilmay,

Sarobga shoshganga uni chalib ber!
Chalib ber, chalib ber, andisha qilmay.
O‘tmishni so‘zlama, o‘git kerakmas,
Shu kuyni bir marta chalib bersang, bas.

Saida Zunnunova

Mustaqil topshiriq

“Cho‘li Iroq” she’ridan parcha yodlang.

100

Sifatdoshlar topilib, zamoni aniqlanadi. Matndagi ***uchramagan, bayon etgan, qo‘llangan, aylangan, bo‘lgan, avjiga chiqqan, ko‘rgan*** sifatdoshlari hozirgi zamon shakllariga aylantirilib, bog‘langan so‘zlari bilan birgalikda daftarga ko‘chiriladi. Masalan: *uchramagan sadolar – uchramayotgan sadolar. Bayon etgan sadolar – bayon etayotgan sadolar. Qo‘llangan asboblar – qo‘llanayotgan asboblar. Aylangan taronalar – aylanayotgan taronalar. Bo‘lgan bazm – bo‘layotgan bazm. Avjiga chiqqan payt – avjiga chiqayotgan payt. Ko‘rgan saroy ahli – ko‘rayotgan saroy ahli.*

5. Rasmlardagi milliy cholg‘u asboblarining nomlari o‘z o‘rniga qo‘yilib, ular ishtirokida gaplar tuzdiriladi.

Masalan: *dutor, g‘ijjak, chang, nay, doira, tanbur, rubob.*

Men musiqa maktabida dutor yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olyapman. G‘ijjakda ko‘pincha g‘amgin kuylar chalinadi. Sinfdoshim chang asbobini chalishni o‘rganyapti. Sen nay chalishni bilasanmi? Doira – o‘zbek xalqining eng an’anaviy cholg‘u asboblaridan biri. Tanbur va sato bir-biriga juda o‘xshaydi. Taniqli xonanda rubob chalib, qo‘shiq kuyladi.

6. Saida Zunnunovaning “Cho‘li Iroq” she’ri ifodali o‘qitilib, mazmuni tahlil qilinadi. Bunga yordam tariqasida audio orqali “Cho‘li Iroq” kuyi eshittirilishi maqsadga muvofiqdir. Ajratib ko‘rsatilgan sifatdoshlar imlosi tushuntiriladi***: toliqqan*** – fe’l asosi jarangsiz ***q*** undoshi bilan tugagani uchun o‘tgan zamon sifatdoshining ***-qan*** variant qo‘llangan. ***Uxlagan, yaratgan***, ***jon kirgan, eslatgan*** sifatdoshlariga ***-gan*** variantli

qo‘shimcha qo‘shilgan. Bu so‘zlarning sinonimlari topilib, hosil bo‘lgan sinonim juftlik daftarga yozdiriladi. Masalan: *toliqqan – charchagan, uxlagan – orom olgan, yaratgan – hosil qilgan, paydo qilgan, jon kirgan – tirilgan, eslatgan – yodiga solgan.*

Mustaqil vazifa: “Cho‘li Iroq” she’ridan parcha yodlash.

MUSIQA VA MEN

Maqsad: mavzu doirasida o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma nutqda ifodalay olish, audiomatn va boshqa matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta so‘zlay olish, savollarga to‘liq va asosli javob bera olish, hozirgi zamon sifatdoshlarining bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari haqida ma’lumot berish, bu shakllarni o‘rinli qo‘llashni bilish.

Refleksiya: “Sharq taronalari” festivali o‘tkazilish tartibi, tadbir shartlari to‘g‘risida suhbat yuritiladi. O‘quvchilar “Cho‘li Iroq” she’ridan parchani ifodali yodlab berishadi.

Vazifalar:

1. Matn o‘qiladi. Mazmuni tushuntiriladi. Sharq kuy va qo‘shiqlariga munosabat bildiriladi. Matndagi mana bu so‘zlar mazmuni tushuntiriladi: **hissiyot, sayqallanib, yashirin dard, nola, mayuslik.** *Masalan: hissiyot – emotsional tuyg‘ular, sayqallanib – mukammallashib, yaxshilanib, yashirin dard, nola – ichki emotsional holat, turli hayajonlantiruvchi, tashvishlantiruvchi sabablar, mayuslik – g‘amginlik.*

2. Testlardagi to‘g‘ri javoblar topiladi. Buning uchun har bir javobda berilgan kuy muallifi aytilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan: “Apassionata” buyuk nemis bastakori Ludvig van Betxoven qalamiga mansub. “Yil fasllari” muallifi italyan bastakori Antonio Lusio Vivaldi, “Elizaga” muallifi ham nemis bastakori Ludvig van Betxovendir. Bu testning to‘g‘ri javobi C, ya’ni “Tanovar”. Shu o‘rinda “Tanovar” o‘zbek milliy xalq kuyi ekanligi aytilishi lozim. Ikkinchi test ham shu tarzda tahlil qilinadi. Har bir bastakorning qaysi xalq, millatga mansubligi aytilishi, ularning jahon musiqa madaniyatiga qo‘shgan hissasi haqida o‘quvchilar bilan suhbat yuritilishi kerak. To‘g‘ri javob D ekanini aniqlash barobarida Yunus Rajabiyning o‘zbek musiqachiligida tutgan o‘rni haqida ham qisqacha to‘xtalish joiz. Shashmaqom haqidagi test javobi aniqlanganda bu atama fors tiliga mansub ekaniga e’tibor qaratiladi. Keyingi test ham shunday qo‘shimcha ma’lumotlar (dutor haqidagi) bilan izohlanishi mumkin.

Diqqat qiling. Grammatik jadval yordamida hozirgi zamon sifatdoshining bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari to‘g‘risida tushuncha beriladi.

3. Qavs ichida berilgan fe’llar hozirgi zamon bo‘lishsiz shakldagi sifatdoshga aylantirilib, gaplar daftarga yozdiriladi. Masalan: *bu harakatlar anchadan beri mashq qilmayotgan odam uchun og‘irlik qilishi mumkin. Ishlamayotgan texnik asboblarni tuzatish ustaxonasiga topshirdim. Muammo sababini so‘ramayotgan odamlarning befarqligi meni hayron qoldiryapti. Laboratoriya ishini kuzatmayotgan o‘quvchilar mustaqil ishlarni bajara olmaydilar. Bo‘layotgan ishlardan ko‘ngli to‘lmayotgan Bahodir oxiri noroziligini bildirdi. Ko‘pdan beri yaxshi uxlamayotgan Ziyoda nihoyat bugun qotib uxlab qoldi.*



MAVZU

Musiqa va men

1 O‘qing.

Sharq musiqasi deganda Osiyo, Shimoliy Afrika, hatto Okeaniyaning musiqiy an’analari tushuniladi. Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo, Uzoq Sharq kabi hududlar madaniyatida musiqa juda qadim zamonlardan bo‘lgan. Sharq musiqasi sirli, ichki hissiyotga to‘la, davrlar osha sayqallanib kelgan. Bu jihatlari bilan u G‘arb musiqasidan farq qiladi. Sharqona kuy va qo‘shiqlarda yashirin dard, nola, ma’yuslik bo‘lishi odatiy hol sanaladi.

Sharq musiqasining go‘zalligini sharqona musiqiy asboblarda ijro etilganda his qilish mumkin. Dutor, rubob, tanbur, sato, nayda kuylar o‘ziga xos sharqona nafislik bilan yangraydi.

O‘zbek klassik musiqasini “Shashmaqom”siz tasavvur qilish qiyin. “Shashmaqom” tojikcha so‘z bo‘lib, “oltita maqom” ma’nosini anglatadi.

Maqom – murakkab ijro etiladigan kuy yoki qo‘shiq. U qadimda yaratilgan bo‘lib, asrlar davomida xalq mulkiga aylanib ketgan. “Shashmaqom” tarkibidagi maqomlar “Buzruk”, “Rost”, “Navo”, “Dugoh”, “Segoh”, “Iroq” deb nomlanadi. O‘zbek bastakori, xonandasi Yunus Rajabiy “Shashmaqom”ning olti jildlik yangi nashrini tayyorlagan.

2 O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Sharqona kuyni toping.
   A) “Apassionata”
   B) “Yil fasllari”
   C) “Tanovar”
   D) “Elizaga”
2. O‘zbek bastakorini toping.
   A) Juzeppe Verdi
   B) Iogann Shtraus
   C) Pyotr Chaykovskiy
   D) Yunus Rajabiy
3. “Shashmaqom” tarkibida nechta maqom bor?
   A) 6
   B) 5
   C) 4
   D) 7
4. O‘zbek milliy cholg‘u asbobini toping.
   A) Klarnet
   B) Dutor
   C) Skripka
   D) Pianino

-mayotgan,
Kuylamayotgan qo‘shiqchi, *yurmayotgan* mashina

3 O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna. Bu harakatlar anchadan beri *mashq qilmayotgan* odam uchun og‘irlik qilishi mumkin.

1. (*ishlamoq*) texnik asboblarni tuzatish ustaxonasiga topshirdim.
2. Muammo sababini (*so‘ramoq*) odamlarning befarqligi meni hayron qoldiryapti.
3. Laboratoriya ishini (*kuzatmoq*) o‘quvchilar mustaqil ishlarni bajara olmaydilar.
4. Bo‘layotgan ishlardan ko‘ngli (*to‘lmoq*) Bahodir oxiri noroziligini bildirdi.
5. Ko‘pdan beri yaxshi (*uxlamoq*) Ziyoda nihoyat bugun qotib uxlab qoldi.

101

4. Dialog eshittiriladi:

– Salom, Saida!

– Salom, Vadim!

– Kutilmagan uchrashuv! Konsertga keldingmi?

– Ha, senga ham Sharq mumtoz musiqasi yoqadimi?

– Yoqadi. Axir Sharqda yashaydigan Sharq odamiman-ku.

– Qoyil. Men bo‘lsam seni faqat zamonaviy musiqa qiziqtiradi, deb o‘ylardim.

– Zamonaviy musiqaga ham qiziqaman, lekin Sharq mumtoz kuylarini ham juda yoqtiraman. Ularning qandaydir sirli, kayfiyatni ko‘taradigan, sehrlaydigan xususiyatlari bor.

– Tushunarli. Ha, sharqona taronalarning odamni maftun etadigan tomonlari ko‘p.

– .....

– .....

Sifatdoshlar topiladi, zamoni aniqlanadi. O‘quvchilar dialogni davom ettiradilar. Sifatdoshlar: kutilmagan (o‘tgan zamon), yashaydigan (kelasi zamon), ko‘taradigan, sehrlaydigan (kelasi zamon), maftun etadigan (kelasi zamon).

5. Gaplardagi sifatdoshlar bo‘lishsiz shaklga aylantirilib, daftarga yozdiriladi. *Masalan: O‘z iqtidorini ko‘rsatmayotgan san’atkor tomoshabinlarga manzur bo‘lmadi.*

Gazetani ko‘zoynaksiz o‘qimayotgan qariya meni hayratlantirmadi. Bugun korxonada jimlik hukmron, ishlamayotgan odam yo‘q. Kecha do‘stim aytdi, kutubxonaga har kuni bormayotgan o‘sha odam sen ekansan. Tog‘lardan ko‘chib tushmayotgan qor bahor yaqin emasligidan darak beradi. Ming yillardan beri hammani hayratga solmayotgan bu sirli olam bag‘rida yashaymiz-u, sirlarini ochishga ojizmiz. Ba’zi gaplarning kesimida, mazmunida ro‘y bergan o‘zgarishga e’tibor qaratiladi.

6. Rasmlarga qarab, savollarga javob beriladi. 1-rasmda **rok** yo‘nalishi nazarda tutilgan. 2-rasmda o‘ziga xos raqs yo‘nalishi bilan ijro etiladigan **xip-xop** musiqiy yo‘nalishi aks etgan. 3-rasmdagi musiqiy asboblar jamlanmasi **jaz** yo‘nalishini tasvirlagan.



4 **Tinglang. Gapiring.**

Dialog.

5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. O‘z iqtidorini *ko‘rsatmayotgan* san’atkor tomoshabinlarga manzur bo‘lmadi.

1. Gazetani ko‘zoynaksiz o‘qiyotgan qariya meni hayratlantirdi.
2. Bugun korxonada jimjitlik hukmron, ishlayotgan odam yo‘q.
3. Kecha do‘stim aytdi: kutubxonaga har kuni borayotgan o‘sha odam sen ekansan.
4. Tog‘lardan ko‘chib tushayotgan qor bahor yaqinligidan darak beradi.
5. Ming yillardan beri hammani hayratga solayotgan bu sirli olam bag‘rida yashaymiz-u, sirlarini ochishga ojizmiz.

6 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1-rasmga qarab qaysi zamonaviy musiqiy yo‘nalishni esladingiz? Unga munosabat bildiring. Sizga bu yo‘nalish yoqadimi? Nima uchun?

2-rasmda tasvirlangan musiqiy yo‘nalish qanday nomlanadi? U haqda qanday fikrdasiz? Nima deb o‘ylaysiz, uning insoniyatga foydali tomoni bormi?

3-rasmdagi musiqiy yo‘nalish qanday nomlanadi? Bu yo‘nalish inson hayotini ijobiy tomonga o‘zgartirishi mumkinmi? Yoki aksinchami?

Mustaqil topshiriq

“Musiqaning inson hayotidagi o‘rni” mavzusida esse yozing.

102

Mustaqil topshiriq. “Musiqaning inson hayotidagi o‘rni” mavzusida esse yozish.

SATO

Maqsad: mavzu doirasida o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma nutqda ifodalay olish, matnlarni tinglab tushunish, o‘qib o‘rganish, qayta hikoya qilish, ma’lumotlarni qayta tiklash, savollarga javob bera olish, sifatdoshning kelasi zamon shakllarini og‘zaki va yozma nutqda o‘rinli va to‘g‘ri qo‘llay olish.

Refleksiya: sharqona kuy va qo‘shiqlar,ularning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida savol-javob o‘tkaziladi. Mustaqil topshiriq sifatida berilgan “Musiqaning inson hayotidagi o‘rni” matni tahlil qilinadi.

Vazifalar:

1. Sato asbobi haqidagi matn diqqat bilan o‘qitiladi. Mazmuni tahlil qilinadi.

2. Matndagi kelasi zamon sifatdoshi shakllari ishtirokida avval so‘z birikmasi, so‘ngra gap tuzdirib, yozdiriladi. Masalan: *kelib chiqadigan – kelib chiqadigan xulosa – bemorni tekshirish asosida kelib chiqadigan xulosa tashxis deyiladi. Titratadigan – titratadigan havo - bugun odam a’zolarini titratadigan sovuq havo bo‘lyapti. Chalinadigan – nafas yordamida chalinadigan – nay nafas va barmoqlar yordamida chalinadigan musiqa asbobidir. Kengroq bo‘ladigan – kengroq bo‘ladigan asbob - sato tanburga nisbatan qopqog‘i kengroq bo‘ladigan asbobdir.*

Diqqat qiling. Sifatdoshning kelasi zamon shaklini hosil qiladigan qo‘shimchalarning qo‘llanish o‘rinlari tushuntiriladi. Bunda undosh bilan tugagan asosga ***-adigan*** shakli, unli bilan tugagan asosga ***-ydigan*** shakli qo‘shilishi tushuntiriladi.

3. Gaplar ichidan kelasi zamon sifatdoshlari topilib, o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiriladi. Masalan: *uyg‘otadigan xo‘roz, ba-*



MAVZU **Sato**

1 O‘qing.

“Sato” deb ataladigan cholg‘u asbobi haqida eshitganmisiz? Ba’zi manbalarda sato “setor”, ya’ni “uchta tor” so‘zidan *kelib chiqadigan* atama deyiladi. Boshqa manbalarda “sato” so‘zining ma’nosi “sado” so‘zi, ya’ni “dardning aks sadosi” ma’nosi bilan teng deyiladi.

Sato qalbni *titratadigan* asbob bo‘lib, tanburning kamon bilan *chalinadigan* turidir.

Sato o‘zbek, tojik, uyg‘ur, afg‘on kabi Sharq xalqlarida keng tarqalgan. Kosasi tanburga nisbatan kattaroq va yupqaroq, qopqog‘i kengroq *bo‘ladigan* bu asbob tut yog‘ochidan o‘yib yasaladi. Umumiy uzunligi 110–120 cm.

Satoda odatda kuylar turli ohanglar bilan boyitib chalinadi. U hozir turli o‘zbek cholg‘u ansambllarida hamda yakkaxon ijroda qo‘llanadi.

2 O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna. Kelib chiqadigan – kelib chiqadigan xulosa. Bemorni tekshirish asosida kelib chiqadigan xulosa “tashxis” deyiladi.

-adigan, -ydigan
Tushunadigan odam, *o‘qiydigan* bola.

3 O‘ylang. Yozing.

Namuna. Har tongda qichqirib, bizni uyg‘otadigan xo‘roz bugun negadir jim. – Uyg‘otadigan xo‘roz.

1. Ertaga bajaradigan ishlarimiz ro‘yxatini tuzdim.
2. Meni o‘ylaydigan, men uchun kuyinadigan odam – onam.
3. Mamlakatda amalga oshiriladigan islohotlarning maqsadi – xalqning hayotini yaxshilash.
4. Siz bugun kuylaydigan qo‘shiq, albatta, o‘z muxlisini topadi.
5. Bu men doim qo‘msaydigan, sog‘inadigan bolaligim parchasi-ku!
6. Biz maktabga qatnaydigan ko‘cha to‘silibdi: yerosti quvurlari ta’mirlanayotgan ekan.

103

jaradigan ishlarimiz, o‘ylaydigan, kuyinadigan odam, amalga oshiriladigan islohotlar, kuylaydigan qo‘shiq, qo‘msaydigan, sog‘inadigan bolalik, qatnaydigan ko‘cha.

4. To‘rtburchak test deb ataladigan ushbu shakllar ichidagi so‘zlar ko‘rsatkich bo‘yicha yo‘naltirilib, bo‘sh katak ichiga mazmunan mos keladigan so‘z qo‘yiladi va gap hosil qilinadi. Hosil bo‘lgan gaplar daftarga yozdiriladi.

Birinchi to‘rtburchakda bo‘sh katakka ***bo‘ladigan*** so‘zi, ikkinchi to‘rtburchakda ***o‘qiydigan*** so‘zi, uchinchi to‘rtburchakda esa ***o‘ynaydigan*** so‘zi qo‘yiladi. Hosil bo‘ladigan gaplar: *ertaga bo‘ladigan darslarni ayting.*

Siz o‘qiydigan kitoblar qiziqarlimi? Bolalar o‘ynaydigan maydoncha juda ozoda.


4 O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna. Ertaga *bo‘ladigan* darslarni ayting.

Ertaga	ayting	Bolalar	?	Siz	?
?	darslarni	juda ozoda	maydoncha	qiziqarlimi	kitoblar

5 O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna. Mumtoz musiqa xalq cholg‘u asboblarida ijro etiladi. Zamonaviy musiqa zamonaviy cholg‘u asboblarida ijro etiladi.

Mumtoz musiqa | Zamonaviy musiqa

6 Tinglang. Gapiring.

Do‘mbira haqida afsona

7 O‘ylang va toping. Yozing.

Eslab, kamtar, shodlangan, butun, eski so‘zlariga audiomatndan antonimlar topib, hosil bo‘lgan antonim juftliklarni daftaringizga yozing.

Namuna. eslab – unutib, _____ ...

Mustaqil topshiriq

Zamonaviy musiqiy janrlar va mashhur ijrochilar haqida matn tuzing.

104

5. Venn diagrammasidan foydalangan holda mumtoz musiqa va zamonaviy musiqaga xos xususiyatlar, ularning o‘xshash va farqli tomonlari haqida gapiriladi.

6. “Do‘mbira haqida afsona” audiomatni tinglanadi. Mazmuni qayta hikoya qilinadi.

Do‘mbira haqida afsona

Qadim zamonlarda Oltoy o‘lkasida ikki aka-uka yashagan ekan. Kenja ukaning do‘mbirasi bo‘lib, unda kuy chalishni juda yoqtirardi. Chalishni boshlashi bilan dunyodagi barcha narsani unutib, o‘z ijrosiga mahliyo bo‘lib qolar edi. Bu qobiliyati hamma yoqqa ovoza bo‘libdi.

Katta aka o‘ta xudbin, manman bo‘lib, u ham shuhrat qozonmoqchi bo‘libdi. Kunlardan bir kun u to‘lib-toshib oqadigan daryodan o‘tish uchun ko‘prik qurmoqchi bo‘libdi. Tosh to‘plab, ishni boshlabdi. Kenja uka esa do‘mbirada kuy chalishda davom etibdi. Kunlar ketidan kunlar o‘tibdi. Kenja uka akasiga yordam berish o‘rniga sozini qo‘lidan qo‘ymasmish. Bundan qattiq g‘azablangan akasi ukasidan do‘mbirani tortib olib, bor kuchi bilan qoyaga uribdi. Ajoyib soz parcha-parcha bo‘lib sinibdi, kuy to‘xtabdi, lekin tosh qoyada bu zarbdan hosil bo‘lgan iz abadiy qolib ketibdi. Oradan ko‘p yillar o‘tibdi. Odamlar bu izni topib, undan o‘lcham olib, shu o‘lcham bo‘yicha

yangi do‘mbira yasashni yo‘lga qo‘yishibdi. Shunday qilib, anchadan beri yangramagan do‘mbira sadolari o‘sha afsonaviy do‘mbiradan qolgan iz tufayli yana odamlar qalbiga go‘zal xonish bilan zavq bera boshlabdi.

7. Berilgan so‘zlarga (*eslab, kamtar, shodlangan, butun, eski*) matndan antonim so‘zlar topilib, hosil bo‘lgan antonim juftliklar yozdiriladi. Masalan: *eslab – unutib, kamtar – manman, shodlangan – g‘azablangan, butun – parcha, eski – yangi*. Matndagi kelasi zamon sifatdoshi topilib, o‘zi bog‘langan so‘z bilan birgalikda yozdiriladi va u bilan gap tuzdiriladi: *oqayotgan daryo – qishlog‘imizdagi oqayotgan daryoda yozda bolalar cho‘milishadi.*

Mustaqil topshiriq: zamonaviy musiqiy janrlar va mashhur ijrochilar haqida matn tuzish.

O‘ZBEKCHA KUYLAYMAN

Maqsad: mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini faol nutqiy ko‘nikmalarda ifodalay olish, audiomatnni tinglab tushunish, matnlarni o‘qib, qayta hikoya qila olish, dialogik nutq tuza olish.

Refleksiya: musiqiy asboblar, musiqiy yo‘nalishlar to‘g‘risida suhbat quriladi. Sifatdoshlarning kelasi zamon shakllari yasalishi misollar bilan ko‘rsatiladi, mustaqil topshiriq sifatida berilgan zamonaviy musiqiy janrlar va mashhur ijrochilar haqidagi matnlar tahlil qilinadi.

Vazifalar:

1. Dialog rollarga bo‘linib, o‘qitiladi. Suhbatdoshlarning gaplari, aytgan fikrlariga munosabat bildiriladi. Dialog o‘quvchilar tomonidan davom ettiriladi.



MAVZU

O‘zbekcha kuylayman

1 **O‘qing. Gapiring.**

– Salom, Larisa!
– Salom, Dilnura!
– Bilasanmi, kecha bir qo‘shiqchining ajoyib ijrosini tingladim. Ismi Larisa ekan!
– Rostdanmi? Qayerlik ekan?
– O‘zbekistonlik! Ammo meni hayron qoldirgan narsa bu emas. Larisa Moskalyova o‘zbek mumtoz qo‘shig‘ini juda zo‘r kuylarkan!
– Qoyil! Meni ham qiziqtirib qo‘yding-ku. Qaysi qo‘shiq ekan?
– Nomini eshitmay qolibman. Ammo rus qizining o‘zbek mumtoz qo‘shig‘ini shunday go‘zal ijro qilgani meni hayajonga soldi.
– Ha, demak, u haqiqiy qo‘shiqchi ekan. O‘zi yashayotgan Vatani, shu yerning xalqiga nisbatan hurmati baland, tarbiyali inson ekan. Men ham bugun qo‘shiqlarini Internetdan qidirib topib, tinglayman.
– Ovozi ham juda kuchli, shirali ekan. Bilasan-ku, xalq qo‘shiqlari, maqomlarni kuylash juda og‘ir.
– To‘g‘ri.

2 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Bu dunyoda o‘z taqdiriga *qiziqmaydigan* inson bo‘lmasa kerak.

1. (*Yechilmoq*) muammoning o‘zi yo‘q, tashvishlanma.
2. Bizning korxonada sifat talabiga javob (*bermoq*) mahsulot ishlab chiqarilmaydi.
3. Hayot qiyinchiliklariga sabr (*qilmoq*) odam muvaffaqiyatga erishmaydi.
4. Bolalik umr o‘tgani sari shu qadar qadrli bo‘lib boradiki, hech qachon katta (*bo‘lmoq*) Piter Penga havas qila boshlaysan.
5. Bu qadimiy kitobga biz (*tushunmoq*) tilda yozilgan ekan.

3 **Tinglang. Gapiring.**

105

2. Qavs ichida berilgan fe'llar kelasi zamon sifatdoshlarining bo'lishsiz shakliga aylantirilib, daftarga yozdiriladi: *qiziqmoq – qiziqmaydigan, yechilmoq – yechilmaydigan, javob bermoq – javob bermaydigan, sabr qilmoq – sabr qilmaydigan, katta bo'lmoq – katta bo'lmaydigan, tushunmoq – tushunmaydigan.*

3. Audiomatn tinglanadi. Qayta hikoya qilinadi.

Taniqli o'zbek qo'shiqchisi Larisa Moskalyova Toshkent shahrida tug'ilgan. Maktabini tugatgach, Toshkent davlat madaniyat institutiga o'qishga kirgan. Professional qo'shiqchilik faoliyatini 1992-yilda boshlagan. O'zbek, qoraqalpoq, rus va boshqa bir necha tilda qo'shiq kuylaydi. O'ndan ortiq musiqiy janr, jumladan, maqom kuylovchisi ham hisoblanadi.



4 O'ylang va toping. Yozing.

Larisa Moskalyova qayerda tug'ilgan? A) Samarqand B) Toshkent D) Buxoro E) Xiva	**Gapni to'ldiring.** Larisa – _____ yo'nalishi bo'yicha murabbiy.
Moskalyova qaysi institutda ta'lim olgan? _____	**Fikringizni bildiring.** Qo'shiqchilik san'atida eng muhim narsa, sizningcha, nima?

5 O'ylang va toping. Yozing.

Namuna. Shoshilmaydigan kishi. Shoshilmaydigan kishi kam xato qiladi.

Qo'rqmaydigan bola, yaxshi yopilmaydigan eshik, suvda cho'kmaydigan modda, yolg'on gapirmaydigan qiz, tinchimaydigan go'dak, qaytib kelmaydigan davr.

6 O'ylang va toping. Yozing.

1. San'atkorlar oilasida tug'ilib o'sgan. Uning ukasi Farrux Zokirov mashhur "Yalla" ansamblining badiiy rahbaridir (__).
2. Andijon viloyati Buloqboshi tumanida tug'ilgan. Oilada uchinchi farzand bo'lgan (__).
3. "Lazgi" ansamblining badiiy rahbari va xonandasi bo'lgan. Urganch musiqa bilim yurti va Toshkent madaniyat institutida ta'lim olgan (__).
4. Samarqand shahrida tug'ilgan. 1990-yilda uning birinchi musiqiy albomi chiqqan (__).

Mustaqil topshiriq

O'zbek tilida kuylaydigan eng mashhur qo'shiqchilar "Top 10" taligini tuzing. Ularning eng ommabop qo'shiqlari ro'yxatini yozing.

106

Larisa Moskalyova sport bilan ham shug'ullanadi. U taekvondo yo'nalishi bo'yicha trener, qora belbog' sohibidir. Hozirgi kunda Larisa Moskalyova AQSHda yashaydi. U yerda ham u ijodiy faoliyatini davom ettirmoqda.

4. Audiomatn asosida assesment usulida jadvaldagi topshiriqlar bajariladi.

5. Kelasi zamon sifatdoshlarining bo'lishsiz shakli qatnashgan so'z birikmalari yordamida gaplar tuzdiriladi va yozdiriladi. Masalan: *qo'rqmaydigan bola – Mitti bo'lishiga qaramay, mening jiyanimni hech narsadan qo'rqmaydigan bola deb atashadi. Yaxshi yopilmaydigan eshik – Yaxshi yopilmaydigan eshiklaringizni ta'mirlaymiz. Suvda cho'kmaydigan modda – Bugun mana shu suvda cho'kmaydigan moddani o'rganamiz. Yolg'on gapirmaydigan qiz – Sinfdoshim Halima – umuman yolg'on gapirmaydigan qiz. Tinchimaydigan go'dak – Hech tinchimaydigan go'dak buvining qo'llariga o'tdi-yu, tinchib qoldi. Qaytib kelmaydigan davr – Endi hech qaytib kelmaydigan davr – bolaligimni sog'indim. Shoshilmaydigan kishi – Yaqin do'stim hech shoshilmaydigan kishidir.*

6. Berilgan ma'lumotlar asosida qaysi rasmda qaysi san'atkor tasvirlangani aniqlanib, daftarga yoziladi.

Mustaqil topshiriq. O'zbek tilida kuylaydigan eng mashhur qo'shiqchilar "Top- 10" taligi, ularning eng ommabop qo'shiqlari ro'yxatini tuzish.

ADABIYOT

Maqsad: audiomatnni tinglab tushunish, matnlarni o‘qib, qayta hikoya qila olish, savollarga to‘liq va asosli javob bera olish, mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma nutqda erkin ifodalay olish.

Refleksiya: o‘zbek qo‘shiqchilari, san’atkorlari, o‘zbek musiqasi haqida suhbat olib boriladi, mustaqil topshiriq tekshiriladi.

Vazifalar:

1. O‘quvchilar uch guruhga bo‘linadilar, har bir guruh o‘ziga tegishli rasm-illyustratsiya orqali asarning nomi, muallifi, qahramonlari haqida so‘zlaydi. Birinchi illyustratsiyada amerikalik yozuvchi O'Henrining “Hindular sardori” asaridan lavha tasvirlangan. Asar qahramonlari: Sem, Bill, Jonni Dorset. Ikkinchi illyustratsiyada ingliz yozuvchisi Daniel Defoning “Robinzon Kruzo” asaridan lavha berilgan. Qahramonlar: Robinzon Kruzo, Jumavoy. Uchinchi illyustratsiyada ingliz dramaturgi Vilyam Shekspirning “Romeo va Julyetta” fojiasidan lavha aks etgan. Qahramonlar: Romeo Montekki va Julyetta Kapuletti.

2. Matn diqqat bilan o‘qitiladi. Mazmuni tahlil qilinadi.

3. Matn yuzasidan berilgan savollarga o‘quvchilar javob beradilar.

4. Ortiqcha javobli test yechtiriladi.Bunda uchta javob bir yo‘nalishda, to‘rtinchisi esa begona bo‘lib, to‘g‘ri javob hisoblanadi. Testlardagi javoblar asar janrlari va adabiy turlar bo‘yicha farqlanadi.

Masalan: birinchi testda to‘g‘ri javob C, ya’ni “Anna Karenina” (Lev Tolstoy) romani hisoblanadi. Chunki “Mumu” (Ivan Turgenev), “So‘nggi yaproq” (O'Henri), “Noma’lum ayol maktubi” (Stefan Sveyg) hikoyalardir. Ikkinchi testda to‘g‘ri javob B - “Urush va tinchlik” (Lev Tolstoy) hisoblanadi, chunki u



MAVZU **Adabiyot**

1 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

Birinchi guruh uchun vazifa: 1-rasmni tasvirlang. Unda qaysi asardan olingan lavha aks etgan? Asarning muallifi kim? Tasvirdagi qahramonlar haqida gapirib bering.

Ikkinchi guruh uchun vazifa: 2-rasmni tasvirlang. U sizga qaysi asarni eslatyapti? Asar muallifi kim? Asar qahramonlariga ta’rif bering.

Uchinchi guruh uchun vazifa: 3-rasmni tasvirlang. Unda qaysi asardan olingan lavha tasvirlangan? Bu qahramonlar haqida nimalarni bilasiz? Asarning muallifi haqida-chi?

2 **O‘qing.**

Adabiyot – so‘z san’ati. Unda asosan ajratiladigan uch adabiy tur bor: nazm, nasr, dramaturgiya. Adabiyotdagi mavjud janrlarning hammasi shu uch adabiy yo‘nalishning biriga taalluqli bo‘ladi.

Nasr epik tur bo‘lib, unda voqealar hikoya yo‘li bilan tasvirlanadi. Nasriy janrlarga hikoya, qissa, roman kabilar kiradi.

Nazm lirik tur sanaladi. Unda voqealarning o‘zi emas, ulardan hosil bo‘lgan tuyg‘ular tasvirlanadi. Nazmga xos janrlar she’riy asarlardir: she’r, doston, ruboiy, g‘azal kabilar.

Dramatik turda yoziladigan asarlar sahnada namoyish etish uchun mo‘ljallanadi. Dramatik turga teatr sahnasida qo‘yiladigan komediya, tragediya, pyesa, drama kabi asarlar kiradi.

3 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Adabiyot qanday san’at?
2. Epik turga qanday janrlar kiradi?
3. Lirik turga qanday asarlar kiradi?
4. Dramaturgiya deganda nimani tushunasiz?
5. O‘zbek adabiyotidagi qanday hikoyalarni o‘qigansiz?
6. Qaysi o‘zbek shoirlarini bilasiz?
7. O‘zbek dramaturgiyasiga mansub qaysi asarni bilasiz?

107

romandir. Testdagi boshqa asarlarning hammasi – “Motsart va Salyeri” (Aleksandr Pushkin), “Romeo va Julyetta” (Vilyam Shekspir), “Otello” (Vilyam Shekspir) – dramaturgiyaga oid asarlar. Uchinchi testda to‘g‘ri javob A, ya’ni “Dorian Grey portreti” (Oskar Uayld) hisoblanadi, chunki u nasriy janr – roman, qolgan uchta asar esa – “Iliada” va “Odisseya” (Homer), “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” (Shota Rustaveli), “Ilohiy komediya” (Dante Aligyeri) – she’riy asarlar.



4 **O‘ylang. Yozing.**

Ortiqchasini toping.

1. A) “Mumu”
   B) “So‘nggi yaproq”
   D) “Anna Karenina”
   E) “Noma’lum ayol maktubi”
2. A) “Motsart va Salyeri”
   B) “Urush va tinchlik”
   D) “Romeo va Julyetta”
   E) “Otello”
3. A) “Dorian Grey portreti”
   B) “Iliada” va “Odisseya”
   D) “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon”
   E) “Ilohiy komediya”

5 **Tinglang. O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Odamovilar xiyobonidagi 4-uy sohiblarining har kunlik nonushtasi davomida ko‘tariladigan janjal Harri ta’tilga qaytganidan buyon deyarli an’anaga aylanib qoldi. *Ko‘tariladigan.*

(Joan Roulingning “Harri Potter va falsafiy tosh” kitobidan)

6 **O‘qing.**

Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,
Qumlar bosib qurimasin daryolarim.
Alpomishga alla aytgan momolarim
Ruhini shod etay desang, xalq bo‘l, elim!

Dunyoga boq: qaddi sendek kim bor yana,
Dovrug‘i ham dardi sendek kim bor yana?!
Xalq bo‘lishga haddi sendek kim bor yana?!
Moziyni yod etay desang, xalq bo‘l, elim!

Sen tebratgan beshigini Sohibqiron,
Sening bolang yulduzlarga qo‘ygan narvon.
Bir mayizni qirqqa bo‘lgan bir tan-u jon
Kunlaringga qaytay desang, xalq bo‘l, elim!

Daryo bo‘lib jo‘shgin endi – zavqi ulug‘,
Bayramingda sevinch ko‘zyoshingga qulluq,
Yurtim degan jasur Yurtboshingga qulluq,
Unga qanot bo‘lay desang, xalq bo‘l, elim!

Bo‘lar elning bolalari bir-birin der,
Bo‘lmas elning bolalari bir-birin yer.
Bir bo‘l endi, qadri baland, qaddingni ker,
Xalq bo‘l, elim, xalq bo‘l, elim, xalq bo‘l, elim!

Muhammad Yusuf

108

5. Joan Roulingning “Harri Poter va falsafa toshi” asaridan olingan audiomatn ikki marta diqqat bilan tinglanadi.

Odamovilar xiyobonidagi 4-uy sohiblarining har kunlik nonushtasi davomida ko‘tariladigan janjal Harri ta’tilga qaytganidan buyon deyarli an’anaga aylanib qoldi. Bunday holatning asosiy sababi Harrining xonasidan baland eshitiladigan uvullashdan mister Vernon Dursl-ning hali tong otmay uyg‘onib ketishidir.

– Shu haftaning o‘zida uchinchi bor takrorlanishi! – o‘shqira boshladi stolning narigi tomonida o‘tirgan amaki, – agar boyqushingni eplay olmas ekansan, undan xalos bo‘lishga majbur bo‘lasan!

– Axir bechora qush zerikyapti! – dedi Harri, Vernon amakisiga yana bir bor tushuntirishga urinib, – Ko‘ngli istagan joyda uchib yurishga o‘rganib qolgan. Loaqal tunda qo‘yib yuborishga ijozat bersangiz...

– Men nima, fikringcha, ahmoqqa o‘xshaymanmi? – jahl bilan kulib qo‘ydi Vernon amaki, quyuq mo‘yloviga yopishib qolgan tuxum quymoqning parchasini silkitgancha, – O‘sha jirkanch boyqushning qo‘yib yuborilishi qanday oqibat bilan yakun topishini bilmaydi deb o‘ylaysanmi?

Er-xotin Dursllar bir-biriga g‘amgin qarab qo‘yishdi. Harri bahslashishga urindi-yu, biroq Dursllarning o‘g‘li Dudlining baland kekirishi uning dalillarini bosib yubordi.

– Yana bitta bekon yeyman, – dedi u, yeb turib ma’raydigan qo‘yga o‘xshab.

– Tovada turibdi-ku, olaqol, yoqimtoyginam, – dedi Petunya xola o‘g‘lining yirik tanasini muloyimlikdan xiralashib ketgan nigoh bilan navozish qilib. – Imkoni borligida yaxshilab semirib olishing kerak... Maktabingda beriladigan taomlar haqidagi gaplaring ko‘nglimga taskin bermadi...

– Bo‘lmagan gap, Petunya, – qat’iy e’tiroz bildirdi Vernon amaki, – “Smelting”da o‘qib yurgan kezlarimda hech qachon och qolmaganman. Dudli maktabda to‘yguncha ovqatlanadi, shundaymi o‘g‘lim?

Yog‘ bosgan dumbasi kursiga sig‘may, ikki tomonga osilib tushgan Dudli hiringlab qo‘yib, Harriga yuzlandi-da:

– Tovani uzatib yubor, – deb buyurdi.

– Sehrli so‘zni aytishni unutding, – achchiq bilan javob qaytardi Garri.

Bor-yo‘q “iltimos” so‘zi talab qilingan ushbu oddiy gapning oila a’zolariga ko‘rsatgan ta’siri ajoyib tomosha bo‘ldi: qo‘rqib ketgan Dudli tiqilib qolib, butun oshxonani zirillatgancha, o‘tirgan joyida ag‘anab tushdi; missis Dursl ingichka chiyillab, kaftini og‘ziga bosdi; o‘rnidan irg‘ib turgan mister Durslning esa chakkasidagi tomirlari bo‘rtib ketdi.

(Joan Roulingning “Harri Poter va falsafa tosh” kitobidan)

O‘quvchilar bu matndan sifatdoshlarni topib, daftarlariga yozadilar: *ko‘tariladigan, eshitiladigan, o‘tirgan, istagan, yopishib qolgan, ma’raydigan, xiralashib ketgan, beriladigan, bo‘lmagan, o‘qib yurgan, yog‘ bosgan, osilib tushgan, talab qilingan, ko‘rsatgan, qo‘rqib ketgan, o‘tirgan, irg‘ib turgan.*

6. Muhammad Yusufning “Xalq bo‘l, elim” she’ri audioda eshittiriladi va o‘quvchilar tomonidan ifodali o‘qitiladi. Mazmuni tahlil qilinadi.

Mustaqil topshiriq: she’rni yodlash.

BIZNING KINO

Maqsad: mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini faol nutqiy ko‘nikmalarda ifodalay olish, audio va boshqa matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta hikoya qila olish, ma’lumotlarni qayta ishlay olish va bayon eta olish savollarga to‘liq va asosli javob bera olish.

Refleksiya: adabiyot – so‘z san’ati ekanligi bo‘yicha o‘quvchilar o‘z mulohazalarini bayon etadilar, adabiy tur va janrlar yuzasidan suhbat o‘tkaziladi, Muhammad Yusufning “Xalq bo‘l, elim” she’rini yoddan ifodali aytib beradilar.

Vazifalar:

1. Rasmlarga qarab, ular asosida tuzilgan savollarga javob beriladi. Foydalanish uchun berilgan so‘z va so‘z birikmalarini qo‘llab, har bir lavha yuzasidan gaplar tuzdiriladi. *Ushbu lavhalar taniqli o‘zbek yozuvchisi Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni”*

asari (1976) bo‘yicha o‘zbek rejissori Mels Abzalov ishlagan “Kelinlar qo‘zg‘oloni” kinofilmi (1985)dan olingan. Filmda taniqli o‘zbek san’atkorlaridan Tursunxon Ja’farova, Klara Jalilova, Rixsi Ibrohimova, Nabi Rahimov, Obid Yunusov, Dias Rahmatov ishtirok etishgan.



Mustaqil topshiriq

She’rni yodlang.

MAVZU **Bizning kino**

1 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Ushbu lavhalar qaysi filmdan olingan?
2. Film kimning qaysi asari asosida suratga olingan?
3. Har bir lavha yuzasidan gaplar tuzing.

Foydalanish uchun so‘z va birikmalar: *tongda yuz-qo‘llarini yuvishyapti, kechki ovqatni tanovul qilishyapti, birgalikda taom tayyorlashyapti.*

-sh, -ish
Lola bilan Malika ingliz tili kurslarida *o‘qishdi.*
Kecha o‘rtoqlarim konsertga *borishgan.*

2 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Odamlar qadim zamonlardan beri nonni *e’zozlashadi.*

1. Odamlar qadim zamonlardan beri nonni (*e’zozlamoq*).
2. Kecha seni so‘rab do‘stlaring (*kelmoq*).
3. Hasharda barcha qo‘shnilar sidqidildan (*ishlamoq*).
4. Bolalar otasini ko‘rib, uning oldiga (*yugurmoq*).
5. Qadimgi Yunonistonda Misr papiruslaridan (*foydalanmoq*).
6. Bugun Samarqandga juda ko‘p sayyohlar (*kelmoq*).

109

Diqqat qiling. Grammatik jadvalda ko‘rsatilgan fe’lning birgalik nisbati qatnashgan gaplar o‘quvchilarga tushuntiriladi. Bunda unli bilan tugaydigan fe’l asoslariga birgalik nisbatining ***-ish*** varianti, undosh bilan tugaydigan fe’l asoslariga ***-sh*** variant qo‘shilishiga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi.

2. Qavs ichidagi fe’llar birgalik nisbati shakliga aylantirilib, gaplar daftarga yozdiriladi.

3. Rasm o‘rganiladi. O‘quvchilar foydalanish uchun berilgan so‘z va birikmalarni qo‘llab, rasmda qanday holat aks etganini, qanday odamlar, qanday jarayon tasvirlanganini so‘zlaydilar: *bu rasmda katta va ahil oila tasvirlangan. Ular bir dasturxon atrofida to‘planishgan. Hammasi birga ovqatlanishyapti. Ora-chora suhbat qurishyapti.* Gaplarda qo‘llangan birgalik nisbatiga o‘quvchilar diqqati qaratiladi.Shu o‘rinda rasmda tasvirlangan oila tarixi ham aytib o‘tilishi joiz: *bu fotorasmda II Jahon urushi boshlanganda Toshkentga evakuatsiya qilingan turli millat vakillarining farzandlaridan o‘n besh nafarini asrab, o‘z qaramog‘iga olgan toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning rafiqasi Bahri Akromova shu farzandlar qurshovida tasvirlangan. Urushdan so‘ng Shoahmad aka va uning rafiqasi yana to‘rt bolani asrab olishgan.*

4. Gaplardagi fe’llar birgalik nisbati shakllariga aylantirilib, daftarga yozdiriladi. Bunda gapdagi ish-harakat bajaruvchi shaxsni ham ko‘plikda qo‘llash kerakligi ta’kidlanadi. Masalan: ***mehmon*** *birpas iymanib turdi-da, to‘rga chiqdi* ***– mehmonlar*** *birpas iymanib turishdi-da, to‘rga chiqishdi.* ***Akromjon*** *oila a’zolari bilan oromgohga ketar ekan –* ***Akromjon va uning oila a’zolari*** *oromgohga ketishar ekan. Bugun* ***dugonam*** *kutubxonaga borar ekan – bugun* ***dugonalarim*** *kutubxonaga borishar ekan.*

5. Ko‘k doira ichida berilgan fe’l shakllari birgalik nisbatida qo‘llanib, gaplar tuzdiriladi va yozdiriladi. Masalan: o‘qimoq - dugonalarim mashhur kitoblarni o‘qishyapti. Qiziqmoq – sinfimizdagi o‘quvchilarning aksariyati sportga qiziqishadi.

6. “Mehmondo‘stlik” audiomatni ikki marta tinglanadi.



3 **O‘ylang va toping. Gapiring.**

Foydalanish uchun so‘z va birikmalar: *katta va ahil oila, bir dasturxon atrofida, birga ovqatlanishyapti, suhbat qurishyapti...*

4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Mehmonlar birpas iymanib *turishdi-da*, to‘rga *chiqishdi.*

1. Mehmon birpas iymanib turdi-da, to‘rga chiqdi.
2. Akromjon oila a’zolari bilan oromgohga ketar ekan.
3. Bugun dugonam kutubxonaga borar ekan.
4. Asar qahramonlari xayolimda jonlandi.
5. Buvasiga qo‘shilib nevarasi ham tomorqada ishladi.
6. Qariya sabr bilan o‘z navbatini kutib o‘tirardi.

5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘z va birikmalar: ~~*o‘qimoq*~~, *qiziqmoq, shoshilmoq, o‘rganmoq, tahlil qilmoq, do‘stlashmoq.*

Namuna. Dugonalarim mashhur kitoblarni *o‘qishyapti.*

6 **Tinglang. O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘z va birikmalar: *noyob, toza,* ~~*taomlar*~~*, hurmat, uy, hikmat, sovg‘a, urf-odat.*

*Namuna. taomlar – **ne’matlar.***

Mustaqil topshiriq

“Men yoqtirgan asar” mavzusida matn tuzing.

110

Mehmondo‘stlik

O‘zbek xalqi azaldan mehmondo‘stligi bilan tanilgan. Mehmonni xursandchilik bilan kutib olmaydigan, uyidagi bor **ne’matlar**ni dasturxonga keltirmaydigan o‘zbek **xonadon**i yo‘q bo‘lsa kerak. Shuning uchun o‘zbek xalqida “Mehmon otangdan ulug‘”, “Mehmon kelar eshikdan, rizqi kirar teshikdan”, “Mehmon oldida hatto mushugingni “pisht” dema” kabi **maqollar** avloddan avlodga o‘tib kelgan.

Odatda mehmon **sharaf**iga qo‘y so‘yishgan, dasturxon tuzashgan. Bunday munosabat shu oila, hatto qishloq, millat obro‘si hisoblangan. Mehmonni chiroyli, orasta kiyimda, **ozoda** xonadonda, xushmuomalalik, ochiq yuz bilan kutib olishgan. Mezbon o‘zi yemasa ham, mehmon uchun bor imkoniyatini ishga solib, **tansiq** taomlar tayyorlashga harakat qilgan.

O‘zbekistonning ba’zi viloyatlarida ajoyib bir **udum** ham bo‘lgan. Aziz mehmon xonadon egasining qaysi bir narsasini yoqtirsa, shu narsani unga **hadya** qilib berishgan. Mehmonga nisbatan “Xush kelibsiz”, “Qadamingizga hasanot” kabi iliq so‘zlar bilan murojaat qilishgan.

Foydalanish uchun berilgan so‘zlarga audiomatndan sinonimlar topiladi va hosil bo‘lgan sinonim juftlik daftarga yozdiriladi. Masalan: *taomlar (to‘rtburchak) - ne’matlar (audio), uy – xonadon, hikmatlar – maqollar, sharaf – hurmat, toza – ozoda, noyob – tansiq, urf-odat – udum, sovg‘a – hadya.*

Mustaqil topshiriq. “Men yoqtirgan asar” mavzusida matn tuzish.

TEATR SAN’ATI

Maqsad: mavzu bo‘yicha fikrlarini og‘zaki va yozma nutqda ifodalay olish, savollarga o‘rinli va asosli javob bera olish, audiomatn va boshqa matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta hikoya qilish.

Refleksiya: birgalik nisbatini hosil qiladigan shakllarning qo‘llanish o‘rinlari o‘quvchilar tomonidan misollar bilan tushuntirib beriladi. O‘zbek kinosi haqida fikr yuritiladi. “Men yoqtirgan film” mavzusi yoritiladi. “Men yoqtirgan asar” mavzusidagi matn tekshiriladi.

Vazifalar:

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy haqidagi audiomatn ikki marta eshittiriladi. Mazmuni qayta hikoya qildiriladi:

Dramaturgiya adabiy turlardan biridir. Unga sahna uchun yozilgan asarlar kiradi. Nasriy yoki she’riy asar mualliflari o‘z asarlarining odamlar tomonidan o‘qilishini kutsalar, dramaturglar o‘z asarlarini odamlar sahnada ko‘rishlarini maqsad qilishadi.

Dramatik turga komediya, tragediya, drama, pyesa, vodevil, miniatyura kabi janrlar kiradi.



MAVZU **Teatr san’ati**

1 **Tinglang.**

2 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Dramaturgiya nima?
2. Dramatik asarlarning epik va lirik asarlardan farqi nimada?
3. Dramaturgiyaga oid janrlar qaysilar?
4. Birinchi o‘zbek dramaturgi kim?
5. Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida yana qanday ma’lumotlarni bilasiz?
6. Yana qaysi o‘zbek dramaturglarini bilasiz?

3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Bolalar ochiq havoda birgalikda maydonchada o‘ynashadi.

1. o‘ynashadi / birgalikda / bolalar / ochiq havoda / maydonchada.
2. dars / qoldirishyapti / bolalar / bu / so‘nggi / paytlarda.
3. mehrga / zor / bo‘lishadi / odamlar / doimo.
4. tinmay / hatto / chug‘urlashadi / qushlar / ham / sezib / kelishini / bahor.
5. o‘yinchilari / jamoa / ikkala / turishdi / qarama-qarshi / bir-biriga.
6. yashaydigan / ro‘paramizda / qayergadir / qo‘shnilar / ketishdi / sayohatga.

4 **O‘ylang va toping. Gapiring.**

Guruhlarga vazifa: rasmlarda tasvirlangan dramatik asar haqida ma’lumot bering.

Tartib:

1) asarning muallifi;
2) asarning nomi;
3) qahramonlar;
4) asarning maqsadi yoki tarbiyaviy ahamiyati.

111

Birinchi o‘zbek dramaturgi ma’rifatparvar ijodkor Mahmudxo‘ja Behbudiy bo‘lgan. Behbudiyning “Padarkush” dramasi 1913-yilda sahna yuzini ko‘rgan. Bu asar Samarqandning katta “Narodniy dom” rus teatrida namoyish etilgan.

“Padarkush” dramasi fojia (tragediya) janrida yozilgan. Asarda bilimsizlik, johillik oqibatida ro‘y bergan ayanchli voqealar tasvirlangan.

2. Audiomatndan foydalanib, savollarga javob beriladi. O‘zbek dramaturglaridan Odil Yoqubov, Said Ahmad, Sharof Boshbekov haqida ma’lumot berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Qatorlardagi aralash berilgan so‘zlar o‘z o‘rniga qo‘yilib, hosil

bo‘lgan gaplar daftarlarga ko‘chirtiriladi.

4. Uch guruh tashkil qilinadi. Har bir guruh o‘z vazifasini namunada berilgan tartibga ko‘ra bajaradi. 1-guruh vazifasi:

1. O'Henri

2. ”So‘nggi yaproq”

3. Rassom qizlar: Syu va Jonsi, ularning qo‘shnisi qariya Berman

4. Asar g‘oyasi: inson doimo umid bilan yashashi kerak, bir-biridan samimiy yordamni ayamasligi lozim. Har qanday vaziyatda ham o‘z insoniyligini yo‘qotmasligi zarur.

2-guruh vazifasi:

1. Said Ahmad

2. ”Kelinlar qo‘zg‘oloni”

3. Farmonbibi, uning o‘g‘illari va kelinlari

4. Oilaviy bahamjihatlik va ahillik turli sharoitda ham yo‘qolmasligi kerak, har qanday muammolarni oila a’zolari birdamlik bilan bartaraf etishlari lozim.

3-guruh vazifasi:

1. Vilyam Shekspir

2. ”Hamlet”

3. Hamlet, Ofeliya, Klavdiy, Poloniy, Laert

4. Hayotda har birimizga boylik yoki muhtojlik va shu kabi sinovlar beriladi, ulardan o‘tish jarayonida o‘z insoniyligimizni yo‘qotmasligimiz kerak.



Namuna. ***Nikolay Vasilyevich Gogolning “Revizor” komediyasi.***
1) N. V. Gogol;
2) “Revizor”;
3) Xlestakov; aslida bosh qahramon kulgi sanaladi;
4) amaldorlarning xatti-harakati orqali tuzum kamchiliklarini tanqid qilish.

1-guruh

2-guruh

3-guruh

5 **O‘qing. Tinglang.**

Namuna. Kishilar qadim zamonlardan buyon nonni e'zozlab, uni oltinga, quyoshga, hayotga qiyoslab *kelishgan.*

Kishilar qadim zamonlardan buyon nonni e'zozlab, uni oltinga, quyoshga, hayotga qiyoslab (*kelmoq*). Nonni (*tejamoq*), uning sharafiga madhiyalar (*aytmoq*). Odamlar mehmon kelganda eng avval dasturxonga non (*qo‘ymoq*). Nonni (*qadrlamoq*), uni uvol qilmaslikni bolalarga (*o‘rgatmoq*).

112

5. Matn o‘qitiladi. Mazmuni qayta hikoya qilinadi.

Qavs ichida berilgan so‘zlar birgalik nisbati shakliga aylantirilib, yozdiriladi.

6. Gaplardagi bo‘sh o‘rinlarga javoblardan to‘g‘ri keladigani qo‘yilib, gaplar yozdiriladi. *Masalan:* ***romanda*** *voqelik hikoya qilinadi.* ***She’rda*** *voqea ta’sirida hosil bo‘lgan his-tuyg‘ular ifodalanadi.* ***Pyesa*** *sahna uchun yoziladi.*

Mustaqil topshiriq. O‘zbekistondagi teatrlardan biri haqida matn tuzish.

NABIRAMGA XAT

Maqsad: mavzu yuzasidan fikrlarni og‘zaki va yozma hutqda ifodalay olish, matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta hikoya qila olish, savollarga asosli va to‘liq javob bera olish.

Refleksiya: teatr san’ati, o‘zbek va jahon dramaturglari, dramatik asarlar haqida suhbat yuritiladi. Mustaqil topshiriq – o‘zbek teatrlaridan biri haqida yozilgan matnlar tahlil qilinadi.

Vazifalar:

1. “Nabiramga xat” audiomatni ikki marta tinglanadi. Matn mazmuni qayta hikoya qildiriladi.

Nabiramga xat

“Men sen bilan universitetlarda ta’lim olayotgan tengdoshlaring va sizlardan oldingi avlod duchor bo‘lgan xastalik haqida gaplashmoqchiman. Men xotirani yo‘qotish kasalligini nazarda tutyapman. Agar sen buyuk Karl kimligi yoki Kuala-Lumpur qayerdaligini bilmoqchi bo‘lsang, bir zumda hammasini internetdan topishing mumkin. Buni faqat zarur bo‘lganda qilgin, lekin ma’lumotni olgach, uning mazmunini eslab qoishga harakat qil. Toki yana kerak bo‘lib qolganda uni ikkinchi marta qidirib yurmagin. Shunisi yomonki, kompyuter istalgan paytda sening savolingga javob berishiga bo‘lgan ishonch axborotni eslab qolish istagini yo‘qotadi. Buni hayotdan olingan quyidagi misolga qiyoslash mumkin: bir ko‘chadan boshqa ko‘chaga shoshilinch damda avtobus yoki metroda yetib borish mumkinligini bilgach, odam piyoda yurishga boshqa ehtiyoj yo‘q, degan xulosaga keladi. Biroq sen



Qadimda kishilar donni xom holida iste'mol (*qilmoq*). Keyin uni ikki tosh orasida ezib, yanchish va suv bilan aralashtirishni (*o'rganmoq*). Olov kashf qilinishi bilan esa don bo'tqasidan non yopadigan (*bo'lmoq*). Oradan ko'p ming yillar o'tib, Qadimgi Misrda oshirilgan xamirdan foydalanish odat bo'ldi.

6 **O‘ylang va toping. Yozing.**

1. _____ da voqelik hikoya qilinadi.
   A) Komediya
   B) Roman
   D) Doston
2. _____ da voqea ta'sirida hosil bo'lgan his-tuyg'ular ifodalanadi.
   A) Tragediya
   B) Qissa
   D) She'r
3. _____ sahna uchun yoziladi.
   A) Pyesa
   B) Hikoya
   D) Ruboiy

Mustaqil topshiriq

O'zbekistondagi teatrlardan biri haqida matn tuzing.

MAVZU **Nabiramga xat**

1 **Tinglang.**

(Taniqli italyan adibi Umberto Ekoning nabirasiga yo'llagan maktubidan parcha.)

2 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Matn nima haqida?
2. Matnda erinchoqlikka qanday misol keltirilgan?
3. Miya oyoq bilan qanday taqqoslanadi?
4. Xotirani yo'qotish qanday kasallikka olib keladi?
5. Qanday qilib xotirani 90 yoshgacha saqlab qolish mumkin?

3 **O‘ylang va toping. Gapiring.**

1. Rasmlardagi lavhalar qanday asarlardan olingan?
2. Asarning janrini toping.
3. Muallifning boshqa asarlari nomlarini ayting.

113

yurmay qo‘ysang, nogironlar aravachasida harakatlanishga majbur odamga aylanib qolasan.

Albatta, men sport bilan shug‘ullanishingni va tanangni boshqara olishingni bilaman. Biroq gap miya haqida ketyapti. Xotira oyoq mushaklari kabidir. Agarda uni mashq qildirmasang, u shalvirab qoladi va sen ovsar bo‘lib qolasan. Undan tashqari, biz hammamiz qariganda Alsgeymer kasalligiga duchor bo‘lishimiz mumkin, bu ko‘ngilsizlikdan qutulish yo‘llaridan biri esa xotiramizni mudom mashq qildirishdir.

Mening maslahatim bunday: har tong biror qisqa she’rni yodla, xuddi bolalikda bizga o‘rgatganlaridek. Do‘stlaring bilan eng zo‘r xotira borasida musobaqa uyushtir. Agar senga she’riyat yoqmasa, futbol jamoalarining tarkibini eslab qolishing mumkin. Biroq sen faqatgina Rim klubi jamoalarini emas, balki boshqa jamoa o‘yinchilarini, shuningdek, ularning avvalgi tarkibini ham bilishng kerak.



Bu o‘yinga o‘xshaydi, ha, bu – o‘yinning o‘zi, lekin sen miyang personajlar, voqealar va turli xotiralar bilan to‘lishini sezasan. Miya bu– boshingdagi kompyuter. Uning imkoniyatlari mashqlar bajarish davomida kengayib boradi. Stolingdagi kompyuter uzoq foydalanish oqibatida tezligini yo‘qotadi va tezda almashtirishni talab qiladi. Miyang esa senga 90 yoshgacha xizmat qilishi mumkin. Agarda sen miyangni mashq qildirib tursang, 90 yoshingda hozirgidan ko‘ra ko‘proq narsani eslaydigan bo‘lasan.

Bir kun kelib, qariysan, biroq o‘zingni minglab hayotlarni kechirgan kabi his qilasan, go‘yo sen Vaterloo jangida ishtirok etgansan, Yuliy Sezarning qatliga guvoh bo‘lgansan, tasodifan poroxni kashf qilib, havoga uchgansan. Xotirasini boyitishga intilmaydigan boshqa do‘stlaring esa faqatgina bitta, zerikarli va yorqin hislarsiz umrni kechiradilar.

Xulosa shuki, xotirangni boyit va ertagayoq she’r yodla!”

(Taniqli italyan adibi Umberto Ekoning nabirasiga yo‘llagan maktubidan parcha.)

2. Matn yuzasidan keltirilgan savollarga to‘liq javob beriladi.

3. Rasmlardagi lavhalarga asoslanib, savol va topshiriqlar ustida ish olib boriladi.

1-rasm bo‘yicha vazifa: rus yozuvchisi Mixail Bulgakovning “Usta va Margarita” asari-

dan lavha. Bu asar roman janriga mansub. Mixail Bulgakovning asarlari juda qiziqarli, ulardan "Ityurak", "Oq gvardiya" kabilar mashhur. 2-rasm bo'yicha vazifa: amerikalik yozuvchi Mayn Ridning "Boshsiz chavandoz" asaridan lavha. Bu asar ham roman janriga mansub. Mayn Ridning boshqa asarlari: "Otseola", "Oq sardor". 3-rasm bo'yicha vazifa: o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asaridan olingan lavha. "O'tkan kunlar" ham roman. Abdulla Qodiriyning boshqa asarlari: "Mehrobdan chayon", "Obid ketmon".



5 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Qanday romanlarni o'qigansiz?
2. Sizga qaysi muallifning romani yoqadi? Nima uchun?
3. Roman qahramonlarini qanday ta'riflaysiz?
4. Bu romandan nimani o'rgandingiz?

6 **O'ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so'z va birikmalar: ~~*chizayotgan*~~ *qiz, ekilgan ko'chat, quriladigan bino, qolgan ishlar, tuzilgan reja, namoyish etilgan premyera.*

Namuna. Quti ustiga naqsh *chizayotgan qiz* iqtidorli ekan.

7 **O'ylang va toping. Yozing.**

1-guruh o'quvchisi zinapoyaning birinchi qatoriga so'z yozadi. 2-guruh o'quvchisi zinapoyaning ikkinchi qatoriga shu so'zdan so'z birikmasi hosil qilib yozadi. 3-guruh o'quvchisi shu birikmadan gap hosil qiladi. Sifatdoshlarning bo'lishli va bo'lishsiz shakllaridan foydalaning.

Namuna. *O'quvchi*
Tinglamayotgan o'quvchi
Tinglamayotgan o'quvchi mavzuni tushunmadi.

Guruhlar uchun so'zlar:
1) qush, kitob;
2) musiqa, nay;
3) shahar, bino.

Mustaqil topshiriq

O'zbek adabiyotidan badiiy asar topib, undan o'zingizga yoqqan dialogni tanlang. Sinfdoshingiz bilan uni ifodali o'qib berishga, dialog mazmunini tushuntirishga tayyorlaning.

115

4. Matn o'qitilib, mazmuni qayta hikoya qildiriladi.

5. Matnga tayanib, savollarga javob beriladi.

6. Foydalanish uchun berilgan birikmalar yordamida gaplar tuzdirilib, daftarga yozdiriladi. Masalan: *chizayotgan qiz – Quti ustiga naqsh chizayotgan qiz iqtidorli ekan. Ekilgan ko'chat – O'tgan yil ekilgan ko'chatlar bu yil hosilga kirdi. Quriladigan bino – Ushbu loyiha bo'yicha quriladigan bino xayriya sifatida yo'qsil oilalarga sovg'a qilinar ekan. Qolgan ishlar – Ertaga sen bilan qolgan ishlarni hal etamiz. Tuzilgan reja – Insho uchun tuzilgan reja o'qituvchiga ma'qul bo'ldi. Namoyish etilgan premyera – Kecha namoyish etilgan premyera ko'p shov-shuvga sabab bo'ldi.*

7. O'quvchilar uch guruhga bo'linib, zinapoya usulida vazifa bajaradi.

Namuna:

1. O'quvchi
2. Tinglamayotgan o'quvchi
3. Tinglamayotgan o'quvchi mavzuni tushunmadi.

1-guruh uchun so'zlar: **qush, kitob**.

1. Qush.
2. Sayrayotgan qush.
3. Bunday go'zal sayrayotgan qush bulbulmikan?

1. Kitob.
2. Sotilmayotgan kitob.
3. Kitob do‘konida anchadan beri sotilmayotgan kitobga ko‘zim tushdi.
2-guruh uchun so‘zlar: **musiqa, nay**.
1. Musiqa.
2. Eshitilayotgan musiqa.
3. Uzoqdan eshitilayotgan musiqa diqqatimni tortdi.
1. Nay.
2. Chalinmayotgan nay.
3. Sozanda ko‘pdan beri chalinmayotgan nayni qo‘liga oldi.
3-guruh uchun so‘zlar: **shahar, bino.**
1. Shahar.
2. Yangilanayotgan shahar.
3. Ko‘rkam binolar yangilanayotgan shahar chiroyiga chiroy qo‘shmoqda.
1. Bino.
2. Ta’mirlanmayotgan bino.
3. O‘n yildan buyon ta’mirlanmayotgan binoni qayta qurish rejalashtirildi.

Mustaqil topshiriq. O‘zbek adabiyotidan badiiy asar topib, undan o‘ziga yoqqan dialogni tanlash. Sinfdoshlar bilan uni ifodali o‘qib berishga, mazmunini tushuntirishga tayyorlanish.

TOPIB GAPIR!

O‘ZBEKCHA O‘ZGACHA

Maqsad: mavzu asosida o‘z fikrlarini bayon eta olish, matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta tiklash, iboralarni farqlay olish, faol nutq ko‘nikmalarida qo‘llay olish.

Refleksiya: o‘quvchilar bilan bo‘sh vaqtdan unumli foydalanish, xotirani mustahkamlovchi mashg‘ulotlar to‘g‘risida suhbat olib boriladi. Mustaqil topshiriq tekshiriladi.

Vazifalar:

1. Rasmlarga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi. Ularda tasvirlangan holat, harakatni ifodalab berishlari so‘raladi. Shundan so‘ng berilgan iboralardan har bir rasmga mos

keladigani topilib, izohlanadi. Bulardan kelib chiqqan holda iboralarga xos xususiyatlar aytiladi.

2. Chap ustunda keltirilgan iboralarning izohi o‘ng ustundan topilib, juftlik hosil qilinadi va daftarga yozdiriladi: *boshi yostiqqa tegdi – kasal bo‘lib qoldi. Boshiga baxt qushi qo‘ndi – omadi keldi. Qovog‘idan qor yog‘yapti – norozi bo‘lib, xafa bo‘lyapti. Arpangni xom o‘rdimmi? - senga nima yomonlik qildim? Beshigini tebratgan – ardoqlab, voyaga yetkazgan. Qomatini rostlab oldi – omadi keldi. Do‘ppisini osmonga otdi – qattiq xursand bo‘lib ketdi. Go‘shtingni nimta-nimta qilaman – sendan qattiq jahlim chiqdi. Jo‘jani kuzda sanaydilar – ishning natijasini vaqt ko‘rsatadi. Oyog‘ini qo‘lga olib yugurdi – shoshib, tez yugurdi.*

Diqqat qiling. Ibora haqidagi nazariy ma’lumotga e’tibor qaratiladi. Eslatma: iboralar yaxlit holda qo‘llanadigan ko‘chma ma’nodagi so‘z birikmalari yoki gaplardir. So‘z birikmalari sifatida iboralar *turg‘un birikmalar* deb ataladi, chunki ular tarkibini o‘zgartirish mumkin emas. Oddiy birikmalar esa ulardan farqli ravishda *erkin birikmalar* deb ataladi. Masalan: **ichi qora – baxil**. *Ichi qora odamlar boshqalar quvonchiga hasad qilishadi.* Bu gapdagi **ichi qora** birikmasining tarkibini o‘zgartirib bo‘lmaydi va u butunicha “baxil” ma’nosini beradi. *Bu noyob gulning gardishi qizil rangli bo‘lib, ichi*

Topib gapir!

MAVZU **O‘zbekcha o‘zgacha**

1 **O‘ylang va toping. Gapiring.**

Boshi yostiqqa tegmoq;
do‘ppisini osmonga otmoq;
jo‘jani kuzda sanamoq;
qovog‘idan qor yog‘moq;
boshiga baxt qushi qo‘nmoq;
arpasini xom o‘rmoq;
beshigini tebratmoq;
qomatini rostlab olmoq;
go‘shtini nimta-nimta qilmoq;
oyog‘ini qo‘liga olib yugurmoq;



116

2 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Boshi yostiqqa tegdi – kasal bo‘lib qoldi.

Boshi yostiqqa tegdi.	Ishning natijasini vaqt ko‘rsatadi.
Boshiga baxt qushi qo‘ndi.	Senga nima yomonlik qildim?
Qovog‘idan qor yog‘yapti.	Hayotini yaxshilab oldi.
Arpangni xom o‘rdimmi?	Qattiq xursand bo‘lib ketdi.
Beshigini tebratgan.	Sendan qattiq jahlim chiqdi.
Qomatini rostlab oldi.	Kasal bo‘lib qoldi.
Do‘ppisini osmonga otdi.	Shoshib, tez yugurdi.
Go‘shtingni nimta-nimta qilaman.	Norozi bo‘lyapti, xafa bo‘lyapti.
Jo‘jani kuzda sanaydilar.	Ardoqlab voyaga yetkazgan.
Oyog‘ini qo‘liga olib yugurdi.	Omadi keldi.

3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

1. Qalbi qaynoq
2. Ichi qora
3. Devordagi quloq
4. Yotib yemoq
5. Yog‘i yo‘q (joy)
6. Og‘iz juftlamoq

A) biror joyda ishlamay, bor pulini sarflab yashamoq
B) hosil bermaydigan yer
D) serg‘ayrat, quvnoq, harakatchan
E) gapirishga tayyorlanmoq
F) boshqalarning suhbatini eshitib turadigan odam
G) boshqalarga yaxshilikni ravo ko‘rmaydigan kishi

4 **O‘qing va tinglang.**

Bu daryoning nomi Kalas deb atalar ekan. Hozir chiqqan o‘rnimiz daryoga nisbatan Quri Kalas qishlog‘i deb nomlangan ekan. Borarga makonim, tanish-bilishim yo‘q edi. Uzumchi g‘ayribuddiyor ekanimni fahmlab, ba’zi maslahatlarni berdi. Bu qishloqda Sariboy bo‘lis degan katta yer egasi bor ekan. Uning ming tanoblab hisoblangan olmazoriga **epchil qo‘lli xizmatkor** doim zarur bo‘lib turar ekan. Ayniqsa, hozir olmalar pishgan vaqt bo‘lgani uchun menga o‘xshash **osh-tomog‘iga yuradigan arzonqo‘l kishilarni eshigidan quvlamas ekan.** Bu kecha uning xizmatkorlari yotadigan qo‘shxonada **yotishga qaror berdim.** Uzumchi menga yo‘lboshlovchi bo‘lib ko‘rsatib qo‘ydi. Boyning qari-qartang aralash yigirma choq xizmatkorlari kechki **juvari go‘ja ustida edilar.**

– Assalomu alaykum, – deb kirib bordim. Juda mehribonlik bilan o‘z **o‘rtalariga qabul qildilar.**

Arz-dodimni ularga aytdim. Ulardan bitta keksarog‘i:

– Asil umring Sariboyda bekorga o‘tib ketadi, uka, yosh ekansan. Bironta boshqa kasbning payidan bo‘lganingda yaxshi bo‘lar edi. Ha, mayli, **sal o‘zingni tutib olguningcha** o‘n-o‘n besh kun ishlab tur. Keyin **yo‘lingni topib olarsan**... – degan dudmal maslahat berdi.

Bitta bo‘sh sopol tovoqqa bir cho‘mich go‘ja quyib berdilar. Ikki burda jaydari non bilan shu oshni maza qilib ichib oldim. Yotishda ham shular o‘rtasida qoldim. Yaxshi olmalarni joylab, uzoq shaharlarga yuboradigan yashiklardan ikkitasini yonma-yon karavot qildim. Boshimga olma o‘raydigan yog‘och qirindisidan yostiq qilib rohat-rohat uyquga ketdim. Bu uyqu eshon xonaqohiga qaraganda juda

117

esa qora ekan. Bu gapdagi **ichi qora** birikmasini o‘zgartirish mumkin, masalan, “ichi yashil ekan” deb. Demak, birinchi gapdagi birlik turg‘un birikma deyiladi va u iboradir, ikkinchi gapdagi birlik esa erkin birikma deyiladi va u oddiy so‘z birikmasidir. Misollar yordamida iboraning so‘z birikmalaridan, oddiy gapdan farqlari ko‘rsatiladi: *qo‘li ochiq odam (turg‘un birikma) – qo‘li ochiq qolibdi (erkin birikma); buni ko‘rib, kapalagi uchib ketdi (turg‘un birikma) – to‘plam (kolleksiya) uchun yig‘ayotgan kapalaklaridan biri uchib ketdi (erkin birikma).* Iboralar nutq bezagi ekanligini, ular nutqni ta’sirchan qilishi aytilishi kerak.

3. Chap ustunda ko‘rsatilgan iboralarga o‘ng ustundan mazmunan to‘g‘ri keladigan izoh topilib, ular birga daftarga yozdiriladi.

4. Matn o‘qitiladi va mazmuni qayta so‘zlanadi. Munosabat bildiriladi.

5. Matndan ajratib ko‘rsatilgan iboralar va ularning izohi daftarlarga yozdiriladi. Masalan*: epchil qo‘lli xizmatkor – chaqqon xizmatchi. Osh-tomog‘iga yuradigan odam – qornini to‘ydirish uchun xizmat qiladigan ishchi. Arzonqo‘l kishi – kichik haqqa ham qanoat qiladigan xizmatchi. Eshigidan quvlamoq – haydab yubormoq. Boshiga ish tushmoq – qandaydir muammosi bor. Ona sutidek halol – sof, haqiqiy, ishonchli. Savdosi pishmoq – maqsadiga yetmoq.*

6. Audiomatn ikki marta eshittiriladi:

1. Adabini berdi – qilmishiga yarasha jazoladi.
2. Avzoyi buzilmoq – vajohati yomonlashmoq, achchiqlanmoq.
3. Dumini tugmoq – qaytmas qilib haydamoq.
4. Aravani quruq olib qochmoq – uddalay olmagan narsasiga ortiqcha maqtanish.
5. Bag‘ri qon – g‘am-a’lamli, g‘am-a’lamda.
6. Bahri dili ochildi – kayfiyati yaxshilandi.
7. Bosh og‘rig‘i – ortiqcha tashvish, dahmaza.
8. Boshi osmonga yetmoq – xursand bo‘lmoq.
9. Og‘zi qulog‘ida – nihoyatda xursand.
10. Bir boshini ikki qildi – oila qurmoq.



shohona edi. Hech bo'lmasa, bu yerda, tong azonda avrodchi so'filarning qichqirib g'o'ldiraydigan har xil duolari kishini uyqudan bezovta qilmas edi.

Erta bilan bo'lisning oldiga bordim. Bir qancha silkillashishlardan keyin boy menga xizmat haqi uchun oyiga xom-pishiq aralash, **ona sutidan halol** ikki pud o'n yetti qadoqdan olma beradigan bo'ldi. Shu paytda boyning avzoyini ko'rib, mening ham haromzoda tomirim urib qoldi. "Mendan nima ketdi, bir shart qo'yib qo'yay, bir kun **boshimga** biror **ish tushib qolsa**, shu bahona qutulib ketarman", degan xayol bilan:

– Boy buva, – dedim, – endi-ku, **savdomiz pishdi**. Shariat yuzasidan mol sotganda hamma aybini aytib sotsa, halol bo'lar ekan. Mening ham bir aybim bor, shuni boshdan aytib qo'yganim yaxshi".

5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

1. Epchil qo'lli xizmatkor – _____.
2. Osh-tomog'iga yuradigan odam – _____.
3. Arzonqo'l kishi – _____.
4. Eshigidan quvlamoq – _____.
5. Boshiga ish tushmoq – _____.
6. Ona sutidek halol – _____.
7. Savdosi pishmoq – _____.

6 **Tinglang va toping. Yozing.**

Namuna. Adabini bermoq – qilmishiga yarasha jazolamoq.

1. Adabini bermoq.	achchiqlanmoq
2. Avzoyi buzilmoq.	xursand bo'lmoq
3. Aravani quruq olib qochmoq.	kayfiyati yaxshilanmoq
4. Dumini tugmoq.	ortiqcha tashvish, daxmaza
5. Bahridili ochilmoq.	nihoyatda xursand
6. Bag'ri qon.	qaytmas qilib haydamoq
7. Bosh og'rig'i.	oila qurmoq
8. Boshi osmonga yetmoq.	qilmishiga yarasha jazolamoq
9. Og'zi qulog'ida.	uddalay olmagan narsasiga ortiqcha maqtanish
10. Bir boshini ikki qilmoq.	g'am-alamli, g'am-alamda

Mustaqil topshiriq

Quyidagi iboralar yordamida sinfdoshlaringizning xususiyatlarini ta'riflab yozing.

Qo'li gul; oyoq-qo'li chaqqon; gapga chechan; yerga ursa, ko'kka sapchiydi; bo'zchining mokisidek; tegirmonga tushsa, butun chiqadi.

118

Iboralarning izohi o‘ng tomondagi namunalardan tanlanib, daftarga hosil bo‘lgan ibora juftliklari yozdiriladi.

Mustaqil topshiriq. Berilgan iboralar yordamida sinfdoshlar xususiyatlarini ta’riflash (qo‘li gul – yaxshi hunari bor; oyoq-qo‘li chaqqon – mehnatkash, harakatchan. Gapga chechan – boy nutqli; yerga ursa, ko‘kka sapchiydi – sho‘x; bo‘zchining mokisi - tinmay harakat qiladigan; Tegirmonga tushsa, butun chiqadi – turli vaziyatdan yo‘l topib chiqadigan.

QIZIQARLI LUG‘ATLAR

Maqsad: mavzuga xos ma’lumotlar haqida o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma tarzda bayon eta olish, matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta hikoya qila olish, savollarga to‘liq va asosli javob bera olish.

Refleksiya: o‘zbek tilining o‘ziga xosliklari, o‘zbek iboralari haqida o‘quvchilar bilan suhbat olib boriladi. Mustaqil topshiriq tekshiriladi.

Vazifalar:

1. Lug‘atlar yuzasidan berilgan savollarga javoblar topiladi. Lug‘at turlari haqida suhbat o‘tkaziladi: tarjima lug‘at, izohli lug‘at, imlo lug‘ati, iboralar lug‘ati, uyali(arab tilida o‘zakka asoslangan) lug‘at, ters (chappa) lug‘at va hokazo.

2. Matn o‘qitiladi, mazmuni so‘zlanadi.

3. So‘zlar bilan amalga oshirilgan jarayondan kelib chiqib, bu qaysi lug‘atga xos ekanligi aniqlanadi va qavs ichiga lug‘at nomi yozdirilib, daftarga ko‘chirtiriladi: *анализировать– tahlil qilmoq (tarjima lug‘at). Chuqur – yuzaki (antonimlar lug‘ati). Avvalgi – oldingi, ilgarigi, burungi, qadimgi, sobiq (sinonimlar*



MAVZU **Qiziqarli lug‘atlar**

1 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Siz qanday lug‘atlarni bilasiz?
2. So‘zlarning ma’nosini tushuntiradigan lug‘at qanday lug‘at deb ataladi?

2 **O‘qing.**

Izohli lug‘at – lug‘at turlaridan biri. Unda lug‘atga kiritilgan har bir so‘zning ma’nosi, agar ko‘p ma’noli so‘z bo‘lsa, hamma ma’nolari izohlab beriladi.

Izohli lug‘atlarga biror so‘z ishtirok etgan iboralar ham kiritilishi mumkin. Masalan, “qo‘l” yoki “gul” so‘zlari izohlangan sahifada “qo‘li gul” iborasining ma’nosi ham beriladi.

Lug‘atlarning boshqa turlarida ham ularga kiritilgan so‘z va iboralarning ma’nolari izohlanishi mumkin. Masalan, sinonimlarning izohli lug‘ati, antonimlarning izohli lug‘ati.

3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Анализировать – tahlil qilmoq *(tarjima lug‘ati).*

1. Ilm – 1. O‘qish-o‘rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim. 2. Ish-faoliyatning ilmlar bilan bog‘liq sohasi.
2. Avvalgi – oldingi, ilgarigi, burungi, qadimgi, sobiq.
3. Og‘ir – vazmin, vazni katta bo‘lgan, tosh bosadigan, vaznli.
4. Chang – 1. G‘ubor, to‘zon. 2. O‘zbek milliy cholg‘u asbobi.

Antonimlar lug‘ati | Omonimlar lug‘ati | Izohli lug‘at | Tarjima lug‘ati | Sinonimlar lug‘ati

119

lug‘ati). Og‘ir – vazmin, vazni katta bo‘lgan, tosh bosadigan, vaznli (izohli lug‘at). Chang – 1. G‘ubor, to‘zon. 2. O‘zbek milliy cholg‘u asbobi (omonimlar lug‘ati).

4. Gaplarning mazmuniga ko‘ra rasmlarda tasvirlangan holatni ifodalaydigan iboralar topiladi va gaplardagi bo‘sh o‘rinlarga moslashtirilib, yozdiriladi: *sen bola juda gapga usta ekansan, indamasam,* ***aravani quruq olib qochar ekansan.*** *Mening mehnatimga munosib* ***baho berishingizni*** *so‘rayman. Anvar keldi-yu, hamma ishning* ***beliga tepdi****. Hammamiz hozirgi vaziyatda* ***bir yoqadan bosh chiqarishimiz*** *kerak. Barchamiz rozi bo‘lsak ham, singlim ko‘nmadi,* ***ikki oyog‘ini bir etikka tiqib*** *turib oldi. Ha, o‘g‘li bor mol-mulkini ikki yilda* ***havoga sovurdi.***



4 O‘ylang va toping. Yozing.

Foydalanish uchun so‘z va birikmalar: *baho bermoq, beliga tepmoq, havoga sovurmoq, aravani quruq olib qochmoq, bir yoqadan bosh chiqarmoq, ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq.*

Namuna. Sen bola, juda gapga usta ekansan, indamasam, *aravani quruq opqochasan.*

1. Sen bola, juda gapga usta ekansan, indamasam, _____.
2. Mening mehnatimga munosib _____ so‘rayman.
3. Anvar keldi-yu, hamma ishni _____.
4. Hammamiz hozirgi vaziyatda _____ kerak.
5. Barchamiz rozi bo‘lsak ham, ukam ko‘nmadi, _____ turib oldi.
6. Ha, o‘g‘li bor mol-mulkini ikki yilda _____.

120

5. Chap ustundagi iboralarga o‘ng ustundagi to‘g‘ri keladigan izoh topiladi va yozdiriladi: *ishdan chiqdi – yaroqsiz holga keldi. Yo‘l ko ‘rsatdi – to‘g‘ri qaror qabul qilishga yo‘naltirdi. Kalavaning uchini topdi – jumboqni hal qildi. Diliga tugdi – xotirasida saqlab qo‘ydi. Ko‘zini shira bosdi – muvaffaqiyatlardan g‘ururlanib, boshqalarni mensimay qo‘ydi. Joniga tegdi – yoqimsiz narsalar takrorlanishi sabrini tugatdi. Ko‘ngliga qo‘l soldi – yashirin fikrlarini bilishga harakat qildi.*

6. Audiomatn tinglanadi.

Tong azonda turib, o‘tov egalari, er-xotin bilan xayrlashib, “Sariog‘och qaydasan?” deb yo‘lga tushdim. O‘sha kezlarda mening toleyim juda ham sho‘r edi. Qaysi qishloqqa borsam, bozorning ustidan chiqar edim. Aksiga yurib, bugun Sariog‘ochning bozor kuni edi. Mendan boshqa ham bozorga olma keltirganlar ko‘p edi.

– Kep qoling, armonda qolasiz, sotaman-u ketaman! Buni yeganlar non yemaydi, shinavandaga sotaman, – deb javrab, maqtab, peshinda arang sotib tugatdim. G‘alladonni hisoblab ko‘rsam, olti tanga bir miri bo‘pti.

Keyingi bir necha oy mobaynida belbog‘ga tugilgan naqdina shundan iborat edi. Pul ko‘p, qayg‘u yo‘q. Bozorni aylanib yurib hamma narsaga xaridor bo‘lib ko‘raman. Hamma narsaning narxini bilgim keladi. Bir kishining tunuka vannasiga xaridor bo‘lib, kam so‘raganim uchun undan yaxshigina so‘kish ham eshitib oldim. Kiyim bozorga

kirib qunduz yoqalik bobrik paltolarga xaridor bo‘lib ko‘raman. Qo‘y bozoriga kirib, shoxlari mullavachchalarning sallasiday buralib-buralib ketgan do‘ng peshonalik, katta bir qo‘chqorga xaridor bo‘lib turganimda ko‘zim tanish bir basharaga uchradi. U qo‘shoqlangan bir qo‘ra qo‘y ustida kuzatib turar edi. Bu kim, qayerda ko‘rgan ekanman? Chang bosgan kipriklar tagidagi qo‘y ko‘zlar menga juda tanish. Yo‘lning gard-g‘ubori qoqilmagan namatdek qilib yuborgan bu bashara ko‘zimga issiq-issiq ko‘rinadi. Lekin egnidagi qozoqi chakmon bilan boshidagi teskari ag‘darilgan telpak, qo‘lidagi boshi cho‘qmor kaltagi menga tanish emas. Undan ko‘zimni uzmay tikilib turaman. U ham menga g‘ilt-g‘ilt etib tikilib turardi. Birdan qichqirib yubordim:



5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Ishdan chiqdi – yaroqsiz holga keldi.

Ishdan chiqdi.	Jumboqni hal qildi.
Yo‘l ko‘rsatdi.	Boshqalarni mensimay qo‘ydi.
Kalavaning uchini topdi.	Yaroqsiz holga keldi.
Diliga tugdi.	Bezib qoldi.
Ko‘zini shira bosdi.	Yashirin fikrlarini bilishga harakat qildi.
Joniga tegdi.	Ichida saqladi.
Ko‘ngliga qo‘l soldi.	Yo‘l-yo‘riq ko‘rsatdi.

6 **Tinglang. Yozing.**

Tong azonda turib, o‘tov egalari, er-xotin bilan xayrlashib, “Sariog‘och qaydasan?” deb yo‘lga tushdim. O‘sha kezlarda mening ____ edi. Qaysi qishloqqa borsam, bozorning ____ edim. Aksiga olib, bugun Sariog‘ochning bozor kuni edi. Mendan boshqa ham bozorga olma keltirganlar ko‘p edi.

– Kep qoling, armonda qolasiz, sotaman-u ketaman! Buni yeganlar non yemaydi, shinavandaga sotaman, – deb javrab, maqtab, peshinda arang sotib tugatdim. G‘alladonni hisoblab ko‘rsam, olti tanga bir miri bo‘pti.

Keyingi bir necha oy mobaynida ____ shundan iborat edi. Pul ko‘p, qayg‘u yo‘q. Bozorni aylanib yurib hamma narsaga ____ . Hamma narsaning narxini bilgim keladi. Bir kishining tunuka vannasiga ____ , kam so‘raganim uchun undan yaxshigina so‘kish ham ____ . Kiyim bozorga kirib qunduz yoqalik bobrik paltolarga xaridor bo‘lib ko‘raman. Qo‘y bozoriga kirib, shoxlari ____ buralib-buralib ketgan do‘ng peshonalik, katta bir qo‘chqorga xaridor bo‘lib turganimda ko‘zim tanish bir ____ . U qo‘shoqlangan bir qo‘ra qo‘y ustida ____. Bu kim, qayerda ko‘rgan ekanman? Chang bosgan kipriklar tagidagi ____ menga juda tanish. Yo‘lning ____ qilib yuborgan bu bashara ko‘zimga ____ . Lekin egnidagi qozoqi chakmon bilan boshidagi teskari ag‘darilgan telpak, qo‘lidagi boshi cho‘qmor kaltagi menga tanish emas. Undan ko‘zimni uzmay tikilib turaman. U ham menga g‘ilt-g‘ilt etib tikilib turardi. Birdan qichqirib yubordim:

– Omon!!!

Bir-birovimizning quchog‘imizga otildik, yalab-yulqashdik, ____. O‘z boshimdan kechirganlarimni bir chetdan hikoya qilib berdim. Sarguzashtimning oxiri yonimdagi tanga-chaqa aralash olti tanga bir miri pulni jaraqlatib qo‘yish bilan ____.

Mustaqil topshiriq

O‘zbek tilining izohli lug‘atidan 10 ta so‘zni izohi bilan yozib oling.

121

– Omon!! Bir-birovimizning quchog‘imizga otildik, yalab-yulqashdik, hol-ahvol so‘rashdik. O‘z boshimdan kechirganlarimni bir chetdan hikoya qilib berdim. Sarguzashtimning oxiri yonimdagi tanga-chaqa aralash olti tanga bir miri pulni jaraqlatib qo‘yish bilan tamom bo‘ldi.

(“Shum bola”dan)

Matndan foydalanib, darslikda berilgan matndagi bo‘sh o‘rinlar kerakli so‘z va so‘z birikmalari bilan to‘ldiriladi. Iboralar belgilanadi va izohlanadi.

Mustaqil topshiriq. O‘zbek tilining izohli lug‘atidan 10 ta so‘zni izohi bilan yozib kelish.

61-DARS. ORALIQ NAZORAT.

62-DARS. XATOLAR USTIDA ISHLASH.

IDIOMALAR

Maqsad: mavzuga asosan o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma nutqda ifodalay olish, matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta hikoya qila olish, ma’lumotni qayta ishlab, bayon eta olish, iboralarni faol nutq ko‘nikmalarida qo‘llay olish.

Refleksiya: o‘quvchilar bilan lug‘at turlari, iboralarning qo‘llanishi haqida suhbat olib boriladi, mustaqil topshiriq tekshiriladi.

Vazifalar:

1. Namuna qilib berilgan iboralarning ma’nosi tushuntiriladi. Har bir iborada ifodalangan holat o‘quvchilar ko‘z oldiga keltiriladigan darajada izohlanadi. *Masalan: pashshadan fil yasamoq – pashshadan fil yasash mumkin emas, pashsha va fil hajmlari orasida katta farq bor. Shundan kelib chiqqan holda bu iboraning mazmunini shunday tushunamiz: kichik, arzimas masalani kattalashtirib, vahimali holatga keltirish. Ammamning buzog‘i – bu iboraning mazmunini tushunish uchun o‘zbek mentalitetini ozroq bo‘lsa-da, bilish lozim, chunki unda xalqonalik bor. Ammamning buzog‘i – dovdiragan, biror ishni bajarishni eplay olmaydigan odam.* Qolgan iboralar ham shu yo‘sinda tahlil qilinadi.



MAVZU **Idiomalar**

1 O‘qing. Gapiring.

Foydalanish uchun birliklar: *pashshadan fil yasamoq, ammamning buzog‘i, yetti pushtini bilmoq, ikki qo‘lini burniga tiqib qolmoq, yuragi shuv etib ketmoq.*

2 O‘qing. Gapiring.

Agar mendan: “Tilda ham mo‘jizalar bo‘ladimi?” – deb so‘rasalar, men: “Agar bo‘lsa, tilning “mo‘jizasi” undagi maqol, matal va idiomalardir”, deb javob qilgan bo‘lar edim. *(G‘aybulla Salomovning “Maqol, matal va idiomalar tarjimasi” kitobidan.)*

Idioma – har bir tilning faqat o‘zigagina xos bo‘lgan, boshqa tillarga aynan tarjima qilib bo‘lmaydigan, faqat ekvivalent (muqobil)ini ishlatish mumkin bo‘lgan birliklari.

Har qaysi xalqning o‘ziga tegishli tushunchalari bor. Bu tushunchalar bir xalq uchun ahamiyatli bo‘lsa, boshqa xalq uchun umuman tushunarsiz bo‘lishi mumkin, masalan, ruslarning quyidagi so‘zlariga e’tibor beraylik, ular o‘z bolalarini erkalab “*Здравствуйте, мои поросятушки*” deyishadi. Biroq buni o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilsak: “Salom, mening cho‘chqachalarim” shaklida bo‘lib, bu o‘zbeklar uchun mutlaqo xos emas, sababi o‘zbeklarda erkalatish uchun “cho‘chqa” nomi ishlatilmaydi, bu so‘z umuman teskari ma’noga ega. O‘zbeklarda bu tushuncha: “Salom, mening qo‘zichoqlarim (toychoqlarim, bo‘taloqlarim)” deb ifodalansa, ikki til vakillari uchun ham ma’qul ekvivalent tanlangan bo‘ladi, chunki har bir xalqda yaxshilik, ezgulik, yovuzlik, ayyorlik, ikkiyuzlamachilik timsollari uchun turlicha hayvonlar, qushlar yoki boshqa buyumlar tanlangan. Ruslarda cho‘chqa ijobiy ma’noga ega bo‘lsa, o‘zbeklarda bunday emas. Demak, idiomalar ham xuddi mana shunday ma’nolarga ega bo‘lgan birliklardir.

3 O‘ylang va toping. Yozing.

1. Idiomalar qaysi tilda bo‘lsa ham, tushunish mumkin.
2. Har bir xalqda hayvonlar bilan bog‘liq idiomalar bir-biriga yaqin.
3. Idiomalar tildagi mo‘jizalardan biri hisoblanadi.
4. So‘zma-so‘z tarjima qilinsa, idiomalarning ma’nosi tushuniladi.
5. Idioma “o‘ziga xos” degan ma’noni bildiradi.
6. Rus tilidagi idiomalarni o‘zbek tiliga tarjima qilish osonroq.
7. Hayvonlar, narsa-buyumlarning nomlari barcha xalqlarda bir xil tushunilishi mumkin.
8. Idioma har bir xalqning urf-odat, madaniyatiga xos bo‘ladi.

122

2. Idioma haqidagi matn o‘qitiladi va mazmuni tahlil qilinadi. Idiomalarning tildagi o‘rni, qo‘llanishi to‘g‘risida fikr-mulohazalar bildiriladi.

3. Matnga tayangan holatda **“to‘g‘ri-noto‘g‘ri-berilmagan”** usulidan foydalanib, idiomalar haqidagi mulohazalar belgilanadi va daftarga yozdiriladi.

4. Rasmlardan kelib chiqib, namunadagi shu rasmga mos ibora belgilanadi va izohlanadi.

5. Audiotopshiriq tinglanadi.

1. Men bog‘dan kelsam, u tog‘dan keladi.
2. Ikki qo‘lini burniga tiqib qoldi
3. Joni xalqumiga tiqildi
4. Boshqalarning nog‘orasiga o‘ynayapti
5. Boshimni aylantirma

Iboralarning izohi topilib, mazmuni tushuntiriladi, qavs ichiga yoziladi va daftarga ko‘chirtiriladi:

1. Men bog‘dan kelsam, u tog‘dan keladi (fikrlarning har xil ekanligi).
2. Ikki qo‘lini burniga tiqib qoldi (hech narsasiz qoldi).
3. Joni xalqumiga tiqildi (vahimaga tushdi).
4. Boshqalarning nog‘orasiga o‘ynayapti (kimningdir aldoviga ergashyapti).
5. Boshimni aylantirma (meni asosiy gapdan chalg‘itma).



4 O‘ylang va toping. Gapiring.

Foydalanish uchun so‘z va birikmalar: *teshik quloq (eshitadi), tomdan tarasha tushgandek, besh qo‘lday bilmoq, qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi.*

5 Tinglang. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna. Men bog‘dan kelsam, u tog‘dan keladi. *(fikrlarning har xil ekani)*

6 O‘ylang va toping. Yozing.

IDIOMALAR JADVALI

Idiomalar	Ma’nosi, qanday vaziyatda ishlatilishi
1.	
2.	
3.	
4.	

Mustaqil topshiriq

BBB jadvalini to‘ldiring. “BILIB OLDIM” degan qismini diqqat bilan yozing.

Ibora va idioma

BILARDIM	BILIB OLDIM	BILIB OLMOQCHIMAN

123

6. Idiomalar topilib, ular yordamida jadval to‘ldiriladi.

Mustaqil topshiriq. BBB (Bilardim/Bilib oldim/Bilib olmoqchiman) usulida jadvalni to‘ldirish.

QIZIQ GAPLAR

Maqsad: mavzu yuzasidan fikrlarini og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarida ifodalay olish, tinglab tushunish, o‘qib tushunish va qayta hikoya qila olish, idiomalarni nutqda to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llay olish, savollarga to‘liq javob bera olish.

Refleksiya: idioma tushunchasi yuzasidan davra suhbati o‘tkaziladi, idiomalarning nutqdagi o‘rni, qo‘llanishi tushuntiriladi. Mustaqil topshiriq sifatida berilgan BBB usulidagi jadvallar ko‘rib chiqiladi.

Vazifalar:

1. Idioma haqidagi audiomatn tinglanadi.

Idioma – iboralarning bir turi. Muayyan bir tilga xos bo‘lib, boshqa tillarga aynan tarjima qilib bo‘lmaydigan nutq birligi yoki iboralar idiomalar dryiladi. Masalan: “mahallani boshiga ko‘tardi”, “gap desang qop-qop, ish desang Samarqanddan top”, “oyog‘ini qo‘liga olib yugurdi” kabi.

Idiomalar ko‘chma ma’noga ega bo‘ladi va badiiy asarlarda qo‘llanadi. Idiomalarni boshqa tilga o‘girishda ularning o‘sha tildagi muqobilini topish kerak bo‘ladi. Agar tilda muqobil idiomalar topilmasa, uning mazmuni erkin yoki so‘zma-so‘z tarjima qilish mumkin.

2. Matn yuzasidan savollarga javoblar topiladi. O‘zbek tilidagi faol idiomalar ma’nosi izohlanadi.

MAVZU **Qiziq gaplar**

1 **Tinglang.**

Idioma.

2 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Idiomalar qanday ma’nolarda qo‘llanadi?
2. Idiomalar ko‘proq qayerda uchraydi?
3. “Gap desang – qop-qop, ish – desang Ko‘hi Qofdan top” idiomasini qanday tushunasiz?
4. Tilda muqobil idiomalar topilmasa, ularni qanday tarjima qilish mumkin?

3 **O‘ylang va toping. Chizing.**

Idioma	Tavsifi
Tili bir qarich	
Ammamning buzog‘i	
Ilonning yog‘ini yalagan	
Olovga yog‘ sepmoq	

Biz stadionga **Nima maqsadda?** futbol o‘ynashga boramiz.

Do‘stlarim o‘quv markaziga **Nima maqsadda?** ingliz tilini o‘rganish uchun borishadi.

Uyimizga dadamning do‘stlari **Nima maqsadda?** bobom bilan suhbatlashish maqsadida tez-tez kelishadi.

4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Men ~~atrofni kuzatish~~ / ~~tez yurishni o‘rganish~~ / to‘yib-to‘yib nafas olish uchun ko‘pincha tog‘larga chiqaman.

1. Do‘stlarim imtihonga *kirish* / *topshirish* / *o‘tish maqsadida* oliy ta’lim muassasalariga borishdi.
2. Anvar uy vazifalarini *topshirish* / *bajarish* / *olish* uchun kutubxonada qoldi.
3. Buvimni *ko‘rish* / *xabar olish* / *teatrga olib borish* uchun bilet sotib oldim.
4. Bu filmni *ko‘rish* / *tushunish* / *kirish* uchun tarixdan xabardor bo‘lish kerak.
5. Uyni *yasash* / *chizish* / *qurish* rejasi uning loyihasini *yasash* / *chizish* / *qurish* ishlaridan boshlanadi.

124

3. Berilgan idiomalarning tasviri ular to‘g‘risiga chizilib, izohlanadi.

Diqqat qiling. Grammatik ma’lumotga ko‘ra harakat nomlari bilan ifodalangan maqsad hollarining qay tarzda gapda qo‘llanishiga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi. Bunda holning gapdagi o‘rni, kesim bilan bog‘lanishi, qaysi so‘z turkumlari (ot, ravish, harakat nomi) bilan ifodalanishi kabi xususiyatlariga alohida to‘xtalib o‘tish joiz. Harakat nomi, uning hosil bo‘lishi esga solinadi: *harakat nomi fe’lning otga xoslangan shakli bo‘lib,* ***-sh(ish), -v(uv), -moq*** *qo‘shimchalari bilan yasaladi.* Gaplardagi ***futbol o‘ynash, ingliz tilini o‘rganish, bobom bilan suhbatlashish*** birikmalarida bosh so‘z harakat nomi ekanligi, bu birikma to‘laligicha gap ichida maqsad holi vazifasini bajarishiga o‘quvchilar diqqati jalb qilinadi.

4. Gaplardagi mazmunan mos keladigan variant qo‘llanib, daftarga yozdiriladi: Men to‘yib-to‘yib nafas olish uchun ko‘pincha tog‘larga chiqaman. Do‘stlarim imtihon topshirish maqsadida oliy ta’lim muassasalariga borishdi. Anvar uy vazifalarini bajarish uchun kutubxonada qoldi. Buvimni teatrga olib borish uchun bilet sotib oldim.

Bu filmni tushunish uchun tarixdan xabardor bo‘lish kerak. Uyni qurish uchun uning loyihasini chizish kerak.

5. Gaplardagi bo‘sh qolgan o‘rinlarga mazmunan mos keladigan birikmalar qo‘yilib, daftarga yozdiriladi.

Mustaqil topshiriq. “Suyunchi” filmini ko‘rib, undagi ibora va idiomalarni yozib olib, ma’nosini izohlashga tayyorlanish.

IBORA

Maqsad: mavzu doirasida o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki va yozma nutqda ifodalay olish, audiomatnni tinglab tushunish, faktologik matnlarni o‘qib tushunish, so‘zlay olish, ma’lumotlarni qayta ishlash va bayon eta olish, teng bog‘lovchilarning qo ‘llanishi, bog‘langan qo‘shma gaplarni ergashgan qo‘shma gaplardan farqlay olish, faol nutqiy ko‘nikmalarda qo‘llay olish.

Refleksiya: ibora va idiomalarning farqli va o‘xshash jihatlari, maqsad holining gapdagi o‘rni, qo‘llanishi tahlil qilinadi. Mustaqil topshiriq tekshiriladi. Yozib olingan idiomalar birgalikda ko‘rib chiqiladi.

Vazifalar:

1. “Shum bola” asaridan olingan parcha diqqat bilan o‘qitiladi. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar mazmuni tushuntiriladi. *Oshiq o‘yini – hayvon suyagining oshiq-moshiq deb ataladigan joyi yuvilib, quritiladi, tosh o‘rnida foydalanib, o‘ynaladi.* Asar qahramoniga shu parchadan kelib chiqib, tavsif beriladi.

2. Matndan olingan so‘zlar ma’nosi izohlanib, daftarga yozdiriladi. Masalan: *yaktak – erkaklarning kundalik kiyimi. Lippa – ishtonning ishtonbog‘ o‘tkazish uchun qaytarilgan*



5 O‘ylang va toping. Yozing.

1. Mening maqsadim – _____.
2. Ota-onamning maqsadi – _____.
3. Akam (ukam)ning maqsadi – _____.
4. Opam (singlim)ning maqsadi – _____.
5. Do‘stim (dugonam)ning maqsadi – _____.

Mustaqil topshiriq

“Suyunchi” filmini tomosha qiling. Unda uchragan ibora va idiomalarni yozib oling, ma’nosini tushuntiring.

MAVZU **Ibora**

1 O‘qing. Gapiring.

Shunday qilib, bu falokatli ishni Yo‘ldosh boshladi. Mahallaning bir to‘da o‘spirin bolalari Laylakmachitning jilovxonasiga yig‘ilib, *oshiq o‘ynamoqda* edik. Men bugun juda ko‘p yutgan edim. Olacha *yaktagimning* cho‘ntagi, yengim, *lippam* oshiqqa to‘lib ketgan edi. “Bolalar qanda, oshiqlar manda”, – deb sevinch bilan qichqirmoqda edim. Xuddi shu oraga Yo‘ldosh shilqim suqildi-yu, ishning pachavasini chiqardi. U bari mog‘orlab ketgan surp yaktagining etagi bilan burnini arta-arta gapira boshladi:

– Bolalar, *halfana* qilamizmi?

– Bo‘pti, qilamiz.

– Qayerda?

– Rizqi *halfaning* ko‘chib ketgan hovlisida.

– Bo‘pti.

Halfanaga palov qilmoqchi bo‘ldik. Masavur *otaliqning* nabirasi Omonboyning o‘g‘li Husnibiy oshpaz bo‘ladigan bo‘ldi. Qozon, cho‘mich, tuz, qalampir, suv – undan, qolgan masalliqlarini shu yo‘sinda taqsim qildik: guruch bilan sabzi – Yo‘ldoshdan. Go‘sht – Abdulla do‘lvordan; yog‘ – mendan; olgan-qutgan narsalar – Po‘latxo‘ja mug‘ambirdan. Hamma har tarafga qarab ketdi. Men ham yog‘ keltirgani uyga ketdim. Onam oshxonada yertandirga o‘t qalab, qovoq somsa yopish taraddudida edi. Bizning ro‘zg‘or mayda-chuydalari zax uyning orqasidagi uzun hujrada bo‘lar edi. Ayvonda o‘rtancha singlim kichik ukamni ovutib o‘tirgan ekan. Uning yonidan hujraga kirishning evini topolmadim, birorta hiyla ishlatish kerak edi.

– Shapag‘, – dedim unga, – katta to‘ping qayerda?

– Qo‘g‘irchoqlarimning oldida, nima qildi?

– U yerda yo‘q-ku!

– Ha... o‘lgur, sen olgandirsan, hozir berasan. Ber!

Men iljayib turaverdim. U ovutib turgan ukamni qo‘ydi-da, qo‘g‘irchoqlarining oldiga yugurib ketdi. Men ham “lip” etib hujraga kirib, *xo‘qachadan* yog‘ o‘yib oldim. Yog‘ni bir qog‘ozga *turmuchlab*,

125

joyi. Xalfana – biror yegulikni o‘rtada pishirish uchun mahsulotlarni bo‘lib olish. Xalfa – rahbar, boshliq. Otaliq – javobgar, mas’ul. Hujra – kichkina uy, xona. Xo‘qacha – qadimiy sopol idish. Turmuchlamoq – o‘rash, tugish. Rasamad – hammaga teng bo‘lish, taqsimlash.

Diqqat qiling. Bog‘langan qo‘shma gaplarning hosil qilinishi aks etgan grammatik jadval o‘rganiladi. Bog‘langan qo‘shma gaplarni hosil qiladigan teng bog‘lovchilarning qo‘llanishi misollar bilan o‘quvchilarga tushuntiriladi, bog‘langan qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarning har biri mazmunan mustaqil bo‘la olishiga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi.



lippamga qistirdim. U yerdan chiqib o‘tinxonaga kirdim. Kulrang tovug‘im piyozdan qilingan “moyak”ustida tug‘ib o‘tirar edi. Sekin borib, qanotini ko‘tarib qarasam, allaqachon tug‘ib bo‘lgan ekan, lekin onalik mehri bilan tuxum ustida bosib yotar ekan. Tuxumni oldim. Tovuq qaqalab qochdi. O‘rtoqlarimga yaxshi ko‘rinish uchun, *rasamadda* ko‘rsatilmagan bo‘lsa ham, yog‘ yoniga tuxumni ham qo‘shib olib borishni o‘zimga ma’qul qilgan edim. Zing‘illab ko‘chaga chiqib, keta boshladim.

2 **O‘ylang va toping. Yozing.**

1. Yaktak – _____
2. Lippa – _____
3. Halfana – _____
4. Xalfa – _____
5. Otaliq – _____
6. Hujra – _____
7. Xo‘qacha – _____
8. Turmuchlamoq – _____
9. Rasamad – _____

_____ va / hamda _____.
_____, ammo / lekin / biroq _____.
Yo_____, yo _____.
Goh _____, goh_____.
Na _____, na _____.

3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Xizmatkorlar och, lekin boyning oldiga borishga hech kimning yuragi dov bermaydi. (*lekin*)

1. “Menga ulardan bir burda tegadimi yo yo‘qmi, yoki kitob ortilgan eshakday bebahra qolaveramanmi?” deb o‘ylayman.
2. Ko‘knorilar jamoatchiligi aybni goh yallachiga, goh Rahmat hojining o‘ziga, goh marg‘ilonlik xotin Latifaxonga, goh betizgin, bebosh olomonga, goh Mochalov va mirshablarning beparvoligiga qo‘yar edilar.
3. O‘zim charchaganim uchun hamda go‘sht qon-qushga tegib harom bo‘lmasin deb, bu ishlarni erta tongga qoldirdim.
4. Hamma echkilar sotilib ketdi-yu, lekin qo‘ylardan ko‘pi – yetmish uchta qo‘y bozordan qaytdi.
5. Gaplaring to‘ppa-to‘g‘ri, o‘rtoq, lekin ust-boshimni ko‘rib turibsan.

4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. _____, ammo _____.
Do‘stlarim bilan bugun kinoga bormoqchi edik, ammo bir do‘stim ota-onasi bilan boshqa shaharga ketdi.

126

3. Gaplar tarkibida qatnashgan teng bog‘lovchilar yozib, ko‘rsatiladi. Vazifasi tushuntiriladi. O‘quvchilar “Lekin – zidlaydigan bog‘lovchi, yakka qo‘llangan” qabilida har bir bog‘lovchi haqida fikr bildiradilar.

4. Gap qoliplariga mos tushadigan jumlalar tuzdirilib, yozdiriladi.

5. Audiomatn o‘quvchilarga ikki marta eshittiriladi.

Pochcham bilan ammam bu gul, bu hayvonotlarning har bittasini nuridiydalariday parvarish qiladilar. Har holda, menga o‘xshagan o‘yinqaroq bolalar uchun bu yerda ermak topiladi. Zerikib qolmayman. Ammam va pochcham meni erkalab qarshi oldilar.

– Kel-a, bo‘yingdan girgitton bo‘lib ketay, seni qaysi shamol uchirdi, akam tirilib keldimi, haligina qovog‘im uchib turgan edi, – dedi ammam.



1. _____, ammo _____.
2. _____, lekin _____.
3. Yo _____, yo _____?
4. Na _____, na _____.
5. _____ va _____.
6. Goh _____, goh _____.

5 **Tinglang. Yozing.**

Pochcham bilan ammam bu gul, bu hayvonotlarning har bittasini _____, _____ parvarish qiladilar. Har holda, menga o‘xshagan _____ bolalar uchun bu yerda _____. Zerikib qolmayman. Ammam va pochcham meni erkalab _____.

– Kel-a, _____, seni qaysi _____, akam tirilib keldimi, haligina _____, – dedi ammam.

– Ha, balli, azamat, necha kundan buyon _____, yo‘lpashsha _____ edi, haytovur _____. Sen kelar ekansan, balli-balli, – dedi pochcham.

Men bu erkalatishlardan juda _____. Pochcham har kuni to‘qqiz pul choychaqa beradi. Men pulni olib, ko‘chaga _____. Bu mahalladan ham yangi og‘aynilar _____. _____, oshiq o‘ynaymiz, it urishtiramiz.

Mustaqil topshiriq

Badiiy asarlardan iboralarni topib, yozing. “Shum bola” asaridan foydalanishingiz mumkin.

127

– Ha, balli, azamat, necha kundan buyon ko‘zim uchib, yo‘lpashsha aylanib yurgan edi, haytovur yaxshilikka ko‘rindi. Sen kelar ekansan, balli-balli, – dedi pochcham. Men bu erkalatishlardan juda taltayib ketdim. Pochcham har kuni to‘qqiz pul choychaqa beradi. Men pulni olib, ko‘chaga shataloq otaman. Bu mahalladan ham yangi og‘aynilar orttirganman. Kamalak otamiz, oshiq o‘ynaymiz, it urishtiramiz.

O‘quvchi qo‘lidagi matnda bo‘sh o‘rinlarni audiomatndan foydalanib, to‘ldiradi.

Mustaqil topshiriq. Badiiy asarlardan iboralar topib, yozib kelish.

JARGONLAR

Maqsad: mavzu yuzasidan fikrlarini ifodalay olish, matnlarni tinglab tushunish, o‘qib tushunish, qayta hikoya qila olish, ma’lumotni tushunib, unga munosabat bildira olish, jargon kabi qo‘llanish doirasi chegaralangan so‘zlarni nutqda farqlay olish.

Refleksiya: harakat nomi bilan ifodalangan maqsad hollarining gapdagi o‘rni, qo‘llanishi haqida suhbat o‘tkaziladi. Mustaqil topshiriq tekshiriladi.

Vazifalar:

1. Matn o‘qitiladi. Mazmuni qayta hikoya qildiriladi. Hikoya qahramonlariga munosabat bildiriladi.

2. Matndan olingan so‘zlar mazmuni izohlanadi, daftarga yozdiriladi. Bunday so‘zlar qanday guruh yoki doiralarda qo‘llanishi mumkinligi haqida o‘quvchilar fikr bildirishadi. Masalan: *boss – boshliq, xo‘jayin. Kalla – miya. Yigirma besh - pul. Ketvorgan qiz – chiroyli qiz.* Bu kabi



MAVZU **Jargonlar**

1 O‘qing.

Tanaffusga qo‘ng‘iroq chalingach, Asror “sinfga kirsammi, kirmasammi yo uyga ketaversammikan” deb ikkilandi. Endi turib yurgan paytda shoshilib kelayotgan sinfdoshi Otaullani ko‘rib to‘xtadi. Sochi jingalak, o‘ziga oro berib yurishni yaxshi ko‘radigan Otaulla o‘zini Asrorga yaqin tutardi. Hozir shoshilib kelishi ham shundan.

– Nima qilib qo‘yding, *boss*? – dedi u Asrorni yelkasiga turtib. – Qilig‘ingni boshqa o‘qituvchiga qilmaysanmi? Bu – geografiya, bu yil oxirgi marta kiradi. Baho attestatsiyaga ketadi-ya! Shunga o‘chakishasanmi?

– Nima qipti? – dedi Asror yelka qisib. U hozir bu haqda gaplashishni istamasdi. Shu sababli gapni qisqa qilmoqchi edi, aksincha bo‘lib, Otaullaning gap xaltasini ochishga sabab tug‘dirib berdi.

– *Boss*, bu nima deganing? Institutda hisobga olishadi o‘rtacha bahoni.

– Institutga kirsam, uning bahosisiz ham kiraman.

– Ha, senga gapirish oson. *Kallang* bor. Ammo... xafa bo‘lma-yu, sen uchun kechirim so‘rab qo‘ydim.

– Xafamasman, berdim senga o‘sha beshni.

– E, besh kerakmas, to‘rt ham teshib chiqmaydi. Menga shuning geografiyasi kerak ekanmi? Menga Braziliya iqtisodiyotining nima zarurligi bor? O‘zi funksiyalarning maksimum nuqtasi, minimum nuqtasi deganlaring manavi yerimga kelib qoldi, – Otaulla shunday deb ko‘rsatkich barmog‘ini bo‘g‘ziga bigiz qildi. – Lekin ilojim yo‘q. Attestatni yaxshilab narxozga bormasam, batkam kallamni oladi. Men attestatni yaxshilasam bas, qolgani *batkamni* ishi. Batkamni bilasan-ku, boss?

Uning otasini, ikki qavatli do‘kon mudirini, kim bilmas ekan. O‘quvchilar ham, muallimlar ham yaxshi bilishadi.

– Menga nima uchun diydiyo qilib qolding? – dedi Asror uning maqsadini tushunmay. – Meni urishgani keldingmi yo boshqa darsing bormi?

– Vey, *boss*, senga gap yoqmaydigan bo‘lib qolibdi. Men seni geografiya bilan yarashtiraman. Sen *kampiringga* aytib qo‘y, meni ko‘p qiynamasin. Tenglama-teoremalariga baribir aqlim yetmaydi. Mening kelajagim tayin: karra jadvalni bilsam bo‘lgani, nima qiladi boshimni qotirib.

– Bo‘pti, aytaman.

Boshqa payt, boshqa kayfiyat bo‘lganida Asror Otaullani ayamay, bu ochiq savdosi uchun aytadiganini aytardi. Hozir bir ijirg‘anib qo‘ydi-yu, gapni chuvalashtirmadi. Uning osonlik bilan ko‘nganiga Otaulla sevindi.

– Maladessan-da, boss, *ketvorgan* bolasan. Ertaga yigirma beshni beraman.

– Qanaqa *yigirma besh*?

– Yig‘ishyapti-ku? To‘yga... sen aytuvdingmi?

Asrorning ko‘zlaridan o‘t chaqnab ketdi: “Aytganini qilibdi-da axir. Menga pul yig‘ib berishmoqchi! Voy, boyvachchalar-e!..” U tez-tez yurib ketdi. Sinfga kirib Zoirning yoqasidan olmoqchi edi. Yetib borgunicha darsga qo‘ng‘iroq chalindi. Asror kitob-daftarini ko‘tarib chiqib ketishga ham ulgurmadi.

128

yana qanday so‘zlarni bilishlari so‘raladi.

Diqqat qiling. Jargon haqida berilgan nazariy ma’lumot tushuntiriladi, jargon qo‘llanishi mumkin bo‘lgan guruh yoki doiralar aytiladi, misollar keltiriladi.

3. Audiomatn eshittiriladi. Mazmuni qayta hikoya qildiriladi.

Asror hech narsaga qaramay ko‘chaga chiqdi. Kinoteatr qarshisidan o‘ta turib yana o‘sha joylariga qaradi. Ne ko‘z bilan ko‘rsinki, Qamariddin sigaret tutatib o‘tirardi. Yonida ikki yugurdagi. Qamariddin Asrorni ko‘rib imladi.

– Kecha qayerda eding?

– Kinodaydim.

– Vo, professor bu, eshitdilaringmi? Bashkasi ishlaydi. Sen kecha meni ko‘rganing yo‘q, demak. Qayoqdan ham ko‘rarding? Kecha men yo‘lda edim. Andijondan keldim bugun ertalab. Poyezddan endi tushib turibman. Mana biletim, – u shunday deb ko‘krak cho‘ntagidan poyezd biletini olib ko‘rsatdi. “Demak, ertalab vokzalga borgan, biletni o‘sha yerda kimdandir so‘rab olgan yo o‘margan. Ishi pishiq buning”, deb o‘yladi Asror.

– Demak, gap bunday, bratishka, hamma qayerdaligini yaxshi biladi. Kecha hech qanday voqea yuz bermadi. Bugun sabanto‘y.

– Mening vaqtim yo‘q.

– O‘zing bilasan, bilib qo‘y: bashkangni yo‘qotma. O‘zingga qiyin. Meni hech qanday qarmoq ilintira olmaydi. Sen maktabda professor bo‘lsang, men u yoqda… – Qamariddin barmoqlarini panjara qilib ko‘rsatdi, – akademik bo‘lib kelganman. Omon qolaman desang, mendan uzoqlashma.

– Salimni yarasini bog‘ladingmi?

– Salimning ishi besh, undan xavotir olma. Sen faqat qo‘rqmasang bas, bu yog‘i okey bo‘ladi.

Qamariddinning gapidan keyin Asror o‘ylanib qoldi. “Hozir bu yerdan ketib qayoqqa ham borardim. Uyga qaytsam, hisob berishim kerak. Bir o‘zim shaharda sanqib yuramanmi?” Shu fikrga kelib, Qamariddinning yonidan joy oldi.



2 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Boss – boshliq, xo‘jayin.

1. Kalla – _____
2. Batka – _____
3. Kampir – _____
4. Yigirma besh – _____
5. Ketvorgan bola – _____

Jargonlar	Ma’nolari
Bo‘pti, man *sirpandim.*	Bo‘pti, men ketdim.
Uyga ketaman, *soqqa* qolmadi.	Uyga ketaman, pul qolmadi.
Ko‘kidan o‘ynaymizmi?	Dollarda hisob-kitob qilamizmi?
Anvar *yeydiganini yedi.*	Anvar qattiq gap eshitdi.

3 **Tinglang. Yozing.**

(Tohir Malikning “Alvido... bolalik” asaridan parcha)

Jargonlar: *Professor,* _____

4 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Jargon so‘zlarni siz ham ishlatasizmi? Misollar keltiring.
2. Bunday so‘zlardan foydalanish to‘g‘ri deb o‘ylaysizmi? Noto‘g‘ri deb o‘ylasangiz, badiiy asarlarda qo‘llangan-ku?! Bu haqdagi fikringiz qanday?

5 **Gapiring.**

1-topshiriqda berilgan “Alvido... bolalik” asaridan olingan parchani sahnaviy ko‘rinish shaklida ijro eting.
Rollar: Asror, Otaulla.

Mustaqil topshiriq

O‘zingizning tilingizda uchraydigan jargon so‘zlarni eslab, ularning ma’nosini o‘zbek tilida tushuntirib bering.

129

Matnda qo‘llangan jargonlar belgilanadi. Izohi bilan daftarga yozdiriladi: *professor -aqlli bola; bashka – bosh, aql; bratishka - ukajon; sabanto‘y – tantanali yig‘ilish, tomosha; akademik – hurmatli odam; okey – ko‘ngildagidek.*

4. Tanishilgan ma’lumotlar asosida savollarga to‘liq va asosli javob beriladi: *Jargon so‘zlarning badiiy adabiyotda qo‘llanishi shu asar qahramonining tabiatini tushunish, asarning ishonarli, qiziqarli bo‘lishi uchun kerak. Ammo tarbiyali, ziyoli, nutqi boy inson hech qachon jargonlardan foydalanmaydi*.

5. 1-topshiriqda berilgan voqea asosida sahna ko‘rinishi ko‘rsatiladi. Fikrlar bildiriladi.

Mustaqil topshiriq. O‘zining ona tilida uchraydigan yoki o‘zi qo‘llaydigan jargon so‘zlarni eslab, o‘zbek tilidagi ma’nosini tushuntirishga tayyorlanib kelish.

MENING SARGUZASHTLARIM

Maqsad: mavzu doirasida o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki va yozma nutqda bayon eta olish, matnni tinglab tushunish, o‘qib, qayta hikoya qila olish, savollarga to‘liq javob bera olish, sabab ergash gapli qo‘shma gaplarni faol nutq ko‘nikmalarida qo‘llay olish.

Refleksiya: jargonlar, ularning qo‘llanish doirasi, ular qo‘llanadigan vaziyatlar haqida o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkaziladi. Mustaqil topshiriq tekshiriladi.

Vazifalar:

1. Berilgan savollarga o‘quvchilarning to‘liq, atroflicha javob berishlari so‘raladi. Sevimli mashg‘ulot, xobbi haqida ular bilan munozara yuritiladi.

2. Ko‘rsatilgan qoliplar asosida ergashgan qo‘shma gaplar tuzdirilib, yozdiriladi: *do‘stim bilan ko‘risha olmadim, negaki u xizmat safariga*



MAVZU

Mening sarguzashtlarim

1 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Siz qaysi kasbni egallamoqchisiz? Nima sababdan?
2. Sevimli mashg'ulotlaringiz (hobbi) bormi? Sanab bering.
3. Sizning qanday orzularingiz amalga oshmay qolgan? Nima sababdan?

2 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Men kompyuterda dasturlashni o'rganmoqchiman, *chunki* bu sohada mutaxassis kam.

1. _____, negaki _____.
2. _____, chunki _____.
3. _____, shuning uchun _____.

_____, chunki _____.
_____, shuning uchun _____.
_____, negaki _____.

3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. uy-uyimizga / kech bo'lib qolgani / bugun / uchun / tarqaldik.
Bugun kech bo'lib qolgani uchun uy-uyimizga tarqaldik.

1. kerak / avvalo / o'zi / shuni unutmang / inson / baxtli bo'lishi.
2. nonushta qilmay / ketdim / darsga / kech qoldim deb.
3. hurmat qilamiz / ustozimizni / chunki / o'z / ular / chuqur / o'rgatadilar / fanlarini.
4. ham / bizning / boshlandi / bahor / kelib / sayohatimiz.
5. shekilli / hali / u / bugun / yo'lga / chiqmabdi / kelmaydi / ham.

4 **Tinglang. Yozing.**

Namuna. Nahorlikka qushlar yana qatiq *ichishdi*, tushlik nonushtasi uchun suzma bermoqchi edim, *chunki* bechora qushlar juda ham yovg'onsirab ketdi.

1. Nahorlikka qushlar yana qatiq _____, tushlik nonushtasi uchun suzma bermoqchi edim, _____ bechora qushlar juda ham yovg'onsirab ketdi.
2. "Tizzagacha degani to'g'ri, – dedi Hoji bobo, –_____ qoidayi pahlavonlik uch zarb bo'ladi".
3. Ikkinchidan, Hoji bobodan javob _____, jo'nlikcha bo'shatib yubormaydi, _____ unga yoqib qolgan, qo'lini sovuq suvga urdirmay qo'yganman.
4. "Yo'g'-e, buvi, – dedi o'g'ri, – to'nka yorib-ku berarman, ammo choy _____, _____ kun yorishib qolsa, meni tanib qolasiz".

130

ketib qolibdi. Men kompyuterda dasturlashni o‘rganmoqchiman, chunki bu sohada mutaxassis kam. Korxona mahsulotiga talab kamaydi, shuning uchun boshqa mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilmoqda. Gaplardagi ish-harakatning biror sabab tufayli bajarilayotganiga o‘quvchi e’tibori qaratiladi.

Diqqat qiling. Grammatik jadval yordamida sabab ergash gapli qo‘shma gaplarning hosil bo‘lishi tushuntiriladi. Bunda bosh va ergash gap holatlari, gap maqsadining ifodalanishi, sabab bog‘lovchilarining qo‘llanishi, imlosi ham esga solinadi: *bugun sen bilan kutubxonaga bora olmayman, **chunki** buvimni ko‘rib kelishim kerak. Jonivorlar ham biz kabi mehrga muhtoj, **shuning uchun** ularga nisbatan shafqatli bo‘lishimiz zarur. Qadimiy bino ta’mirlanayotgan ekan, **shu sababli** sayyohlar uni ko‘ra olmadilar. O‘tmishga juda qiziqaman, **shu tufayli** tarixiy asarlarni yaxshi ko‘raman. Inson tozalikka rioya qilishi, ehtiyotkor bo‘lishi kerak, **negaki** viruslarning yangi ko‘rinishlari paydo bo‘lmoqda.*

3. Qo‘shma gaplar ichida aralash berilgan so‘zlar tartibga solinib, daftarga yozdiriladi, sabab bog‘lovchilari belgilanadi: *bugun kech bo‘lib qoldi, **shuning uchun** uy-uyimizga tarqaldik. Yomg‘ir yog‘yapti, **shu sababli** tadbir bino ichida o‘tkazilishi mumkin. Nonushta qilishga ulgurmadim, **chunki** darsga kechikayotgan edim. Hayotimizda avtomatik vositalar ko‘paydi, **shu tufayli** qo‘l mehnati kamaydi. Muzokara yakuniga yetmadi, **negaki** tomonlar bir qarorga kelmadi.*

4. Audiomatn eshittiriladi. Bo‘sh o‘rinlarga so‘zlar qo‘yiladi.

1. Nahorlikka qushlar yana qatiq ichishdi, tushlik nonushtasi uchun suzma bermoqchi edim, chunki bechora qushlar juda ham yovg‘onsirab ketdi.

2. – Tizzagacha degani to‘g‘ri, – dedi Hoji bobo, – chunki qoidayi pahlavonlik uch zarb bo‘ladi.

3. Ikkinchidan, Hoji bobodan javob so‘rasam, jo‘nlikcha bo‘shatib yubormaydi, chunki xizmatlarim unga yoqib qolgan, qo‘lini sovuq suvga urdirmay qo‘yganman.

4. – Yo‘g‘-e, buvi, – dedi o‘g‘ri, – to‘nka yorib-ku berarman, ammo choy icholmayman, chunki kun yorishib qolsa, meni tanib qolasiz.



5 O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna. Bola uxlab qoldi, *shuning uchun* maktabga kechikdi.

6 O‘ylang va toping. Gapiring.

Guruh bo‘lib ishlang. “Davom eting” o‘yinini mantiqan to‘g‘ri bajaring. Bunda birinchi guruh sababni aytadi, ikkinchi guruh esa oqibatni aytadi.

1-guruh — chunki — 2-guruh

2-guruh — shuning uchun — 1-guruh

Mustaqil topshiriq

“Mening g‘aroyib sarguzashtim” mavzusida matn tuzing. Matnda xayoliy joy nomlari, ismlardan foydalanishingiz mumkin. Matnni hikoya tarzida yozing.

131

5. Rasmlarga qarab sabab bog‘lovchilarini qo‘llagan holda sabab ergash gapli qo‘shma gaplar tuzdiriladi va daftarga yozdiriladi.

6. O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linib, berilgan bog‘lovchilar yordamida vazifa bajaradilar. Birinchi guruh tuza boshlagan sabab ergash gapli qo‘shma gapni mantiqan ikkinchi guruh davom ettiradi. Masalan:

1-guruh: Sayyora maktabga kela olmadi, chunki...
2-guruh: betob bo‘lib qolibdi.
1-guruh: Bolalar qattiq uyalib qolishdi, negaki...
2-guruh: yolg‘onlari fosh bo‘ldi.
1-guruh: Mamlakat iqtisodiyoti tanglikni boshdan kechirdi, shuning uchun...
2-guruh: iqtisodiyotda ba’zi cheklovlarni qo‘llashga to‘g‘ri keldi.

Mustaqil topshiriq. “Mening g‘aroyib sarguzashtim” mavzusida hikoya matnini tuzish. Matnda xayoliy joy nomlaridan foydalanish.

DO‘STIMGA XAT

Maqsad: mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini bayon eta olish, matnlarni tinglab tushunish, o‘qib tushunish, ibora, idioma, jargon tushunchalarini bir-biridan farqlay olish, ibora va idiomalarni, sabab ergash gapli qo‘shma gaplarni faol nutq ko‘nikmalarida qo‘llay olish.

Refleksiya: o‘quvchilar bilan kelajak orzulari haqida suhbat quriladi, sabab ergash gapli qo‘shma gaplar haqida savol-javob o‘tkaziladi, mustaqil topshiriq tahlil qilinadi.

Vazifalar:

1. Namunada berilgan nutq shakllari jadvalga tartib bilan joylashtiriladi. Ibora: *tepsa tebranmas, tomdan tarasha tushgandek, pashshadan fil yasayapti, arpasini xom o‘rgan, ichi qora.* Idioma: *Daqqi-yunusdan qolgan*. Jargon: *boss, kalla, bashka.*



5 O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna. Bola uxlab qoldi, *shuning uchun* maktabga kechikdi.

6 O‘ylang va toping. Gapiring.

Guruh bo‘lib ishlang. “Davom eting” o‘yinini mantiqan to‘g‘ri bajaring. Bunda birinchi guruh sababni aytadi, ikkinchi guruh esa oqibatni aytadi.

1-guruh — chunki — 2-guruh

2-guruh — shuning uchun — 1-guruh

Mustaqil topshiriq

“Mening g‘aroyib sarguzashtim” mavzusida matn tuzing. Matnda xayoliy joy nomlari, ismlardan foydalanishingiz mumkin. Matnni hikoya tarzida yozing.

131

2. Matn diqqat bilan o‘qitiladi. Mazmuni qayta hikoya qildiriladi. Iboralar, idiomalar topilib, daftarga yozdiriladi: qush uchsa, qanoti, odam yursa, oyog‘i kuyadigan (ibora), qorasi ko‘rindi (ibora), mirkam, bir miri, shig‘al...

3. O‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, dialoglar tuzadilar. Dialogda jargon so‘zlardan foydalanadilar.

4. Audiomatn tinglanadi. Bo‘sh o‘rinlarga so‘zlar qo‘yiladi.

Asror o‘tirishi bilan Qamariddin yonidagi ikki bolani “sigaret olib kellaring”, deb turg‘izib yubordi.

– Darsdan qochdingmi? – dedi Qamariddin Asrorga diqqat bilan tikilib.

– Qochmadim, chiqib ketdim. Asror maktabdagi voqeani aytgisi kelmadi.

– Professor, basharangda rang qolmabdi. Shunchalik qo‘rqyapsanmi? Sen qo‘rqma. O‘zim o‘tirsam ham seni tortmayman. Bolalarga ham tayinlayman. Sen yo‘qsan oramizda. Sen ichimizda bashkalik bolasan. O‘qishing kerak. Men baribir qamalib ketaman. Bugun bo‘lmasa, ertaga. Senga o‘n besh yil vaqt beraman. Agar o‘n besh yilda professor bo‘lolmasang, o‘g‘rilarga qo‘shib yuboraman.

Qamariddin shunday deb uning yelkasiga mushtladi. Asror uni hazillashyapti, deb o‘yladi. Yo‘q, Qamariddinning ko‘zida quvlik yo‘q edi. Qarashlari jiddiy, hatto o‘ychan edi.

– O‘ninchini bitirib, uyingdan chiqib ket. Gapimga xafa bo‘lma. Otang seni o‘qitgisi kelmayapti. Seni men o‘qitaman. Pulim bor. O‘ninchi-

MAVZU

Do‘stimga xat

1 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Boss, ~~biti to‘kildi,~~ tepsa tebranmas, yetti pushtini biladi, kalla, tomdan tarasha tushgandek, batka, arpasini xom o‘rgan, ichi qora, pashshadan fil yasayapti, bashka.

Ibora	Idioma	Jargon
biti to‘kildi		

2 **O‘qing. Yozing.**

Namuna. *Qorasi ko‘rindi,*

Bu yuklar qumriga qaraganda ikki baravar ko‘proq og‘ir edi. Hammasini yelkamga qo‘yib, bu shahardan ham chiqib ketdim. Oldimda katta bir cho‘li azim paydo bo‘lgan edi, qush uchsa – qanoti, odam yursa – oyog‘i kuyadigan bu cho‘lda yelkamda boyagi yuklar bilan ketib borar edim. Uzoqdan bir kishining qorasi ko‘rina boshladi. Men unga, u menga qarab kelar edik. Nihoyat, to‘qnashdik, bu to‘qnashish mening behad va bepoyon xursandchiligimga sabab bo‘ldi. Chunki bu kishi o‘z shahrimdan, bir mahallalik, mendan bir-ikki yosh kattaroq Omonboy – Tursun pichoqchining o‘g‘li, o‘z o‘rtog‘im edi. Yelkasida yetti yarim qadoqlik ketmon – mardikor ishlab yurgan ekan. U mening ustimdagi yuklarni ko‘rib hayron qoldi. Ayniqsa, gardishni ko‘rib meni chalma quyish uchun qishloqqa chiqib ketyapti, deb o‘ylagan ekan. Yo‘lning chekkasiga chiqib, bu cho‘l-biyobonda bo‘lgan yakkagina jiydaning salqinida o‘tirib hasratlasha ketdik. Yakka jiydada meva ko‘rinmas edi. Men Omonga juda biladiganlarday ma’nodor qarab:

– Jiyda solkasp ko‘rinadi, bu yil meva qilmapti, – dedim. Omon menga qarab kuldi.

– Voy, ahmoq. Hozir saraton. Saratonda jiyda mevalari danagiga alif yozdirish uchun Makkaga ketadi. Bir oydan keyin mevalar qaytib keladi, – dedi. Men esimdan chiqargan ekanman.

Har ikkovimizning ham dunyo qidirib, baxt izlab yurgan o‘spirinligimiz ma’lum bo‘ldi. Mol-u jonni bir qilib, ahd-u paymon qilishdik-da, katta, ulug‘ safarni mo‘ljal oldik. U ham kelgan izi bilan orqaga qaytdi, birgalashib, “cho‘li malik” bilan ketar edik. Kechga yaqin juda ham katta bir “shahar”ga kirib bordik. Bu shaharning oti Ko‘kterak ekan. O‘rtog‘imning yonida mardikorlik bilan topgan puli – mirkam ikki tanga, menda bo‘lsa qatiqdan qolgan ikki tanga bir miri pul bor. Samovarga tushdik. Bozorni kutib, ikki-uch kun shu pullar bilan samovarda tunadik. Juma kuni bozor edi. Erta bilan bozorga chiqdik. Hay-hay, bozor bo‘lganda ham qanday bozor deng? Bu tomoni Eron-u Turon, Makka-yu Madina, Maymana-yu Maysara, Xitoy-u Chin, Istambul-u Mozandaron – na quyi, na past, na o‘ng-u na chap. Bunday katta bozorni odam bolasi ko‘rmagan bo‘lsa kerak. Bozordagi rastalarni ayting, mollarning shig‘al to‘lib ketganligini ayting, bozor ahlining turlanganini ayting. Savdogarlarning makkor basharalarini, rango-rang kiyim-boshlarini ayting. Bay-bay, bunday bozor “Qisas ul-anbiyo”da ham, “Huriliqo” degan kitobda ham yozilmagan, hech qayerda – tarixda yo‘q.

3 **O‘ylang va toping. Gapiring.**

5 yoki 6 kishidan guruhlarga bo‘lining. Guruhdoshlaringiz bilan sinfxonada, ko‘chada qanday jargon so‘zlardan foydalanishingizni aniqlang. Topgan jargon so‘zlar ishtirokida dialog hosil qiling va dialogni rolga kirib bajarib bering.

Anvar: _____?

Sarvar: _____.



4 **Tinglang. Yozing.**

Namuna. *– Professor, _____ rang qolmabdi.*
– Professor, basharangda rang qolmabdi.

Asror o‘tirishi bilan Qamariddin yonidagi ikki bolani “sigaret olib kellaring” deb turg‘izib yubordi.

– Darsdan qochdingmi? – dedi Qamariddin Asrorga diqqat bilan tikilib.

– Qochmadim, chiqib ketdim.

Asror maktabdagi voqeani aytgisi kelmadi.

– Professor, _____ rang qolmabdi. Shunchalik qo‘rqyapsanmi? Sen qo‘rqma. O‘zim o‘tirsam ham _____. Bolalarga ham tayinlayman. Sen yo‘qsan oramizda. Sen ichimizda _____ O‘qishing kerak. Men baribir qamalib ketaman. Bugun bo‘lmasa, ertaga. Senga o‘n besh yil vaqt beraman. Agar o‘n besh yilda professor bo‘lolmasang, _____ qo‘shib yuboraman.

Qamariddin shunday deb uning yelkasiga mushtladi. Asror uni hazillashyapti deb o‘yladi. Yo‘q, Qamariddinning ko‘zida _____ yo‘q edi. Qarashlari jiddiy, hatto o‘ychan edi.

– O‘ninchini bitirib, uyingdan chiqib ket. Gapimga xafa bo‘lma. Otang seni o‘qitgisi kelmayapti. Seni men o‘qitaman. Pulim bor. _____ kuning beraman. Ungacha qamalib ketsam, xat bilan ma’lum qilaman. Kitobni _____ joydan, _____ odamdan olib yubor, desam, pulni tushunaver. O‘zing olib ishlatasan. O‘qimay yurib, pulni yeb yursang... o‘ldiraman.

Qamariddin keyingi gapni _____ qilib aytdi.

5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

2 ta guruhga bo‘lining. Har bir guruh jargon so‘zlarni topib, ularni qog‘ozda yoki pantomima usulida tasvirlaydi. Ikkinchi guruh ushbu so‘zlarni topadi va ma’nolarini izohlaydi.

ni bitirgan kuning beraman. Ungacha qamalib ketsam, xat bilan ma'lum qilaman. Kitobni falon joydan, falon odamdan olib yubor, desam, pulni tushunaver. O'zing olib ishlatasan. O'qimay yurib pulni yeb yursang… o'ldiraman. Qamariddin keyingi gapni sovuqqina qilib aytdi.

5. Guruhlar hosil qilinadi. Bunda birinchi guruh jargon so'zlarni o'ylab, ularni qog'ozga chizib, tasvirlaydi, ikkinchi guruh esa so'zlar talaffuzini topib, ma'nosini izohlaydi.

6. Namunada berilgan sabab bog'lovchilaridan mosi qo'yilib, sabab ergash gapli qo'shma gaplar daftarga yozdiriladi.



6 O'ylang va toping. Yozing.

Foydalanish uchun so'z va birikmalar: *-dan, tufayli, uchun, ~~chunki~~, deb, shuning uchun, shekilli, sababli.*

Namuna. Uni o'rtoqlari hurmat qilishadi, *chunki* u ko'p narsani biladi.

1. Vazifalarimni tayyorlab bo'lganman, _____ ko'nglim to'q.
2. Kunlar sovigani _____ dalada ishlar to'xtadi.
3. Ishlari yurishmay qolgani _____ Davron ish joyini o'zgartirishga qaror qildi.
4. Bu uylar ilgari qurilgani_____ derazalari eskirib ketgan edi.
5. Kun issiq bo'lgani _____ biz ishni to'xtatdik.
6. U qiziq gap aytdi _____, hamma kulib yubordi.
7. O'rtoqlarim kutib qolishdi _____ tezda ko'chaga chiqdim.

Mustaqil topshiriq

Xorijdagi do'stingizga elektron xat yozing. Unda o'z maqsadlaringiz, kelajakdagi rejalaringizni bayon qiling.

134

Mustaqil topshiriq. Xorijdagi do'stiga elektron xat yozish, unda o'z maqsadlari, kelajakdagi rejalarini bayon qilish.

SPORT: KECHA VA BUGUN!

SPORT – HAYOT, QUVONCH, SOG'LIQ

Maqsad: mavzu yuzasidan fikrlarini og'zaki va yozma nutqda ifodalay olish, matnlarni tinglab tushunish, o'qib tushunish, qayta hikoya qila olish, to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplarni nutqda to'g'ri qo'llay olish.

Refleksiya: iboralar, idiomalar, jargonlarning bir-biridan farqlanuvchi xususiyatlari haqida, sabab ergash gapli qo'shma gap haqida suhbat yuritiladi, mustaqil topshiriq tekshiriladi.

Vazifalar:

1. Rasmlarga qarab "Sport: kecha va bugun", "Zamonaviy sport turlari", "Olimpiada o'yinlari" mavzularida suhbat o'tkaziladi. Bunda o'zbek milliy sport turlari,

O‘zbekistonda sportga bo‘lgan e’tibor, O‘zbekiston sportchilari haqida mulohazalar bildiriladi.

2. “Salomatlik garovi” matni o‘qitilib, mazmuni tahlil qildiriladi. Sportning inson hayotidagi o‘rni, salomatlik uchun muhim omil ekani to‘g‘risida fikr bildiriladi.

3. Gaplar oxiridagi kesimlik shakllaridan mazmunan mos keladigani qo‘yilib, daftarga yozdiriladi: *sport bilan shug‘ullanadigan inson o‘zida tetiklik his qiladi. Mashg‘ulot paytida inson organizmida qon aylanishi faollashadi. Noto‘g‘ri ovqatlanish va zararli odatlar inson salomatligining dushmanidir. Insonning ichki a’zolari mashg‘ulot vaqtida ishlaydi. Sog‘lig‘imiz bizning eng katta boyligimizdir.*

Diqqat qiling. To‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gap haqida tushuncha beriladi. Bunday atalishiga sabab shundaki, bunday gap tarkibidagi ergash gap bosh gapning mazmuniga zid bo‘lsa ham, unda ifodalangan voqea-hodisaning ro‘y berishiga to‘siq bo‘la olmaydigan fikrni anglatadi. **-sa ham, -sa-da, -ga qaramasdan** kabi faol vositalar yordamida hosil bo‘lishi tushuntiriladi. Namuna: *singlim bilan boshqa-boshqa qit’ada yasha**sak ham**, har kuni suhbatlashamiz. Xona eshigi ochiq bo‘l**sa-da**, ichkarida hech kim yo‘q. Ish vaqti tugagan bo‘lishi**ga qaramasdan**, bu xodim hali ham bosh ko‘tarmay ishlayapti.*

4. Dialog o‘qitiladi. Suhbatdoshlar fikrlariga munosabat bildiriladi. O‘quvchilar dialogni davom ettiradilar. Jismoniy sport turlari, aqliy sport turlari haqida o‘z fikrlarini ifodalaydilar.

Sport kecha va bugun!

MAVZU

Sport — hayot, quvonch, sog‘liq

1 **O‘ylang va toping. Gapiring.**

5 yoki 6 kishidan guruhlarga bo‘lining. Guruhdoshlaringiz bilan sinfxonada, ko‘chada qanday jargon so‘zlardan foydalanishingizni aniqlang. Topgan jargon so‘zlar ishtirokida dialog hosil qiling va uni rolga kirib ijro eting.



2 **O‘qing.**

SALOMATLIK GAROVI

Sport – go‘zallik, nafosat, jasorat, matonat va, eng asosiysi, salomatlikdir. Sport bilan muntazam shug‘ullanib yurgan inson doimo o‘zini tetik va yengil sezadi. Sport mashg‘ulotlari inson organizmining faol ishlashini ta’minlab turadi.

Mashg‘ulot yuklamalari natijasida qon aylanishi faollashadi. Qon aylanishining yuqori bosimdagi faol harakati esa moddalar almashinuvini faollashtiradi.

Kundalik sport yuklamalarimiz qanchalik ko‘p bo‘lsa, ichki holatimizga ham sekin-astalik bilan ta’sir ko‘rsatib boradi. Endi ichki a’zolarimiz ham biz bilan birga mashg‘ulot qilmoqda.

Doimiy ravishdagi mashg‘ulotlar va umumiy yuklamalar hajmining ortishi natijasida yurak devori mushaklari baquvvatlashadi, yurak qon tomirlari kengayadi, o‘pka sig‘imi ortadi.

Endi shu holatlarning aksi bo‘lsa-chi? Kamharakatlik, noto‘g‘ri ovqatlanish, zararli odatlar inson salomatligining eng katta dushmanidir.

Olimpiya o‘yinlarining asoschisi Pyer de Kuberten shunday degan: “Chiroyli bo‘laman desang – yugur, sog‘lom bo‘laman desang – yugur, boy bo‘laman desang – yugur!” Demak, sog‘ligimiz bu bizning eng katta boyligimizdir.

3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Sport bilan shug‘ullanadigan inson o‘zida *tetiklik* his qiladi.

1. Mashg‘ulot paytida inson organizmida qon aylanishi *faollashadi / qisqaradi.*
2. Noto‘g‘ri ovqatlanish va zararli odatlar inson *organizmining / salomatligining* dushmanidir.
3. Insonning ichki a’zolari mashg‘ulot vaqtida *toliqadi / ishlaydi.*
4. Sog‘ligimiz bu bizning eng katta *boyligimizdir / xazinamizdir.*

4 **Gapiring.**

– Sen sport bilan shug‘ullanib turasanmi?
– Ha, men sportning suzish turi bilan besh yildan buyon shug‘ullanaman.
– Menga esa shaxmat o‘ynash yoqadi.
– Men shaxmat o‘ynashni bilmayman, lekin kelajakda o‘rganish niyatim bor.
– Shaxmat sport turlari ichida aqlni rivojlantirishga katta yordam beradigan tur hisoblanadi va _____.

5 **Tinglang.**

6 **O‘ylang va toping. Yozing.**

- Golf koptogining tezligi _____ km /h, voleybol koptogining esa _____ km/h.
- Beysbol _____-yilda _____ da paydo bo‘lgan.
- Futbol to‘pi _____ bo‘lakdan tikilgan, ularning _____ tasi oq, _____ tasi qora rangda.
- Shashka o‘yinida birinchi yurishlar soni _____ tadan oshmaydi.
- Boks sporti _____-yilda qonunlashtirilgan.

Mustaqil topshiriq

O‘zingizga yoqqan va ayni paytda shug‘ullanayotgan sport turingiz haqida matn tuzing.

5. Audiomatn eshittiriladi. Faktlar esda qolishi uchun ular qayta so‘zlanadi.
Shashka o‘yinida birinchi yurishning bor-yo‘g‘i 7 varianti mavjud.
Boks qonuniy sport turi sifatida 1900-yilda tan olingan.
Futbol to‘pi 32 bo‘lakdan iborat – 12 ta qora beshburchak va 20 ta oq oltiburchak.
Golf koptogining tezligi 270 km/soatgacha yetadi.
Beysbol 1700-yilda Buyuk Britaniyada paydo bo‘lgan.
Voleybol to‘pining tezligi 130 km/soatga yetadi.
6. Matnga tayangan holda gaplar to‘ldirilib, yozdiriladi.

Mustaqil topshiriq. O‘zi yoqtiradigan, ayni paytda shug‘ullanadigan sport turi haqida yozish.

ANTIQA SPORT TURLARI

Maqsad: antiqa sport turlari haqida o‘z mulohazalarini og‘zaki va yozma bayon eta olish, matnlarni tinglab, o‘qib tushunish, qayta so‘zlab bera olish, savollarga to‘liq javob bera olish.

Refleksiya: sportning hayotimizdagi o‘rni, o‘zbek sportchilari erishgan yutuqlar haqida o‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi, mustaqil topshiriq tahlil qilinadi.

Vazifalar:

1. O‘quvchilar sport turlari tasviri berilgan rasmlarga qarab, shu sport to‘g‘risida so‘zlab beradilar.

2. “Antiqa sport turlari” matni o‘qitiladi va mazmuni tahlil qildiriladi. Bobsley, radiosport turlari insonga foydalimi, yo‘qmi ekanligi haqida fikrlar bildiriladi.

3. Keltirilgan gaplardagi bo‘sh o‘rinlarga foydalanish uchun berilgan so‘z va birikmalardan mosi tanlanib, gaplar daftarga yozdiriladi: ***eng yaxshi xulq-atvor, fikrlashdan ham to‘xtaydilar, hamma***



MAVZU **Antiqa sport turlari**

1 O‘ylang va toping. Gapiring.

Quyidagi sport turlarini nomlari bilan moslashtiring va ular haqida suhbatlashing.

Yunon-rum kurashi
Regbi
Ping-pong
Gandbol
Xokkey
Sambo
Ko‘pkari
Fristayl
Bodibilding

2 O‘qing. Gapiring.

ANTIQA SPORT TURLARI

Bobsley – sport turi bo‘lib, unda yaxlit metalldan yasalgan chanalarda tepalikdan maxsus muzlatilgan trassalar bo‘ylab uchiladi. Chanalarning o‘zi ham bobsley deb ataladi. Chanalar 2 va 4 o‘rinli bo‘lib, ularda faqat erkaklar musobaqalashadilar. Ikki o‘rinli chananing uzunligi 2,7 m, og‘irligi 165 kg, ekipajning vazni 200 kg dan oshmasligi kerak. To‘rt o‘rinli chanada esa bu ko‘rsatkichlar 3,8 m, 230 kg, 400 kg ni tashkil qiladi.

Bobsley sport turi sifatida XIX asrning oxirida Shveytsariyada paydo bo‘lgan. 1924-yildan qishki Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan. Shundan buyon bobsley bo‘yicha jahon chempionatlari o‘tkaziladi. AQSH, Shveytsariya, Germaniya, Italiya sportchilari bobsleyda eng ko‘p muvaffaqiyatga erishganlar.

Radiosport – sportning texnik turi. U qisqa va ultra qisqa to‘lqinlarda havaskorlik radioaloqalarini o‘rnatish, radiogrammalarni tez qabul qilib olish va uzatish, “tulki ovi” (pelengator-priyomniklar yordamida maxfiy uzatgich – “tulki”ni izlash) bo‘yicha turli kompleks musobaqalarni o‘z ichiga oladi. Radiosport bo‘yicha jahon chempionatlari 1925-yildan buyon o‘tkaziladi.

137

narsadan judo bo‘lsa ham, do‘stlarim bilan birga, hamisha jim qolardi.

4. Berilgan qo‘shma gaplar alohida sodda gaplarga aylantirib yozdiriladi: *oftob har kuni kulimsirab uyg‘onadi-yu, odamlarga nur ulashadi – Oftob har kuni kulimsirab uyg‘onadi. U odamlarga nur ulashadi. Tashqariga chiqsak, yomg‘ir yog‘ayotgan ekan – Tashqariga chiqdik. Yomg‘ir yog‘ayotgan ekan. Ko‘chat ekkan kishi daraxtni sindirmaydi, gul ekkan kishi gulzorni payhon qilmaydi – Ko‘chat ekkan kishi daraxtni sindirmaydi. Gul ekkan kishi gulzorni payhon qilmaydi. Tun allaqachon yarim kechadan og‘ib ketgan, biroq ko‘zga hech uyqu kelmaydi – Tun allaqachon yarim kechadan og‘gan. Ko‘zga hech uyqu kelmaydi. Ulardan biri juda quvnoq bo‘lsa, ikkinchisi o‘ta jiddiy edi – Ulardan biri juda quvnoq ekan. Ikkinchisi esa o‘ta jiddiy. Insonga hayot deb atalgan ajib go‘zallik ato etilgan, uni qadrlash kerak – Insonga hayot deb atalgan ajib go‘zallik ato etilgan. Uni qadrlash kerak. Diyor yana kuldi, Nilufarning ham yuzida tabassum paydo bo‘ldi – Diyor yana kuldi. Nilufarning ham yuzida tabassum paydo bo‘ldi.* Har bir gapda sodda gaplarni bir-biridan ajratganda ularning mustaqilligi saqlandimi yoki yo‘qmi, bu haqida aytilishi kerak. Ergashgan qo‘shma gaplarda ergash gap mustaqil bo‘la olmasligi mumkin. Bog‘langan qo‘shma gaplarda esa har ikkala gap ham mustaqil bo‘la olishi aniqlanadi.



O‘zbekiston radiosportchilari jahon musobaqalarida muntazam qatnashib keladilar. Hozirgi vaqtda Toshkent shahri, Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Xorazm viloyatlarida radiotexnika maktablari, shuningdek, sporttexnika klublarida radiosport bo‘yicha 200 ga yaqin to‘garaklar ishlab turibdi.

3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘z va birikmalar: ~~*yaxshisi*~~, *ham, yaxshi, bilan, hamma, hamisha.*

Namuna. *Yaxshisi*, qahramonlarning o‘zlari hikoya qilib bera qolishsin.

1. Insondagi eng _____ xulq-atvor odamlarning qayg‘usiga sherik bo‘lishdir.
2. Odamlar kitob o‘qishdan to‘xtasalar, fikrlashdan _____ to‘xtaydilar.
3. Aqlli odam _____ narsadan judo bo‘lsa ham, do‘stidan voz kechmaydi.
4. Ertaga kechqurun do‘stlarim _____ birga yangi film ko‘ramiz.
5. U dengizga tikilganda _____ jim qolardi, qalbi xotirjam bo‘lib qolardi.

4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Oftob har kuni kulimsirab uyg‘onadi. U odamlarga nur ulashadi.

1. Oftob har kuni kulimsirab uyg‘onadi-yu odamlarga nur ulashadi.
2. Tashqariga chiqsak, yomg‘ir yog‘ayotgan ekan.
3. Ko‘chat ekkan kishi daraxtni sindirmaydi, gul ekkan kishi gulzorni payhon qilmaydi.
4. Tun allaqachon yarim kechadan og‘ib ketgan, biroq ko‘zga hech uyqu kelmaydi.
5. Ulardan biri juda quvnoq bo‘lsa, ikkinchisi o‘ta jiddiy edi.
6. Insonga hayot deb atalgan ajib go‘zallik ato etilgan, uni qadrlash kerak.
7. Diyor yana kuldi, Nilufarning ham yuzida tabassum paydo bo‘ldi.

5 **Tinglang.**

6 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Snoubayk qanday yasalgan?
2. Shaxboks qanday tartibda o‘ynaladi?
3. Suvosti xokkeyining shaybasi nimadan yasaladi?
4. Siz yana qanday g‘aroyib sport o‘yinlari haqida bilasiz?

138

5. Ekstrmal sport turlari haqidagi audiomatn ikki marta o‘quvchilarga eshittiriladi. Mazmuni qayta hikoya qildiriladi. Berilgan faktlarga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi.

Dayving bo‘yicha instruktor Alan Bleyk suvosti xokkeyini o‘ylab topgan. O‘yinning maqsadi – basseyn tubida joylashgan raqib darvozasini zabt etish. Shayba suvga cho‘kishi uchun uning ichi po‘latdan bo‘ladi. O‘yin dastasi (klyushka) esa odatdagidan 30 santimetrga qisqaroq. O‘yinda har biri 6 kishidan iborat 2 ta jamoa ishtirok etadi. Suvosti xokkeyining afzalligi shundaki, uni yoshi, jinsi, gavdasidan qat’i nazar har qanday odam o‘ynashi mumkin, chunki suv turli sportchilarning imkoniyatlarini tenglashtiradi.

Shaxboks – gollandiyalik Ipe Rubing ismli shaxsning ixtirosi. U ushbu sport turi bo‘yicha birinchi jahon chempioni ham bo‘lgan. Shaxboks insonning ham jismoniy, ham aqliy qobiliyatini rivojlantiradi. Uchrashuv 11 raunddan iborat – toq raundlarda shaxmat, juft raundlarda boks o‘ynaladi. Raqiblar ikkala sport turida ham ringda bellashadilar.

Ekstrmal sport turlaridan biri skibob deb ataladi. U qishki sport turlariga kirsa-da, sun'iy qorda ham o'ynasa bo'ladi. Uning asosi sifatida velosiped ramasi olingan. Rama chanani boshqarish uchun kerak. G'ildiraklar o'rniga chang'idan foydalaniladi. Snoubayk deb ataladigan bu uskunaning tezligi 150 km/soatdan oshadi.

6. Matn asosida tuzilgan savollarga javob beriladi.

Mustaqil topshiriq. Qiziqarli sport turlari haqida taqdimot tayyorlash.

ZEHN G'ALABASI

Maqsad: aqliy sport turlari haqida fikrlarini og'zaki va yozma nutqda ifodalay olish, matnlarni tinglab, o'qib tushunish, qayta hikoya qila olish, savollarga asosli va to'liq javob bera olish.

Refleksiya: antiqa va ekstremal sport turlari haqida o'quvchilar bilan suhbat o'tkaziladi, mustaqil topshiriq sifatida tayyorlangan taqdimotlar tahlil qilinadi.

Vazifalar:

1. Rasmlarda tasvirlangan sport turlarining nomlari, u qanday sport turi ekani, inson uchun qanday foydali xususiyatlari borligi to'g'risida so'zlab beriladi.

2. Nodirbek Abdusattorov haqidagi audiomatn eshittiriladi. Qayta hikoya qildiriladi. O'quvchilar shaxmat sport turi, uning inson uchun ahamiyati nimalardan iborat ekaniga o'z munosabatlarini bildiradilar.

Nodirbek 2004-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. O'sha yili o'zbek grossmeysteri Rustam Qosimjonov shaxmat bo'yicha jahon chempionligini qo'lga kiritgan. Nodirbekning otasi farzandlarini shaxmat o'yiniga qiziqtira boshlagan. Akasi va opasining o'yini-



Mustaqil topshiriq

O'zingiz qiziqadigan sport turlari haqida taqdimot tayyorlang.

MAVZU **Zehn g'alabasi**

1 O'ylang va toping. Gapiring.

2 Tinglang.

3 Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Mashhur shaxmatchilardan kimlarni bilasiz?
2. Shaxmat o'yinida nima muhim deb o'ylaysiz?
3. Shaxmat qachon va qayerda paydo bo'lganini bilasizmi?

4 O'qing.

Sog'lom turmush tarzi har bir inson hayotida muhimdir. Sog'lig'ini o'ylaydigan odamlar zararli odatlardan voz kechadilar, to'g'ri ovqatlanish va sportni tanlaydilar.

Sport va sog'lom turmush tarzi bir-biri bilan bog'liq. Sportning salomatlikka ta'siri shundaki, suyaklar kuchayadi, bu esa yiqilish natijasida shikastlanish xavfini kamaytiradi. Yurak chidamli bo'ladi, bu esa keksalikda insult va yurak xuruji ehtimolini kamaytiradi.

Jismoniy mashqlar qon aylanishini yaxshilaydi. Sport va sog'lom turmush tarzi chiroyli bo'lishga yordam beradi. Muntazam jismoniy mashqlar stressni yengillashtiradi, kayfiyatni yaxshilaydi va insonning ish faoliyatini oshiradi. Balki shuning uchun ham o'smirlikdan sport bilan shug'ullanadigan odamlar hatto qarilikda ham yosh ko'rinadi, kasalliklardan kamroq azoblanadi va doimo tabassum qiladi.

139

ni kuzatib boradigan Nodirbek 4 yoshida shaxmat seksiyasida shug‘ullana boshlagan. 5 yoshida u 8 yoshgacha bo‘lgan shaxmatchilar turnirida g‘olib bo‘lgan.

6 yoshida 10 yoshgacha bo‘lgan shaxmatchilarning O‘zbekiston chempionatida g‘olib bo‘lgan Nodirbekka Rustam Qosimjonov murabbiylik qila boshlaydi.

11 yoshida Nodirbek dunyoning eng kuchli 100 nafar yosh shaxmatchilari reytingidan o‘rin oldi.

17 yoshida Nodirbek Abdusattorov shaxmatning rapid (tezkor shaxmat) turida 13 o‘yindan 7 tasida g‘olib bo‘lib, shaxmat tarixida rapid bo‘yicha eng yosh jahon chempioniga aylandi.



5 O‘qing. Yozing.

1 _____ – sport o‘yini, 2 darvozali maxsus maydon da to‘p bilan jamoa bo‘lib o‘ynaladi. _____ to‘pining og‘irligi 410–450 g, aylana diametrining uzunligi 68–70 cm; o‘yinning asosiy vaqti 90 daqiqa (45 daqiqadan 2 bo‘lim, 12–15 daqiqa tanaffus). Maydonda ikkala jamoada 11 kishidan bo‘ladi.

2 _____ – sport turi, har xil vazn toifalarida og‘ir narsalar (shtanga, tosh) ko‘tarishda musobaqalashish. Og‘irliklarni ko‘tarish mashqlari qadimgi zamonlardan ma’lum. Rasmiy musobaqalar esa 1860-yillardan (birinchi marta AQSHda) o‘tkazib kelinadi.

3 _____ – sport turi, belgilangan qoidaga muvofiq ikki sportchining yakkama-yakka olishuvi. _____ san’ati ko‘p xalqlarda qadim zamonlardan buyon ma’lum. _____, ayniqsa, Yunonistonda keng tarqalib, qadimgi Olimpiada musobaqalaridan doimiy o‘rin olib kelgan.

A B C

6 O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna. Eshik sekin ochildi va talaba qiz ruxsat so‘rab kirib keldi. *(va)*

1. Chang-to‘zondan qutuldik deb o‘ylagandik, ammo adashgan ekanmiz.
2. Bu topshiriqni yo o‘zingiz bajaring, yo guruhingiz bilan bajaring.
3. Fizika darsida goh tajriba o‘tkazamiz, goh o‘qituvchimiz masalalarni yechish usullarini o‘rgatadi.
4. Marat qattiq toliqqanini payqadi, ammo uning ruhi tetik edi.
5. Uning yuzida hech qanday o‘zgarish bo‘lmadi, biroq ko‘zlarida bir lahzaga o‘t chaqnagandaq bo‘ldi.
6. Kimki haqiqat tomonda bo‘lsa, u yutib chiqadi.

Mustaqil topshiriq

Shaxmat haqida qiziqarli ma’lumotlarni topib yozing.

Namuna. “Shaxmat” so‘zi forscha “shoh” va arabcha “mot” so‘zlaridan kelib chiqqan va “shoh o‘ldi” degan ma’noni anglatadi.

140

3. Shaxmat o‘yini haqidagi savollarga to‘liq javob beriladi. O‘quvchilar “Menga shaxmat o‘yini yoqadi/yoqmaydi, chunki...” qabilida o‘z mulohazalarini bayon etadilar.

4. Berilgan uch xil sport turi haqidagi ma’lumotlar o‘qitiladi. Qaysi rasm qaysi ma’lumotga tegishliligi aniqlanadi. Bo‘sh o‘rinlarga sport turining nomi qo‘yilib, daftarga yozdiriladi.

5. Matn o‘qitiladi, mazmuni tahlil qildiriladi. O‘quvchilar “Men sog‘lom turmush tarzining mana bu omillariga amal qilaman” mavzusida mulohazalarini bayon etadilar.

6. Berilgan qo‘shma gap qismlarini bog‘laydigan vositalar qavs ichida ko‘rsatilib, gaplar daftarga yozdiriladi.

Mustaqil topshiriq. Shaxmat haqida qiziqarli ma’lumotlarni topib, yozish.

MILLIY KURASH

Maqsad: milliy sport turlari haqida o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma nutqda bayon eta olish, audio, faktologik, voqeaband matnlarni tinglab, o‘qib tushunish.

Refleksiya: sport turlari, sog‘lom turmush tarzi omillari, aqliy sport turlari haqida suhbat yuritiladi, shaxmat haqida topib kelingan qiziqarli ma’lumotlar tahlil qildiriladi.

Vazifalar:

1. Rasmlarda berilgan sport turlariga qarab, namunadagi tartib bo‘yicha ma’lumotlar so‘zlanadi.

2. Matn o‘qitiladi. Berilgan hikoyalar asosida o‘quvchilar o‘z hikoyalarini so‘zlaydilar.

3. To‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gaplardagi bo‘sh o‘rinlarga berilgan vositalardan mos keladigani qo‘yilib, gaplar yozdiriladi: ***buloq qaziyotgan hasharchilar charchab uyquga ketganda ham, Olimjon bezovtalanib aylanib yurar edi. Gulning to‘ni ming yamoq bo‘lsa ham, u gul. Bu ish ozgina mehnat talab qilsa-da, foydasi yo‘q. O‘zi ko‘rmasa ham, bolalari ko‘rar yorug‘likni, – dedi kampir osoyishta tovush bilan. Tilmochning asl ismi Bozorboy bo‘lsada, buni ko‘plar bilmas edi.***

4. Gaplardagi bo‘sh o‘rinlar mazmunan mos keladigan gap qismlari bilan to‘ldiriladi: ***do‘st bilan obod uying, gar bo‘lsa u vayrona ham. Qornimiz och bo‘lsa ham, ko‘zimiz to‘q bo‘lsin. Bo‘lsang hamki qari, bo‘lsang ham chol, qo‘lingga qurol ol. Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa, bulbulga tikandek oshiyon bo‘lmas emish. Kiyinish har bir kishining shaxsiy ishi bo‘lib ko‘rinsa-da, u kishi o‘z didini boshqalarga***



MAVZU **Milliy kurash**

1 O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna. Sport turi: yunon-rum kurashi.
Vatani: Misr.
Ishtirokchilar: ikki kishi.
Musobaqa muddati: ikki daqiqa; uch davra.
O‘zbekiston vakillari: 1992-yildan ishtirok etadi.

2 O‘qing. Gapiring.

Men Azizaman. Yoshim 13 da. 5 yoshimdan beri badiiy gimnastika bilan shug‘ullanaman. Kichkinaligimda bu sport turi bilan shug‘ullanishga qiynalardim. Hozir badiiy gimnastikani qiyin deb hisoblamayman. Shunchaki ko‘proq harakat qilish kerak.

Mening ismim Ahmad. Yoshim 14 da. Kurash bilan 2 yildan beri shug‘ullanaman. Kurash juda qadimiy sport turi hisoblanadi. Bu o‘zbek xalqining milliy sport turidir. Men hozir musobaqaga tayyorlanyapman. Mening orzum – jahon chempionatida qatnashib 1-o‘rinni egallash.

Salom! Mening ismim Jahongir. Men 14 yoshdaman. Boks sport turi bilan shug‘ullanaman. Kelajakda jahon chempionatida ishtirok etib, chempionlikni qo‘lga kiritmoqchiman. Ota-onam men bilan faxrlanishlarini xohlayman.

Men _____ man.

3 O‘ylang va toping. Yozing.

Foydalanish uchun so‘z va qo‘shimchalar: ~~*ham*~~, *-sa ham, -sa-da, -sa, -gan+da ham, -gan paytda (vaqtda) ham.*

Namuna. O‘q yog‘ilib turgan paytda *ham* ona yodga olinadi.

141

yuqtirayotganini unutmasligi kerak. To‘ldirgan chog‘da ham jahonni nurga, quyosh qucha olmas seni daf’atan. U unutgan taqdirda ham, men uni unutmayman.

5. Kurash haqidagi audiomatn eshittiriladi. O‘quvchilar uni qayta hikoya qiladilar. Ma’lumotlarga o‘z munosabatini bildiradilar. Faktlarga e’tibor beradilar.



1. Buloq qaziyotgan hasharchilar charchab uyquga ket _____, Olimjon bezovtalanib aylanib yurar edi.
2. Gulning to'ni ming yamoq bo'l__, u – gul.
3. Bu ish ozgina mehnat talab qil_____, foydasi yo'q.
4. O'zi ko'rma_____, bolalari ko'rar yorug'likni, – dedi kampir osoyishta tovush bilan.
5. Tilmochning asli ismi Bozorboy bo'lsa_____, bu ismni ko'plar bilmas edi.

4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. ... , gar bo'lsa u vayrona ham. – Do'st bilan obod uying, gar bo'lsa u vayrona ham.

Bulbulga tikandek oshiyon bo'lmas emish.
Qornimiz och bo'lsa ham
u kishi o'z didini boshqalarga yuqtirayotganligini unutilmasligi kerak
To'ldirgan chog'da ham jahonni nurga
men uni unutmayman
qo'lingga qurol ol
Do'st bilan obod uying

1. _____, gar bo'lsa u vayrona ham.
2. _____, ko'zimiz to'q bo'lsin.
3. Bo'lsang hamki qari, bo'lsang ham chol, _____.
4. Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa, _____.
5. Kiyinish har bir kishining shaxsiy ishi bo'lib ko'rinsa-da, _____.
6. _____ , quyosh qucha olmas seni daf'atan.
7. U unutgan taqdirda ham, _____.

5 **Tinglang.**

6 **O‘ylang va toping. Yozing.**

1. Zamonaviy sport kurashining asosiy qoidalari XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Yevropaning bir necha mamlakatlarida ishlab chiqilgan.
2. Shifokorlar nazorati ostida 12 yoshdan kurash bilan shug'ullanishga ruxsat etiladi.
3. O'zbek xalq yakka kurashining "belbog'li kurash" deb nomlangan turi ham bor.
4. 2003-yilda O'zbekistonda Xalqaro kurash instituti tuzildi.

Mustaqil topshiriq

"Sport" mavzusida krossvord tuzing.

142

Zamonaviy sport kurashining asosiy qoidalari XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Yevropaning bir necha mamlakatlarida ishlab chiqilgan. 1912-yilda Xalqaro Havaskorlar Kurash Federatsiyasi tuzilgan.

Xalqaro maydonda sport kurashining yunon-rum kurashi, erkin kurash, dzyudo, sambo va boshqa turlari keng tarqalgan. O‘zbek kurashi ham alohida kurash turi sifatida dunyo miqyosida tan olindi.

Kurash insonni kuchli, epchil, chidamli va irodali qilib tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi. U bilan 12 yoshdan shifokorlar nazorati ostida shug‘ullanishga ruxsat etiladi.

Ibn Sino “Tib qonunlari” asarida yozgan: “Kurashning turlari ham bor. Ulardan biri – ikki kurashuvchining biri o‘z raqibining belbog‘idan ushlab o‘ziga tortadi, shu bilan birga o‘z raqibidan qutulishning chorasini qiladi…” Bu ta’rif zamonaviy kurash qoidalariga yaqindir.

O‘zbek xalq yakkakurashining “belbog‘li kurash” deb nomlangan turi ham bor. Farg‘ona vodiysida to‘ylar, sayillar bunday musobaqalarsiz o‘tmaydi. Ahmad polvon, Xo‘ja polvonlar kurashning ana shu turida shuhrat qozonishgan.

Kurashda bo‘g‘ish, raqibga og‘riq beruvchi usullar qo‘llashga ruxsat etilmaydi. Rasmiy musobaqalarda bellashuv vaqti 3 daqiqa qilib belgilangan.

2001-yilda Toshkentda Xalqaro kurash instituti faoliyat ko‘rsata boshladi.

6. T/N/B usulidan foydalangan holda ma’lumotlar belgilanadi va daftarga yozdiriladi.

Mustaqil topshiriq. “Sport” mavzusida krossvord tuzish.

KO‘PKARI

Maqsad: ko‘pkari haqida o‘z mulohazalarini og‘zaki va yozma bayon eta olish, audio va faktologok matnlarni tinglab tushunish, o‘qib tushunish, savollarga to‘liq va atroflicha javob bera olish.

Refleksiya: o‘zbek milliy sport turlari, kurash sportining jahon minbaridagi o‘rni, o‘zbek sportchilari haqida savol-javob o‘tkaziladi, mustaqil topshiriq sifatida tuzilgan krossvordlar ko‘rib chiqiladi.

Vazifalar:

1. Uloq-ko‘pkari haqidagi savollarga javob beriladi. Sport sifatida ko‘pkariga bo‘lgan munosabat ifodalanadi.

2. “Uloq-ko‘pkari” matni o‘qitilib, mazmuni tahlil qildiriladi. Faktlar qayta hikoya qilinadi. Ko‘pkarining jahonda tutgan o‘rni bo‘yicha munosabat bildiriladi.

3. SWOT tahlil usuli yordamida o‘z yoqtirgan sport turi haqida fikr bildiriladi.

4. Gaplardagi bo‘sh o‘rinlar foydalanish uchun berilgan birliklar yordamida to‘ldirilib, yozdiriladi***: bobosi nasihat qildi hamki, Anvar bunga quloq tutmadi. U juda mashhur bo‘lishiga qaramay, nihoyatda kamtar bo‘lgan. Shifokor bo‘la turib ham, bu kasallikning xavfli***



MAVZU **Ko‘pkari**

1 **O‘ylang va toping. Gapiring.**

1. Uloq-ko‘pkari nima?
2. Uloq-ko‘pkarida ishtirok etganmisiz?
3. Uloqda qanday otlar ishtirok etadi?
4. Ushbu sport turi haqida nimalarni bilasiz?

2 **O‘qing. Gapiring.**

ULOQ-KO‘PKARI

Uloq, ko‘pkari – O‘rta Osiyo xalqlarining qadimiy ommaviy, milliy o‘yinlaridan biri. Asosan hosil bayramlari, to‘y va sayillar munosabati bilan o‘tkazilgan.

Uloq tomoshalari oldidan maxsus jarchilar qishloq, ovullarga yuborilib, odamlar gavjum joylarda, bozorlarda uloq kim tomonidan, qayerda, qachon va nima maqsadda o‘tkazilayotganini, unda qo‘yiladigan sovrinlarni e’lon qilgan.

Uloq ko‘ngilochar tomosha yoki shunchaki o‘yin emas. Uloq o‘g‘il bolalar, yigitlarni mard, jasur, epchil, dovyurak qilib tarbiyalash vazifasini bajargan. Uloq o‘yinlari ot naslini yaxshilashga, otlarning chidamli, tez chopadigan zotlarini ko‘paytirishga yordam bergan. Qorabayir, arabi, axaltekin, qurama, laqay, kustanay, qorabog‘ va orlov ot zotlari uloqchi otlar hisoblanadi.

Uloq o‘yinlari sport turiga kiritilgan, xalqaro miqyosda 38 mamlakatda tan olingan. O‘zbekistonda uloq-ko‘pkari bo‘yicha rasmiy musobaqalar, xalqaro turnirlar o‘tkaziladi.

3 **O‘ylang va toping. Gapiring.**

O‘zingiz yoqtirgan sport turini “SWOT tahlili” metodi orqali tahlil qiling.

143

ekaniga aqli yetmabdi. Oftob toblanib turgani holda yomg‘ir yog‘moqda edi. Poyezdga chiptam bor bo‘la turib ham, atayin jo‘namadim.

5. Chap ustundagi mashhur sportchilarga o‘ng ustunda berilgan sport turlaridan mosi tanlanib, gap tuzdiriladi va daftarga yozdiriladi.

6. Audioma’lumot eshittiriladi.



4 O‘ylang va toping. Yozing.

Foydalanish uchun birliklar: *gan(i) bilan, -ga qara+may (-mas+dan), ~~-ganda ham~~, -gan(i) holda, -di hamki, bo‘la turib ham.*

Namuna. Asalari uzoq-uzoqlarga uch*ganda ham*, o‘z uyasini topib keladi.

1. Bobosi nasihat qil___, Anvar bunga quloq tutmadi.
2. U juda mashhur bo‘lishi___, nihoyatda kamtar bo‘lgan.
3. Shifokor ___ , bu kasallikning xavfli ekaniga aqli yetmabdi.
4. Oftob toblanib tur___, yomg‘ir yog‘moqda edi.
5. Poyezdga biletim bor ___, atayin jo‘namadim.

5 O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna. *Oksana Chusovitina – gimnastika bo‘yicha jahon chempioni.*

1. Oksana Chusovitina –	tennis
2. Odil Ahmedov –	dzyudo
3. Murodjon Ahmadaliyev –	futbol
4. Ravshan Ermatov –	shaxmat
5. Rustam Qosimjonov –	futbol
6. Abdulla Tangriyev –	boks
7. Iroda To‘laganova –	gimnastika

6 Tinglang.

7 O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Ko‘pkari bahorda va kuzda o‘tkaziladi. Nima uchun?
2. Ko‘pkarida qatnashadigan ot kuchli, chidamli va past bo‘yli bo‘lishi kerak. Nega?
3. Ko‘pkarida ishtirok etadigan chavandozlar boshiga maxsus qalpoq, keng va qalin chopon va ishton kiyadilar. Nimaga?
4. Ko‘pkari ishtirokchilari tomoshabinlardan uzoqroqda musobaqa qiladilar. Nima sababdan?

Mustaqil topshiriq

Ko‘pkari o‘yinining ssenariysini tartib bilan yozib chiqing va gapirib bering.

144

Uloq turkiy xalqlar, ayniqsa, uning qo‘ng‘irot, qurama, ming, mang‘it, oyrat, yoyilma, kenegas, qipchoq, barlos kabi urug‘lari orasida ommalashgan. Turli joyda har xil qoida bo‘yicha (chortoq, sudratma, marra, poyga, pakka, minbar va boshqa nomlar bilan atalgan) uloq o‘yini uyushtirilgan.

Keyingi yillarda uloq o‘yini sport turiga kiritildi va O‘zbekistonda respublika miqyosida rasmiy musobaqalar, xalqaro turnirlar o‘tkaza boshlandi. 1998-yil Samarqand viloyatining Chelak tumanida, 1999-yil “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bag‘ishlab Navoiy viloyatining Xatirchi tumanida respublika musobaqalari tashkil qilindi. 1-xalqaro musobaqa Navoiy viloyatidagi Islomobod jamoa xo‘jaligida bo‘lib o‘tdi. Unda Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Ozarbayjon, Turkmaniston va O‘zbekiston terma jamoalari bilan birga Navoiy, Samarqand viloyati vakillari alohida jamoa sifatida ishtirok etdi. Uloqning sport turi sifatida xalqaro miqyosda tan olinishida O‘zbekiston Ot sporti va uloq federatsiyasi tomonidan uloq musobaqalarining umumiy qoidalari ishlab chiqilishi va Xalqaro Kok Boru Federatsiyasining ta’sis etilishi muhim rol o‘ynadi. O‘zbekistonda alohida Uloq-ko‘pkari federatsiyasi tuzildi. Federatsiya tuman, viloyat, respublika musobaqalarini uyushtiradi.

7. Matnga tayangan holda savollarga to‘liq javob beriladi.

Mustaqil topshiriq. Ko‘pkari o‘tkazilish jarayonini tartib bilan yozish va gapirishga tayyorlanish.

OLIMPIADA

Maqsad: olimpiada to‘g‘risida o‘z mulohazalarini og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarida bayon eta olish, matnlarni tinglab, o‘qib tushunish, qayta hikoya qila olish, savollarga to‘liq va atroflicha javob bera olish, maqsad ergash gapli qo‘shma gaplarni faol nutq ko‘nikmalarida qo‘llay olish.

Refleksiya: ko‘pkari haqida suhbat uyushtiradi. Mustaqil topshiriq sifatida tuzilgan matnlar tahlil qilinadi.

Vazifalar:

1. Olimpiadalar, ularda namoyish etiladigan sport o‘yinlari haqida mulohaza yuritiladi. Rasmlarda tasvirlangan olimpiada o‘yinlari bo‘yicha munosabat bildiriladi.

2. Olimpiya o‘yinlari tarixi hikoya qilingan matn o‘qitiladi. Qayta hikoya qilinadi. Faktlarga e’tibor qaratiladi.

3. Matn yuzasidan berilgan savollarga javoblar topiladi.

Diqqat qiling. Maqsad ergash gapli qo‘shma gap haqida ma’lumot beriladi. Bunday gap tarkibidagi ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning nima maqsadda bajarilganini ifodalaydi. Maqsad ergash gapli qo‘shma gapni hosil qiladigan faol vositalar – **deb, toki, deya** so‘zlari ko‘rsatiladi. Misollar keltiriladi: *imtihonlarga yaxshilab tayyorlanaman **deb**, hatto o‘quv kurslariga ham yozildi. Qoidalarni yozib, devorga ilib qo‘yaman, **toki** hamma ularga amal qilsin. Yaqin do‘st bo‘laman **deya**, unga hamma sirlarimni aytdim. Zudlik bilan ishga kirishing, **toki** natija a’lo bo‘lsin.*



MAVZU **Olimpiada**

1 O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Olimpiada o‘yinlari haqida fikrlaringiz bilan o‘rtoqlashing.
2. Shu vaqtgacha siz necha marta Olimpiada o‘yinlarini kuzatgansiz?
3. Sizga qaysi sport turining Olimpiadadagi o‘rni qiziq?

2 O‘qing.

Zamonaviy Olimpiya o‘yinlarini tashkil etishni fransuz tarixchisi va yozuvchisi Pyer de Kuberten taklif qilgan. 1894-yilda uning tashabbusi bilan Parijda Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi (XOQ) tashkil etilgan. Olimpiya o‘yinlarining vatani bo‘lgan Gretsiya (Yunoniston) musobaqalarni o‘tkazish joyi sifatida tanlangan va birinchi Olimpiada 1896-yili Afinada bo‘lib o‘tgan. Ushbu sanadan zamonaviy o‘yinlar tarixi boshlangan.

Birinchi o‘yinlarda dunyoning 13 mamlakatidan 311 sportchi ishtirok etgan, ularning barchasi erkaklar bo‘lgan. O‘yinlar dasturiga 43 sport turi kiritilgan.

Birinchi o‘yinlarning natijalari shunchalik ta’sirli va muvaffaqiyatli bo‘lganki, Gretsiya hukumati ularni har doim o‘z hududida o‘tkazishni taklif qildi. Ammo XOQ joyni har 4 yilda bir marta o‘zgartirishga qaror qildi.

1916, 1940 va 1944-yillardagi urushlar tufayli uch marta Olimpiya o‘yinlari bekor qilindi. 2020-yilgi Tokio Olimpiadasi koronavirus pandemiyasi tufayli kechiktirildi.

Birinchi qishki Olimpiya o‘yinlari 1924-yilda yozgi o‘yinlar bilan bir yilda o‘tkazilgan. 1994-yildan beri ularni o‘tkazish yozgi o‘yinlar vaqtiga nisbatan 2 yilga surilgan. Shuning uchun ular o‘z raqamiga ega.

145

4. Aylanalar ichidagi so‘zlardan foydalangan holda gaplar tuzdiriladi va yozdiriladi.

5. Namunada foydalanish uchun berilgan so‘zlardan mosi gaplardagi bo‘sh o‘rinlar o‘rniga qo‘yilib, gaplar yozdiriladi.

6. Audiomatn eshittiriladi. Matn mazmuni tahlil qilinadi. Faktlarga e'tibor qaratiladi.

Olimpiya bayrog'idagi 5 ta halqa 5 ta qit'aning timsoli hisoblanadi. Ushbu halqalardan kamida 1 tasining rangi dunyodagi har bir mamlakatning bayrog'ida bor.

Olimpiada mash'alasini yoqish estafetasi rekordi 2014-yilda sodir bo'lgan. Bu estafeta 2013-yil 7-oktyabrda Moskvada boshlanib, 2014-yil 7-fevralda Sochi shahrida tugagan. Olimpiya mash'alasi 60000 km yo'l bosgan va uni 14000 dan ortiq odam qo'lma-qo'l olib borgan.

Dunyoda qishki Olimpiya o'yinlarida eng ko'p – 260 ta medalni qo'lga kiritgan mamlakat Norvegiyadir.

1952-yilda Finlandiyada boshlangan XV Olimpiya o'yinlari rasmiy ravishda tugallanmagan hisoblanadi. Ularning rasmiy yopilishida eng muhim xulosa – "Olimpiya o'yinlari yopiq deb e'lon qilinadi" jumlasi aytilmagan.

Eng yosh olimpiada ishtirokchisi gretsiyalik gimnastikachi bo'lgan – 1896-yildagi olimpiadada uning yoshi 10 da edi. Eng keksa olimpiya chempioni Belgiyadagi o'yinlarda g'olib chiqqan 72 yoshli sportchi bo'lgan.

7. Matn asosida gaplardagi bo'sh o'rinlar kerakli so'z va birikmalar bilan to'ldirilib, yozdiriladi.



3 **O'ylang va toping. Gapiring.**

1. Nima uchun Olimpiya o'yinlari zamonaviy deb yuritiladi?
2. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tashkil etilganiga necha yil bo'ldi?
3. Ba'zi yillarda Olimpiya o'yinlari nima sababdan bekor qilingan?
4. Nima uchun Olimpiya o'yinlari turlicha raqamlanadi?

4 **O'ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Haqiqatan ham, har bir sportchining eng katta orzusi – *Olimpiada* g'olibi bo'lish.

G'alaba, ~~Olimpiada~~, guruh,yozgi,qishki,ramziy, o'yin, xalqaro, natija

~~Haqiqatan ham~~, manbalarda yozilishicha, shekilli, shunday qilib, demak

5 **O'ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so'z va birikmalar: *naqadar, ~~qancha~~, shuncha, qaramay, qanchalik.*

Namuna. Qancha tirishsam ham, bugungi musobaqada g'olib bo'la olmadim.

1. Do'sti _____ tushuntirmasin, Aziz unga quloq solmadi.
2. _____ go'zal bo'lsa ham tabiat, buning qadriga yetmaydiganlar bor.
3. Mehmonning yoshi ellikdan oshib ketganiga _____, zinadan chopqillab chiqdi.
4. _____ harakat qilmay, baribir bu ishni uddalay olmayapman.

6 **Tinglang.**

Olimpiya bayrog'i.

7 **O'ylang va toping. Yozing.**

1. Olimpiada g'oliblarining eng keksasi _____ yoshda bo'lgan.
2. XV Olimpiya o'yinlari _____ bilan tarixda qolgan.
3. Olimpiada o'yinlarining bayrog'ida _____ timsoli bor.
4. Olimpiada mash'alasi _____-yilda eng uzoq masofani bosib o'tgan.
5. Olimpiya o'yinlarida sportchilari eng ko'p g'olib bo'lgan mamlakat _____.

146

Mustaqil topshiriq. Olimpiya o'yinlarining ramziy timsolini chizish va uning aratilishi haqidagi ma'lumot topish.

PARALIMPIYA O‘YINLARI

Maqsad: mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarida bayon eta olish, matnlarni tinglab, o‘qib tushunish, qayta so‘zlab bera olish, savollarga to‘liq va asosli javob bera olish, intervyu tashkil eta olish, maqsad ergash gapli qo‘shma gaplarni faol nutq ko‘nikmalarida qo‘llay olish.

Refleksiya: olimpiada tushunchasi, olimpiya o‘yinlari haqida suhbat o‘tkaziladi, mustaqil topshiriq tekshiriladi.

Vazifalar:

1. Paralimpiada yuzasidan berilgan savollarga javoblar topiladi. Bunda paralimpiadaning sportdagi o‘rni, ahamiyati, o‘quvchining unga munosabati bayon etiladi.

2. “Ikki xil sport turi bo‘yicha chempion” mavzusidagi intervyu matni diqqat bilan o‘qitiladi. Suhbat davomida bildirilgan fikrlarga munosabat yoritiladi. Ushbu sportchiga yana qanday savollar berish mumkinligi aytiladi.

Diqqat qiling. Intervyu haqidagi nazariy ma’lumot tahlil qilinadi.

3. Audiomatn eshittiriladi, mazmuni tahlil qilinadi. Agito ramzi haqidagi ma’lumotlarga munosabat bildiriladi.



Bu ramzning nomi – **agito**. U paralimpiya o‘yinchilarining shiorini anglatadi: “Kuch harakatda”. Lotin tilida “agito” so‘zi “men harakatlanyapman” degan ma’noga ega. Agito belgisi 2003-yilda paydo bo‘lgan.

Birinchi Paralimpiya o‘yinlari 1960-yil yozida Rimda bo‘lib o‘tgan. Ularda 23 mamlakatdan 400 nafar sportchi ishtirok etgan. Paralimpiya o‘yinlarini Xalqaro Paralimpiya Qo‘mitasi boshqaradi.

Paralimpiya o‘yinlarida suzish, velosport va yengil atletika bo‘yicha bel-



Mustaqil topshiriq

Olimpiya o'yinlarining ramziy timsolini chizing va timsolning yaratilish tarixi haqida ma'lumot toping.

MAVZU **Paralimpiya o‘yinlari**

1 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Paralimpiya nima?
2. Paralimpiya o'yinlari qachon o'tkaziladi?
3. Paralimpiya o'yinlarining maqsadi nima?
4. Paralimpiya sport turlariga qaysilar kiradi?

2 **O‘qing. Gapiring.**

Ikki xil sport turida chempion bo‘lgan o‘zbekistonlik sportchi

Suhbatdoshimiz para-kamondan o‘q otish bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi Ubaydulla Imomqulov bo‘ladi.

– O‘zingiz haqingizda ma’lumot bering.

– 2005-yilda baxtsiz hodisa tufayli qo‘limdan ayrilganman. Shundan so‘ng sport sohasiga qiziqib, 2007-yildan beri shug‘ullanaman.

– Tokiodagi Paralimpiya o‘yinlariga litsenziya yutish imkoni sizda bormi?

– Ha, aprel oyida Italiyada, iyun oyida Chexiyada musobaqalar o‘tkaziladi. Bu turnirlarda qatnashib, munosib o‘rinlar olishga harakat qilaman.

– Sevimli mashg‘ulotlaringiz...

– Futbol va kompyuter.

– Nechta davlatda bo‘lgansiz?

– Daniya, Belarus, Ukraina, Birlashgan Arab Amirliklari, Polsha, Janubiy Koreyada bo‘lganman.

– Hayot sinovlarida sizni oldinga boshlab turuvchi narsa nima?

– Paralimpiya o‘yinlarida ishtirok etish orzusi doim meni olg‘a intilishga undaydi.

147

lashuvlarda nogironlik aravachasi va protezlardan foydalanadigan sportchilar qatnashadilar. Ularga yordamchilar biriktiriladi. Futbolchilar ko‘zlari bog‘langan holda, voleybolchilar esa o‘tirgan holatda o‘ynaydilar. Bu barcha sportchilar uchun bir xil sharoitni ta’minlaydi.

Paralimpiya o‘yinlarining o‘z sport turlari ham bor: bular golbol va bochcha o‘yinlaridir. Golbolda ko‘zi ojiz sportchilar ichida qo‘ng‘iroqlari bor og‘ir to‘pni o‘ynaydilar. Bochchada esa nogironligi og‘ir darajada bo‘lgan sportchilar sharni g‘ildiratib, otib, marraga imkon qadar yaqinroq yetkazishda musobaqa qiladilar.

4. Matnga tayangan holda vazifa bajariladi: nuqtalar o‘rniga berilgan vositalardan mosi qo‘yilib, gaplar yozdiriladi.



Intervyu (inglizcha, *“suhbat”*) – bir shaxsning ikki va undan ortiq shaxs bilan dolzarb ahamiyatga ega axborotni savol-javob ko'rinishida almashishi. Ushbu dialogda faktlar va izohlarni savollarga javob berayotgan shaxs keltiradi. Intervyuning qiziqarliligi savol berayotgan shaxsning muloqot mahoratiga bog'liq. Intervyu olishda o'quvchi, tinglovchi yoki ko'ruvchi auditoriyaning qiziqishlari, xohish-istaklari, ehtiyojlaridan kelib chiqish lozim.

Intervyu o'tkazish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:
- intervyu obyektini tanlash, savollarni tuzib chiqish;
- intervyu olish joyi hamda vaqtini belgilab olish;
- intervyuni o'tkazish;
- ma'lumotlarni qayta ishlash, intervyuni shakllantirish va yozish.

3 **Tinglang.**

Agito

4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘z va birikmalar: *deb, uchun, toki.*

Namuna. Olimpiadada ishtirok etaman *deb* sportchilar yillar davomida muntazam shug'ullanadilar.

1. Farzandi sport bilan shug'ullanishi _____ ota-onalar hamma sharoitni yaratib beradilar.
2. Orzulariga erishish _____ u juda ko'p mashaqqatlarni yengib o'tdi.
3. Paralimpiya sport turlarini rivojlantirish zarur, _____ imkoniyati cheklangan insonlar jamiyatning zarur a'zolari ekanliklarini sezishsin.
4. Nabiram mashhur sportchi bo'ladi _____ bobom meni yoshligimdan sport maktabiga olib borganlar.

Mustaqil topshiriq

Mashhur sportchi bilan intervyu matnini tuzing.

148

5. Nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan so‘zlardan mosi qo‘yilib, gaplar yozdiriladi.

Mustaqil topshiriq. Mashhur sportchi bilan intervyu matnini tuzish.

76-DARS. YAKUNIY NAZORAT.

77-DARS. XATOLAR USTIDA ISHLASH.

78-DARS. MUSTAHKAMLASH.

IV CHORAK.
DALIL VA ISBOT

BU – FAKT!

G‘AROYIB FAUNA

Maqsad: hozirgi zamon davom fe’llarini faol nutq ko‘nikmalarida ishlata olish. Mavzuga oid faktologik matnlarni o‘qiganda, eshitganda undagi detallarni tushunish. Matnlar asosida kim? nima? qachon? qayerda? nima uchun? singari so‘roqlarga javob bera olish.

Refleksiya: “aktivator 3,2,1” metodi orqali o‘quvchilarning oldingi chorakda o‘tilgan mavzular bo‘yicha 3 ta yodda qolgan, 2 ta muhim bo‘lgan, 1 ta hayotimda qo‘l keladigan ma’lumot savoliga og‘zaki yoki yozma javob berishlarini ta’minlash.

Vazifalar:

1. Berilgan matn elektron dastur orqali ikki marotaba eshittiriladi yoki o‘qituvchi kitobidan o‘qib, tinglatiladi.

Bo‘rilar – afsonaviy mavjudotlar:

– bo‘ri o‘limtik yemaydi;

– bo‘rilar vahshiylar turkumiga kiradi, lekin ba’zan meva va sabzavot yeyishlari aniqlangan;

– bo‘ri vafodordir: o‘ziga juft tanlab, umr bo‘yi u bilan yashaydi, unga xiyonat qilmaydi;

– bo‘ri o‘z jufti vafotidan keyin uch oydan kam bo‘lmagan muddat azador bo‘ladi, bu bir yilgacha cho‘zilishi mumkin;

– bo‘rilar o‘z bolalariga juda ham mehribon bo‘ladi;


Bu – fakt!

MAVZU

G‘aroyib fauna

1 Tinglang.

Bo‘rilar

2 O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna. 1-rasm. Bo‘rilar ba’zan meva va sabzavot yeydi.

Men	qiziqmoq + yap	-man	Biz	qiziqmoq + yap	-miz
Sen		-san	Siz		-siz
U		-ti	Ular		-tilar

150

– bo‘ri bolasi ham ota-onaga yaxshilik qiluvchi jonivor ekan. Sababi: hayvonlar ichida faqat bo‘rigina ota-onasi keksayganda ularni tashlab qo‘ymasdan g‘amxo‘rlik qiladi. Ularni o‘z inida qoldirib, ov qilib, o‘ljani olib kelib, keksa ota-onasini boqib, parvarishlaydi;

– bo‘ri to‘dasining boshida va oxirida to‘da boshchisi va baquvvat bo‘rilar, to‘da o‘rtasida keksa, nimjon, bemor bo‘rilar, bo‘ri bolalari, ona bo‘rilar harakatlanadilar. Shunday qilib, to‘da boshchilari o‘z jamoasidagi zaif bo‘rilarni yo‘lda ham himoya qiladilar



3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Ancha o‘ylab, oxiri bir qarorga *kelyapman.*

1. Ancha o‘ylab, oxiri bir qarorga *keldim.*
2. Ota-onalar o‘z farzandlari uchun juda ko‘p *mehnat qiladi* va *mashaqqat chekadi.*
3. Yurtimiz go‘zalligini tomosha qilish maqsadida turli joylardan sayyohlar *kelishadi.*
4. Bahor elchisi – qaldirg‘och haqida ajoyib afsonalar *o‘qiganman.*
5. Xizmat yuzasidan ko‘p idoralarga *murojaat qildim.*
6. Singlim oliy o‘quv yurtiga kirish uchun mustaqil *tayyorlandi.*

4 **O‘qing. Gapiring.**

Delfinlar juda ham *ajoyib*, sirli jonivorlardir. Ularni yoqtirmaydigan odamlar bo‘lmasa kerak. Delfinlarning idrok etish qobiliyati yuqoriligi va *quvnoq* jonivor ekanligi isbotlangan. Tabiatda delfinlarning 40 dan ortiq turi *mavjud.* Ularning aksariyati *sho‘r* suv havzalarida yashaydi, lekin chuchuk suvda ham yashaydiganlari bor ekan.

Delfin tug‘ilish jarayoni dumi tarafdan boshlanadigan yagona sut emizuvchi jonivor hisoblanadi. Delfinlarda hid bilish qobiliyatidan ko‘ra ko‘rish, eshitish qobiliyati juda kuchlidir. Ular *baland* tovush yuborib, uning aksadosi yordamida bir-birlarini va *yegulikni* topadilar. Hozirgi paytda delfinlarni tutqunlikda ushlamaslik masalasi dolzarb hisoblanadi. Hatto ularning himoyasi uchun qonunlar qabul qilinmoqda.

5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘z va birikmalar: *sho‘x, ~~qiziq~~, muhim, tuzli, bor, ozuqa, kuchli*

Namuna. Delfinlar juda ham *qiziq*, sirli jonivorlardir (*ajoyib*).

6 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Delfinlar haqida yana qanday qiziqarli faktlarni bilasiz?
2. Delfinariylar ochilishi haqida fikringiz qanday?
3. Delfinlar, sizningcha, odamlar qo‘l ostida yashashi kerakmi yoki yo‘qmi?

151

2. Mazkur matn yuzasidan berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi. Rasmlarga tayangan holda tinglangan ma’lumot yuzasidan faktlarni qayta tiklashlariga erishiladi. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilar, so‘ngra boshqa o‘quvchilarni jalb qilish mumkin.









3. Matn asosida sinf darajasiga qarab qo‘shimcha savollar berilishi mumkin.

Masalan: bo‘rilar haqida yana qanday ma’lumotlarni bilasiz? Ular haqida yozilgan qanday asarlarni bilasiz?

Diqqat qiling. Hozirgi zamon davom fe’lini hosil qiladigan **-yap** qo‘shimchasi haqida tushuncha beriladi.

3-topshiriq asosida berilgan gaplarni namunada keltirilgan tartibda hozirgi zamon davom fe'li shaklida yozma tuslashlari amalga oshiriladi. Avval namunadagi jumla ularga og'zaki tushuntiriladi. Sinfning o'zlashtirish darajasini hisobga olish joiz.


7 O'ylang va toping. Yozing.

Namuna. Chigirtka va qoplon *sakrayapti.*

Mustaqil topshiriq

Dunyodagi davlatlarning gerb va bayroqlarida aks etgan jonivorlar haqida ma'lumot toping. Ular haqida faktlar to'plang.

152

3. 4-topshiriqda berilgan faktologik matn o'quvchilarga o'qitiladi. Matn kamida ikki marta o'qitilishi maqsadga muvofiq.

4. Matnda ajratilgan so'zlarning sinonimlari topiladi va hosil bo'lgan sinonim juftlik yozdiriladi.

Masalan: ajoyib = ***qiziq***, *quvnoq* = ***sho'x***, *mavjud* = ***bor***, *sho'r* = ***tuzli***, *baland* = ***kuchli***, *yegulik* = ***ozuqa***, *dolzarb* = ***muhim***.

5. O'quvchilar bilan 6-topshiriqda berilgan savollar asosida ular o'rtasida savol-javob jarayoni tashkil etiladi.

6. O'quvchilarga 7-topshiriqda berilgan rasmlarga qarab, jonivorlarning qanday harakatni amalga oshirayotganlarini ifodalaydigan gaplar tuzdiring. Hozirgi zamon davom fe'lini qo'llashlariga e'tibor bering.

"Bitta fakt" metodidan foydalanib "Bugun men bilib olgan fakt bu – …" gapini yozma to'ldirish vazifasini o'quvchilarga bering va bajarishlarini ta'minlang. Bu jarayonga ikki daqiqa ajrating. Vazifa bajarilgach, uni o'qib berishlarini so'rang.

Mustaqil topshiriq. O'quvchilar dunyodagi davlatlarning gerb va bayroqlarida aks etgan jonivorlar haqida ma'lumot topib kelishlari, ular haqida faktlar to'plashlari kerak.

H_2O

Maqsad: hozirgi – kelasi zamon fe'llarini faol nutqiy ko'nikmada ishlata olish, mavzuga oid faktologik matnlarni o'qiganda, tinglaganda ularni tushunish, qayta so'zlab, tushuntirib bera olish, matn va ma'lumotlar asosida savollarga javob bera olish.

Refleksiya: hozirgi zamon davom fe'li haqida suhbat o'tkaziladi, o'quvchilar dunyodagi davlat gerb va bayroqlarida aks etgan jonivorlar haqida, topgan faktlari haqida so'zlab berishlari, bunda imkon qadar hozirgi zamon fe'llarini qo'llashlari kutiladi.

Vazifalar:

1. Blits so'rovi asosida suv haqida ta'riflar aytiladi. Darslikda berilgan tarmoqlash usuliga muvofiq bu ta'riflar tarmoqlarga joylashtiriladi (yozuv taxtasi yoki boshqa vositada).

2. 2-topshiriqda berilgan ma'lumotlar o'quvchilarga o'qitiladi. Suv haqidagi faktlarga munosabatlarini bildirishlari so'raladi. "Meni hayratda qoldirgan fakt", "Faktlar ichidagi eng qizig'i" kabi mavzularda o'quvchilar bilan suhbat o'tkaziladi. Ajratilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzdirilishi, bu so'zlarning sinonimlari toptirilishi mumkin.

3. Berilgan mashqdagi tartibi aralashtirilgan so'zlar tartibga solinib, gap holatiga keltirilishi o'quvchilarga tushuntiriladi: *Tinch okeani sayyoramizning eng yirik okeani hisoblanadi. Orol dengizi 17000 yil avval paydo bo'lgan. Dunyodagi eng katta ko'l Kaspiy, eng chuqur ko'l esa Baykaldir. Janubiy Amerikada eng uzun daryo oqadi. Venesuelada dunyodagi eng baland shashara – Anxel joylashgan.*

4. Fillar haqidagi faktlar tinglanadi. Qayta so'zlanadi:

- Fillar sichqonlardan qo'rqadi, degan mulohaza asossiz.



MAVZU H_2O

1 O'ylang va toping. Yozing.

Namuna. 1. Suv – gigiyena vositasi.

2 O'qing. Gapiring.

- Suv insonning kisloroddan keyingi ikkinchi ehtiyoji hisoblanadi.
- Odam ovqatsiz olti hafta yashashi mumkin, lekin suvsiz bir hafta ham yashay olmaydi.
- Dunyodagi foydali moddalarni o'zida eng ko'p jamlagan suv quduq suvidir. Inson o'z qo'li bilan bunday aralashmani tayyorlay olmaydi.
- Odam hayoti davomida taxminan 35 tonna suv ichadi.
- Agar kuniga besh stakandan ortiq suv ichsangiz, yurak xuruji xavfi ortga chekinar ekan.
- Yer yuzida ekologik toza suv atigi uch foizni tashkil etadi. U ham ulkan muzliklar tarkibida bo'ladi.
- Eng sersuv mahsulot tarvuzdir. Uning 93 foizini suv tashkil etadi.
- Yer yuzining taxminan 70 foiz qismi suv bilan qoplangan. Ammo uning bir foizigina ichish uchun yaroqli.

153

▸ Fillarning xotirasi juda kuchli. Ular yaxshilikni ham, yomonlikni ham yillar davomida esdan chiqarmaydi. O‘z jamoasi a’zosini uzoq yillar davomida ko‘rmagan bo‘lsa ham, taniydi.

▸ Fil yuragining og‘irligi 25-30 kilogrammni tashkil etadi. Fillar bir kunda 100-200 litr, undan ko‘proq ham suv ichishi mumkin.

▸ Fillar yarim asrdan ortiq yashashi mumkin. Ba’zi fillarning 80 yoshdan oshishi hollari kuzatilgan.

▸ Fillarda dafn etish an’anasi bor. Agar qaysidir fil vafot etsa, qolgan fillar uning tagidan chuqur kavlab, o‘lgan fil ustiga shox-shabbalar tashlab, ko‘mishadi. So‘ng ancha kungacha uning yonida bo‘lishadi. Agar yerda yotgan odamni ko‘rishsa, uni ham o‘lgan gumon qilib, ko‘mishga harakat qilishadi.

▸ Fillar qadim zamonlarda yashagan mamontlar bilan qarindosh hisoblanadi.

▸ Dunyoda fillarning uch turi mavjud: hind fillari, savanna fillari, o‘rmon fillari. Savanna fillari eng yirik fillar hisoblanadi.

▸ Fillarni ovlash dunyoning hamma davlatlarida taqiqlanadi.

▸ Odamlarda bo‘lgani kabi, fillar ichida ham chapaqaylari bo‘ladi.

5. To‘g‘ri/noto‘g‘ri/ma’lumot berilmagan usuli orqali o‘rganilgan faktlar tiklanadi.

Masalan:

Fillar mamontlar avlodi hisoblanadi **– noto‘g‘ri.** Fillar sichqonlardan qo‘rqmaydilar **– to‘g‘ri.** Dunyodagi



3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Atlantika okeanining suvi eng sho‘r suv hisoblanadi.

1. *Okean* : sho‘r suv / Atlantika / eng / hisoblanmoq / suv.
2. *Okean* : yirik / sayyoramiz / hisoblanmoq / Tinch / eng.
3. *Dengiz* : 17000 yil / bo‘lmoq / Orol / avval / paydo.
4. *Ko‘l* : eng / Baykal / chuqur ko‘l / dunyo / esa / Kaspiy / katta ko‘l.
5. *Daryo* : Amerika / eng / oqmoq / Janubiy / uzun.
6. *Sharshara* : Venesuela / baland / dunyo / Anxel / joylashmoq / eng.

4 **Tinglang.**

5 **O‘ylang va toping. Gapiring.**

1. Fillar mamontlar avlodi hisoblanadi.
2. Fillar sichqonlardan qo‘rqmaydi.
3. Dunyodagi ba’zi mamlakatlarda fillarni ovlashga ruxsat etilgan.
4. Fillarning xotirasi yaxshi bo‘ladi.
5. Eng yirik fillar hind fillaridir.
6. Fillarning quloqlaridagi qon tomirlardan hosil bo‘lgan naqsh insonlarning barmoq izlari kabi takrorlanmasligi isbotlangan.

Men	o‘rganmoq + moqda	-man	Biz	o‘rganmoq + moqda	-miz
Sen		-san	Siz		-siz
U		-	Ular		-lar

154



6 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Daryo tinch oqmoqda.

Mustaqil topshiriq

O‘ylang va toping. Yozing.

1. Qo‘lsiz, oyoqsiz, eshik ochar.
2. Teg desam – tegmaydi, tegma desam – tegadi.
3. Tilsiz, aql o‘rgatar.
4. Bir qop un, ichida ustun.
5. Tap-tap etadi, tagidan karvon o‘tadi.
6. Kechqurun tomga g‘o‘za yoysam, ertalab bitta ham qolmaydi.
7. Oq yer ochaman, qora bug‘doy sochaman.

1.	sh	a	m	o	l				
2.									
3.									
4.									
5.									
6.									

155

ba’zi mamlakatlarda fillarni ovlashga ruxsat etilgan **– noto‘g‘ri.** Fillar xotirasi kuchli **– to‘g‘ri.** Eng yirik fillar hind fillaridir **– noto‘g‘ri.** Fillar quloqlaridagi qon tomirlardan hosil bo‘lgan naqsh insonlarning barmoq izlari kabi takrorlanmasligi isbotlangan **– bu ma’lumot faktlarda berilmagan.**

Diqqat qiling. Hozirgi zamon davom fe’lining ***-moqda*** shakli yordamida hosil qilinishi tushuntiriladi.

6. Berilgan rasmlarga qarab ***-moqda*** shaklini qo‘llagan holda gaplar tuzdiriladi.

Mustaqil topshiriq. Topishmoqlar javoblari topilib, kataklarga joylashtiriladi: shamol, lablar, kitob, jiyda, elak, yulduzlar, qog‘oz, yozuv.

OLIYJANOB TADBIRKOR

Maqsad: mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma nutqda ifodalay olish, matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta hikoya qila olish, fe’llarning orttirma nisbat shaklini hosil qiladigan -t,-dir (tir) qo‘shimchalarini faol nutq ko‘nikmalarida qo‘llay olish, orttirma nisbat fe’llarini og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri, o‘rinli ishlata olish.

Refleksiya: o‘quvchilar bilan hozirgi kelasi zamon fe’llari, ularning hosil bo‘lishi haqida suhbat yuritiladi, o‘rganilgan qiziqarli faktlar haqidagi fikrlari so‘raladi.

Vazifalar:

1. Matn elektron dastur orqali yoki o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi.

Kimga ko‘p imkoniyat berilsa, undan ko‘p yordam kutiladi.

Mashhur amerikalik tadbirkor, po‘lat ishlab chiqarish bo‘yicha yirik biznesmen, filantrop (xayriya faoli) Endryu Karnegi ishlab chiqqan nazariyaga ko‘ra, inson hayotining birinchi yarmini



MAVZU **Oliyjanob tadbirkor**

1 **Tinglang.**

2 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Endryu Karnegi____tavallud topgan. A) Amerikada B) Shotlandiyada C) Gollandiyada	**Gaplarni to‘ldiring.** Karnegi ilk faoliyatini _____ boshladi.
Savolga javob bering. Dunyodagi po‘latdan ishlangan ilk ko‘prik nechanchi yil yasaldi?	**Fikringizni bildiring.** Xayriyaga munosabatingiz qanday?

3 **O‘qing. Gapiring.**

Filantroplar, ya’ni xayriya bilan shug‘ullanadigan odamlar buyuk filantrop Endryu Karnegining ushbu fikrlariga amal qilib hayot kechiradilar: “Inson boshqa odamlarga moddiy yordam bermasa, o‘zi ham boyimaydi. Faqat o‘zining boyishini o‘ylab yashaganlar bu dunyodan boy, lekin baxtsiz bo‘lib ketadi...”

Xayriyaga aloqador qiziqarli faktlar.

Filantropiya ham uzoq tarixga ega. U haqidagi ilk ma’lumotlar qadim zamonlarga borib taqaladi.

Rossiyada 2,5 ming xayriya fondi bo‘lib, ularning ma’lum qismi donorlik masalalari bilan bog‘liq.

AQSH xayriya tarixida eng yirik xayriya amerikalik tadbirkor Uorren Baffet bilan bog‘liq bo‘lib, uning hajmi 37 mlrd dollarni tashkil etgan.

AQSH da bolalarni kichik yoshidan xayriya qilishga o‘rgatadilar: bog‘cha bolalari kam ta’minlangan oila farzandlari uchun kiyim va o‘yinchoq ajratish aksiyalarida ishtirok etishadi.

156

moddiy mablag‘ to‘plashga, ikkinchi yarmini esa shu to‘plangan mablag‘ni muhtojlarga tarqatishga sarflashi kerak.



Xayriya ishlari bo'yicha dunyoda eng saxiy davlatlar sifatida Avstraliya, Kanada, Irlandiya davlatlari e'tirof etilgan.

Sietl shahrida yashaydigan 9 yoshli Reychel Bekvis 2011-yilda tug'ilgan kuniga sovg'a o'rniga Afrikada quduq qazilishi uchun xayriya o'tkazilishiga pul sarflash istagini bildirgan. Rejalashtirilgan 300 dollar o'rniga qizcha 220 dollar yig'ishga ulgurdi, bu orada avtohalokatga uchrab, vafot etdi. Bu voqea odamlar e'tiborini jalb etib, xayriya jarayoni qizcha xotirasi uchun endi yanada qizg'in davom etdi. Natijada 1 mln dollar miqdoridagi xayriya puli Afrikaga yuborildi.

4 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Tadbirkor bo'lish uchun qanday xislatlarga ega bo'lish kerak?
2. Tadbirkor bo'lish uchun yaxshi o'qish kerakmi?
3. O'zbekistonda qaysi sohalarda biznes tez rivojlanadi?

Men	gapir~~moq~~ + ayotib	-man	Biz	gapir~~moq~~ + ayotib	-miz
Sen		-san	Siz		-siz
U		-di	Ular		-dilar

5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Alisher hozir yo'lda *ketayotibdi.*

1. Alisher hozir yo'lda (*ketmoq*).
2. Biz imtihon javoblari chiqishini (*kutmoq*).
3. Sport musobaqalari bir haftadan beri (*davom etmoq*).
4. Mana, uch kundirki, yomg'ir hamon (*yog'moq*).
5. Tengdoshlarim kelajakka ishonch bilan (*qaramoq*).

6 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘z va birikmalar: *isimoq, to'planmoq, o'rganmoq, aylanmoq, yordam bermoq, tavsiya etmoq.*

1. Arxeologlar noyob topilmani _____.
2. Kuzning ilk kunlarida havo harorati yozdagidek _____.
3. Oliy ta'lim muassasasiga ilk qadam qo'ygan talabalar dars jadvali atrofida _____.
4. Do'stlarim bilan birgalikda kutubxonadagi kitoblarni saralashda kutubxonachiga _____.
5. Hozirgi paytda ba'zi shifokorlar bemorlarga asosan tabiiy vositalar bilan davolanishni _____.
6. Toza ichimlik suvini tejash masalasi tobora dolzarb muammoga _____.

157

Endryu Karnegi 1835-yil 25-noyabrda Shotlandiyaning Danfermlin qishlog‘ida ishchi oilasida dunyoga keldi. Otasi o‘z uyida to‘quv ustaxonasini tashkil etgan edi. Keyinchalik, 1848-yil 17-mayda, Karnegilar oilasi AQSHga ko‘chib o‘tdi. Endryu ilk mehnat faoliyatini to‘quv fabrikasida boshlagan. Vaqt o‘tib, shu fabrikada loyiha registratori, ya’ni ro‘yxatga oluvchi sifatida ish olib bordi. Tez orada maosh ko‘proq to‘lanadigan ishlarni bajara boshladi: xabar yetkazuvchi, telegraf xizmatchisi. Yillar o‘tib, tajriba orttirgan Endryu “Keystone Bridge Works” temir ko‘priklar kompaniyasiga asos soldi. Kompaniyaning birinchi yirik loyihasi Ogayo daryosidan o‘tkazilgan 90 metrdan ortiq uzunlikdagi ko‘prik bo‘ldi. Tez orada taniqli injener Jeyms Ids taklifiga ko‘ra Karnegi po‘latdan ko‘prik yasashga qaror qildi. Shunday qilib, 1874-yilda dunyodagi ilk po‘latdan yasalgan ko‘prik namoyish etildi.

O‘zining birinchi millionini Endryu Karnegi 1881-yilda ishlab topdi. Xayriyaga o‘ta berilganligi bilan mashhur bo‘ldi. 1910-yilda millatlararo kelishuvni yaxshilash yo‘lida xalqaro huquq, iqtisod, tarix sohalarini tadqiq etish maqsadida Xalqlararo tinchlik va birdamlik fondini tashkil etdi. Nyu Yorkdagi karnegi-xoll, Pittsburgdagi Karnegi muzeyi qurilishi madaniyat sohasiga, Karnegi Korporatsiyasi, Karnegi fondi, Vashingtondagi Karnegi instituti, Karnegi-Mellon universiteti bilan ta’lim sohasi rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan.

Endryu Karnegi 1919-yil 11-avgustda 83 yoshida Lennoksda bronxial pnevmoniyadan vafot etdi.

2. O‘quvchilardan matndagi e’tiborga molik ma’lumotlarni aytib berish so‘raladi.

Matn yuzasidan assessment usuli bo‘yicha topshiriq bajariladi.

Endryu Karnegi ____ tavallud topgan.	**Gapni to‘ldiring:**
A. Amerikada B. Shotlandiyada C. Niderlandiyada	Karnegi ilk faoliyatini _____ boshladi.

Savolga javob bering. Dunyoda po‘latdan ishlangan ilk ko‘prik nechanchi yil yasaldi?	**Fikringizni bildiring.** Xayriyaga munosabatingiz qanday?

Testdagi to‘g‘ri javob **– B**. Savolga javob: dunyoda po‘latdan ishlangan ilk ko‘prik 1874-yilda yasaldi. Gapni to‘ldiramiz: Karnegi ilk faoliyatini to‘quv fabrikasida boshladi. Oxirgi savolga javob tariqasida o‘quvchilar mustaqil fikrlarini bildiradilar.

3. Matn o‘qitilib, mazmuni tahlil qildiriladi. “Filantropiya” atamasiga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi. Endryu Karnegining bildirgan fikriga munosabatlari so‘raladi. Xayriyaga aloqador qiziqarli faktlar ta’sirida o‘quvchilarda hosil bo‘lgan taassurotlarini bayon etishlariga erishiladi. “Katta mablag‘ egasi bo‘lsam, qanday yo‘l tutar edim?”mavzusida munozara yuritiladi.

4. Berilgan savollarga o‘quvchilar to‘liq va asosli javob berishlari lozim.

Diqqat qiling. Hozirgi zamon davom fe’lining ***-ayotib(yotib)*** shaklini olgan fe’llarning tuslanishi berilgan grammatik jadvalga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi, misollar yordamida tushuntirib beriladi.

5. Berilgan gaplar tarkibidagi qavs ichida kelgan fe’llar hozirgi zamon davom shaklida tuslab, yoziladi: *Alisher hozir yo‘lda ketayotibdi. Biz imtihon javoblari chiqishini kutayotibmiz. Sport musobaqalari bir haftadan beri davom etayotibdi. Mana, uch kundirki, yomg‘ir hamon yog‘ayotibdi. Negadir uning ismi yodimdan chiqib qolayotibdi. Tengdoshlarim kelajakka ishonch bilan qarayotibdi.*

6. Berilgan so‘zlardan foydalanib, gaplar to‘ldiriladi va daftarga yozdiriladi. Bunda fe’llarni hozirgi zamon shaklida qo‘llash kerak. Masalan:

Arxeologlar noyob topilmani o‘rganmoqdalar. Kuzning ilk kunlarida havo harorati yozdagidek isimoqda. Oliy ta’lim muassasasiga ilk qadam qo‘ygan talabalar dars jadvali atrofida to‘planmoqdalar. Do‘stlarim bilan birgalikda kutubxonadagi kitoblarni saralashda kutubxonachiga yordam bermoqdamiz. Hozirgi paytda ba’zi shifokorlar bemorlarga asosan tabiiy moddalar bilan davolanishni tavsiya etmoqdalar. Toza ichimlik suvini tejash masalasi tobora dolzarb muammoga aylanmoqda.

Mustaqil topshiriq. O‘quvchilar o‘zlarini qiziqtirgan odam bilan intervyu tashkil etish uchun savollar tuzib keladilar.

FAKTLAR HAQIDA FAKTLAR

Maqsad: fe’llarning hozirgi – kelasi zamon shakllarini faol nutq ko‘nikmalarida qo‘llay olish, faktologik matn, ma’lumotlarni o‘qish, tinglab tushunish, qayta so‘zlab berish, savollarga javob bera olish.

Refleksiya: hozirgi zamon davom fe’lining hosil bo‘lishi, tadbirkorlik haqida fikr bildirish, intervyu uchun savollar tuzish.

Vazifalar:

1. Fakt haqidagi faktlar o‘qitiladi. Har bir faktga munosabat bildiriladi.

2. Faktlar haqidagi faktlardan foydalangan holda o‘quvchilar ma’lumotni qayta tiklaydilar va hosil bo‘lgan natijani yozadilar.

3. Faktlar bo‘yicha egallangan ma’lumotlarga tayanib savollarga javob beradilar. “Faktlar ortidan kelgan faktlar” mazmunida fikr bildirishga urinadilar.

4. Berilgan 13 ta hayotiy fakt audio orqali yoki o‘qituvchi tomonidan o‘qib berib eshittiriladi:

• Inson tanasining qon bilan ta’minlanmaydigan yagona qismi – ko‘zning shoh pardasi. U kislorodni bevosita havodan oladi.

• Inson miyasining sig‘imi 4 terabaytdan oshadi.

• 7 oygacha bo‘lgan yoshda chaqaloq bir vaqtning o‘zida nafas olishi va yutinishi mumkin.

• Bosh turli 29 ta suyakdan tashkil topgan.

• Miyadan chiqqan nerv impulsi 76 metr/soniya tezlikda harakat qiladi.

• Inson miyasi bir kunda dunyodagi barcha telefonlarga qaraganda ko‘proq elektrik impulslar ishlab chiqaradi.

• Inson tanasi tarkibida o‘rtacha: bitta itdagi barcha burgalarni o‘ldirish uchun yetarli miqdorda oltingu-



Mustaqil topshiriq

O‘zingizni qiziqtirgan odam bilan intervyu tashkil etish uchun savollar tuzing.

MAVZU **Faktlar haqida faktlar**

1 **O‘qing. Gapiring.**

“Fakt” so‘zi ikki ma’noda ishlatiladi:
1) haqiqatda sodir bo‘lgan hodisa haqida ma’lumot;
2) xulosa chiqarish uchun xizmat qiladigan, tajribada tasdiqlangan hodisaga asoslangan hukm.

Fanda ishlatiladigan faktlar *ilmiy faktlar* deb ataladi.

Ilmiy faktning belgilari:
1) yangi
2) ishonchli
3) aniq (A)

Ilmiy faktning yangiligi. Oldin ma’lum bo‘lmagan hodisa, biron-bir ko‘rsatkich haqida axborot beradigan ilmiy fakt yangi bilim beradi. Yangi ma’lumot beradigan fakt qayerdan paydo bo‘ladi? Kuzatish va tajriba natijasida yangi fakt aniqlanadi. Yangi ma’lumot qayd qilingandan keyin u ilmiy faktga aylanadi. (B)

Ilmiy faktning ishonchliligi unda qayd etilgan hodisaning real mavjudligi, o‘xshash sharoit va vaziyatda uni takrorlash mumkinligi bilan belgilanadi. O‘tgan asrning boshlarida yapon bakteriologi Xideo Naguchi sariq bezgak kasalini qo‘zg‘atadigan mikroorganizmni kashf etganini e’lon qildi. Bu axborotni sinchkovlik bilan tekshirishganda fakt tasdiqlanmadi. Aslida kasalni organizmda filtrlovchi virus qo‘zg‘atar ekan. Demak, bu fakt ishonchli emas. (D)

Ilmiy faktning aniqligi. Faktlarning mumkin qadar aniq bo‘lishiga tadqiqot vositalari va usullarini takomillashtirish, obyektning miqdoriy qiymati va sifat belgilarini to‘liq qayd etish orqali erishiladi. (E)

2 **O‘ylang va toping. Yozing.**

1. Fakt – tajribada tasdiqlangan hodisa haqidagi hukm. (A)
2. Faktning belgilari uchta. (__)
3. Faktlar ba’zida tasdiqlanmasligi ham mumkin. (__)
4. Ilmiy fakt – bu yangi ma’lumotning axborot ko‘rinishida qayd qilinishi. (__)
5. Bezgak kasalligi haqidagi ma’lumot tasdiqlanmagan. (__)
6. Faktning aniqligi uchun uning sifat belgilari ham muhim. (__)
7. Fakt o‘zida yangilik saqlashi lozim. (__)

158

gurt; 900 ta qalam tayyorlash uchun yetarli uglerod; o‘yinchoq zambarakdan otish uchun yetadigan kaliy; 7 ta sovun tayyorlash uchun yetadigan yog‘ va 50 litrli bochkani to‘ldirish uchun yetarli suv mavjud.

• Inson yuragi hayoti davomida 182 million litrdan ortiq qonni haydaydi.

• Siz ushbu jumlani o‘qishingiz davomida tanangizda 50 mingdan ortiq hujayra o‘lib, yangilari bilan almashadi.

• O‘naqaylar chapaqaylarga qaraganda o‘rtacha 9 yil uzoq umr ko‘radi.

• Inson o‘z tushlarining 90% ini butunlay unutib yuboradi.

• Inson organizmidagi qon tomirlarining umumiy uzunligi taxminan 100 ming km.

• Bahorda nafas olishlar soni kuzga qaraganda o‘rtacha 1/3 martaga ko‘proq bo‘ladi



3 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Faktning uchta muhim xususiyati qaysi?
2. Quyidagi ma'lumot fakt bo'la oladimi? "Umrining oxiriga kelib inson o'rtacha 150 trillion bit ma'lumotni eslab qolgan bo'ladi".
3. Xideo Naguchining ilmiy tadqiqoti qanday yakunlangan?
4. Nima uchun faktning ishonchli bo'lishi muhim?

4 **Tinglang.**

5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

1. Inson tanasining qon bilan ta'minlanmaydigan yagona qismi – _____.
2. 7 oygacha bo'lgan yoshda chaqaloq bir vaqtning o'zida _____ va _____ mumkin.
3. O'naqaylar _____ qaraganda o'rtacha 9 yil uzoq umr ko'radi.
4. Inson o'z _____ 90% ini butunlay unutib yuboradi.
5. Inson organizmidagi _____ umumiy uzunligi taxminan 100 ming km.
6. Bosh 29 ta turli _____ dan tashkil topgan.

Men	tayyorla~~moq~~ + y / a	-man		Biz	tayyorla~~moq~~ + y / a	-miz	
Sen		-san		Siz		-siz	
U		-di		Ular		-dilar	

6 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Sevara Nazarxon bugungi konsertida yangi qo'shig'ini *kuylaydi.*

1. Sevara Nazarxon bugungi konsertida yangi qo'shig'ini _____	bormoq
2. Bizni o'rab turgan atmosferaning har qanday holati ob-havo deb _____	yashamoq
3. Men hoziroq shu kitobni olgani huzuringizga _____	eshitmoq
4. Bugun hammamiz uchun dolzarb bo'lgan masalani _____	hal qilmoq
5. Nihoyat, Diyora bugun o'zi uzoq kutgan xabarni _____	atalmoq
6. Tabiatda insonlar hayvonlar bilan yonma-yon ...	~~kuylamoq~~

159

O‘quvchilar shu faktlar ichidan o‘zlariga ma’qul bo‘lgan, ular uchun kutilmagan hisoblangan, ularni hayratlantirgan faktlarni qayta so‘zlab beradilar.

5. Audio orqali tanishgan faktlardan foydalangan holda mashqda berilgan ma’lumotlar tiklanib, gaplar to‘ldiriladi: *inson tanasining qon bilan ta’minlanmaydigan yagona qismi – ko‘zning shoh pardasi. 7 oygacha bo‘lgan yoshda chaqaloq bir vaqtning o‘zida nafas olishi va yutinishi mumkin. O‘naqaylar chapaqaylarga qaraganda o‘rtacha 9 yil uzoq umr ko‘radi. Inson o‘z tushlarining 90 % ini butunlay unutib yuboradi. Inson organizmidagi qon tomirlarining umumiy uzunligi taxminan 100 ming km. Bosh 29 ta turli suyakdan tashkil topgan.*

Diqqat qiling. Grammatik jadvalga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi, hozirgi-kelasi zamon fe’lini hosil qiladigan ***-a/-y*** shakllari ko‘rib chiqiladi.

6. Berilgan gaplarda nuqtalar o‘rniga o‘ng ustunda keltirilgan fe’llarning mazmunan to‘g‘ri keladigani tanlanib, hozirgi-kelasi zamon shaklida tuslab yozdiriladi: *1-kuylaydi, 2-ataladi, 3-boraman, 4-hal qilamiz, 5-eshitadi, 6-yashaydilar.*

Mustaqil topshiriq. Chap ustunda berilgan maqollarning davomi o‘ng ustundan topilib, yoziladi. Hozirgi-kelasi zamon fe’llari belgilanadi: *sayoq yurma, tayoq*

yeysan. *Nimani eksang, shuni* ***o‘rasan****. Dangasaga ish buyursang, senga* ***aql o‘rgatadi****. Hurmat qilsang,* ***hurmat ko‘rasan****. Ovqatni tuz* ***mazali qiladi****, odamni – do‘st. Yaxshi so‘z* ***kuldiradi****, yomon so‘z* ***o‘ldiradi****. Arpa-bug‘doy bir kuningga* ***yaraydi****, sodiq do‘sting o‘lguningcha* ***yaraydi****. Do‘st achitib* ***gapiradi,*** *dushman kuldirib.*

MUVAFFAQIYATLI BIZNES

Maqsad: voqeaband yoki faktologik matnlarni tinglab, tushunish, qayta hikoya qila olish, kim? nima? qachon? qayerda? nima uchun? kabi so‘roqlarga javob topa olish; elektron xat (email) yoza olish.

Refleksiya: faktlarning hayotimizdagi o‘rni haqida suhbat quriladi, hozirgi-kelasi zamon fe’llari haqida ma’lumot beriladi, maqollarga munosabat bildiriladi

Vazifalar:

1. Berilgan savollarga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi. Har bir savolga javob berayotganda o‘quvchining shu savol doirasidagi fikr-mulohazalari imkon qadar kengroq yoritilishiga erishiladi.

2. “Muvaffaqiyatli biznes turlari” matni o‘qitiladi. Matnda keltirilgan biznes turlariga nisbatan o‘quvchilarning munosabat bildirishlari so‘raladi.

3. Matnga tayangan holda biznes turlari haqidagi ma’lumotlar yozdiriladi.

Masalan: *avtoulovlarni yuvish, gilamlarni yuvish; bayram, marosim kiyimlarini ijaraga berish; matn ko‘chirish va chop etish xizmati…*

4. Audiomatn eshittiriladi.

Maktublarning tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Insonlar orasi-



Mustaqil topshiriq

Namuna. Sayoq yurma, *tayoq yeysan.*

1. Sayoq yurma,	hurmat ko‘rasan.
2. Nimani eksang,	dushman – kuldirib.
3. Dangasaga ish buyursang,	odamni – do‘st.
4. Hurmat qilsang,	sodiq do‘sting o‘lguningcha yaraydi.
5. Ovqatni tuz mazali qiladi,	senga aql o‘rgatadi.
6. Yaxshi so‘z kuldiradi,	shuni o‘rasan.
7. Do‘st achitib gapiradi,	tayoq yeysan.
8. Arpa-bug‘doy bir kuningga yaraydi,	yomon so‘z o‘ldiradi.

MAVZU **Muvaffaqiyatli biznes**

1 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Siz mashhur tadbirkorlardan kimlarni bilasiz?
2. Biznes qilish istagingiz bormi?
3. Biznesda nimalar muhim deb o‘ylaysiz?
4. Biznesingizni nimadan boshlashni xohlaysiz?

2 **O‘qing. Gapiring.**

MUVAFFAQIYATLI BIZNES TURLARI

Tez tayyorlanadigan taomlar. Ushbu biznesning eng oson yo‘li tez ovqatlanish shoxobchasini yuritishdir. Buning uchun ko‘p harakat talab etilmaydi. Asosiy shart – yaxshi joyni tanlash, shoxobchaning rejasini ishlab chiqish. Buning uchun siz odamlarning katta oqimi harakatlanadigan joylarni bilishingiz kerak. U yerda tez tayyorlanadigan taomlarni sotish mumkin. Masalan, bir stakan qahva taxminan 20 ming so‘mga sotiladi. Ushbu ichimlikni tayyorlash uchun ishlatiladigan tarkibiy qismlar esa 5 ming so‘mni tashkil qiladi. Kichkina shoxobchada kuniga taxminan 100 stakan qahva sotiladi. Qahva sotishdan yiliga qancha daromad tushishini hisoblab ko‘ring.

160

da axborot almashish ehtiyoji yuzaga kelganda xatlar paydo bo‘lgan. Ilk maktublar harbiy maqsadlarda jo‘natilgan. Ular Qadimgi Ossuriya, Eron va Misrda keng tarqalgan. U davrlarda piyoda yoki otliq xabarchilardan foydalanilgan. Bugungi kunda biz ularni “kuryer” deb ataymiz. Masalan, Yunonistonda choparlar bir soatda taxminan 10 km masofani bosib o‘tishgan.

Yuliy Sezar Qadimgi Rimda davlat pochtasini yaratgan va xatlarni tashishni tartibga solgan. Uning davrida pochta bekatlari qurilib, xat tashuvchilar ularda dam olib, otlarni almashtirish imkoniyatidan foydalanganlar.

XVI–XVII asrlarda Yevropada haqiqiy pochta muassasalari vujudga kelgan. XIX asrda temiryo‘llar parovozlar paydo bo‘lgach, xatlarni tashish tezligi oshgan va uzoq mamlakatlar bilan xabarlashish imkoniyati yaratilgan.

Hozir qog‘oz maktublar so‘nggi kunlarini boshdan kechirmoqda. Ko‘pchilik elektron xatlarga o‘tib olgan, uyali telefonlardan qisqa xabarlar yuborish ommalashib ketdi. Insonlar konvertdagi xatni o‘qish jarayonidagi quvonch tuyg‘ularini his qilishni unutmoqdalar. Elektron xat bilan qo‘lda ushlash va ko‘p yillar esdalik sifatida saqlash mumkin bo‘lgan xatlarning farqi esa juda katta.

“Pochta”, “kuryer” atamalariga izoh beriladi. Ajratilgan so‘zlarning sinonimlari topiladi. Matn mazmuniga munosabat bildiriladi. Maktubning zamonaviy ko‘rinishlari haqida

Eski mebelni tiklash. So‘nggi paytlarda eski mebellarni qayta tiklash va tashish juda ommalashdi. Sifatli divan va kursilar arzon bo‘lmaydi, shuning uchun ko‘pchilikning yangi mebel sotib olish imkoniyati yo‘q. Uylar va ofislarni yaxshiroq ko‘rinishga keltirish uchun yumshoq mebellar tiklanadigan ustaxonaga topshirilади. Siz buni uyda, garajda yoki mijozning uyida qilishingiz mumkin. Ish uchun sizga bir nechta asbob kerak. Bundan tashqari, mebel tashishga yuk mashina kerak bo‘ladi.



3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

1. Tez tayyorlanadigan taomlar.
2. Eski mebelni tiklash.
3. _____
4. _____
5. _____
6. _____

4 **Tinglang.**



5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Pochta muassasalari *XVI–XVII asrlarda Yevropada* paydo bo‘lgan.

1. Pochta muassasalari _____ paydo bo‘lgan.
2. Temir yo‘llar va parovozlar _____ asrda paydo bo‘lgan.
3. Zamonaviy xat tashuvchilar _____ deb ataladi.
4. Ilk davlat pochtasini _____ yaratgan.
5. Qadimgi pochta bekatlarida _____ almashtirilgan.
6. Choparlar _____ davomida _____ kilometr masofani bosib o‘tgan.

161

Elektron xat (email) – kompyuter tarmog‘i foydalanuvchilari orasida elektron xabarlarni jo‘natish va qabul qilish xizmati. Bu xilda xabar almashish ilk bor 1965-yilda sodir bo‘lgan. Elektron xabarlar elektron manzilga yuboriladi. Ular yordamida oddiy matnlardan tortib mediafayllar, dasturlar, arxivlargacha almashish mumkin. Ularni yetkazib berish tez, qulay va ishonchli sanaladi.

6 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Salomlashish. Quyidagi so‘zlardan foydalanish mumkin:
Salom _____.
Qadrli _____.

Asosiy qism: xat yozishdan maqsadingiz va asosiy takliflaringiz.

Xat yozilayotgan kishiga omad tilash, u bilan uchrashish haqidagi taklif.

Xayrlashish. Quyidagi so‘zlardan foydalanish mumkin: hurmat bilan, cheksiz ishonch bilan, omad va zafarlar tilab...

Ismingiz.

Mustaqil topshiriq

Do‘stingizga birgalikda biznes tashkil qilish taklifi bilan elektron xat yozing.

162

suhbat yuritiladi. “SMS xabarlarni yozish tartibi”, “xabar yozishda imlo qoidalariga rioya qilish kerakmi yoki yo‘qmi?” mazmunida munozara o‘tkaziladi.

5. Matndan foydalangan holda berilgan gaplar to‘ldirib yozdiriladi.

Diqqat qiling. Elektron xat haqidagi ma’lumot o‘qib o‘rganiladi. Elektron maktubning afzalliklari, qulayliklari haqida o‘quvchilar fikr bildiradilar. O‘quvchilar qog‘ozga yozilgan maktub va elektron maktubni qiyoslab, mulohaza yuritadilar.

6. Elektron maktub yozish mashqini amalga oshiradilar.

Mustaqil topshiriq. Do‘stiga hamkorlikda biznes yuritish taklifi bilan murojaat qilib, elektron maktub yozish.

DUNYOGA TANILGAN ISHBILARMONLAR

Maqsad: audiomatnni tinglab tushunish, qayta hikoya qilish, fikrini ifodalay olish, fe’lning orttirma nisbat shakllarini og‘zaki va yozma nutqda mustaqil qo‘llay olish, savollarga javob topa olish.

Refleksiya: biznes turlari haqida suhbat yuritish, email yozishni bilish, pochta tarixi, maktub yozishning davrlar aro shakllanishi haqida tasavvurini yoritish.


MAVZU

Dunyoga tanilgan ishbilarmonlar

1 Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Dunyoning eng boy odamlari qatorida bo'lishni xohlaysizmi?
2. Badavlat bo'lish uchun nima qilish kerak deb o'ylaysiz?
3. Siz badavlat inson bo'lish uchun reja tuzganmisiz?

2 O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna. Jeff Bezos – “Amazon.com” internet-do'koni asoschisi.

Jeff Bezos | Ilon Mask | Bernar Arno

Uorren Baffet | Larri Ellison | Larri Peyj

163

Vazifalar:

1. Berilgan savollar bo‘yicha suhbat yuritiladi. Bunda har bir savolga javobning batafsil berilishi, fikrni asoslash uchun keng mulohaza yuritishga harakat qilinishiga e’tibor qaratiladi. O‘quvchilar “Badavlat bo‘lishim uchun nimalar qilishim kerak?” mavzusida qisqa monolog tayyorlab, uni o‘qib beradilar.

2. Ism-shariflari keltirilgan mashhur insonlar haqidagi ma’lumot topilib, yozdiriladi.

3. Audiomatn eshittiriladi. Jek Maning hayot yo‘li, faoliyati yoritilgan ma’lumotlar o‘quvchilar tomonidan qayta hikoya qilinadi. O‘quvchilar inson hayotida uchraydigan qiyinchiliklar, omadsizlik, yo‘qotishlar haqida fikr bildiradilar. Matn oxirida Jek Ma bildirgan fikr yuzasidan o‘z mulohazalarini bayon etadilar:



Mashhur xitoylik tadbirkor, “Alibaba Group” internet-imperiyasi asoschisi Jek Ma Xitoyda kambag‘al musiqachilar oilasida dunyoga kelgan. U oyiga 15 dollar maosh oladigan oddiy o‘qituvchi bo‘lib ishlagan. Jekning ota-onasi unga boshlang‘ich kapital bera olishmagan.

Jek Maning haqiqiy ismi Ma Yung bo‘lgan. U tug‘ilib o‘sgan shahar AQSH prezidenti Nikson kelganidan keyin juda mashhur bo‘lib ketadi. Ko‘plab mamlakatlardan biznes vakillari bu shaharchaga tashrif buyura boshlaydilar. Yosh Ma mehmonxonada chet elliklar uchun bepul sayohat turlari tashkil qilar edi. Shunda sayyohlar uning ismini talaffuz qilish oson bo‘lishi uchun Jek deb atay boshlashadi. Shunday qilib, u xitoylik Jek Ma bo‘lib qoldi.

Jek, ingliz tilini bilsa-da, maktabda yaxshi o‘qimagan. U yoshligida boshlang‘ich maktabda ikki marta, o‘rta maktabda uch marta testlardan o‘ta olmagan. Ikki marta kollej imtihonlarida uxlab qolgan. Kollejni bitirgach, hamma ish beruvchilardan rad javobini olgan.

Ketma-ket omadsizlikka uchragan Jek Ma mutlaqo yangi ishga qo‘l uradi. Davlat ishidan ketib, hamkori bilan “Alibaba Group” kompaniyasiga asos soladi. Kompaniya kichik va o‘rta biznes vakillarining savdo maydonchasi bo‘ldi. Uning nomi qirq qaroqchi haqidagi ertakdan olingan. Bundan tashqari, “Alibaba” nomi hamma tillarda bir xil talaffuz etiladi.

2002-yilda “Alibaba” o‘zining birinchi daromadini ishlab topadi: u 1 dollarga teng edi. Shu ondan boshlab kompaniya daromadi doimiy ravishda o‘sib boradi. 10 yil o‘tib, kompaniya foydasi trillion yuandan oshib ketadi.

2014-yilda kompaniyaning aksiyalari Nyu York fond birjasiga joylashtiriladi. Natijada Jek Ma kompaniyasi 25 milliard dollar pulni jalb qiladi.

Jek Ma shunday badavlat inson bo‘lsa-da, quyidagi fikrlarni aytgan: *“Mening shaxsiy hayotim yo‘q. Agarda yana bir marta yashash imkoni berilsa, men hozirgidek katta kompaniya qurmas edim. Hayotdan zavq olib yashagan bo‘lar edim”.*

4. Matn asosida keltirilgan savollarga javoblar beriladi.

5. Berilgan gaplardagi fe’l shakllari o‘zgartirib, yozdiriladi: *dunyoda axborot texnologiyalari tez **rivojlanyapti**. Korporatsiya asoschisi haqida film **tomosha qilyapmiz**. Akam yangi biznes-loyihani **boshlayapti**. Ishbilarmonlar bugun majlis **o‘tkazyaptilar**. Jek Ma kompaniyasi uchun yangi loyiha **tayyorlayapti.** Bill Geyts yangi xayriya loyihasi **yaratyapti.***



4 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Jek Maning bolaligi qanday o‘tgan?
2. Jek Maga ota-onasidan qancha meros qolgan?
3. Jek Maning asl ismi nima edi va u nega o‘zgargan?
4. “Alibaba” asoschisi hayotida qanday omadsizliklar bo‘lgan?
5. “Alibaba” firmasi qachondan foyda ko‘ra boshlagan?
6. Jek Maning hayoti haqida fikringizni bildiring.

5 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Dunyoda axborot texnologiyalari tez *rivojlanyapti.*

1. Dunyoda axborot texnologiyalari tez *rivojlanadi.*
2. Korporatsiya asoschisi haqida film *tomosha qilamiz.*
3. Akam yangi biznes loyihani *boshlaydi.*
4. Ishbilarmonlar bugun majlis *o‘tkazadilar.*
5. Jek Ma kompaniyasi uchun yangi loyiha *tayyorlaydi.*
6. Bill Geyts yangi xayriya loyihasi *yaratadi.*

-t, -dir, -tir

6 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Amakim bolalarini shaharda *o‘qityapti.*

1. Amakim bolalarini shaharda (*o‘qi___yapti*).
2. Hovlimizda noyob gullardan (*o‘s___amiz*).
3. Rassomga oilaviy suratimizni (*chiz___ yapmiz*).
4. Tarbiyachi bolalarning kiyimlarini (*kiy___yapti*).
5. Kitoblarimni xonada (*qol___*).
6. Bugun arazlagan o‘rtoqlarimni (*yarash___moqchiman*).

Mustaqil topshiriq

Biznes g‘oyalaringiz ro‘yxatini tuzing. Qanday ishlarni amalga oshirmoqchi ekaningizni ko‘rsating.

165

Diqqat qiling. Grammatik jadvalga e’tibor qaratiladi. Bunda unli tovush bilan tugaydigan va undosh tovush bilan tugaydigan asosga qo‘shiladigan orttirma nisbat qo‘shimchalarining faol shakllari ko‘rib chiqiladi.

6. O‘quvchilar qavs ichidagi nuqtalar o‘rniga orttirma nisbatning mos keladigan qo‘shimchasini qo‘yib, gaplarni ko‘chiradilar: *1-o‘q**it**yapti, 2- o‘s**tir**yapmiz, 3 – chiz**dir**yapmiz, 4 – kiy**dir**yapti, 5-qol**dir**yapman, 6-yarash**tir**moqchiman.*

Mustaqil topshiriq. Biznes-g‘oyalar ro‘yxatini tuzish.

ZAMON QAHRAMONLARI

Maqsad: savollarga javob berish jarayonida fikrini ifodalay olish, matnlarni o‘qib, qayta hikoya qila olish, tinglab tushuna olish, annotatsiya yoza olish.

Refleksiya: mustaqil topshiriq sifatida berilgan biznes g‘oyalar ro‘yxati tekshiriladi, farovon va muvaffaqiyatlarga to‘la hayot uchun nimalarni amalga oshirish kerakligi haqida suhbat yuritiladi.

Vazifalar:

1. Savollarga javob beriladi. “Qahramon”, “zamonamiz qahramonlari” tushunchalarining ma’nosiga oydinlik kiritiladi. Rasmlarga qarab jamiyatda fidoyilik bilan faoliyat ko‘rsatadigan kasb egalari to‘g‘risida fikr bildiriladi.

2. Matn diqqat bilan o‘qitiladi, qayta hikoya qildiriladi. O‘quvchilar unga munosabatlarini bildirib, fikrlarini bayon etadilar.

3. Berilgan topshiriqlarning har biriga bir, ikkita yoki uchta gap bilan javob yozdiriladi.

4. Gaplar tarkibidagi fe’llarga to‘g‘ri keladigan qo‘shimchalar qo‘shilib, yozdiriladi: *xonaga birin-ketin gullar olib kirildi. Ishchilar daladagi ishlarni bitirgach, uylariga yo‘l oldilar. Biz buvim bilan birga bunday sermazmun oqshomlarni ko‘p o‘tkazamiz. U menga bino loyihasini keltirdi. Anvar hunarmand oilasida tug‘ildi. Bugungi munozara mavzusi bo‘yicha bolalar o‘zaro bahslashishdi.*



MAVZU

Zamon qahramonlari

1 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. “Qahramon” degan so‘zni qanday tushunasiz?
2. Buyuk qahramonlardan kimlarni bilasiz?
3. “Zamonamiz qahramonlari” deganda ko‘z o‘ngingizga kimlar keladi?

2 **O‘qing.**

Zamonamiz qahramoni kim?

Barcha davrlar uchun o‘lmas zamona qahramonlari bor-ku! O‘shalarga ergashish, taqlid qilish, intilish, ularni ibrat qilib yoshlarni tarbiyalash mumkin-ku!

Birgina Amir Temur yoki Jaloliddin Manguberdi nomlarini eslasak, qalbimiz faxr-u iftixorga to‘ladi. Ularning hayoti haqida o‘qisak, Vatanni sevish, uni dushmandan himoya qilishni o‘rganamiz. Ular abadiy millatimiz qahramonlari bo‘lib qoladilar.

Yoki Alisher Navoiy bobomizni eslaylik. U zotning barcha turkiy xalqlarni bir til bayrog‘i ostiga birlashtirgani yuzlab avlodlarga ibrat bo‘ladi.

Beruniy, al-Xorazmiy, Ibn Sino, al-Farg‘oniy, Bobur... Bular barcha davrlarda *zamona qahramonlari* deb ta’rif berish mumkin bo‘lgan ulug‘ siymolarimizdir.

Lekin ular shunchalar yuksakdaki, bugungi avlod uchun ularga yetishish qiyin. Ularga taqlid qilish mushkul, faqat havas qilish va munosib avlod bo‘lishga harakat qilish imkoni bor xolos. Qolaversa, ular bilan o‘rtamizda shunchalik katta vaqt masofasi borki, ularni zamonamiz qahramoni sifatida yonimizda his qila olmaymiz. Faqat qalbimiz bilan ramziy zamonamiz qahramonlari deb qabul qilamiz.

166

Diqqat qiling. Annotatsiya haqidagi ma’lumotga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi. Annotatsiya tuzish tartibi tushuntirilib, namuna ko‘rsatiladi.

5. Audioma’lumot eshittiriladi. O‘quvchilar bu ma’lumotlar qaysi asar haqida ekanini topishlari kerakligi ma’lum qilinadi. Ushbu asar haqida o‘quvchilarning fikrlari tinglanadi:

A. Ertak dunyo tillariga eng ko‘p o‘girilgan asarlar qatorida tilga olinadi. Endi sizda Alisa ismli qizaloqning Ko‘zguorti o‘lkasidagi sarguzashtlari, u yerda bir-biridan g‘aroyib jonzotlar bilan tanishishi hamda qirolicha bo‘lish yo‘lida boshdan kechirganlari o‘zbek tilida o‘qish imkoniyati mavjud. Asar, yoshidan qat’i nazar, hech bir kitobxonni befarq qoldirmaydi.



Ammo bizning ham o‘z zamonamiz, o‘z orzularimiz va armonlarimiz, o‘z g‘alabalarimiz va mag‘lubiyatlarimiz, o‘z yaxshilarimiz va yomonlarimiz bor. Shular ichida biz o‘z zamonamiz qahramonlarini izlaymiz. Ular biz bilan bir xil imkoniyatga ega bo‘la turib, bizdan o‘zib ketgan. Ularning dunyoni idrok etishi o‘zgacha, fikrlash tarzi boshqalardan farq qiladi. Ular favqulodda qobiliyati, irodasi, aql-zakovati bilan bizni hayratga soladi, ortidan ergashtiradi. Biz ham o‘z zamonamiz qahramoni bo‘lishni xohlaymiz.

3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

1. Sizning hayotingizda qahramonlik mavqeyini olgan shaxs haqida yozing.
2. Harbiylar, shifokorlar, o‘qituvchilar – ushbu kasblar egalarini qay darajada jamiyatimiz qahramonlari deb atay olamiz?
3. Orzungizdagi qahramonni tasvirlang.

4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Xonaga birin-ketin gullar olib *kirildi.*

1. Xonaga birin-ketin gullar olib kir -il/-indi.
2. Ishchilar daladagi ishlarni bitir -kach/-gach/-qach, uylariga yo‘l oldilar.
3. Biz buvim bilan birga bunday sermazmun oqshomlarni ko‘p o‘t -qaz/-kaz/-gazamiz.
4. U menga bino loyihasini kel -dir/-tirdi.
5. Anvar hunarmand oilada tug‘ -il/-indi.
6. Bugungi munozara mavzusi bo‘yicha bolalar o‘zaro bahs -ladi/-lashdi.

Annotatsiya – kitob haqidagi qisqa ma’lumot. U o‘quvchida asar haqida dastlabki tasavvur hosil qiladi, asardagi voqealarning boshlanishi yoki asarning umumiy mavzusini belgilaydi. Odatda annotatsiya kitobning 2-betida beriladi.

5 **Tinglang.**

Deniel Kiz
“Eljernonga atalgan gullar”

Xudoyberdi To‘xtaboyev
“Sariq devning o‘limi”

Lyuis Kerroll
“Alisa Ko‘zguorti o‘lkasida”

Mustaqil topshiriq

O‘zingiz yaxshi ko‘radigan kitobning annotatsiyasini tuzing.

167

B. Asar AQSHda adabiyot bo‘yicha maktab dasturiga kiritilgan kitoblardan biri bo‘lib, 1966-yilning eng zo‘r romani deb topilgan. Asarning bir necha qismi aqli zaif inson tilidan so‘zlangan bo‘lib, tarjimon qahramon tilini boricha – imloviy va uslubiy jihatdan saqlashga harakat qilgan. Asar matnidagi ayrim g‘ayriodatiy, g‘alati jumlalar imloviy yoki uslubiy xatolar sifatida baholanmaydi.

D. Sarguzasht romanda asar qahramoni Hoshimjon hayotida mas’uliyatli davr boshlanadi. Tabiatan ziyrak, fahm-farosatli Hoshimjon katta bir operatsiyada qatnashib, uning muvaffaqiyatli yakunlanishini ta’minlaydi.

A. Ingliz yozuvchisi Lyuis Kerrollning “Alisa Ko‘zguorti o‘lkasida” asari.

B. Amerikalik yozuvchi Deniel Kizning “Eljernonga atalgan gullar” asari.

D. O‘zbek yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devning o‘limi” asari.

Mustaqil topshiriq. O‘quvchilar o‘zlari yoqtirgan kitob annotatsiyasini tuzadilar.

ANTIQA MASHG‘ULOTLAR

Maqsad: audiomatnlarni tinglab, faktologik matnlarni o‘qib tushunish, qayta so‘zlab bera olish, savollarga javob berish jarayonida o‘z fikrini ifodalay olish, taqriz yoza olish.

Refleksiya: mustaqil topshiriq sifatida tuzish uchun berilgan annotatsiyalar tekshiriladi, zamonamiz qahramonlari hisoblanadigan kasb egalari haqida suhbat olib boriladi, o‘quvchilar o‘zlari uchun haqiqiy qahramon hisoblaydigan odamlari to‘g‘risida so‘zlab beradilar.

Vazifalar:

5. Berilgan savollar orqali o‘quvchilar bilan noodatiy, antiqa mashg‘ulotlar haqida suhbat yuritiladi. Bunday ishlar bilan shug‘ullanishda qanday maqsad ko‘zlanishi mumkinligi haqida o‘quvchilarning fikrlari so‘raladi.

6. Xitoy, AQSH, Janubiy Koreya, Belorusiya, Tayvan kabi davlatlarda olib boriladigan antiqa mashg‘ulotlar haqidagi ma’lumotlar diqqat bilan o‘qib, o‘rganiladi. Har biri to‘g‘risida alohida fikrlar bildiriladi. O‘quvchilardan shu kabi yana qanday mashg‘ulotlarni bilishlari so‘raladi. Masalan: *baland cho‘qqidan beliga arqon bog‘lab, jarlikka sakrash, hasharotlar va sudraluvchilar bilan to‘ldirilgan xonalar ichiga kirish* kabi.

7. Matndan foydalangan holda mashqda berilgan ma’lumotlar **to‘g‘ri/noto‘g‘ri** usulida belgilanib, yozdiriladi.

8. Harbiylik yuzasidan berilgan savollarga javob beriladi, bunda to‘liq va batafsil javoblar bo‘lishi, o‘quvchilar fikrlarini kengroq yoritishlari kutiladi.

Diqqat qiling. Taqriz to‘g‘risidagi ma’lumot o‘qitilib, tushuntiriladi. Namuna ko‘rsatiladi. Taqriz yozish tartibidagi ketma-ketlik izohlab beriladi.

9. Audiomatn eshittiriladi. Matn o‘quvchilar tomonidan qayta tiklanadi. Ular ushbu matn mazmuniga munosabat bildiradilar:



MAVZU

Antiqa mashg‘ulotlar

1 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Siz qanday noodatiy mashg‘ulotlar haqida eshitgansiz?
2. Boshqalarnikiga o‘xshamagan qanday qiziqarli ish bilan mashg‘ul bo‘lishni xohlar edingiz?

2 **O‘qing.**

Bizga ma’lumki, harbiylar necha zamonlardan buyon vatan himoyasiga shaylangan eng fidokor shaxslardir. Hozir ularning ayrim noodatiy, an’anaviy mashg‘ulotlari bilan tanishib chiqamiz.

Rasmda olovli halqaga sakragan askar tasvirlangan. U bunday qo‘rqinchli sinovda oddiy forma kiygan va hujum miltig‘i bilan qurollangan. Mashqdan maqsad: askar haqiqiy jangdagi kabi hayajonni his qilishi va vujudida adrenalin otilib chiqishi kerak.

AQSHdagi Seal harbiy-dengiz flotining taktik bo‘linmasida askarlarni har qanday vaziyatda suvdan qo‘rqmaslikka o‘rgatishadi. Ularning qo‘l va oyoqlarini bog‘lab qo‘yishadi, so‘ng hovuzning tubiga tushib, yana yuqoriga ko‘tarilishga, hovuz tubiga tegmasdan uzunasiga suzishga, suv tagida salto otishga va shunga o‘xshash mashqlarni bajarishga majbur qilishadi. Mashq yana ham murakkablashtiriladi: instruktorlar jang shartlariga taqlid qilib, vaqti-vaqti bilan mashq qilayotganlarga hujum qiladi va ularni cho‘ktirishga urinadi.

Harbiy qo‘shinni birlashtirish uchun tez-tez orkestr, marshlar va hokazolardan foydalaniladi. Lekin Xitoy askarlari bu borada ham ajralib turadi. Ular bellarida bambuk tayog‘i, boshlarida g‘isht sindirish bilan mashhur bo‘lgan.

168

“Tanishib qo‘yaylik: otim – Hoshim, erkalatib chaqirmoqchi bo‘lsangiz Hoshimjon deb ataysiz. Familiyam – Ro‘ziyev... ”. Bu mashhur ism, familiyani esladingizmi? Taniqli asarning taniqli qahramoni boshidan kechirgan sarguzashtlarni bolaligida sevib o‘qimagan o‘quvchi kam bo‘lsa kerak. Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asari va ayniqsa, Hoshimjon Ro‘ziyevdek qahramoni ko‘pchilikning yodida aniq-tiniq saqlanib qolgan, desak adashmaymiz.

Rejissyorlar Sarvar Karimov hamda Nozim Jumayev ushbu asarda aks etgan muhit, qahramon tushadigan sarguzashtli voqea va holatlarni ssenariyda bugungi zamon muhitiga moslaydi. Filmning kirish qismida sehrli qalpoqchaning yaralishi, bunga nima sabab bo‘lganligi tarixi ochib beriladi. Unga ko‘ra, qadim zamonda bir qishloqqa dushmanlar bostirib keladi, begunoh onalar, bolalarni qiynoqqa soladi. Bu mudhishliklarni ko‘rgan olim, kimki boshiga kiysa, ko‘rinmas bo‘lib qolish xususiyatiga ega sehrli qalpoqni yaratadi. U dushmanlardan shu tarzda qasos oladi va qalpoqni qutiga soladi-yu, o‘zi bilan olib ketmaydi. Tarixiy ko‘rinishda tasvirlangan ushbu kadrlardan so‘ng tomoshabin bugungi kunga qaytadi va Hoshimjon bilan tanishadi.

Hoshimjon rolida Bunyod Rahmatullayev. U gavdalantirgan Hoshimjon – dangasa, xayolparast, o‘qish va ish qilishdan bo‘yin tovlaydigan bola. Hatto, maktab direktoriga “matematika, fizika kabi fanlar o‘rni-



Belarusda harbiylarning maxsus bo'linmasi qatoriga qo'shilish uchun bir necha qiyin sinovlardan o'tish lozim: 10 kilometrlik marsh-sakrash, mustahkamlash shturmi, qo'l jangi, baland bino shturmi va akrobatik bilimlar sinovlari. Lekin askarlar xodadan oson o'tmaydilar: ularning tagida olov yonib turadi, ularga avtomobil pokrishkasini otishadi. Bundan tashqari, ularni xodadan tushirib yuborish uchun o'q ham uzishadi.

“Jannatga yo'l” – Tayvanda dengiz piyoda askarlarini tayyorlash bo'yicha 9 haftalik intensiv dasturning oxirgi bosqichi. Askarlar yarim yalang'och holda 50 metrlik marjon qoyalardan emaklab o'tishlari kerak bo'ladi.

3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

1. Xitoy maxsus bo'linmasiga a'zo bo'lish uchun quyidagi testlardan muvaffaqiyatli o'tish lozim: 10 kilometrlik marsh-sakrash, mustahkamlash shturmi, qo'l jangi, baland bino shturmi va akrobatik sinovlar.
2. G'ishtlarni bosh bilan sindirish – Koreya va Xitoy harbiylariga xos mashg'ulot.
3. Suvosti sinovlaridan Rossiya harbiylari o'tadilar.
4. Olov halqalardan sakrash amaliyoti Xitoy harbiylarining mashg'ulot turi hisoblanadi.
5. Tayvandagi askarlar yarim yalang'och holda 50 metrlik marjon qoyalardan emaklab o'tishlari kerak.
6. Olov ustida muvozanat saqlash mashqlari faqatgina maxsus bo'linmaga o'tish uchun bajariladi.

4 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Harbiy soha vakili bo'lishni istarmidingiz?
2. Siz harbiylar bajaradigan mashg'ulot turlaridan qaysilarini bilasiz?
3. Ushbu sohaga bo'lgan qiziqish yoki vatanga sadoqat bilan xizmat qilish hissini shu kabi qiyin mashg'ulotlar so'ndira oladimi?

169

Taqriz qanday yoziladi?

Taqriz – badiiy yoki ilmiy asarning tahlili. Taqrizda asarning umumiy mazmuni, unda ko'tarilgan muammolar, o'quvchilar uchun ahamiyati haqida ma'lumot bo'ladi. Asarga baho beriladi, uning ijobiy jihatlari va kamchiliklari ko'rsatiladi.

Taqriz yozishda quyidagi tartibda ishlash tavsiya qilinadi:

1. Taqriz yoziladigan matn (kitob, asar, maqola, ilmiy ish va hokazolar)ni o'qib chiqing.
2. Matnni o'qish davomida olgan taassurotlaringizni yozib boring.
3. Taqrizingiz qanday savolga javob bo'lishi kerakligini aniqlab oling.
4. Taqrizning kirish qismiga asar nomi, muallifning ism-sharifini yozing.
5. Asar haqida umumiy ma'lumotlar keltiring.
6. Asarning asosiy qismlari bo'yicha xulosalaringizni ifodalang.
7. Asar bo'yicha umumiy xulosani shakllantiring.
8. Taqriz yakunida o'zingiz haqingizdagi ma'lumotlarni ko'rsating.

5 **Tinglang.**



Mustaqil topshiriq

O'zingiz yoqtirgan asar yoki filmga taqriz yozing.

170

ga jismoniy tarbiya singari fanlarini qo‘yish” talabi bilan ariza yozadi. Shundan kundalikdagi baholari ham “2” dan oshay demaydi.

Kunlarning birida u barcha tilaklarni bajaradigan sehrli qalpoqcha topib oladi. Birinchi galda mahalladagi folbin ayolning sirini fosh qiladi, mahalla bolalari o‘rtasidagi futbol musobaqasida jamoasiga yordam beradi, sinf jurnaliga o‘zi va do‘sti uchun “5” baholarni “tortiq qiladi”. Biroq shu yerda siri fosh bo‘ladi-yu, o‘qituvchi va maktab direktorining “Sen hech kim bo‘la olmaysan” degan dakkisiga javoban “Bo‘la olaman” deya xonani tark etadi.

Qo‘lidagi sehrli qalpoqcha yordamida shu gapini isbotlash istagida yo‘lga tushadi.

Hoshimjon turli-tuman sarguzashtlarni boshidan kechiradi: agronom, shoir, o‘qituvchi bo‘lib ko‘radi. Oxiri, inson mehnatsiz hech nimaga erisha olmasligini tushunib yetadi, sehrli qalpoqcha unga hamma narsani bera olishini, lekin aql bera olmasligini anglaydi.

Xulosa qilib aytganda, film so‘nggi yillarda bolalar mavzusida yaratilgan o‘zbek filmlari orasida yarq etdi va ko‘plab katta-yu kichik tomoshabinlarga manzur bo‘ldi, deb ayta olamiz.

Mustaqil topshiriq. O‘quvchilar o‘zlari yoqtirgan asar yoki filmga taqriz yozib keladilar.

O‘ZGARUVCHAN DUNYO

Maqsad: fikrni mustaqil ifodalay olish, audiomatnni tinglab tushuna olish, faktologik matnni o‘qib, qayta so‘zlay olish, fe’llarning majhul va o‘zlik nisbat shakllarini og‘zaki va yozma nutqda o‘rinli va to‘g‘ri qo‘llay olish.

Refleksiya: uyda yozib kelingan taqrizlar tekshiriladi, ular yuzasidan o‘quvchilar fikrlari so‘raladi, antiqa mashg‘ulotlar haqida suhbatlashiladi.

Vazifalar:

1. Rasmlarda tasvirlangan mashhur shaxslar haqida o‘quvchilar ma’lumot beradilar. Har bir rasmdagi odamning qanday qilib mashhur bo‘lgani, insoniyat uchun qilgan xizmatlari haqida bilganlarini so‘zlaydilar.

2. Matn o‘qib, mazmuni tahlil qilinadi. Uning qahramonlari haqidagi ma’lumotlarga o‘quvchilar o‘z munosabatlarini bildiradilar. Bu insonlarning shunday mavqega erishishlari yo‘lida qilgan mehnatlariga e’tibor qaratiladi. Har qanday muvaffaqiyat ortida og‘ir mehnat, sabr va matonat borligi o‘quvchilarga tushuntiriladi.

3. Matn yordamida savollarga javob beriladi.

4. Berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzdirilib, yozdiriladi: *ko‘pdan beri egalari xorijda yashaydigan uy kecha **sotildi.** Do‘kondan rejalashtirilgan hamma mahsulotlar **olindi.** Bolalar bugun shu qariyaning uyiga **borishdi**. Kema barcha qulayliklar inobatga olingan holda **yasaldi**. Saida ukasini uyg‘otib, **kiyintirdi**. Jamoamiz bu musobaqada **yutqizdi.** Bemor dorini ichgach, **tinchlandi.** Bahodir birinchi o‘rinni egallaganini eshitib, behad **shodlandi.***

5. Audio yordamida turli qiziqarli faktlar eshittiriladi. O‘quvchilar ularni qayta so‘zlaydilar.

• Dunyodagi birinchi elektron xabar 1971-yilda yo‘llangan.

• Eng birinchi sayt 1991-yilning 6-avgustida paydo bo‘lgan.

• Birinchi “smaylik”ni Skott Falman yaratgan. “Smaylik” kayfiyatni ifodalovchi mashhur ramzlardan biri hisoblanadi.

• YouTube kanalida har daqiqada davomiyligi 100 soat bo‘lgan yangi materiallar joylanadi.

• “Spam” so‘zining kelib chiqishi qiziq. Spam – jonga teguvchi va tinimsiz reklama hisobiga mashhurlikka erishgan go‘sht konservalari nomi.

• Ilk veb-kamera Kembrij universitetida paydo bo‘lgan. Ushbu veb-kamera dastlab qahvadamlagichda o‘rnatilgan bo‘lib, uning vazifasi qahvaning tayyor yo tayyor emasligini kuzatish bo‘lgan.

• Google qidiruv tizimiga bir oyda



MAVZU

O‘zgaruvchan dunyo

1 **Gapiring.**

Quyidagi mashhur shaxslar haqida nimalarni bilasiz?

2 **O‘qing.**

INFORMATSION TEXNOLOGIYALAR SOHASIDAGI TANIQLI TADBIRKORLAR 30 YOSHGACHA NIMA BILAN SHUG‘ULLANGAN?

Dunyoga mashhur ixtirochi, milliarder Ilon Mask 10 yoshida dasturlashni o‘rganadi. 12 yoshida kompyuter o‘yini yaratib, uni 500 AQSH dollariga pullaydi. U bu pulni yangi ochilgan dori ishlab chiqaruvchi kompaniyaga investitsiya qiladi. Yillar o‘tib dori kompaniyasi rivojlanib ketadi. Ilon kiritgan sarmoya esa unga o‘n barobar ko‘p foyda keltiradi.

Mask 1995-yilda birinchi kompaniyasi – “Zip2” startapini ishga tushirdi. U yangiliklar nashrlari kontentini internetga joylash imkonini bergan. 1999-yilda startapni “Compaq” tashkiloti 304 million dollarga xarid qildi. Ilon Maskka shuning 20 millioni tegdi va u 28 yoshida millionerga aylandi.

Stiv Jobs 12 yoshida “Hewlett-Packard” kompaniyasida yozgi ishga qabul qilindi va u yerda Stiven Voznyak bilan tanishdi. 16 yoshida esa Kapitan Kranch ismli mashhur haker bilan uchrashdi. Undan maslahatlar olib, Voznyak dunyo bo‘yicha bepul qo‘ng‘iroqlarni amalga oshirish imkonini beruvchi “Ko‘k quti”ni yaratdi, Jobs esa uni sotish bilan shug‘ullandi.

1972-yilda Jobs kollejga o‘qishga kirdi. Ammo birinchi semestrdan keyinoq o‘qishni tashlab, kampusda bekorchi bo‘lib yurdi. Keyinroq u “Atari” firmasiga ishga kirib, Hindistonga borish uchun pul ishlab topdi. Qaytib kelganidan so‘ng, Voznyak unga birinchi shaxsiy kompyuter prototipini ko‘rsatguniga qadar o‘sha firmada ishladi.

Erik Shmidt – “Google” rahbari 21 yoshida Prinston universitetida elektrotexnika bo‘yicha bakalavr darajasini oldi, 24 yoshida esa Berkli universitetida kompyuter tarmoqlari bo‘yicha magistr darajasiga erishdi. So‘ng “Xerox” kompaniyasiga ishga kirdi.

1982-yilda Shmidt kompyuter fanlari doktori darajasi uchun dissertatsiya himoya qilgan. “Google”ga rahbar bo‘lguniga qadar “Sun” korporatsiyasi, “Siebel Systems” va “Novell”da ishlagan.

Larri Ellison – bo‘lajak tadbirkor maktabda yaxshi o‘qib, universitetga kirgan. Biroq u yerdan haydalgach, dasturlashga qiziqa boshlagan va bir necha kompyuter klubiga a’zo bo‘lgan. 25 yoshida uni “Amtex” firmasiga qabul qilishdi. U yerda “Oracle” nomli Markaziy razvedka boshqarmasi uchun mo‘ljallangan ko‘p funksiyali ma’lumotlar bazasini yaratdi.

Nufuzli maktabda o‘qigan Bill Geyts 7-sinfda matematikaga mehr qo‘ydi. 1968-yilda uning maktabi kompyuter sotib olgach, dasturlashga kirishdi. U mashinaga qarshi o‘ynash imkonini beruvchi simulyatorni yaratdi. 1971-yilda Geytsni “Information Sciences” kompaniyasi to‘lov qaydnomalarini tuzadigan dasturni yozish uchun ishga oldi.

17 yoshida Geyts to‘g‘on energiyasini taqsimlash bo‘yicha dasturiy paket yozish taklifini oldi. Ushbu loyiha ustida bir yil mehnat qilib, 30 ming dollar ishlab topdi.

1973-yilda Bill Harvard universitetiga kirdi. 1974-yilda “Altair” kompyuterini ishlab chiqqan kompaniyaga yangi – “Basic” dasturlash tilini yaratib berdi.

3 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Ilon Maskka mashhurlik olib kelgan ish qaysi?
2. Agar Stiv Jobs “Apple” kompaniyasiga asos solmaganida, qaysi sohani rivojlantirgan bo‘lar edi?
3. Yuqorida keltirilgan buyuk shaxslardan qaysi biri “Google” kompaniyasiga rahbar bo‘lgan? U haqida yana nimalar bilasiz?

4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘z va birikmalar: ~~*sotildi*~~, *olindi, borishdi, yasaldi, kiyintirdi, yutqazdi, tinchlandi, shodlandi.*

Namuna. Ko‘pdan beri egalari xorijda yashaydigan uy kecha *sotildi.*

o‘rtacha 35 milliarddan ortiq so‘rovnoma kelib tushadi.

• Google logosini yaratishda orfografik xato ketgan. Qidiruv tizimini katta hajmdagi ochiq ma’lumotlarni ifodalash uchun dastlab "Googol" deb nomlamoqchi bo‘lishgan. Biroq tasodifiy xatodan keyin o‘sha nomni qoldirishga qaror qilishgan, chunki bu so‘zning ko‘rinishi ko‘proq yoqib qolgan.

6. Shu faktlarga tayangan holda keltirilgan gaplardagi tushirib qoldirilgan so‘zlar qoyilib, gaplar yozdiriladi.

7. Gaplardagi nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan fe’llardan mosi qo‘yilib, ko‘chiriladi: *1) shodlandi, 2) tozalandi, 3) shoshildi, 4) yutqizdi, 5) chaqirildi, 6) ko‘rsatdi.*



5 Tinglang.

6 O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna. Ilk elektron xabar *1971-yilda* yuborilgan.

1. Ilk elektron xabar _____-yilda yuborilgan.
2. Birinchi internet sayti _____-yilda yaratilgan.
3. "YouTube"ga bir daqiqada _____ soatlik materiallar joylashtiriladi.
4. "Spam" so‘zi _____ nomidan kelib chiqqan.
5. Birinchi veb kamera _____ uchun xizmat qilgan.
6. "Google" qidiruv tizimiga bir oyda _____ so‘rov kelib tushadi.

7 O‘ylang va toping. Yozing.

Foydalanish uchun so‘z va birikmalar: *shoshildi, ~~shodlandi~~, chaqirildi, tozalandi, ishga soldi, yutqazdi.*

Namuna. Bugungi tadbirda barcha birdek *shodlandi.*

1. Bahor kelishi bilan mahallamiz ko‘chalari _____.
2. Sardor ertalabki nonushtadan keyin maktab tomon _____.
3. Bugungi o‘yinda raqib terma jamoasi _____.
4. Majlislar zaliga barcha xodimlar _____.
5. Ikrom qo‘lidan kelgancha harakat qildi va bor imkoniyatlarini _____.

Mustaqil topshiriq

"Agar men tadbirkor bo‘lsam..." mavzusida hikoya tuzing.

173

Mustaqil topshiriq. “Agar men tadbirkor bo‘lsam” mavzusida hikoya tuzish.

STARTAP

Maqsad: ma’lumotni qabul qilib, uni qayta hikoya qilib berish, to‘ldirish, boyita olish, matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, so‘zlab bera olish, savollarga to‘liq javob bera olish, maqola yoza olish.

Refleksiya: o‘quvchilar tuzib kelgan matnlar tahlil qilinadi, ular bilan hayotda muvaffaqiyat qozonish sirlari, mashhur kishilar hayoti yuzasidan suhbat o‘tkaziladi.

Vazifalar:

1. O‘zbek tadbirkori Zafar Hoshimov haqidagi matn o‘qib, mazmuni tahlil qilinadi. Uning faoliyatiga munosabat bildiriladi.

2. Matn yordamida savollarga javob beriladi. Javoblarning to‘liqligiga e’tibor beriladi.

3. Startap haqidagi audioma'lumot tinglanadi. Bunda startap nima ekanligi, O'zbekistonda startap qanday ekanligi, u bilan shug'ullanish uchun nimalar qilish kerakligi to'g'risidagi fikrlarga o'quvchilar diqqati jalb etiladi:

"Startap" so'zi jarayonning boshlanishi" degan ma'noni bildiradi. Startap – biznesning istalgan turi. Startapning asosi – g'oya, uning dolzarbligi va o'ziga xosligi, ijrosi va moliyalashtirilishi. Ular biznes loyihaning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Misol uchun, startaplar vatani bo'lmish AQSHda 24 yoshli Rob Raynxart taomning o'rnini bosadigan hamda organizm uchun barcha zarur moddalar – yog'lar, oqsillar, tuzlar, mikroelementlar, uglevodlarga ega "Soylent" ichimligini o'ylab topdi. Bu mahsulotga allaqachon qariyb millionlab dollar pul sarflandi.

Rossiyada "Taomlar partiyasi" nomli startap juda mashhur. Loyihaning g'oyasi shundaki, har yakshanba mijozlarga ichida yangi, muzlatilgan va hafta kunlari bo'yicha taqsimlangan mahsulotlar va retseptlar bor qutilar yetkazib beriladi. Masalan, "Dushanba" o'ramini olib, retsept bo'yicha taom tayyorlash mumkin.

Xorijda startaplar muvaffaqiyatli va juda mashhur. Bizda-chi?

Bileton.uz – tadbirlar, kino va teatrga chiptalarni onlayn sotish. Tadbirlarni tez uyushtirish va rivojlantirish uchun qulay platforma.

Boomerang.uz – xat-xabarlarni kuryerlik xizmati orqali yetkazib berish texnologik xizmati. Istiqbolda inter-



MAVZU

Startap

1 O'qing.

Li Kashin nafaqat Xitoy, balki dunyoning eng mashhur ishbilarmonlardan biridir. Hongkongdagi har yettinchi kvartirani u qurgan. Hongkong porti orqali o'tadigan yuklarning yetmish foizi, dunyo miqyosida konteynerlarda mol tashishning o'n to'rt foizi uning nazoratida. Dunyoning 53 mamlakatidagi unga qarashli kompaniyalarda 270 ming nafardan ortiq kishi mehnat qiladi. Uning tarjimayi holi va biznesda erishgan yutuqlari Harvard universiteti talabalariga dars sifatida o'tiladi.

Li Kashin "nol"dan milliarderga aylangan insonlar sirasiga kiradi. Xitoylik bu tadbirkor eng yirik biznes tarmoqlarini egallagan, shuning uchun ba'zilar: "Hongkongda sarflangan har beshinchi sent Li Kashinning cho'ntagiga kiradi", – deb hazillashadilar.

2 Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Siz yashayotgan hududda qaysi supermarketlar bor?
2. Ularning bir-biridan farqi nimada?
3. Supermarket bilan gipermarketning qanday farqi bor?

3 Tinglang.

Startap nima va u nima uchun kerak?

Xorijda startaplar muvaffaqiyatli va juda mashhur. Bizda-chi?

Startap bilan shug'ullanish uchun nimalarni bilish kerak?

174

4 Savollarga javob bering. Gapiring.

1. "Startap" so'zi nimani anglatadi va u nima uchun kerak?
2. Startap loyihalar qanday paydo bo'ladi?
3. Startap loyihasi qaysi davlatda qachon vujudga kelgan?
4. O'zbekistonda bu kabi loyihalar mavjudmi? Ulardan qay birlari sizga tanish?

5 O'ylang va toping. Yozing.

6 ta kichik guruhga bo'lining hamda quyidagi nomlarni ma'nosiga va vazifasiga ko'ra SWOT tahlil qiling.

1-guruh: "Bileton.uz".
2-guruh: "Boomerang.uz".
3-guruh: "Oson.uz".
4-guruh: "Rentme.uz".
5-guruh: "Straxovka.uz".
6-guruh: "Gifty.uz".

Maqola qanday yoziladi?

Maqola yozishdan aniq bir maqsadni ko'zlash kerak.

Maqolalar kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo'ladi.

Kirish qismida mavzuni asoslash, uning foydali jihatlari yoritish, bugungi kun talablariga mosligini ko'rsatish kerak.

Asosiy qismda dalillar (faktlar) berish, misollar keltirish lozim. Bunda aniqlikdan umumiylashtirishga, umumiylikdan batafsil ko'rib chiqishga o'tish lozim. Asosiy qismda mavzuga oid bir necha savollar qo'yiladi, muammoning yechimi taklif qilinadi.

Xulosada bayon qilingan fikrlarni ixchamlash, oxirgi fikrni bayon etish o'rinli bo'ladi.

Maqola uslubi deganda uning bayon qilish tili tushuniladi. Ommaviy maqolada tuzilayotgan jumlalar mumkin qadar sodda bo'lishi, bir ega va bir kesimli gaplar qo'llanishi lozim. Iloji boricha bir so'zni ikki marta takrorlamaslik, so'zning sinonimlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Maqolani uchinchi shaxs tomonidan yozish tavsiya etiladi. Maqola yozayotganda mantiqiy ketma-ketlikka rioya qilish, yangicha nuqtayi nazar bilan yondashish, o'quvchilarni qiziqtirish kerakligini unutmang.

6 O'qing.

Siz 23 yoshida milliarder bo'lgan odamni tasavvur qila olasizmi? Axborot texnologiyalari olamida shunday bo'lishi mumkin!

Mark Sukerberg 1984-yilda AQSHda tug'ilgan. U amerikalik yahudiy, "Facebook" ijtimoiy tarmog'i asoschisidir. Bugungi kunda Kaliforniya shtatida istiqomat qiladi.

Mark Sukerberg o'z milliardlariga insonlarning muloqotga ehtiyoji va mashhur bo'lish istagi ortidan ega bo'ldi. U 2004-yil fevral oyida "Facebook"



175

net-do‘konlar uchun tezkor yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish mumkin.

Oson.uz – xaridlar bo‘yicha shaxsiy gid. O‘zbekiston do‘konlarining tovar takliflari agregatori. Do‘konlarning mijozlar bilan alohida ish olib borishiga imkoniyat yaratadi.

Rentme.uz – ashyolar ijarasi bilan shug‘ullanadigan maydon. Bu yerda bekor yotgan ashyolarni ijaraga berib, pul ishlab topish mumkin.

Straxovka.uz – onlayn sug‘urta xizmati. O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalarining takliflar agregatori. Sug‘urta polislarini onlayn sotish va bepul yetkazib berish bilan shug‘ullanadi.

Gifty.uz – odamlarga original buyumlarni tanlashda yordam berish va shu bilan bir vaqtda qo‘lda yasalgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchilari uchun bozor yaratuvchi xizmat.



tarmog‘ini tashkil qilgan. Unda foydalanuvchilarga fotosuratlari va o‘zi haqidagi istagan ma’lumotlar – ilmiy va ijodiy qiziqishlaridan tortib to shaxsiy hayotiga oid axborotlargacha joylashtirishni taklif etdi. 4 yilda universitetning oddiy ijtimoiy portali millionlab foydalanuvchilar uchun sevimli Internet-manzilga aylandi. 2008-yilda sayt foydalanuvchilari soni 80 millionga yetdi. Bu ko‘rsatkich doimiy ravishda ortib bormoqda. Hozirgi vaqtga kelib foydalanuvchilar soni 500 milliondan oshdi. Ko‘p mamlakatlarda bu eng mashhur ijtimoiy tarmoq hisoblanadi.

“Facebook”ning boshqa ijtimoiy tarmoqlardan ikkita asosiy farqi bor. Birinchidan, bu yerda har bir inson xuddi shu pochta domenidagi manzil bilan haqiqatda mavjud insonlarni izlaydi. Ikkinchidan, “Facebook”da sizning axborotingizdan muayyan guruhga kiruvchi insonlar foydalanishlari mumkinligini o‘zingiz belgilaysiz. Masalan, faqat o‘smirlar yoki faqat samarqandliklar, yoki, aytaylik, Harri Potterning barcha muxlislari.

Afsuski, “Facebook” ko‘p millionlik tarmog‘i jinoyatchi guruhlarni ham jalb qildi. Ular orasida “Facebook” xizmati xodimlari ham bo‘lgan. Ular foydalanuvchiga shaxsiy ma’lumotlar, ya’ni pasport, guvohnoma, haydovchilik guvohnomasi nusxalari va shu kabilarni taqdim etishni taklif etadilar.

Hozirgi kunda “Facebook” kompaniyasining qarorgohi Kaliforniyadagi katta 3 qavatli majmuada joylashgan. Nyu York, London hamda dunyoning boshqa katta shaharlarida ham filiallari mavjud.

Boyib ketgan Mark Sukerberg tarixda eng yosh milliarder bo‘lib qoldi.

(“infoCom” jurnalidan olindi)

7 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Hozirgi paytda “Facebook” ijtimoiy tarmog‘ining o‘rnini qanday baholaysiz?
2. “Facebook” vazifasini bajaradigan qanday ijtimoiy tarmoqlar bor?

Mustaqil topshiriq

Ijtimoiy tarmoqlarning qay biridan faol foydalanasiz? Uning imkoniyatlarini yozing.

176

Startap bilan shug‘ullanish uchun nimalarni bilish kerak?

Investor g‘oyaga mablag‘ sarflar ekan, biznesning muvaffaqiyati kelajakda unga foyda keltirishini rejalashtiradi. Aksincha bo‘lsa, u o‘zi kiritgan mablag‘ni yo‘qotadi.

Bilimdon investorlar hali bozorda bo‘lmagan yangi xizmat yoki tovarlarni taklif qiladigan loyihalar eng ko‘p foyda keltirishini tushunishadi. Shuning uchun startapda bozorda talab yuqori bo‘lgan hamda foyda keltiradigan mahsulot yoki xizmatlarning yangi konsepsiyasi jamlanishi kerak. Masalan, original mahsulotni taklif qilayotgan internet-do‘konning asosiy vazifasi sotuvchi va xaridorni to‘g‘ridan to‘g‘ri uchrashtirib qo‘yish hisoblanadi.

Bizning mamlakatimizda startaplar ilk odimlarini boshlamoqda, yaqin vaqtlarda bu biznes rivojlanib ketadi. O‘zbekistonda yosh tadbirkorlar g‘oyalariga o‘zlarining mablag‘larini kiritishga tayyor investorlar bor. Startaplarning paydo bo‘lishi va ularni ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyatlar kundan kunga oshib bormoqda.

4. Shu matn asosida savollarga javob beriladi.

5. Kichik guruhlar tashkil etilib, startapga xos atamalarga “SWOT” usuli yordamida izoh beriladi.

Diqqat qiling. Maqola yozish haqidagi ma'lumot tushuntiriladi. Bunda asosan nimalarga e'tibor berilishi belgilanadi.

6. Mark Sukerberg to'g'risidagi matn o'qib, o'rganiladi. O'quvchilar uni qayta hikoya qiladilar. O'zlariga qiziqarli bo'lgan o'rinlarni alohida tahlil qiladilar.

Mustaqil topshiriq. O'zi qiziqadigan biznes turi haqida matn yaratish va shu biznes savdo belgisi (logotipi)ni chizish.

89-DARS. NAZORAT ISHI

90-DARS. XATOLAR USTIDA ISHLASH.

INSON HUQUQLARI

HUQUQNI BILGAN QOQILMAS

Maqsad: mavzu doirasida o'z fikrlarini mustaqil bayon eta bilish, savollarga to'liq, atroflicha javob bera olish, matnlarni tinglab tushuna olish, o'qib, qayta so'zlay olish, sodda gaplarni ergashgan qo'shma gaplarga aylantira olish.

Refleksiya: startap, uning hozirgi davrdagi ahamiyati haqida suhbat quriladi. O'quvchilarning ular yoqtiradigan biznes turlari haqidagi yaratgan matnlari tahlili amalga oshiriladi.

Vazifalar:

1. Huquq va qonunlar to'g'risidagi savollarga javoblar beriladi, o'quvchilar qonun va huquqlar yuzasidan o'z fikrlarini bildiradilar.

2. Keltirilgan so'zlar ishtirokida gaplar hosil qilinib, yozdiriladi. Masalan: *davlat - haydovchilik guvohnomasi Davlat xizmatlari markazida beriladi. Fuqaro – har bir fuqaro huquqlari qonun bilan himoyalanadi. Konstitutsiya – konstitutsiya mustaqil davlatning asosiy, muhim hujjati bo'lib, qonunlar majmuasidir.*

3. Chap ustundagi so'zlarni izohlaydigan ta'rifni o'ng ustundan topib, yozdiriladi.

4. Matn diqqat bilan o'qitiladi. "Huquqiy ong", "huquqiy madaniyat" tushunchalariga izoh beriladi. O'quvchilar "Mening huquqlarim", "Mening burchlarim", "Men

qonunni qanday tushunaman?” mavzularida mulohaza yuritadilar.

5. Audiomatndan foydalangan holda berilgan gaplardagi tushirilgan qismlar tiklanib, gaplar to‘ldiriladi va yozdiriladi:

1. Qonunlarga amal qilinadigan mamlakatda adolat bo‘ladi.
2. Huquqiy savodxonlik inson hayotida juda muhim hisoblanadi.
3. Huquqiy madaniyat – qonunni tushunish, bilish, hayotda uni qo‘llash, uni bajarishni anglatadi.
4. Ichki madaniyat tashqi odobda aks etadi.
5. “Huquqini bilgan qoqilmas” – o‘zbek xalq maqoli.

Diqqat qiling. Grammatik ma’lumotga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi. Ikkita sodda gapni birlashtirib, bitta umumiy sodda gapga yoki ergashgan qo‘shma gapga aylantirish mumkinligi shu misollar orqali tushuntiriladi. Bu ko‘makchi va ergashtiruvchi bog‘lovchilar yordamida amalga oshirilishi mumkinligi aytiladi.

6. Berilgan sodda gaplarni birlashtirib, umumiy sodda gapga va ergashgan qo‘shma gapga aylantirish amalga oshiriladi. Bunda ergashtiruvchi bog‘lovchilar va ko‘makchidan foydalaniladi. Gaplar mazmunida, shaklida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga o‘quvchilar diqqati qaratiladi: *Kecha tomog‘im og‘rib qolgani uchun ertalab darsga bora olmadim. Agar kecha tomog‘im og‘rib qolmaganida,*

Inson huquqlari

MAVZU

Huquqni bilgan qoqilmas

1 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Siz o‘zingizning huquqlaringizni bilasizmi?
2. Qonunlar kim tomonidan ishlab chiqiladi?
3. Nima uchun qonunlarga amal qilish kerak?
4. Siz qaysi qonunlarni bilasiz?
5. Qonunlarni qaysi internet saytlaridan o‘rganish mumkin?



2 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘z va birikmalar: ~~*davlat*~~, *fuqaro, Konstitutsiya, qonunlar, ta’lim, tarbiya.*

Namuna. Haydovchilik guvohnomasi *Davlat* xizmatlari markazida beriladi.

3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Huquq	• davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini belgilab beradi.
Burch	• inson, jamiyat va davlat manfaatlari uchun eng muhim hisoblanadigan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasi.
Konstitutsiya	• kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha.
Qonun	• davlat tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan umumiy majburiy ijtimoiy normalar tizimi.

4 **O‘qing.**

O‘zbek xalqida “Huquqini bilgan qoqilmas” degan maqol bor. Buning ma’nosi shuki, huquqiy savodxonlik inson hayotida muhim o‘ringa ega. Bizning har bir xatti-harakatimiz qonunga bog‘liq. Hozirgi zamonda jamiyatda har bir fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yetuk bo‘lishi kerak.

177

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qonunlarga qat’iy amal qilinadigan joydagina fuqarolarning huquq va erkinliklari ta’minlanadi, tinchlik, barqarorlik va adolat qaror topadi.

Bilasizmi, fuqarolar o‘zlarining ishida, kundalik turmushida va oilasida huquqiy bilimlarning eng kam qismidan foydalanadilar. Bu bilimlar odatda konstitutsiya, mehnat, oila, fuqarolik, tadbirkorlik huquqlari haqidagi bilimlardir.

“Huquqiy madaniyat” degan tushuncha nafaqat huquqiy bilimlar, balki ularni qo‘llay olish va huquqiy faollikni namoyon qilish mahoratini anglatadi. Huquqiy madaniyat qonunni tushunish, bilish, hayotda uni qo‘llash, bajarishdir. Bu har bir shaxs, fuqaroning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi va buni boshqalardan ham talab qilishidir. Huquqiy madaniyat insonning ichki dunyosi, madaniyati, umuminsoniy an’analarga va huquqiy bilimlarga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatadi.

Shaxsning ichki madaniyati uning tashqi odobida aks etadi. Huquqiy madaniyatga ega inson jamiyat talablari va qoidalarini hurmat qiladi.

5 **Tinglang va toping. Yozing.**

1. _____ mamlakatda adolat bo‘ladi.
2. Huquqiy _____ inson hayotida juda muhim hisoblanadi.
3. Huquqiy madaniyat – qonunni _____, uni hayotda _____, uni _____ ni anglatadi.
4. Ichki _____ odamning tashqi _____ da aks etadi.
5. “_____” – o‘zbek xalq maqoli.

Aziza tennis o‘ynaydi. → Men ham tennis o‘ynashni boshladim.

1. Aziza tennis o‘ynagani uchun men ham tennis o‘ynashni boshladim.
2. Aziza tennis o‘ynaydi, shuning uchun men ham tennis o‘ynashni boshladim.

Yomg‘ir qattiq yog‘a boshladi. → Men darsga kechikib keldim.

1. Yomg‘ir qattiq yog‘a boshlagani uchun men darsga kech qoldim.
2. Yomg‘ir qattiq yog‘a boshladi, shuning uchun men darsga kech qoldim.

6 **O‘qing. Yozing.**

Namuna. *Kecha havo sovuq bo‘ldi, shuning uchun biz hayvonot bog‘iga bormadik.*
Havo sovuq bo‘lgani tufayli biz hayvonot bog‘iga bormadik.
Agar havo sovuq bo‘lmaganida, biz hayvonot bog‘iga borar edik.

1. Kecha tomog‘im og‘rib qoldi. Ertalab darsga bora olmadim.
2. Do‘stlarim menga yordam berishdi. Men yomon baho olmadim.
3. Mashinamiz buzilib qoldi. Biz do‘konga bora olmadik.
4. Uning fe’li juda og‘ir. U bilan gaplashish juda qiyin.
5. Men maktab o‘quvchisiman. Men ishlay olmayman.
6. Ertalab barvaqt uyg‘onaman. Darsga kech qolmayman.

178

ertalab darsga borgan bo‘lardim. Do‘stlarim menga yordam berishgani uchun men yomon baho olmadim. Agar do‘stlarim menga yordam berishmaganda, men yomon baho olardim. Mashinamiz buzilib qolgani uchun biz do‘konga bora olmadik. Agar mashinamiz buzilmaganda, biz do‘konga borardik. Fe’li juda og‘ir bo‘lgani uchun u bilan gaplashish juda qiyin, Agar e’li og‘ir bo‘lmaganda, u bilan gaplashish qiyin bo‘lmas edi. Maktab o‘quvchisi bo‘lganim uchun ishlay olmayman. Agar maktab o‘quvchisi bo‘lmaganimda, ishlay olardim. Ertalab barvaqt uyg‘onganim uchun darsga kech qolmayman. Agar ertalab barvaqt uyg‘onmaganimda, darsga kech qolar edim.

Mustaqil topshiriq. “Mening huquqlarim” mavzusida matn tuzish.

OMBUDSMAN

Maqsad: mavzu doirasida o‘z fikrlari, munosabatini ifodalay olish, matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, so‘zlay olish, savollarga atroflicha javob bera olish, ariza yoza olish.

Refleksiya: huquq va burch, qonunlar to‘g‘risida suhbat o‘tkaziladi, o‘quvchilar tuzib kelgan “Mening huquqlarim” mavzusidagi matnlar tekshiriladi.

Vazifalar:

1. Rasmlarga qarab, ularda tasvirlangan holat yuzasidan o‘quvchilar o‘z mulohazalarini bildiradilar. Bunda inson huquqlari himoyasi, bola huquqlari, jamiyatda inson huquqlari himoyasi uchun tuzilgan tashkilotlar haqida suhbat yuritiladi.

2. “Bolalar ombudsmani” audiomatni tinglanadi. Matn yoki aydio yordamida, yoki o‘qituvchi tomonidan ikki marta o‘qib, eshittiriladi. O‘quvchilar matnni qayta tiklab, hikoya qiladilar:


Mustaqil topshiriq

“Mening huquqlarim” mavzusida matn tuzing.

MAVZU **Ombudsman**

1 O‘ylang va toping. Gapiring.

OMBUDSMAN

2 Tinglang.

Bolalar ombudsmani.

179

Bolalar ombudsmani

Ombudsman – inson huquqlarini himoya qiluvchi shaxs. Bu so‘z shved tilidan olingan va “vakil” degan ma’noni anglatadi. O‘zbekistonda ombudsmanlik lavozimi 1995-yilda kiritilgan.

Bolalar huquqlari bo‘yicha ombudsman lavozimi ham bor. U birinchi bo‘lib Norvegiyada 1982-yilda ta’sis etilgan. Shvetsiyada esa bunday faoliyat 1993-yildan boshlangan. O‘zbekıstonda ham bolalar ombudsmani bor. Uning vazifasi bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning sog‘lom hayot tarzini ta’minlashdan iborat.

O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qanday ishlar amalga oshirilayotganini ombudsmanning rasmiy saytida ko‘rish mumkin.

3. Matndan kelib chiqqan holda savollarga javob beriladi.

Diqqat qiling. Grammatik jadvalga e’tibor qaratiladi. Bunda ikki sodda gapdan ergashgan qo‘shma gap hosil qilingani tushuntiriladi.

4. Grammatik jadvalda berilgan vositalar yordamida tartibi aralash berilgan so‘zlar o‘z o‘rniga qo‘yilib, ergashgan qo‘shma gaplar hosil qilinib, yozdiriladi: *u shunday kuldiki, hech kim chidab turolmadi. Odamlar bilan shunday gaplashginki, xursand bo‘lishsin. Shunday yashaginki, hamma havas qilsin.U shunchalik uzoqdaki, chaqirsang, eshitmaydi.*

Diqqat qiling. Ariza haqidagi nazariy ma’lumot o‘quvchilarga tanishtiriladi. Ish qog‘ozi sifatida uning



3 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Ombudsman kim?
2. Bu so'z qayerdan kelib chiqqan?
3. O'zbekistonda ombudsman lavozimi qachon tashkil etilgan?
4. Bolalar ombudsmani nima bilan shug'ullanadi?

Do'i yog'di. → Yer oppoq bo'lib ketdi.
Do'i **shunday** yog'di**ki**, yer oppoq bo'lib ketdi.

U do'sti haqida zavqlanib gapirdi. → Hamma mahliyo bo'ldi.
U do'sti haqida **shunchalik** zavqlanib gapirdi**ki**, hamma mahliyo bo'ldi.

4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘z va birikmalar: ~~*shunday*~~, *shunchalik, shu qadar, shu darajada*

Namuna. U *shunday* kuldiki, hech kim chidab turolmadi.

1. Kuldi / chidab turolmadi / shunday / hech kim / u.
2. Odamlar / gaplashmoq / ular / bahra olmoq.
3. Ishonch / qasd qilmoq / komil / past bo'lmoq.
4. Yashamoq / havas qilmoq.
5. Aql / bosh / bilmoq / serjahl.

Ariza, shikoyat xati, tavsifnoma, bildirgi, buyruq, farmoyish... Bu so'zlarga deyarli hamma duch keladi, ulardan foydalanadi. Qandaydir yumush bilan biror tashkilotga murojaat qilar ekanmiz, albatta, ariza yozamiz. Hayotimizning ba'zi holatlaridan norozi bo'lsak, shikoyat xati bilan murojaat qilamiz. Xo'sh, ularni qanday yozishni bilamizmi? Aslida bu hujjatlarni tayyorlashning ham o'ziga xos qonun-qoidalari borligini, bu jarayonlar tartib-tamoyillarga asoslanishini bilamizmi?

Ariza – huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarni amalga oshirishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi murojaat.

Ariza quyidagi qismlardan iborat:

1) rahbarning lavozimi, ismi va otaismining bosh harflari, jo'nalish kelishigidagi familiyasi;
2) hujjatning nomi (Ariza);
3) arizaning mazmuni;
4) ariza muallifining imzosi, ismi va familiyasi;
5) sana.

180



5 **O‘qing. Yozing.**

230-maktab direktori
K. A. Usmonovaga

ARIZA

Darsdan keyin mustaqil ish tayyorlash uchun maktabning informatika xonasida kompyuterdan foydalanishimga ruxsat berishingizni so'rayman.

10-“A” sinf o'quvchisi *(imzo)* S. Mahmudov
2022-yil 10-mart

Mustaqil topshiriq

Maktab direktori nomiga ariza yozing.

181

boshqa shunday ish qog‘ozlaridan farqli tomonlariga o‘quvchilar diqqati qaratiladi. Namuna ko‘rsatiladi.

Mustaqil topshiriq. Maktab direktori nomiga o‘z nomidan ariza yozish.

KUCH – ADOLATDA

Maqsad: mavzudan kelib chiqqan holda o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ifodalay olish, matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta hikoya qila olish, tushuntirish xati yoza olish.

Refleksiya: ombudsman, inson huquqlari himoyasi, bola huquqlarini himoya qilish masalasi yuzasidan suhbat o‘tkaziladi, mustaqil topshiriq sifatida yozilgan arizalar ko‘rib chiqiladi.

Vazifalar:

1. Turli huquqlarni ifodalagan rasmlar asosida o‘quvchilar inson huquqlari haqida mulohazalarini bayon etadilar.

2. Buyuk bobokalonimiz Amir Temur to‘g‘risidagi audiomatn ikki marta eshittiriladi, mazmuni tahlil qildiriladi:

Sharqda “odil podsho” tushunchasi qadim-qadimdan mavjud. Xalq shunday podshoni hamisha orzu qilib kelgan. Sohibqiron Amir Temurning “Kuch – adolatda” degan so‘zlari davlat muhrida ham aks etgan edi. “Mamlakat zulmga chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi”, – deb yozilgan “Temur tuzuklari” kitobida. Bu shiorga Sohibqiron qattiq amal



MAVZU

Kuch adolatda

1 O‘ylang va toping. Gapiring.

Insonlarning qanday huquqlari mavjud?

2 Tinglang.

3 O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna. adolatli – odil.

adolatli, ozaymoq, zolimlik, yoqtirmaslik, bajarmoq, doimo, boqmoq, qudratli

Tushuntirish xati qanday yoziladi?

O‘qish va ishga aloqador masalani yozma ravishda izohlaydigan, tashkilot yoki bo‘lim rahbari nomiga yoziladigan hujjat “tushuntirish xati” deb ataladi.

Tushuntirish xatida ish yoki o‘qish jarayonida sodir etilgan xatti-harakatlar (masalan, ish yoki o‘qishga kech qolib kelish, kelmay qolish, reja yoki topshiriqni bajarmaganlik, belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilmaganlik) va ularning sabablari izohlanadi, dalillanadi. Hujjatni muallif imzolaydi.

Tushuntirish xati odatda rahbarning talabi bilan yoziladi, chunki u keyinchalik xodim yoki o‘quvchi haqida muayyan qarorga kelish, unga nisbatan tegishli intizomiy jazo chorasi qo‘llash, agar dalillar asosli bo‘lsa, qo‘llamaslik uchun asos vazifasini o‘taydi. Tushuntirish xati quyidagi qismlardan iborat:

1) rahbarning lavozimi, ismi va otaismining bosh harflari, familiyasi (jo‘nalish kelishigida);

182

qilardi. Adolat shunday kuchli ediki, agar mamlakatda biror odam bir tovoq oltin yo kumushni boshiga qo‘yib, g‘arbdan sharqqacha borsa, hech kim unga qo‘l cho‘zmas, oltin yo kumushdan bittasi ham kamaymasdi.

Temur, xoh o‘zining farzandlari bo‘lsin, xoh boshqa fuqaro – hammaga bir xil qarardi. Safarlardan qaytib kelganda, shaxsan o‘zi bozorni tekshirar, agar sotuvchilar foyda topaman deb narx-navoni oshirib yuborgan bo‘lsalar, el oldida o‘sha gunohkorning jazosini berardi. Yolg‘on gapni yomon ko‘rardi. Qonunlarga rioya qilmagani uchun o‘g‘li Mironshoh, nabiralari Pirmuhammad, Sulton Husayn Mirzolarni jazolagani tarix kitoblaridan ma’lum.

Hamma joyda amalda bo‘lgan “Kuch – adolatda” shiori butun Turon davlati hududida axloqiy va ma’naviy mezonga aylandi.



2) hujjat muallifining lavozimi, ismi va familiyasi (qaratqich kelishigida);
3) hujjat turining nomi (Tushuntirish xati);
4) hujjat matni (mazmuni);
5) imzo;
6) sana.

4 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Ishga, o‘qishga, darsga, majlisga, tadbirga kechikib keldim.

1. Kechikib kelmoq (*ish, o‘qish, dars, majlis, tadbir*).
2. Orqada qolmoq (*o‘qish, sinf*).
3. Ma’lumotnoma olmoq (*shifoxona, pasport bo‘limi, tibbiyot bo‘limi*).
4. Xabardor qilmoq (*sinf rahbari, o‘qituvchi, direktor*).

5 **O‘qing. Yozing.**

87-maktab direktori
o‘rinbosari A. Akmalovga
10-“A” sinf o‘quvchisi
D. Abdullayevning

TUSHUNTIRISH XATI

Singlimni oilaviy poliklinikaga shifokor ko‘rigiga olib borganim sababli bugun darsga kela olmadim.

Ilova: 2-oilaviy poliklinikadan berilgan ma’lumotnoma.

2022.12.04. *(imzo)* D. Abdullayev

6 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘z va birikmalar: ~~*nosozligi tufayli*~~, *zaruriyat tufayli, yo‘qligi tufayli, ob-havo yomonlashganligi tufayli, betobligi tufayli, kasalligim sababli.*

Namuna. 94-avtobus *nosozligi* tufayli men bugun darsga 15 daqiqa kechikib keldim.

Mustaqil topshiriq

Tushuntirish xatiga misol yozing.

183

3. Tarmoqlarda berilgan so‘zlarga audomatn ichidan sinonimlar topilib, hosil bo‘lgan sinonim juftliklar daftarga yozdiriladi: *adolatli – odil, doimo – hamisha, ozaymoq – kamaymoq, boqmoq – qaramoq, yoqtirmaslik – yomon ko‘rish, bajarmoq – amal qilmoq, qudratli – kuchli, zolimlik – zulm.*

Diqqat qiling. Tushuntirish xati haqidagi nazariy ma’lumot o‘qib, o‘rganiladi. Ariza va tushuntirish xatining ish qog‘ozlari sifatida o‘xshash va farqli tomonlariga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi. Ish qog‘ozlarining haqiqiyligini asoslaydigan atributlar – sana, imzo, muhrning bu hujjatlarda qanday o‘rni borligi haqida fikr bildiriladi.

4. Qavs ichida berilgan so‘zlarni qo‘llagan holda qavsdan tashqaridagi fe’llar zarur shaklga keltirilib, ular ishtirokida so‘z birikmalari tuzdirilib, yozdiriladi: *ishga, o‘qishga, majlisga tadbirga kechikib keldim. O‘qishda, sinfda orqada qoldim. Shifoxonadan, pasport bo‘limidan, tibbiyot bo‘limidan ma’lumotnoma oldim. Sinf rahbarini, o‘qituvchini, direktorni xabardor qildim.*

5. Tushuntirish xati namunasi ko‘rib chiqiladi, munosabat bildiriladi.

6. Ko‘makchili birikmalardan foydalanib, tushuntirish xatida qo‘llash mumkin bo‘lgan gaplar tuzdirib, yozdiriladi.

Mustaqil topshiriq. Tushuntirish xati yozish.

MENING HUQUQLARIM

Maqsad: mavzu doirasida fikrni og‘zaki va yozma ifodalay olish, audiomatn faktologik matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta hikoya qilish, mustaqil gaplar tuza olish, savollarga to‘liq va batafsil javob bera olish, tarjimayi hol yoza olish.

Refleksiya: inson huquqlari, adolat mezoni, o‘z huquqlarini bilish va himoya qila olish masalalari haqida savol-javob o‘tkaziladi. Mustaqil topshiriq sifatida yozilgan tushuntirish xatlari ko‘rib chiqiladi.

Vazifalar:

1. Huquqlarga oid ma’lumotlar o‘quvchilar tomonidan diqqat bilan o‘qib, o‘rganiladi. Fuqarolar hayotiga oid har bir huquqqa alohida to‘xtalib, munosabat bildiriladi. Bunda “Men ushbu huquqni qanday tushunaman” mavzusida har bir o‘quvchi o‘z mulohazalarini bayon etadi.

2. Matnga tayangan holda o‘quvchilar fuqarolik va shaxsiy huquqlari nimalardan iborat ekanligini alohida yozib chiqadilar. Masalan: *mening shaxsiy huquqlarim: yashash huquqi, turarjoy daxlsizligi huquqi... Mening fuqarolik huquqlarim: ilm olish huquqi, mehnat qilish huquqi...*

Diqqat qiling. Grammatik ma’lumot: modal so‘zlarning ma’no turlari haqida tushuncha beriladi.



MAVZU

Mening huquqlarim

1 **O‘ylang va toping. Gapiring.**

1. Shaxsiy huquqlarga yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi, turarjoy daxlsizligi huquqi, erkin ko‘chish huquqi, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqi, vijdon erkinligi huquqi kiradi.
2. Bu huquqlar tabiiy huquqlar va davlat tomonidan qonuniy asosda kafolatlangan huquqlarga bo‘linadi.
3. Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarga mulkdor bo‘lish huquqi, mehnat qilish huquqi, dam olish huquqi, ijtimoiy ta’minot xizmatlari, tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi, bilim olish huquqi kiradi.
4. Inson huquqlari – odamlarning insonlik sha’n-u sharafiga munosib tarzda yashashi va faoliyat olib borishi uchun lozim bo‘ladigan haq-huquqlar majmuini ifoda etadigan tushuncha.
5. Tabiiy huquqqa yashash huquqini misol qilib keltirish mumkin.
6. Inson huquqlari har bir davlatning Konstitutsiyasi hamda amaldagi qonunlarida belgilanib, ular shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquqlarga bo‘linadi.
7. Siyosiy huquqlarga davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqi, mitinglar, yig‘inlar va namoyishlar o‘tkazish, ularda qatnashish huquqi, kasaba uyushmasi, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlarga birlashish huquqi kiradi.
8. Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy vazifalaridan biridir.
9. Davlat tomonidan kafolatlangan huquqlarga saylov huquqi, bilim olish huquqi, nafaqa olish huquqi kabi insoniy huquqlar kiradi.
10. Inson huquqlari insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalardagi imkoniyatlari hamda orzu-intilishlarini tavsif etadigan tushuncha sifatida ham namoyon bo‘ladi.

2 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Mening fuqarolik huquqlarim

Mening shaxsiy huquqlarim

Ishonch va ma’qullash: *albatta, shubhasiz, haqiqatdan, tabiiy.*
Gumon, noaniqlik: *ehtimol, balki, shekilli.*
Maqsad, talab, shart: *kerak, zarur, lozim.*
Nimaningdir borligi va tasdiq: *bor, mayli, xo‘p, bo‘pti.*
Nimaningdir yo‘qligi, e’tiroz, inkor: *yo‘q, aslo.*
Yakunlash, xulosa: *demak, xullas.*
Eslatish: *aytmoqchi, aytgancha.*
Achinish: *afsus, attang.*

184

3. Namunada berilgan modal so‘zlarni qatnashtirib, gaplar tuzdiriladi va yozdiriladi. Masalan: ***afsus***, *biz hali barcha huquqlarimizni bilmaymiz. Bu muammoning kelib chiqishiga,* ***avvalo****, sen sababchisan.* ***Shubhasiz****, ularning mehnatlari munosib baholanadi. Ona shahrimiz,* ***albatta****, eng go‘zal shaharlardan biridir.* ***Balki****, men ham yanglishayotgan bo‘lishim mumkin.* ***Ehtimol,*** *tez orada ko‘risharmiz. Do‘sting,* ***aftidan****, sendan shubhalanayotgan ko‘rinadi.* ***Masalan,*** *bu shartnomaga hamma qo‘l qo‘ygani aniq.* ***Darhaqiqat,*** *bunday aziz o‘lkani boshqa yerda ko‘rmadim.*



3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘z va birikmalar: *avvalo, ~~afsus~~, shubhasiz, albatta, balki, ehtimol, aftidan, masalan, darhaqiqat, zarur.*

Namuna. *Afsus,* biz hali barcha huquqlarimizni bilmaymiz.

Tarjimayi hol

Tarjimayi hol – muallif tomonidan uning shaxsiy hayoti va faoliyati bayon qilingan rasmiy hujjat. Tarjimayi hol mustaqil, erkin (ixtiyoriy) shaklda tuziladi va unda ayrim qismlar bo‘lishi shart. Hujjat matni “men” so‘zi bilan boshlanadi. Tarjimayi holda o‘tgan va hozirgi zamon fe’llari ishlatiladi.

Tarjimayi hol yozish tartibi:

1) hujjatning nomi (tarjimayi hol);
2) muallifning familiyasi, ismi va otaismi;
3) tug‘ilgan yil, kun, oy va tug‘ilgan joyi, millati;
4) qaysi tillarni qay darajada bilishi haqida ma’lumot;
5) ma’lumoti (qayerda, qaysi o‘quv yurtlarini tugatgani va ma’lumotiga ko‘ra mutaxassisligi);
6) mehnat faoliyati (qayerda, qachondan qachongacha, qaysi lavozimlarda ishlagan);
7) mukofot va rag‘batlantirishlar;
8) jamoat tashkilotlaridagi ishtiroki;
9) oilaviy ahvoli;
10) yashash manzili va telefon raqamlari;
11) hujjat tuzilgan sana;
12) shaxsiy imzo.

4 **O‘ylang. Yozing.**

Namuna. Men *2010-yilda Berlinda* tug‘ilganman.

1. Men _____ tug‘ilganman.
2. Otam _____ ishlaydi.
3. Akam _____ yashaydi.
4. _____-sinfda o‘qiyman.
5. Singlim _____ o‘qiydi.
6. _____ mukofotlandim.
7. _____ da yashayman.
8. _____ tillarini bilaman.

5 **Tinglang.**

Namuna. *Tavallud topmoq.* – Men qadimiy Samarqandda tavallud topdim.
Tug‘ilmoq. – Men 2000-yilda tug‘ilganman.

185

Diqqat qiling. Tarjimayi hol haqida berilgan ma’lumot tanishtiriladi. Boshqa ish qog‘ozlaridan farqli tomonlari ko‘rsatiladi.

4. Nuqtalar o‘rniga mazmunan mos keladigan so‘zlarni qo‘yib, gaplar yozdiriladi:

5. Audiomatn eshittiriladi, unga tayangan holda namunadagi so‘z va so‘z birikmalarini qo‘llab, gaplar tuzdiriladi va yozdiriladi:

Namuna: Tavallud topmoq – *Men qadimiy Samarqandda tavallud topdim.*
Tug‘ilmoq – *Men 2000-yilda tug‘ilganman.*

Tavallud topmoq – tug‘ilmoq
Tahsil olmoq – o‘qimoq
Tamomlamoq – tugatmoq
Istiqomat qilmoq – yashamoq
Faoliyat yuritmoq – ishlamoq
Ado etmoq – bajarmoq
Taqdirlanmoq – mukofot olmoq
Ishtirok etmoq – qatnashmoq

Mustaqil topshiriq. Tarjimayi hol yozib kelish.

QONUNLAR NIMA UCHUN KERAK?

Maqsad: mavzu doirasida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda ifodalay olish, audiomatn va faktologik matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta so‘zlay olish, savollarga to‘liq javob bera olish.

Refleksiya: inson huquqlari haqida savol-javob o‘tkazish, mustaqil topshiriq sifatida berilgan tarjimayi hollarni ko‘rib chiqish.

Vazifalar:

1. Matn o‘qib, o‘rganiladi, mazmunini o‘quvchi o‘z so‘zlari bilan tushuntirib beradi.

2. Nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan so‘zlardan mosi qo‘yilib, gaplar ko‘chirtiriladi*: 1) kerak, 2) lozim, 3) mumkin, 4) zarur, 5) shart.*

3. “Xammurapi qonunlari” audiomatni o‘quvchilarga eshittiriladi. So‘ng o‘quvchilar tomonidan qayta hikoya qilinadi:

Xammurapi qonunlari

XX asr boshida fransuz arxeologlari Qadimgi Bobil (Vavilon) dan sharqda joylashgan Suzi shahrida qora toshdan yasalgan ustunni topdi. Ustunning hamma tomoniga loyga chiziqlar o‘yib yozilgan edi. Bu eng qadimgi yozuvlar bo‘lib, eramizdan avvalgi 2-ming yillikka tegishli.

Noyob topilmada Bobil hukmdori Xammurapi buyrug‘iga binoan tuzilgan qonunlar aks etgan. Bu hozirgi kungacha yetib kelgan eng qadimgi qonunlardir.

Xammurapi mashhur siyosatchi va sarkarda bo‘lgan. U hukmronlik qilgan davrda Bobil juda rivojlangan mamlakat edi.

Xammurapi qonunlarida o‘sha davrdagi xususiy mulk huquqi, nikoh va oila huquqi, jinoyatlarni jazo-



Mustaqil topshiriq

Tarjimayi holingizni yozing.

MAVZU **Qonunlar nima uchun kerak?**

1 **O‘qing. Yozing.**

Agar qonunlar bo‘lmasa, dunyo alg‘ov-dalg‘ov bo‘lib ketar edi. Chunki odamlarning butun umri qonunlar bilan bog‘liq. Masalan, tug‘ilganingizda ota-onangiz sizga ism qo‘yishi, voyaga yetguningizga qadar g‘amxo‘rlik qilishi qonunda ko‘rsatib qo‘yilgan. Maktabda bepul ta’lim olishingiz, ota-onangizning ishlashi yoki buvingizning nafaqa olishi ham qonun nazoratida bo‘ladi.

Hech kimning qonunlarni buzishga haqqi yo‘q. Qonunbuzarlar albatta jazolanadi. Qaysi davlatning aholisi qonunga qat’iy amal qilsa, shu davlat rivojlanadi va odamlari boy yashaydi. Davlatimizning asosiy qonuni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir. Konstitutsiya maxsus hujjat bo‘lib, davlatimizning barcha qonunlariga asos hisoblanadi. Konstitutsiyamiz 6 bo‘lim, 26 bob va 128 moddadan iborat.

2 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Foydalanish uchun so‘z va birikmalar: *zarur, ~~kerak~~, mumkin, shart, lozim.*

Namuna. Har bir inson o‘zi tug‘ilib o‘sgan va yashayotgan mamlakat urf-odatlarini hurmat qilishi *kerak.*

1. Har bir inson o‘zi tug‘ilib o‘sgan va yashayotgan mamlakat urf-odatlarini hurmat qilishi _____.
2. Har bir fuqaro qonunlarga rioya qilishi _____.
3. Aytishlaricha, bu yil yoz juda issiq bo‘lishi _____.
4. Huquqiy madaniyatni bolalikdan shakllantirish _____.
5. Sog‘lom bo‘lish uchun har kuni badantarbiya qilish _____.

3 **Tinglang.**

Hammurapi qonunlari.

186

lash tartibi aks ettirilgan. Bu qonunlar 282 moddadan iborat bo‘lgan. Ularni bajarish har bir fuqaro uchun, u kim bo‘lishidan qat’i nazar, majburiy hisoblangan. Qonunni buzgan shaxs qattiq jazolangan.

4. Matnga tayangan holda o‘quvchilar berilgan savollarga javob beradilar.

5. Konstitutsiya haqidagi matn o‘qitiladi, mazmuni tahlil qildiriladi.

6. Matndan tayangan holda gaplardagi nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun keltirilgan so‘zlardan mosi qo‘yilib, gaplar ko‘chirtiriladi:

*“Konstitutsiya” **so‘zi** lotincha “constitutio” so‘zidan kelib chiqqan va “tuzilish” **ma’nosini** bildiradi. Dunyodagi birinchi **Konstitutsiya** XVIII asrda qabul qilingan. Konstitutsiya davlatning asosiy **qonunidir.** Konstitutsiya hamma **qonunlarning** asosi hisoblanadi. U davlat tuzilishini, hokimiyatni qanday boshqarishni, saylov tizimini, fuqarolarning **huquq** va erkinliklari, mamlakatning sud tizimini belgilab beradi.*

7. Berilgan so‘zlarning izohi topilib, birgalikda daftarga yozdiriladi:

Ombudsman – inson huquqlarini himoya qiladigan shaxs.

Inson huquqlari – inson va jamiyat manfaatlarini aks ettiradigan tushuncha.

Vakil – ishonch bildirilgan, vakolat berilgan shaxs.

Qonuniylik – qonun doirasida bajariladigan harakat, holat.

Demokratizm – xalq manfaati.

Insonparvarlik – insonlar manfaatini ko‘zlash.

Adolatparvarlik – adolat bilan amalga oshiriladigan ishlar.

Mustaqil topshiriq. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” haqida ma’lumot topish va so‘zlashga tayyorlanish.

MEN HAQIMDA

Maqsad: mavzudan kelib chiqqan holda mustaqil fikrlay olish, mulohazalarini og‘zaki va yozma nutqda bayon eta olish, audiomatn, faktologik matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta hikoya qila olish, savollarga to‘liq va batafsil javob bera olish, rezyume tuzishni bilish.

Refleksiya: qonunlar, ularning jamiyatdagi o‘rni, qonunchilik bo‘lmaganda hayot qanday kechishi haqida suhbat o‘tkaziladi. “Inson huquqlari deklaratsiyasi” haqida topilgan ma’lumotlar tahlil qilinadi.

Vazifalar:

1. Huquqlar, qonunchilikka aloqador savollarga javob beriladi. Bunda javoblarning to‘liq, asosli ekanligiga e’tibor beriladi.

Diqqat qiling. Rezyume haqidagi nazariy ma’lumot o‘qib, o‘rganiladi. Rezyume tuzishning tartibi, undagi shartlarga o‘quvchilar diqqati qaratiladi.

2. Rezyume to‘g‘risidagi audiomatn eshittiriladi. Zamonaviy ish yuritish jarayonida rezyumening elektron shakli berilishi to‘g‘risida fikr yuritiladi:

Siz biror joyga ishga joylashish maqsadida borganingizda avval sizdan rezyume so‘rashadi. Bu hujjat orqali sizning bilimlaringiz va tajribangiz haqida taxmin qilib olishadi. Agar rezyumeda bergan ma’lumotlaringiz ish beruvchiga yoqsa, sizni suhbatga chaqirishadi va rezyumeda bergan ma’lumotlaringiz qanchalik to‘g‘ri ekanini bilib olishadi. Shuning uchun yaxshi tayyorlangan rezyume sizning qanchalik kerakli xodim ekaningizni tushunishga yordam beradi.



MAVZU

Men haqimda

1 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. O‘zbekiston fuqarolari necha yoshdan saylash huquqiga ega?
2. Qonunga ko‘ra, necha yoshdan ishga qabul qilish mumkin?
3. 18 yoshga to‘lmagan xodimlarning ish vaqti necha soatdan iborat?
4. Huquqni muhofaza qiluvchi qaysi organlarni bilasiz?
5. Detektiv janrda ijod qilgan yozuvchilardan kimlarni bilasiz?
6. Qaysi mashhur detektiv asarlarning qahramonlarini bilasiz?

Rezyume

Biror joyga ishga kirmoqchi bo‘lgan shaxs o‘zi haqidagi ma’lumotlarni aks ettiruvchi hujjat “rezyume” deyiladi. Rezyume bilan ish beruvchi tanishadi, shuning uchun bu hujjat mukammal tuzilishi kerak.

Rezyume qisqa hujjat bo‘lib, quyidagi ma’lumotlarni aks ettiradi:

1) nomzodning rasmi;
2) familiyasi, ismi, otaismi;
3) tug‘ilgan sanasi;
4) telefon raqami;
5) elektron pochta manzili;
6) ish tajribasi (qaysi joylarda qancha vaqt davomida qanday lavozimlarda ishlagan, qanday vazifalarni bajargan, qanday yutuqlarga erishgan);
7) ma’lumoti (qachondan qachongacha qaysi o‘quv yurtlarida o‘qigan), qo‘shimcha ravishda ta’lim olgani (treninglar, malaka oshirish kurslari, amaliyotlar);
8) kasbiy ko‘nikmalari (xorijiy tillar, maxsus kompyuter dasturlarini bilish darajasi, haydovchilik guvohnomasining mavjudligi);
9) shaxsiy ma’lumotlar (oilaviy ahvoli, yashash manzili, sevimli mashg‘ulotlari).

2 **Tinglang.**

188

Hozirgi zamonda rezyumeni internet tarmog‘ida onlayn shaklda to‘ldirish mumkin. Bunday rezyumeni to‘ldirish bepul va berilgan elektron manzilga yuborish mumkin. Rezyumeni turli kompaniyalarga yuborib, do‘stlaringiz yoki reklama orqali ish qidirishdan ko‘ra tezroq natijaga erishasiz. Rezyumeni o‘zingiz haqingizdagi ma’lumotlar bilan to‘ldirganingizdan so‘ng, siz o‘zingizning kuchli tomonlaringizni ko‘rasiz yoki yana nima ustida ishlashingiz kerakligini tushunib olasiz.

3. Rezyumeda bo‘lishi shart va bo‘lishi shart emas ma’lumotlar ikki ustunga ajratib yoziladi.

4. Namuna uchun berilgan rezyume shartlariga ko‘ra yozma ravishda to‘ldiriladi.

5. Rezyume va tarjimayi holning farqlari to‘g‘risidagi savollarga javob beriladi.

6. Berilgan to‘rt xil kasb egasi uchun rezyume tuzilib, yozdiriladi.

Mustaqil topshiriq. Yaqin kishilaridan birining rezyumesini tuzish.

ISTE’MOLCHI HUQUQI

Maqsad: o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha mustaqil fikrlarini og‘zaki va yozma nutqda bildira olish, matnlarni tinglab tushunish, o‘qib, qayta so‘zlab bera olish, savollarga to‘liq javob bera olish.

Refleksiya: huquqiy atamalar, inson huquqlari haqida savol-javob o‘tkaziladi, mustaqil topshiriq sifatida tuzilgan rezyumelar ko‘rib chiqiladi.

Vazifalar:

1. Iste’molchi va uning huquqlari to‘g‘risidagi savollarga javob beriladi.

2. Iste’molchi tushunchasi haqidagi audiomatn diqqat bilan tinglanadi. Odamlarning iste’molchi sifatida bilishi kerak bo‘lgan ma’lumotlari, iste’molchi huquqlari yuzasidan suhbat o‘tkaziladi:

Iste’molchilar – shaxsiy iste’mol yoki xususiy xo‘jalikda foydalanish maqsadida tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchilardir. Demak, biz kundalik hayotimizda ehtiyojimizni qondirish uchun savdo do‘konlaridan iste’mol tovarlarni sotib olganimizda bilan iste’molchi nomini olamiz. Boshqacha qilib aytganda, ushbu jarayonni oldi-sotdi shartnomasi deb hisoblash mumkin. Sotuvchi bizga sifatli tovar sotishi, buyurtmani tayyorlaydigan xodim esa ishni sifatli bajarishi shart. Bizning iste’molchi sifatidagi huquqlarimiz “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun”da belgilangan. Iste’molchining sifatli va xavfsiz tovar olish, tovar haqidagi barcha ma’lumotlarni olish huquqi, shuningdek, unga yetkazilgan zararning qoplanishini talab qilishga haqqi bor.

Iste’molchi o‘zi sotib olmoqchi bo‘layotgan tovar haqida, uni kim sotayotgani, uni qanday va qachon sotib olish mumkinligi haqidagi aniq ma’lumotlarni olish huquqiga ega.

Dunyoda har yili 15-mart kuni Butunjahon iste’molchilarni himoya qilish kuni nishonlanadi.



MAVZU **Iste’molchi huquqi**

1 **Savollarga javob bering. Gapiring.**

1. Iste’molchi kim?
2. Siz iste’molchi sifatida nimalarni iste’mol qilasiz?
3. Iste’molchilarning qanday huquqlarini bilasiz?

2 **Tinglang.**

3 **O‘ylang va toping. Yozing.**

Namuna. Iste’molchining huquqlari “*Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida*”gi qonunda belgilangan.

1. Iste’molchining huquqlari _____ da belgilangan.
2. Iste’molchi deb _____ shaxsga aytiladi.
3. Sotuvchi bizga _____, buyurtmani tayyorlaydigan xodim esa _____.
4. Bizning xarid qilayotgan tovarimiz haqida _____ bilish huquqimiz bor.
5. Dunyo bo‘yicha iste’molchilarni himoya qilish kuni _____ nishonlanadi.

4 **Gapiring.**

190

3. Matnga tayangan holda berilgan gaplardagi ochiq qolgan o‘rinlar kerakli ma’lumotlar bilan to‘ldirilib, gaplar ko‘chirtiriladi.

4. Rasmlardan foydalanib, topshiriqda keltirilgan yetti xil joy va vaziyatda iste’molchi sifatida nimalar qilish huquqiga egaligi hikoya qilib beriladi.

5. “Biz katta raqamlar dunyosida yashayapmiz” matni o‘qib, o‘rganiladi. Unda berilgan ko‘p xonali sonlarning nomlanishi haqida mulohaza yuritiladi.

6. Berilgan sonlar so‘z bilan ifodalanib, gaplar ko‘chirtiriladi. Qo‘shma son qismlarining har biri alohida yozilishi ta’kidlanadi: *Yerning radiusi olti ming to‘rt yuz kilometr. Yer ekvatorining uzunligi taxminan qirq ming kilometr. Yer sharining maydoni besh yuz o‘n million kilometr. Yerdan Quyoshgacha bo‘lgan o‘rtacha masofa bir yuz ellik million kilometr. Galaktikamizning diametri sakson besh ming yorug‘lik yili. Eramizning boshidan beri bir milliard soniyadan biroz ko‘proq vaqt o‘tdi.*

7. Foydalanish uchun berilgan so‘zlardan miqdor sonlar chap ustunga, tartib sonlar esa o‘ng ustunga yozdiriladi.

Mustaqil topshiriq. Miqdor sonlar ishtirok etgan o‘zbek maqollariga misollar yozish.

RAQAMLAR

Maqsad: mavzu doirasida o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma nutq ko ‘rinishida ifodalay olish, audiomatnni tinglab tushunish, faktologik matnni qayta hikoya qila olish, savollarga to‘liq va asosli javob bera olish, miqdor son turlarini og‘zaki va yozma nutqda o‘rinli va to‘g‘ri qo‘llay olish.

Refleksiya: raqamlar dunyosi, iste’molchi huquqlari, imkoniyatlari haqida savol-javob o‘tkaziladi. Mustaqil topshiriq sifatida topilgan o‘zbek xalq maqollari, ularning mazmuni tahlil qilinadi.

Vazifalar:

1. Berilgan gaplardagi sonlar so‘zlar bilan ifodalanib, yozdiriladi. Qo‘shma sonlar qismlarining alohida yozilishiga e’tibor qaratiladi.

Diqqat qiling. Miqdor son turlari haqidagi grammatik ma’lumot o‘qib, o‘rganiladi. Sanoq son, dona son, jamlovchi son, chama son, kasr son, taqsim son ishtirokida gaplar tuzdiriladi.

2. Raqamlar haqidagi audiomatn eshittiriladi. Bunda o‘qituvchi yo audiodan foydalanishi, yoki matnni o‘zi o‘qib berishi mumkin. Matn mazmuni tahlil qilinadi, qayta hikoya qilinadi:

Biz hammamiz 0 dan 9 gacha raqamlarni bilamiz. Ular qanday paydo bo‘lgan? Kundalik hayotimizda ko‘p qo‘llaydigan 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 va 9 raqamlari nima uchun bunday nomlanadi? Keling, tarixga murojaat qilaylik.

Qadim zamonlarda ham odamga hisob kerak edi. Hatto hali harflar va raqamlar paydo bo‘lmasdan, qadimgi odam ikki yoki besh nima ekanini bilmaganida, u o‘ljani bo‘lish, ov qilish uchun odamlar sonini aniqlash va boshqa ko‘plab oddiy amallarni bajarishi kerak edi.



Mustaqil topshiriq

Miqdor sonlar ishtirok etgan o‘zbek maqollariga misollar yozing.

Namuna. Yetti o‘lchab, bir kes.

MAVZU **Raqamlar**

1 **Yozing.**

Namuna. Qishda biror yalanglikda tunash uchun yig‘iladigan qarg‘alar to‘dasida *ikki yuz mingtagacha* qarg‘a bo‘lishi mumkin.

1. Qishda biror yalanglikda tunash uchun yig‘iladigan qarg‘alar to‘dasida 200000 tagacha qarg‘a bo‘lishi mumkin.
2. Daraxtlar orasida eng balandi evkalipt bo‘lib, uning balandligi 150–160 metrgacha bo‘lishi mumkin.
3. Kitob 480 sahifadan iborat edi. Unda 34 ta rasm va 29 ta chizma bor edi.
4. Bortida 468 nafar yo‘lovchi bo‘lgan samolyot Toshkentga qo‘ndi.
5. 976 dan 382 ni ayirsak, 594 qoladi.

Miqdor sonlar → *qancha?, necha?*

Predmetlarni sanash, donalash, taqsimlash

- **Miqdor son + hisob so‘zlari:** *sinfimizda yigirma olti nafar o‘quvchi bor.*
- **Miqdor son + miqdor son:** *bitta-bitta, o‘n-o‘n besh.*
- **Miqdor son + -lar:** *soat uchlar atrofi edi.*
- **Uchdan bir, to‘rtdan uch:** *1/3, 3/4.*

2 **Tinglang.**

192

Dastlab u qo‘llarini ishlatgan, ba’zan esa oyoqlarining barmoqlari yordamida miqdorni ko‘rsatgan. “Uni besh qo‘limday bilaman” degan gapni eshitganmisiz? Bu gap o‘sha uzoq vaqtlarda paydo bo‘lgan. Sanoq uchun birinchi bo‘lib barmoqlardan foydalanilgan.

Asrlar o‘tdi, hayot davom etaverdi, hamma narsa o‘zgardi. Endi odamlarga barmoqlarning o‘zi yetarli bo‘lmay qoldi. Raqamlar oshib boraverdi, ularning miqdorini bir xilda ushlab turish qiyin edi, ularni qandaydir tarzda belgilash va yozish kerak edi. Raqamlar shunday paydo bo‘ldi. Bundan tashqari, qadimda turli mamlakatlarda yashagan xalqlar o‘zlarining raqamlari tizimini o‘ylab topdilar. Avvaliga misrliklar, keyin yunonlar va rimliklarning raqamlari paydo bo‘ldi. Rim raqamlarini biz ham ba’zan ishlatamiz. Biroq eng ko‘p tarqalgan va bugungi kungacha qo‘llanadigan raqamlar Hindistonda V asr boshida ixtiro qilingan.

Nima uchun biz o‘rgangan, Hindistonda ixtiro qilingan raqamlar "arab raqamlari" deb ataladi? Arab mamlakatlarida faol qo‘llana boshlangach, bu raqamlar dunyoga keng tarqaldi. Arablar hind raqamlarini olib, ularni biroz o‘zgartirdilar. Dunyoga mashhur arab raqamlarining ommalashib ketishiga yordam berganlar orasida fransuz Aleksandr de Vilye, ingliz o‘qituvchisi Jon Galifaks va Sharq mamlakatlariga tez-tez sayohat qilib, arab olimlari asarlarini o‘rgangan mashhur italiyalik matematik Fibonachchi ham bor edi.

3. Matnga tayangan holda gaplardagi bo‘sh qolgan o‘rinlar to‘ldirilib, yozdiriladi.

4. Raqamlar dunyosiga bag‘ishlangan faktlar o‘qib, o‘rganiladi. “Men uchun yangilik hisoblangan ma’lumot”, “Eng qiziqarli fakt” ruknlarida suhbat yuritiladi.

5. Tarmoqlarda ko‘rsatilgan sonlar so‘z bilan ifodalanadi. Ular ishtirokida gaplar tuzdiriladi.

Mustaqil topshiriq. Jahon adabiyotidan nomida raqamlar ishtirok etgan asarlarni topib, ularning sarlavhasi, muallifi, shunday nomlanish sababini yozish.

TURFA OLAM

Maqsad: mavzuga aloqador ma’lumotlar bo‘yicha o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma nutq shaklida ifodalay olish, audiomatnni tinglab tushunish, faktologik matnni nutqiy ko‘nikmada qo‘llay olish, miqdor-daraja ravishini og‘zaki va yozma nutqda o‘rinli va to‘g‘ri qo‘llay olish, savollarga to‘liq va asosli javob bera olish.

Refleksiya: raqamlar dunyosi, ular tarixi haqida suhbatlashiladi, “raqamli iqtisodiyot” tushunchasiga munosabat bildiriladi, mustaqil topshiriq tekshirib, tahlil qilinadi.

Vazifalar:

1. Aralash berilgan gaplar tartibga solinib, yozdiriladi:

Yakshanba kuni bozorga bordim. O‘zimga o‘quv qurollari va bir qancha kitoblar sotib oldim. Beshta kitob, o‘nta ruchka, o‘nta qalam, qirqta har xil daftar oldim. Uyimga ikkita avtobusda qaytib keldim, yukim ancha og‘ir edi. Uyga borib qarasam, kitoblardan birining cheti sal yirtilgan, yozuvlari biroz o‘chgan. Ruchkalarimdan biri nihoyatda bo‘yab yozar ekan. Xarid qilgan narsalarimni joyida tekshirib olmaganimga afsuslandim.



MAVZU **Turfa olam**

1 O‘ylang va toping. Yozing.

1	Yakshanba kuni bozorga bordim.
2	
3	
4	
5	
6	
7	

- Uyga borib qarasam, kitoblardan birining cheti sal yirtilgan, yozuvlari biroz o‘chgan.
- Beshta kitob, o‘nta ruchka, o‘nta qalam, qirqta har xil daftar oldim.
- Xarid qilgan narsalarimni joyida tekshirib olmaganimga afsuslandim.
- ~~Yakshanba kuni bozorga bordim.~~
- Uyimga ikkita avtobusda qaytib keldim, yukim ancha og‘ir edi.
- O‘zimga o‘quv qurollari va bir qancha kitoblar sotib oldim.
- Ruchkalarimdan biri nihoyatda bo‘yab yozar ekan.

Nechta? Qancha?	*Qay darajada? Qanchalik?*
Beshta	Ancha

2 O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna. Men hikoyadagi kabi vaziyatga tushsam, _____.

Miqdor ravishi → *qancha?* → *harakat yoki predmetning noaniq miqdori:* ***ko‘p, kam, oz, biroz, sal, picha, xiyol.***

Daraja ravishi → *qay darajada?* → *harakat va belgi ma’nosi kuchayadi:* ***juda, g‘oyat, nihoyatda, aslo, obdan, ozmuncha.***

194

Gaplardagi sonlar chap ustunga, miqdor ravishlari o‘ng ustunga qo‘yib ko‘chirtiriladi.

2. Hikoyadagi vaziyatga munosabat bildiriladi. “Men hikoyadagi kabi vaziyatga tushsam” jumlasini o‘quvchilar og‘zaki davom ettiradilar, bu borada o‘z mulohazalarini bayon qiladilar.

Diqqat qiling. Miqdor-daraja ravishlari haqidagi nazariy ma’lumot o‘qib, o‘rganiladi. Miqdor ravishlari va daraja ravishlari ishtirokida gaplar tuzdiriladi, ular orasidagi tafovut tushuntiriladi.

3. Chap ustundagi ravishlarga o‘ng ustundagi ravishlardan mazmunan mos keladiganlari tanlanib, sinonim juftlik tarzida yozdiriladi.

4. “Sovun pufagi shakli nega dumaloq?” audiomatni ikki marta eshittiriladi. Qayta hikoya qildiriladi, mazmuni tahlil qilinadi.

Sovun pufagi shakli nega dumaloq?

Bu savolning javobini tabiatdan topish mumkin. Masalan, yomg‘ir tomchisi dumaloq, ko‘plab mevalar ham dumaloq. Hatto ona sayyoramiz, Quyosh, Oy va yulduzlar ham dumaloq... Xullas, tabiatdagi narsalar uchun dumaloqlik – eng qulay shakl. Sovun pufagi ham shishish davomida o‘ziga eng qulay shaklni tanlab oladi. Shu shaklda uning ichidagi havo bosimi pufak devorlari bo‘ylab teng taqsimlanadi. Havoning bir xil bosimi pufakning uzoq vaqt yorilmay turishini ta’minlaydi.

Sovun pufaklarining sirini bilish uchun ularni ming marta kattalashtirib ko‘rish kerak. Bunday pufak “devor”lari oddiy qog‘ozdan bir necha yuz barobar yupqa bo‘ladi. Lekin shu yupqa “devor” ham uch qavatli pardadan iborat. Birinchi pardani sovun molekulalari, ikkinchi pardani suv, uchinchi pardani esa yana sovun molekulalari tashkil etadi. Demak, suv qatlamini sovun molekulalari 2 tomondan tutib turadi.

(“Jajji akademik” jurnalidan olindi)

5. Matndan foydalanib, gaplardagi bo‘sh qolgan o‘rinlar kerakli so‘z va so‘z birikmalari bilan to‘ldirilib, yozdiriladi.

Mustaqil topshiriq. Tanish bo‘lgan yo‘nalish (marshrut) ni A nuqtadan B nuqtagacha tasvirlash. Daraja-miqdorni bildiruvchi so‘zlardan foydalanish.

100-DARS. YAKUNIY NAZORAT

101-DARS. XATOLAR USTIDA ISHLASH

102-DARS. MUSTAHKAMLASH

O‘ZBEK TILI

10

O‘QITUVCHILAR UCHUN METODIK QO‘LLANMA

(Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablar uchun)

Muharrir *Mansur Siddiqov*
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Musahhih *Nilufar Esanova*
Sahifalovchi-dizayner *Alimardon Aqilov*

Bosishga 09.12.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$.
Arial garniturasi. Kegli 12. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i ___. Nashriyot-hisob tabog‘i ___.
Adadi ____ nusxa. Buyurtma № ___.